

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK -TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**A.B. NIZAMOV, SH.A. RAXMATOV**

**OLIV TA’LIM MUASSASALARIDA  
INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISH  
(o‘quv qo‘llanma)**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan  
5A340101-“Bino va inshootlar arxitekturasi” mutaxassisligida tahsil olayotgan  
magistrlar uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**BUXORO – 2020**

UDK: 338.24.

BBK 65.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish. Nizamov A.B., Raxmatov Sh.A- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «.....», 2020. - 215 b. ISSN: .....

**Taqrizcilarlar:**

- D.SH.Yavmutov – BuxDU, “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti dekani, i.f.n., dots.
- A.CH. Boboyev - BuxMTI, “Menejment” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishdan asosiy maqsad magistratura talabalariga innovatsion va tadbirkorlik faoliyatning asosiy vositasi sifatida transfer g'oyasini, bilimlar va texnologiyalarni uzatish mohiyatini hamda transfer jarayonida foydalaniladigan modellar, uslublar va dastaklarni o'rgatish, bo'lajak pedagog va rahbar xodim bo'lib tayyorlanadigan magistratura talabalariga ular faoliyat olib boradigan ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida yangiliklarni izlash, uni joriy etish, innovatsiyalarni boshqarish, innovatsion-tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, texnologiyalarni tijoratlashtirish va transfer qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan yordamlashishdan iboratdir. O'quv qo'llanmada, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy xususiyatlari va modellari, innovatsion – tadbirkor universitetlar konsepsiyasining nazariyasi va metodologiyasi, yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim muassasasida innovatsion-tadbirkorlik muhitini rivojlantirish yo'nalishlari bayon etilgan.

Основной целью данного учебного пособия является обучение студентов магистратуры идеям трансфера, как основного инструмента инновационной и предпринимательской деятельности вуза, моделям, методам и средствам поддержки, используемым при передаче знаний и технологий, оказание практической помощи магистрам, являющимися будущими педагогами и руководителями, в поиске новшеств в учебных заведениях и на промышленных предприятиях, где они осуществляют деятельность, внедрению инноваций, в управлении инновациями, в организации и развитии инновационно-предпринимательской деятельности, а также процессов коммерциализации технологий и трансфера знаний, В учебном пособии описаны основные особенности и модели современных высших учебных

заведений, теория и методология инновационно-предпринимательских университетов, направления развития инновационно-деловой среды в учреждениях высшего образования в новом Узбекистане.

The main purpose of this training manual is to teach graduate students the ideas of transfer, as the main instrument of innovative and entrepreneurial activity of the university, the models, methods and means of support used in the transfer of knowledge and technology, to provide practical assistance to masters who are future teachers and leaders in finding innovations in educational institutions and industrial enterprises where they carry out activities, the introduction of innovations, in the management of innovations, in the organization and development and innovative entrepreneurial activity, as well as the processes of commercialization of technology and the transfer of knowledge. The training manual describes the main features and models of modern higher education institutions, the theory and methodology of innovative entrepreneurial universities, the directions of development of the innovative business environment in higher education institutions in new Uzbekistan.

© Nizamov A.B. - 2020

© Raxmatov Sh.A.- 2020

© «Durдона nashr.» - 2020

## **KIRISH**

### **"Tadqiqot pulni bilimga aylantiradi. Innovatsiya bilimni pulga aylantiradi"**

**Rey Mirs**

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va uning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi 2018 yil 5 iyundagi PQ 3775 sonli qaroriga Oliy ta'lim tizimining rivojlanishidagi qator kamchiliklar tahlil qilinib, bugungi kun talablariga javob bermasligi va tub islohotlarga muhtojligi ko'rsatib o'tildi. Qarorga muvofiq oliy ta'lim kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi oldida dolzarb yangi vazifalar qo'yildi.

Innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy shart sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish belgilandi.

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni, ish beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim mazmuni variativligi va o'qitishni tabaqalashtirishni rivojlantirish, pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari turini buyurtmaga muvofiq kengaytirish, pedagoglarning ijodkorlik va tadqiqot faoliyatini oshirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda birgalikda amalga oshirish, ta'lim standartlari talablarini xalqaro malaka talablariga muvofiqlashtirish, mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llab oliy ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlashni taqozo etadi.

Buning uchun oliy ta'lim muassasalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy muhit o'zgarishlariga innovatsion tarzda moslashishi talab etiladi. "Moslashish jarayoni qanday amalga oshirilishi kerak? Qanday ta'lim innovatsiyalarini joriy etish kerak? Ta'lim muassasalarida qanaqa o'zgarishlarni amalga oshirish kerak? degan savollar oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarini qiziqtirishi tabiiy.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish har bir ta'lim muassasining hududiy (iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi, hududda ta'lim olish qulayligi, ta'lim muassasasining hududdagi mavqei va boshqalar) hamda ichki (ma'muriy boshqarish tizimi, jamoaning shakllanganligi, qabul shartlari va kontingenti, ta'lim muassasasining jalb etuvchanligi, uning an'ana va urf odatlari, madaniyati va boshqalar) xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Demak, faoliyat yuritayotgan har bir ta'lim muassasasi tegishligiga qarab turi va xususiyatlariga muvofiq ravishda o'z innovatsion o'zgarish yo'lini tanlashi lozim bo'ladi.

Xorijiy davlatlarda o'tkazilgan ta'lim islohotlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zgarayotgan muhitga moslashish bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini to'rt asosiy uslubga ajratish mumkin: passiv moslashish, faol moslashish, o'zgarishlarda yetakchi bo'lish va islohot etish.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarga asoslangan o'zgarishlarni ta'lim muassasalarida amalga oshirish jarayoni turlicha kechmoqda. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim ta'lim muassasalari bo'lajak islohotlarning mohiyatini haligacha to'liq anglamasdan, boqimandalik kayfiyatida, "yuqorida" ular bo'yicha qaror qabul qilinishini, kimdir ular uchun o'zgarishlarni amalga oshirishni kutish pozitsiyasini egallab turibdi. Bunday pozitsiya, hatto o'zgarishlarga passiv moslashish usuliga ham to'g'ri kelmaydi. Mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni maqsad qilib olgan ta'lim muassasasi ildam yoki yetakchi hamda islohot etish uslubida kelajakka moslashishni amalga oshirishi va nafaqat oliy ta'lim kelajagini baholash va bashoratlash asosida yangi pedagogik tizimni yaratishga, muhitdagi o'zgarishlarga moslashishga, balki o'z atrof muhitiga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladigan darajada bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun, ta'lim

muassasalari pedagogik jamoaning salohiyatiga, joylashgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotidagi oʻrni va imkoniyatlariga, mutaxassis tayyorlanadigan tegishli tarmoq rivojlanish istiqbollariga muvofiq ravishda innovatsion faoliyatini amalga oshirishlari lozim.

Mazkur oʻquv qoʻllanmani yaratishdan asosiy maqsad oliy taʼlim tizimi rahbar va pedagog kadrlariga oʻz taʼlim muassasalarida yangiliklarni izlash va joriy etish, innovatsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirishda amaliy tavsiyalar bilan yordamlashishdan iboratdir.

Oʻquv qoʻllanmaning birinchi bobi bilim va ularni boshqarishga oid turli manbalarda uchraydigan bir qator foydali tushunchalarga izoh berishdan boshlanadi. Soʻng, innovatsion faoliyatning asosiy vositasi sifatida, transfer gʻoyasi, bilimlar va texnologiyalarni uzatish hamda transfer jarayonida foydalaniladigan modellar, uslublar va dastaklar keltirilgan. Shuningdek, taʼlim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil qilish uchun zarur boʻlgan bilimlar transferi ofisining asosiy maqsadlari, bilimlar brokeri, pedagogik innovatikaning maqsad va mohiyati haqida maʼlumotlar berilgan.

Ikkinchi bob oliy taʼlim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etadi. Unda zamonaviy oliy taʼlim muassasalari faoliyati xususiyatlari va modellari, innovatsion – tadbirkor universitetlar konsepsiyasining nazariy, metodologik va ilmiy taʼminoti, bilim va texnologiyalarga nisbatan “tijoratlashtirish” va “transfer” tushunchalarini talqin qilishdagi asosiy ilmiy yondashuvlar, innovatsion – tadbirkor universitetlar rivojlanishining xorijiy tajribasi keng yoritilgan.

Oʻquv qoʻllanmaning uchinchi bobi yangi Oʻzbekiston sharoitida oliy taʼlim tizimini innovatsion rivojlantirish masalalariga bagʻishlangan boʻlib, bugungi rivojlanish bosqichida oliy taʼlim tizimida innovatsiyalarning zarurligi, oliy taʼlim muassasalarining asosiy innovatsion faoliyati yoʻnalishlari, yangi maqsad va vazifalarga muvofiq oliy taʼlim muassasalariga tavsiya etiladigan harakatlar, taʼlim muassasalarida innovatsiyalarni joriy etishni tashkil etish boʻyicha tavsiyalar berilgan.

O'quv qo'llanmaning ilovalarida oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayonida foydali bo'lgan bir qator ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu qo'llanmada keltirilgan materiallar nafaqat oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari, balki rivojlanayotgan xususiy ta'lim sektori va nodavlat notijorat tashkilotlar mutaxassislari, innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha o'z bilimlarini kengaytirishni xoxlovchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

# I. BOB. BILIMLAR TRANSFERI, INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH–ASOSIY TUSHINCHA VA TAMOYILLAR.

## 1.1. Innovatsiyalarni boshqarishda ma'lumot, axborot, bilim tushunchalari.

*Tayanch soʻz va iboralar:* bilimlar transferi, ma'lumot, axborot, bilim, harflar qisqartmasi, MABD Piramidasi, tushunish, donolik, aniq va yashirin bilimlar, bilimlar tabiatini tavsiflash, bilimni ifodalash, "nou-xau" atamasi, tajriba natijalari, sinovlar paketi.

Innovatsiyani tushunib olishdan avval, bilimlar transferi boshlanadigan asosiy tushuncha va ta'riflardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada ma'lumotlar, axborot va bilimlar eng oddiy va muhim tushunchalar ekanligi ravshandir.

### **Biznes lugʻatiga koʻra:**

*ma'lumot*<sup>1</sup>: "Ishlov berilmagan yoki tartibga keltirilmagan shakldagi (masalan, harflar, raqamlar yoki belgilar) axborot boʻlib, sharoit, gʻoya yoki ob'ektni ifodalaydi yoki ularga aloqador boʻlishi mumkin. Ma'lumotlar cheksiz va koinotning hamma joyida mavjud".

*axborot*<sup>2</sup>: (1) "aniq va ayni vaqtdagi, (2) ma'lum maqsad uchun lo'nda belgilangan va tashkillashtirilgan, (3) mazmunan unga ma'no va dolzarblilik beradigan va (4) anglab olishni rivojlantirishga hamda tushunmovchilikni kamaytirishga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir".

*bilim*<sup>3</sup>: "axborotning inson tomonidan talqin etilgan faoliyat natijasi; ma'lumot, axborot, tajriba va shaxsiy talqinlar uyg'un birikmasi natijasida shakllanadigan fahmlashdir".

*Robert Dj. Teraf (1999) uch komponentni quyidagicha ifodalaydi: ma'lumot strukturlanmagan shakl va dalillar majmui bo'lib, u eng quyi nuqta; axborot keyingi bosqich va u strukturlangan ma'lumot; va nihoyat so'ngi bosqich bilim bu "axborot haqidagi axborot"*<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> BUSINESSDICTIONARY: <http://www.businessdictionary.com/definition/data.html#ixzz3SgnGRKQZ>,

<sup>2</sup> BUSINESSDICTIONARY: <http://www.businessdictionary.com/definition/knowledge.html#ixzz3SgojGBHD>

<sup>3</sup> BUSINESSDICTIONARY: <http://www.businessdictionary.com/definition/information.html#ixzz3SgoJVUO5>


<sup>4</sup> Robert J. Thierauf, Systems Analysis and Design of Real-Time Management ... Management Systems for Business (Westport, CT: Quorum Books, 1999).



Mazkur iboralar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalovchi eng mashxur ierarxiyalardan **MABD Piramidasi** (DIKW Pyramid) bo‘lib, u yana "Donolik ierarxiyasi", "Bilimlar ierarxiyasi" sifatida ham yuritiladi.

Bunda MABD bosh harflar qisqartmasi bo‘lib, **Ma’lumot – Axborot - Bilim – Donolik** tushunchalarini ifoda etadi.

MABD Piramidasiga muvofiq Akoff o‘zining "Ma’lumotdan donolik sari" maqolasida bilimning har bir toifasini quyidagicha ta’riflaydi<sup>5</sup>:



### 1.1 - Rasm. MABD Piramidasi (DIKW Pyramid)

1) **Ma’lumotlar** kuzatuv mahsuli sifatida olingan belgilardir. Bu belgilar agar qo‘llaniladigan shaklga aylantirilsa, dolzarb va foydali bo‘lishi mumkin.

2) **Axborot** tavsiflar mazmunida aks etadi, masalan, kim, nima, qachon va qancha kabi savollar javoblarida. Axborot ma’lumotlar asosida olinadi.

3) **Bilim** bu nou-xau (bilaman qanday) hisoblanadi va axborotni ko‘rsatmalarga (instruksiya) aylantirish imkonini beradi.

4) **Tushunish:** "nimaga" ekanligini anglab olish.


<sup>5</sup> Ackoff "From Data to Wisdom"

<http://fournier.facmed.unam.mx/ib1/2013/students/files/u2/FromDataWisdomAckoff.pdf>

5) **Donolik** - bu samaradorlikni oshirish qobiliyati. Donolik ma'noga ma'no qo'shadi, qiymatni oshiradi va shuning uchun donolikka ega bo'lish shaxsiy mulohaza va fikrni talab etadi.

Shuningdek, MABD blok-sxema<sup>6</sup> shaklida ham 1.2.- rasmda berilgan.

Diagrammaga ko'ra, dastlabki to'rtta kategoriya o'tmishga tegishli va ular oldin sodir bo'lgan yoki allaqachon ma'lum bo'lgan narsalarni tavsiflaydi. Faqatgina beshinchi kategoriya, donolik, kelajak bilan bog'liq bo'lib, oldinni ko'rish, g'oya, xayol, reja, loyiha va dizaynni o'z ichiga oladi<sup>7</sup>.



1.2 - Rasm. MABD ierarxiyasi blok-sxemasi.

**Bilimning tabiati ko'plab jihatlarga va o'lchovlarga ega.**

Bilim tushunchasi **aniq (explicit)** va **yashirin (tacit) bilimlar** toifasiga bo'linadi.

<sup>6</sup> Liew, Anthony (June 2007). "[Understanding Data, Information, Knowledge And Their Inter-Relationships](#)". *Journal of Knowledge Management Practice* 8 (2). Retrieved 7 January 2009.

<sup>7</sup> Data, Information, Knowledge, and Wisdom by Gene Bellinger, Durval Castro, Anthony Mills <http://www.systems-thinking.org/dikw/dikw.htm>

## Aniq va yashirin bilimlar farqi.

| Aniq bilimlar  | Yashirin bilimlar  |
|--|--|
| <p>Aniq, ochiq bilimlar rasmiy va tizimli xarakterga ega. Ularni oson uzatish va ular bilan almashish mumkin. Odatda, ular hujjatlashtirilgan bo'ladi. Rasmiylashtirilgan bilimlar so'z, raqam, kod, matematik va ilmiy formula yoki musiqiy notalar orqali ifodalanishi hamda yozilishi mumkin.</p> <p>Aniq bilimlar oson uzatiladi, saqlanadi va tarqatiladi, Bunday bilimlarni kitob, internet va boshqa ko'rish va eshitish vositalari orqali topish mumkin. Aniq bilimning qarama-qarshi shakli yashirin bilim.</p> | <p>Yashirin, yopiq bilimni oson ifodalash qiyin. Ular juda shaxsiy, yakka individgagina tegishli bo'lib, ularni rasmiylashtirish va boshqa bilimlar bilan uyg'unlashtirish oson emas. Shuningdek, ularni egallash ham mushkul.</p> <p>Muammo, yashirin bilimlarning ayrimini egallash qiyinligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning qaysi elementlarini to'g'ridan-to'g'ri egallash va ularni aniq bilimlarga aylantirish mumkinligini belgilab olishdan iborat. Egallanmaydigan yashirin bilimlarni o'zlashtirish yo'li, yashirin bilim egasi bilan bilim egallashga intiluvchilarni bog'lashdir.</p> |

Aniq bilimlar tabiati ularning insonlar, mualliflar ishtirokisiz ham uzatilishidadir. **Ta'lim muassasalari va ishlab chiqaruvchilar** o'rtasida uzatilayotgan aniq bilimlar ma'lumotlar bazasi, hujjat, sertifikat, patent, ilmiy maqola, tadqiqot, ishlanmalar va boshqa shu kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Yashirin bilimlar – bu insonlarning ko'nikma va tajribasi hisoblanadi. Bu bilimlar hech qaerda yozilmagan va insonlarning fikrida, miyasida bo'lganligi sababli ularni tushunish qiyin. Bu bilimlar insonning faoliyati davomida va tadqiqotlar natijasida egallanadi va yozma yoki chizmalar shaklida uzatish imkoni mavjud emas. Yashirin bilimlar insonlarda mujassam bo'lib, ularning yordamisiz, ishtirokisiz bilimlarni uzatish mumkin emas<sup>8</sup>.

Yuqorida aytganimizdek, bilimlar tabiatini tavsiflashning turli shakllari mavjud. Ulardan yana biri bilimni **fanlararo** va **yakka fan** turlariga ajratishdir. Ko'p

<sup>8</sup> The different channels of university-industry knowledge transfer: Empirical evidence from Biomedical Engineering  
Reginald Brennenraedts, Rudi Bekkers & Bart Verspagen, January 2006,  
[http://home.tn.tue.nl/rbekkers/brennenraedts\\_bekkers\\_verspagen\\_dime\\_lausanne06.pdf](http://home.tn.tue.nl/rbekkers/brennenraedts_bekkers_verspagen_dime_lausanne06.pdf)

tarmoqli tadqiqotlar ko‘plab fanlarni talab etadi, masalan, texnologiya sohasidagi muhandis fizika, mashinasozlik, materiallar texnologiyasi, elektrotexnika, aerodinamika va shu kabi boshqa fanlar haqida tushunchalarga ega bo‘lishi lozim. Matematika, elektrotexnika va boshqa shu kabi fan soxalaridan yakka fan bilimlari osongina topilishi mumkin.

*Bilimni turlarga ajratishning uchinchi va so‘nggi shakli tadqiqotlarning fundamental va amaliy xarakterga ega ekanligi bilan bog‘liq. "Fraskati qo‘llanmasi"ga (OECD 1994) muvofiq bilimlarni fundamental, amaliy va eksperimental tadqiqotlarga ajratish mumkin. Fundamental tadqiqotlar bizni o‘rab turgan dunyoni tushunishga yo‘naltiriladi. Amaliy tadqiqotlar amalda foydalanish mumkin bo‘lgan reallik bilan bog‘liq bilimlarni yaratishga qaratilgan, masalan artefaktlarga. Bilimning so‘nggi eksperimental shakli muayyan bir o‘zgaruvchining boshqa bir o‘zgaruvchiga ko‘rsatadigan samarali ta‘sirini aniqlashdan iborat’.*

Bilimni ifodalashning yana bir qiziqarli ta‘riflaridan biri uni **Lundvall va Yoxanson tomonidan turkumlarga ajratish** shaklidir. Ular bilimlarni farqlashning o‘zlari yaratgan turlarini taklif etishgan: **know-what, know-why, know-how, know-who.**

## 1.2- Jadval.

### Lundvall va Yoxanson taklif etgan bilim tushunchalari.

| BILIM            |                 |                 |                 |
|------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| <b>know-what</b> | <b>know-why</b> | <b>know-how</b> | <b>know-who</b> |

***Know-what** "faktlar" to‘g‘risidagi bilimni anglatadi. Bu o‘lchamdagi bilimlar odatda axborot deb ataladi, shuning uchun ularni yanada mayda toifalarga ajratish ham mumkin.*

***Know-why** inson tafakkuri va jamiyatga aloqador tabiatdagi harakat tamoyillari va qonunlari to‘g‘risidagi bilimlarni anglatadi. Bilimning bu turi*

<sup>9</sup> The different channels of university-industry knowledge transfer: Empirical evidence from Biomedical Engineering  
Reginald Brennenraedts, Rudi Bekkers & Bart Verspagen, 2006,  
[http://home.tn.tue.nl/rbekkers/brennenraedts\\_bekkers\\_verspagen\\_dime\\_lausanne06.pdf](http://home.tn.tue.nl/rbekkers/brennenraedts_bekkers_verspagen_dime_lausanne06.pdf)

sanoatning turli sohalarini texnologik rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu kabi bilim odatda yutuqlarni turli texnologiyalarga kamroq xatoliklar evaziga tadbiq etish imkonini beradi.

Shuningdek, **know-how** nimanidir qilib bilish ko'nikmeksiga ega ekanligini bildiradigan bilimga tegishli. Bilimning bu shakli, odatda, alohida shu faoliyat bilan shug'ullanadigan bir firma yoki tadqiqot guruhiga tegishli bo'ladi.

**Know-who** kim nimani bilishi va kim nima qilishni bilishi haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Bu aspekt turli xil odamlar va mutaxassislar bilan hamkorlik va muloqot qilishning ijtimoiy imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi<sup>10</sup>.

Xususiy sektor nuqtai-nazariga ko'ra, bilimning nou-xau shakli eng qimmatlisi hisoblanib, u ta'lim muassasalari va kompaniyalar o'rtasida transfer jarayonlarining asosiy qismi sanaladi.

Maxsus adabiyotlarda "**nou-xau**" atamasi texnik yoki notexnik bilim va tajribalar sifatida talqin qilinib, biznes jarayoniga amaliy tadbiq etish potensiali yoki real imkoniyatlarini aniqlash va tasvirlab berish qobiliyati sifatida tavsiflanadi.

Shunday qilib "**nou-xau**" huquqiy himoya talab etadigan kompaniyaning muayyan tajriba, yutuq va muvafaqqiyatlari hisoblanadi.

2004 yil 7 apreldagi **Yevropa Ittifoqi 772/2004 sonli Nizomining** 81(3) moddasidagi Texnologiyalar transferi bo'yicha kelishuv darajalari to'g'risidagi shartnomasiga muvofiq, **nou-xau** patentlanmagan amaliy ma'lumotlar, tajriba natijalari va sinovlar paketini anglatadi va unga quyidagilar kiradi:

- maxfiy, ya'ni, odatda, noma'lum yoki oson qo'lga kiritish mumkin bo'lmagan,
- muhim, ya'ni shartnoma bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish uchun kerakli va foydali bo'lgan,
- aniqlashtirilgan, ya'ni yetarli darajada keng qamrovli tarzda tavsiflangan, shuningdek, uning muhimlik va maxfiylik mezonlariga to'g'ri kelishini tekshirish imkonini beruvchi shaklda bayon etilganligi.

**Nou-xau** o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

---

<sup>10</sup> [Knowledge and Innovation Transfer in Latvia, Aalborg University, Sanita Sampane, August 2010](#)

- mijozlarga xizmat ko'rsatish;
- inson resurslarini boshqarish tizimi;
- buyurtmalar tizimi;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish usullari;
- o'ziga xos ijtimoiy aloqalar (PR) strategiyasi;
- kontaktlar ma'lumot bazasi;
- ma'lumotlarni arxivlash tizimi<sup>11</sup>.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsiyani tushunib olishdan avval, bilimlar transferi boshlanadigan asosiy tushuncha va ta'riflardan boshlash maqsadga muvofiqdir, deyдилar. Siz nima deb o'ylaysiz? O'z fikringizni bildiring.
2. Biznes lug'at deganda nimani tushinasiz? Izohlab bering.
3. MABD Piramidasi deganda nimani tushinasiz? Tushintirib bering.
4. MABD blok-sxema shakliga izoh bering.
5. Aniq va yashirin bilimlar nima bilan farq qiladi?
6. "**Nou-xau**" atamasiga izoh bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati -T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" -"Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whYTECHTRANS>

---

<sup>11</sup> <http://www.businessdictionary.com/definition/know-how.html>

6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

## **1.2. Innovatsiyalar tushunchasi va ularni boshqarish, bilimlar va texnologiyalar transferi mexanizmi. Innovatsiyalar tushunchasi.**

*Tayanch soʻz va iboralar:* texnologiyalar transferi, innovatsiya, Davlat sektori, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, mahsulot, jarayon, marketing innovatsiyalari, tashkiliy innovatsiya, innovatsiyaning asosiy bosqichlari, ijtimoiy innovatsiyalar, innovatsion tizim diagrammasi, innovatsiya toʻsiqlari, bilimlar uchburchagi.

Texnologiyalar transferi haqida gapirar ekanmiz, oʻz novbatida bilim/texnologiya transferining barcha jarayonlari bilan kuchli bogʻliqlikda boʻlgan innovatsiya haqida ham toʻxtalib oʻtishimiz lozim.

“Innovatsiya” soʻzi – lotin tilidan olingan boʻlib, tarjimasi “yangilanish, oʻzgartirish, qandaydir yangilik kiritish, yangi narsani joriy etish maʼnolarini bildiradi. “Yangilik kiritish” (innovatsiya) tushunchasi ham yangilik sifatida, ham ushbu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida ham tavsiflanadi.

XX asrning boshida yangi bilim sohasi – moddiy ishlab chiqarish sohasidagi texnik innovatsiyalar qonunlarini oʻrganadigan innovatsiyalar fani shakllandi. Yangiliklarni joriy etish – innovatika fani firmalarning yangi gʻoyalar, xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishga oshib borayotgan ehtiyoji natijasida vujudga keladi.

Dastlab innovatika fani predmeti ilmiy-texnik yangiliklarni yaratish va tarqatishning iqtisodiy va ijtimoiy qonuniyatlarini oʻrganishdan iborat boʻlgan boʻlsa, keyinchalik yangi fanning koʻlami kengayib, ijtimoiy yangiliklarni ham qamrab oladi va ijtimoiy innovatsiyaning bir tizimi boʻlgan pedagogik innovatsiya rivojlanadi .

### **Davlat sektori innovatsiyalarida ijtimoiy innovatsiyalarning tipologiyalari:**

- siyosat yangiliklari (yangi missiyalar, maqsadlar, strategiyalar);
- xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar (yangi funksiyalar va yangi xizmatlarni loyihalash, jumladan, taʼlim xizmatlari);

- ta'minot va yetkazib berishga oid innovatsiyalar (xizmat ko'rsatishning yangi usullari va xizmat foydalanuvchilari bilan o'zaro hamkorlik);
- innovatsiyalar jarayoni (yangi ichki tartiblar va tashkiliy shakllar);
- tizim innovatsiyalari (davlat boshqaruv tuzilmalari) yoki tizimli / radikal va qo'shimcha innovatsiyalar (masalan, kasb-hunar ta'limi tizimi).

Bugungi kunda jamiyatimizda ham yangiliklarni qo'llashga bo'lgan qiziqishlarning oshishi natijasida “innovatsiya”, “innovatsion jarayon”, “innovatsion faoliyat” tushunchalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda.

Innovatsiyaning keng tarqalgan ta'rifini Oslo qo'llanmasidan (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti) osongina topish mumkin.

**Innovatsiya** yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan mahsulot (tovar yoki xizmat turi)ni yoki jarayonni ishlab chiqarishga joriy etish, marketingning yangi usulini yoki biznes amaliyotida, ish o'rinlari yaratishda hamda tashqi aloqalarni o'rnatishda yangi tashkiliy metodlarni amalga oshirilishini anglatadi.

Bunda, kamida qo'yiladigan talab, ushbu mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy uslub **yangi** (yoki sezilarli darajada **takomillashtirilgan**) bo'lishidir.

Innovatsion faoliyat – yangiliklarning joriy qilinishiga olib keladigan yoki shu maqsadga yo'naltirilgan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat bosqichlaridir<sup>12</sup>.

Oslo qo'llanmasi innovatsiyani baholash imkonini beruvchi me'yorlarini ham taqdim etadi. Qo'llanma quyidagi to'rt innovatsiya turini taklif etadi:

• **Mahsulot** (tovar yoki xizmat) – yangi yoki sezilarli darajada mukamallashtirilgan (takomillashtirish) tovar yoki xizmat turini joriy etish tushiniladi. Takomillashtirishlar mahsulotning texnik spesifikatsiyasi, komponentlari va materiallari, ro'yxatga olingan dasturiy ta'minot, foydalanishga qulaylik yoki boshqa funksional xususiyatlarda amalga oshirilishi mumkin. Mahsulot innovatsiyasi yangi bilim yoki texnologiyalardan foydalanishga hamda mavjud bilim yoki texnologiyalarni yangicha usulda qo'llashga yoki ularning kombinatsiyasi shakliga asoslanishi mumkin.

<sup>12</sup> OSLO MANUAL, Organisation for Economic Cooperation and Development - <http://www.oecd.org/science/inno/2367580.pdf>



•**Jarayon** – bu ishlab chiqarish yoki mahsulotni yetkazishning yangi yoki yanada takomillashtirilgan usullarini joriy etish. U texnologiya, jihoz va/yoki dasturiy ta'minotni sezilarli darajada o'zgartirilishini o'z ichiga oladi. Texnologik innovatsiya mahsulot birligining ishlab chiqarish yoki yetkazib berish xarajatlarini qisqartirishga, sifatini oshirishga, yangi yoki yanada mukammallashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish yoki yetkazib berishga yo'naltirilishi mumkin.

•**Marketing innovatsiyalari** bu mahsulot yoki uni qadoqlash dizaynida, mahsulotni joylashtirishda, uni sotishni rag'batlantirishda yoki narxini shakllantirishda sezilarli o'zgarishlarni o'zida mujassamlagan yangi marketing usulini joriy etishdir. Marketing innovatsiyalari iste'molchilar ehtiyojini yanada samarali qondirish, yangi bozorlar ochish yoki bozorda mahsulotni joylashtirishni yangilash orqali korxonaning sotish hajmini oshirish maqsadlariga yo'naltirilishi mumkin.

•**Tashkiliy innovatsiya** bu kompaniyalarning biznes amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalar o'rnatishda yangi tashkiliy usullarni amaliyotga joriy etishdir. Tashkiliy innovatsiya ma'muriy xarajatlar yoki transaksion, operatsion xarajatlarni kamaytirish hisobiga korxonada ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, ish joylarini qanoatlantirish, qulaylik darajasini oshirish (natijada mehnat unumdorligini oshirish), sotilmaydigan aktivlar (oshkora bo'lmagan tashqi bilimlar)ga erishish yoki ta'minot xarajatlarini qisqartirish yo'li bilan korxonaning faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilishi mumkin<sup>13</sup>.

Oslo qo'llanmasida innovatsion tizim quyidagi 1.3–rasmda keltirilgan mazmunda ham talqin etiladi.

Ushbu innovatsion tizim qisqa ko'rinishdagi innovatsion faoliyat tizimi hisoblanadi. Innovatsion faoliyat mahsulot va jarayonlar, tashkiliy o'zgarishlar va marketing modellari bo'yicha biznes yechimlarni o'rganish va doimiy ravishda ularni takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat.

---

<sup>13</sup> Research Project Global Innovation - [http://www.global-innovation.net/innovation/Innovation\\_Definitions.pdf](http://www.global-innovation.net/innovation/Innovation_Definitions.pdf)

## **Innovatsiyalarning asosiy bosqichlari**

1. Yangi g'oyalar yaratish - ochiq muhokamalar; sovrinlar; raqobat va musobaqadoshlik; ilg'or xodimlarning va boshqalarning fikrlarini aniqlab olish hamda e'tiborga sazovor g'oyalarni kengaytirishga qaratilgan muntazam jarayonlar.

2. Kelajakda samara keltiradigan istiqbolli g'oyalarni inkubatsiyalash, prototipini (dastlabki namunasini) yaratish va rivojlantirish - amaliyotda innovatsion g'oyalarni sinash va baholashga mo'ljallangan bir qator rasmiy vositalar mavjud, jumladan, pilot tadbirlar, tajriba sinovlar va boshqalar.

3. Replikatsiya (nusxa olish) va kengaytirish - strategik budjetni belgilash va ish unumdorligini boshqarish juda muhim.

4. Tahlil qilish va o'rganish – doimiy baholab borish, kutilmagan natija olinganda, tahlil qilish va o'rganish.


Bugungi globallashuv jarayonida va kuchli raqobat sharoitida har bir mamlakat o'z innovatsion rivojlanish yo'nalishini belgilab olmoqda. Chunki faqat innovatsiyalar mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining garovidir

### **Ijtimoiy innovatsiyalar qanday imkoniyatlar yaratadi?**

- yetakchilik va tashkiliy madaniyat - yuqori rahbarlardan pastdagi ilg'or xodimlarga innovatsiyalarni ruhlantiradigan va rag'batlantiradigan signallar yuborish. Liderlar tegishli risk madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

- g'oyalarni rivojlantirish va sinovdan o'tkazish uchun ijodiy muhit yaratish - inkubatorlar, tezlatkichlar, zonalar, pilot sinovlari;

- tarmoqlar, hamkorlik va sheriklik - ijtimoiy innovatsiyani ommalashtirish, tarqatish va targ'ibot etish;



1.3- Rasm. Innovatsion tizim diagrammasi mazmuni

- turli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyalashtirish manbalari - ilg‘or xodimlar uchun kichik grantlar; eksperimental zonalarga, masalan, bandlik zonasiga; turli yondashuvlarni sinab ko‘rish uchun mablag‘lar;

- ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqish uchun tadqiqot salohiyati - ijtimoiy ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, kasb-hunar ta‘limi muassasalari;

- xizmat foydalanuvchilari, ilg‘or personalning, amaliyotchilarning fikrlarini olish mexanizmlari.

Ammo innovatsion jarayonlar oson kechmaydi. Xorijiy tajribalarni o‘rganish innovatsiyalarni mamlakatda amalga oshirishning quyidagi to‘siqlarini umumlashtirish imkonini berdi.

### **Innovatsiya to‘siqlari**

- samaradorlik mezonlari va hisobot berish reglamentlaridan kelib chiqadigan siyosiy va auditorlik cheklovlar - qisqa muddatli yondashish, ko‘proq kelajakka yo‘naltirilmagan joriy ishlarga e‘tiborni qaratish, jarayon olinadigan natijaga yo‘naltirilmaganlik;

- tavakkalchilikdan qochish, mas‘uliyatni olmaslik;

- innovatsiyalarni institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimining yo‘qligi;

- innovatsiyalar uchun noqulay tuzilmalar, tashkilot madaniyati – asrlab o‘rnashib olgan o‘zgarishlarga intilmaydigan boshqaruv, tavakkalchilikdan qochish mentaliteti (personalni yollash jarayoni);

- “bunker tuzilmalari” – takror va takror urinishlar, tashkilotlararo o‘zaro bog‘liq muammolarni hal qilishning qiyinligi. Bunkerdan chiqish harakatlari.

- noaniq natijalar innovatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga erishish uchun qiyinlik tug‘diradi;

- oldingi muvaffaqiyatsizlikdan yoki hatto oldingi tajribani o‘rganishni bilmaslik yoki xulosa chiqarish qobiliyatining yo‘qligi;

- xizmat foydalanuvchilarining fikr va g‘oyalarini yetarli inobatga olmaslik;

- vaqt, quvvat, resurslar va boshqalar bo‘yicha amaliy masalalar.

Innovatsiya omillari quyidagilarga guruhlanadi:

'Pull' factors ("tortish" omillari) - samarali talab; ehtiyojning mavjudligi, ta'minlashdagi bo'shliq yoki bajarilmay qolgan ish / muvaffaqiyatsizlik /; "yonayotgan platformalar" va uning yechimini topish uchun moliyaviy imkoniyat;

'Push' factors ("turtish" omillari - samarali taklif; (1) innovatsion g'oyalarni yaratish; (2) bu g'oyalarni ko'rgazmali bajarib bo'ladigan shakllarga keltirish; (3) ularning aloqasi va tarqatilishi;

Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun ularni uyg'unlashtirish talab etiladi va to'g'ri tashkiliy shakllarni topish maqsadida "tortish" omillarini "turtish" omillari bilan bog'laydigan samarali strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Innovatsiyalarni ijtimoiy ta'sirga erishishini ta'minlash uchun esa o'rganish va moslashtirish hamda atrof muhitning sohalar, hamkorlik, sheriklik orqali o'zgarib borishi sababli doimiy davom ettirish zarur.

O'quv qo'llanma mazmunini boyitish, shuningdek, uning keyingi bo'limlarini tushunarli yoritish uchun bilim va texnologiyalar transferi to'g'risida ko'proq ta'riflarni berish lozim.

Biznes haqidagi lug'atga ko'ra **texnologiya transferi** bu:

*1. Ma'lum bir joyda ishlab chiqilgan va yaratilgan texnologik intellektual mulk egaligini litsenziyalash yoki franchayzing kabi huquqiy vositalar orqali boshqasiga o'tkazish.*

*2. Ilmiy va texnologik yutuqlarni tovar mahsuloti yoki xizmatlar shakliga aylantirish jarayoni<sup>14</sup>.*

2004 yil 7 apreldagi **Yevropa Ittifoqi 772/2004 sonli Nizomining** 81(3) moddasidagi Texnologiyalar transferi kelishuvlari toifasi bo'yicha shartnomaga ko'ra – ***Texnologiya transferi kelishuvlari patent litsenziyasi kelishuvi, nou-xau litsenziyasi shartnomasi, mualliflik huquqi litsenziyasi kelishuvi, dasturiy ta'minoti yoki aralash - patent, nou-xau yoki mualliflik huquqi bo'yicha dasturiy ta'minot litsenziyasi kelishuvi, shuningdek, mahsulotni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq bo'lgan yoki kelishuvning asosiy ob'ekti sanalmaydigan va bevosita shartnomaviy mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan intellektual mulkning boshqa***

---

<sup>14</sup> Business Dictionary - <http://www.businessdictionary.com/definition/technology-transfer.html#ixzz3TGA2PP73>

*huquqlarini litsenziyalash bilan bog'liq qoidalarni o'z ichiga oladigan har qanday kelishuvlarga nisbatan qo'llanishi mumkin.*

Fan va ishlab chiqarish aloqalari va bilimlar transferi kanallarining bir qancha kategoriyalari mavjud.

Ta'lim sohasida texnologiyalar va bilimlar transferini e'tiborga olgan holda, ta'lim muassasalarining xususiy sektor bilan aloqa o'rnatishi uchun tavsiya etiladigan turli metodlardan foydalanish mumkin.

Ba'zi bir mualliflar texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini ikki guruhga ajratadi: formal va noformal. Texnologiyalar va bilimlar transferining formal mexanizmlari sifatida patent, litsenziya yoki kelishuv kabi huquqiy hujjatga bevosita olib boruvchi yoki ularni o'zida mujassamlashtirgan mexanizmlar tushuniladi. Texnologiyalar va bilimlar transferining noformal mexanizmlari sifatida esa, texnik yordam, konsultatsiya va birgalikda olib boriladigan tadqiqotlar kabi norasmiy aloqa jarayonlari asosida texnologiya oqimiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni kiritish mumkin.

Texnologiyalar va bilimlar transferining formal mexanizmlari mulk huquqi va majburiyatlarini taqsimlashga yo'naltiriladi, o'z navbatida texnologiyalar va bilimlar transferining noformal mexanizmlarida mulk huquqi ikkinchi darajali bo'lib, agar mavjud bo'lsa, majburiyatlar huquqiy emas, ko'proq me'yoriy hususiyatga ega bo'ladi<sup>15</sup>.

**Nima sababdan rivojlangan mamlakatlarda universitetlar texnologiyalar va bilimlar transferi bilan qiziqmoqda?** *Ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, talabalari, xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya egasi sifatida (kashfiyot, mualliflik huquqi yoki moddiy material shaklida) uni tijorat mahsuloti yoki xizmat turiga aylantira oladigan kompaniyaga litsenziyalashtirishi mumkin. Ideal holatda "xom" texnologiyani jamiyat uchun foydali mahsulot yoki xizmat turiga aylantirish sog'liq va hayot sifatini yaxshilash, ish o'rinlari yaratish, soliqlar hisobiga davlat daromadlarini oshirish va litsenziya yig'implari hisobiga*

---

<sup>15</sup> A. N. Link, D. S. Siegel, and B. Bozeman, "An empirical analysis of the propensity of academics to engage in informal university technology transfer," *Industrial and Corporate Change*, vol. 16, no. 4, pp. 641–655, Jul. 2007.

*ixtirochi va universitetlarni qo‘shimcha daromad bilan ta‘minlash imkoniyatlarini beradi.<sup>16</sup>*

Aksariyat universitetlarda tadqiqotchilar va kompaniyalarga xizmat ko‘rsatuvchi, shuningdek, texnologiyalar va bilimlar transferiga oid barcha turdagi faoliyat boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi ma‘muriy birlik shaklidagi texnologiyalar transferi bo‘yicha ofislar faoliyat olib boradi.

Bunda texnologiyalar va bilimlar transferi jarayoni o‘ziga xos *texnik va tashkiliy bilimlarni uzatish va nou-xauga asoslangan iqtisodiy maqsadlarda (tijorat) foydalanish sifatida tushuniladi. Texnologiyalar va bilimlar transferi – bu kommunikatsiya jarayonining alohida holati bo‘lgan bozor munosabatlari texnologiyalari amal qiluvchi jarayon hisoblanadi.<sup>17</sup>*


*Universitetlardan bozorlarga texnologiya transferi standartlari va bu faoliyat bilan bog‘liq eng sodda jarayonlar 4-rasmda aks etgan bo‘lib, birinchi beshta qadam (yashil shakllar) patenlashga tegishli, shuningdek, har bir qadam bo‘yicha asosiy ishtirokchilar ham berilgan. Agar qaysidir bir bosqich jadvaldagi qizil rangdagi qaror bilan tugasa, patentlash jarayoni ham tamom bo‘ladi. Qoidaga ko‘ra taklif qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. 4-rasmda ko‘rsatilgan qolgan beshta qadam (oq shakllar) litsenziyalash jarayoni bilan bog‘liq. Mazkur jarayon texnologiyani rivojlantirish va texnologiyani ishga tushirishni boshlash qadamlarini ham qamrab olishi mumkin<sup>18</sup>.*

---

<sup>16</sup> <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>

<sup>17</sup> Innovation and technology transfer. Glossary, K. Matusiak, Warsaw, 2011

<sup>18</sup> Performance Evaluations of Technology Transfer Offices of Major US Research Universities, Ampere A. Tseng, Miroslav Raudensky, Journal of Technology Management & Innovation vol.9 no.1 Santiago Apr. 2014



#### 4- Rasm. Universitetlarda texnologiyalar transferining eng oddiy jarayoni

Ko'p ta'lim muassasalarida texnologiyalarni uzatish turlicha amalga oshiriladi.


G. Upstil va D. Simingtonlar<sup>19</sup> (2002) texnologiyalarni uzatishning uch turdagi usullarini aniqladilar (1.4-rasm):

- 1. Notijorat transfer (1-usul).
- 2. Tijorat transfer (2-usul)
- 3. Ta'lim muassasasida yangi kompaniya tuzish (3-usul)

Ta'lim muassasalarida bilimlar transferining turli mexanizmlari mavjuddir.

<sup>19</sup> Garrett Upstill, David Symington Technology transfer and the creation of companies: The CSIRO experience. R&D Management, Volume 32, Issue 3, Version of Record online: 17 DEC 2002





**1.5-Rasm. Universitet-ishlab chiqarish texnologiyalar transferining turli usullari.**

**Markus Rerkman va Ketrin Uelsh (2007)<sup>20</sup> hamda Rudi Bekkers va Izabel Freitaslar (2008)<sup>21</sup> tomonidan uyg'unlashtirilgan Universitet-ishlab chiqarish bilimlar transferi mexanizmi**

**1.3-Jadval**

|   |  |
|---|--|
| <b>Norasmiy aloqalar</b>                      | Ijtimoiy munosabatlar va tarmoqlarni shakllantirish  |
| <b>Konferensiya larda ishtirok etish</b>      | Ilmiy ishlanmalar natijalari taqdimoti bilan konferensiyalarda ishtirok etish  |
| <b>Insonlar harakati</b>                      | Bitiruvchilarni (kichik mutaxassis, bakalavr, magistr va fan doktorlari (Ph.D.) darajasida) biznes sohasiga ishga joylashtirish, ta'lim muassasasi xodimlari/ tadqiqotchilarining stajerovkalar va o'rindoshlik asosida yoki vaqtinchalik biznes sektoriga ishga o'tish orqali amaliyotda band bo'lishini ta'minlash   |
| <b>Ta'limdagi hamkorlik</b>                   | Olimlar tomonidan biznes xodimlarini o'qitish yoki biznes vakillarining ta'lim muassasasi o'quv dasturlarida ishtirokini ta'minlash, ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga jalb qilish  |
| <b>Ilmiy tadqiqot ishlaridagi hamkorlik</b>   | Hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga yo'naltirilgan tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari, tuzilmalar. U, shuningdek, doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari bajarilishi ustidan universitet va firma tomonidan birgalikdagi nazoratni va biznes sektori tadqiqotiga bag'ishlangan dissertatsiyalarni moliyalashtirishni o'z ichiga oladi |
| <b>Ilmiy tadqiqot xizmatlarini ko'rsatish</b> | Ishlab chiqarish mijozlari buyurtmasi asosidagi faoliyat. U shartnomalar asosida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va maslahatlarni o'z ichiga oladi  |

<sup>20</sup> Markus Perkmann, Kathryn Walsh. University Industry Relationships and Open Innovation: Towards a Research Agenda. International Journal of Management Reviews, Vol. 9, No. 4, pp. 259-280, December 2007

<sup>21</sup> R.N.A. Bekkers, I.M. Bodas de Araújo Freitas. Analysing knowledge transfer channels between universities and industry : to what degree do sectors also matter?. Research Policy, Vol. 37(2008), No. 10, p. 1837-1853

|  |   |
|--|---|
| <b>Nashrlar</b>  | Ishlab chiqarishda aniqlashtirilgan bilimlarni qo‘llash. Biznes sektori bilan birgalikdagi nashrlarni va ta‘lim muassasasi tadqiqotchilarining ilmiy ishlanmalarini nashr etilishini o‘z ichiga oladi   |
| <b>Ob`ektlardan , sharoitlardan birgalikda foydalanish</b> | Ta‘lim muassasasi olimlari va korxonalar a‘zolari o‘rtasida mavjud ob’ektlar, sharoitlar bilan o‘zaro almashishni yoki ishlab chiqarishning mablag‘idan foydalanib yangi ob’ektlarni, sharoitlar yaratishni moliyalashtirishni qamrab oladi   |
| <b>Intellektual huquq va litsenziyalash</b>                | Ta‘lim muassasasi tomonidan yaratilgan intellektual mulkni (ilmiy tadqiqot natijalari, patentlar, dasturiy ta‘minot, tovar belgilari, ma‘lumotlar bazasi va boshq.) litsenziyalash orqali korxonalariga uzatish, intellektual huquq transferi |
| <b>Ta‘lim muassasasi sho‘ba kompaniyalari</b>              | Ta‘lim muassasasi ixtirochilari tomonidan yaratish ko‘zda tutilgan texnologiyalarni kompaniya tuzish orqali rivojlantirish va tijorat faoliyatini amalga oshirish   |

Taqqoslash uchun Ian Kuk va Paul Mayes turli xil texnologiyalar transferi amalga oshiriladigan mexanizmlarini aniqlashdi.

Ularning ko‘rsatishicha ushbu mexanizmlar texnologiyalar sohasida quyidagilar bilan aniqlanadi: BILIM, KO‘NIKMA, VOSITA va KO‘RGAZMALAR<sup>22</sup>.

<sup>22</sup> Cooke, I. and Mayes, P., 1996. "Introduction to Innovation and Technology Transfer", Artech House Inc, London.

## Ian Kuk va Paul Mayes texnologiyalar transferi mexanizmi

### 1.4-Jadval

| <i>Bilim</i>   | <i>Ko'nikma</i>  | <i>Vosita va ko'rgazmalar</i>   |
|--|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"><li>• Texnik jurnallarda nashr etish</li><li>• Ta'lim jurnallarida nashr etish</li><li>• Maxsus ilmiy jurnallarda nashr etish</li><li>• Patentlar</li><li>• Konferensiyalarda ma'ruza qilish</li><li>• Ilmiy jamoada ma'ruza qilish</li><li>• Hamkasb olimlar bilan bahs yuritish</li><li>• Tanishlar bilan muloqot qilgilish</li><li>• Maslahatchi bilan muloqot qilish</li><li>• Televidenie va radioda</li><li>• Kurslarda</li><li>• Xizmat byulletenlarda</li><li>• Malumotlar ombori</li><li>• Texnik tavsiflarda</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Kimdir nimanidir qilishini kuzatish</li><li>• Kimdir nimanidir qilishini videoda ko'rish</li><li>• Kurslarda namoyish qilish</li><li>• Amaliy treninglarda o'rgatish</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>• Mahsulotlar</li><li>• Savdo jurnallari</li><li>• Savdo bitimlari</li><li>• Savdo vakillari</li><li>• Reklama</li><li>• Bevosita pochta tarqatmalari</li><li>• Boshqa kompaniyadagi aloqalar</li></ul> |


### **Bilimlar uchburchagi va Bilimlar Transferi Ofisining o'rni**

Texnologiyalar va bilimlar transferining aksariyat mexanizmlari bilimlar uchburchagi konsepsiyasi bilan bog'liqdir.

“Bilimlar uchburchagi uzoq davom etuvchi va tizimli o‘zaro bog‘liq uchta faoliyat turi: **ta’lim, tadqiqot va innovatsiyaga** investitsiyaning ta’sirini yaxshilash ehtiyojlari bilan bog‘liq”<sup>23</sup>.

Bilimlar uchburchagi quyidagilar o‘rtasida yaratilgan qo‘shimcha qiymat oqimi sifatida ham tushuniladi:

- **tadqiqot** (texnologiyalar va bilimlar transferi markazlari, tadqiqot va rivojlantirish agentligi, ko‘p holatlarda davlat tomonidan moliyalashtiriladi);
- **ta’lim** (ta’lim muassasalari);
- **innovatsiya** (tadbirkorlikda innovatsion faoliyat).



**1.6-Rasm. Bilimlar uchburchagi**

Texnologiyalar va bilimlar transferi ofisi (TTO) yoki (BTO) ta’lim muassasalarida bilimlar uchburchagi ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ta’lim

<sup>23</sup> <http://www.erisee.org/node/43>

muassasalari texnologiyalarni ishlab chiqarishga uzatishni rasmiylashtirishga intilgan holda bilimlar va texnologiyalarni uzatish ofislarini yaratmoqdalar. An'anaga ko'ra, texnologiyalar transferi ofislari ta'lim muassasalariga ilmiy – tadqiqot natijalariga asosida yaratilgan ixtirolarni litsenziyalash orqali tijoratlashtirish imkonini beradi. Texnologiyalarni va bilimlarni uzatish ofislarining yaratilishi esa, ta'lim muassasasida ishlab chiqarish bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun yetarli darajada mustaqillikni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi<sup>24</sup>.

Bilimlar transferi ofisi (BTO) va texnologiyalar transferi ofisi (TTO) o'zaro bir-birini almashuvchilari sifatida qo'llaniladi.

BTO - tadbirkorlar va investorlar uchrashishi mumkin bo'lgan yagona markazdir. BTO real tadqiqotlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar va talabalarni ta'lim va tadbirkorlik bilan bog'lanishiga ko'maklashadi.

Ta'lim muassasalari quyidagi beshta sabablarga ko'ra texnologiyalarni uzatish jarayonida qatnashadilar:

*1. Jamiyat ravnaqi yo'lida ilmiy-tadqiqot natijalarini qo'llashni rag'batlantirish uchun;*

*2. O'z texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qiziqqan professor-o'qituvchilarni jalb qilish, mukofotlash va ushlab qolish;*

*3. Ishlab chiqarish bilan axborotlar va materiallar almashish imkoniyatlarini ta'minlash;*

*4. Iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish.*

*5. Ilmiy izlanishlar va ta'limni qo'shimcha investitsiyalash uchun daromadlar manbasini yaratish<sup>25</sup>.*

**BTO yoki TTO larining ko'plab amaliy modellari mavjud:**

---

<sup>24</sup> ROLE OF UNIVERSITY TECHNOLOGY TRANSFER OFFICES IN UNIVERSITY TECHNOLOGY COMMERCIALIZATION: CASE STUDY OF THE CARLETON UNIVERSITY FOUNDRY PROGRAM, Manu Sharma, Uma Kumar, Luc Lalande; Journal of Services Research, Volume 6, Special Issue (July, 2006)

<sup>25</sup><http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about>

1. Ta'lim muassasasining tarkibiy qismi sifatidagi klassik model - rektoratga bevosita hisobot beradigan xususiy yoki xo'jalik hisobidagi bo'lim/ tuzilma.

2. Ta'lim muassasasining mustaqil alohida bo'limi:

- Ta'lim muassasasi tasarrufida bo'lgan maxsus yoki biron maqsadga yo'naltirilgan kompaniya.

- Boshqa tadqiqot va ishlanmalar tashkilotlari bilan hamkorlikdagi xizmat (konsalting tashkiloti).

3. Xususiy uchinchi tomon bilan hamkorlik.

4. Davlat- xususiy sheriklik.

BTO ning klassik vazifalari va qo'shimcha xizmatlari bilan 5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar orqali tanishishingiz mumkin.<sup>26</sup>

### **Bilimlar transferi ofisining klassik vazifalari va qo'shimcha xizmatlari**

#### **1.5-Jadval**

| <b>BTO ning klassik vazifalari</b>  |   |
|---|---|
| <b><i>Monitoring, rejalashtirish va hamkorlik bo'yicha faoliyat</i></b>     | • OTM professor o'qituvchilarining erishgan ilmiy yutuqlari   |
|   | • Bo'limlar nuqtai nazaridan bo'yicha tadqiqotning strategik yo'nalishlarini tanlash  |
|   | • Stajirovka, ishga joylashtirish, talaba hamda bitiruvchilarning o'quv amaliyotlariga hamkorlik tashkilotlarini jalb qilish  |
|   | • Biznes muhiti bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik tashkilotlar  |
| <b><i>Ma'lumotlar omborini yaratish va ilmiy takliflarni tayyorlash</i></b> | • OTM bilan hamkorlikda bo'lgan kompaniyalarning ma'lumotlar omborini yaratish,   |
|   | • Bir qancha (texnologiya, iqtisod va biznes, ijtimoiy fanlar) yo'nalishdagi biznes uchun innovatsion qarorlarni qo'llagan holda ilmiy-tadqiqot takliflarini kiritish |
|   | • Tadbirkorlar bilan muntazam aloqalarni o'rnatish uchun internet-platformalar yaratish   |

<sup>26</sup> Knowledge transfer in practice – good practices in Finland and Poland <http://pastw.byd.pl/userfiles/files/pastw2-www.pd>

|   |   |
|---|---|
|   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Talabalarni va hodimlarni stajirovkaga taklif etuvchi kompaniyalarning ma'lumotlar bazasini joylashtirish</li> </ul>   |
| <p style="text-align: center;"><b><i>Intellektual mulkni boshqarish va himoyalash</i></b></p> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Intellektual mulkni himoya qilish qoidalari ko'rinishida intellektual mulkni himoya qilishning yangi qoidalarini ishlab chiqish va jarayonning monitoringini olib borish</li> </ul>  |
|   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Sistemali ravishda yangilanib turadigan va ularning vositalari muntazam ravishda nazoratda bo'ladigan WSG intellektual mulkning ma'lumotlar bazasini yaratish</li> </ul>   |
| <p style="text-align: center;"><b><i>Tadqiqotlarni axborotlashtirishni oshirish.</i></b></p>  | <p>Tadqiqotchilarning axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish sifatida axborot beruvchi dasturlarni yaratish va o'quv kurslarni rivojlantirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlash, tadbirkorlar bilan aloqalarni yaxshilash, intellektual mulkni boshqarish va himoyalash</li> </ul> |
| <b>BTO ning qo'shimcha xizmatlari</b>   |   |
| <p style="text-align: center;"><b><i>Qo'shimcha xizmat turlari</i></b></p>                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Moliyalashtirish manbalarini topish</li> </ul>   |
|   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Muvaffaqiyatli tadqiqot loyihalarini tayyorlash</li> </ul>   |
|   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Shartnomalarni tuzish va nazorat qilish</li> </ul>   |
|   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Intellektual mulk bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha kompleks tarzda maslahatlar taklif etish</li> </ul>  |


**BTO / TTO amaliyoti bo'yicha misollar 1- ilovada keltirilgan.**

Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim muassasalarining asosiy roli yuqorida keltirilgan elementlarni ta'limning turli shakllari orqali qo'llab - quvvatlash hamda real iqtisod rivojlanishiga ta'lim muassasasining hissani qo'shishiga qaratishdan iborat bo'lmoqda. Bu ijobiy tajribani mamlakatimiz ta'lim muassasalarida ham qo'llash va tadbirkorlik institutlari konsepsiyalarini kengroq targ'ibot qilish orqali ta'lim muassasalarining yanada tadbirkor bo'lishlariga erishish davr talabi hisoblanadi, chunki ta'lim muassasalari hudud iqtisodini rivojlantirishning markazida bo'lmasa raqobatbardosh bo'lolmaydi.



Ta'lim muassasalarining 21-asrdagi roli to'g'risidagi o'xshash g'oyalar Alan Martenning *Global Universitetlar*<sup>27</sup> va Gans Vissemning *uchinchi avlod universitetlari*<sup>28</sup> konsepsiyalari orqali ham tushuntiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda universitetlar rolining transformatsiyasi XX asr 40- yillaridan boshlanib (1.7 - rasm), universitetlar nafaqat jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida, balki iqtisodiy rivojlanishida ham, ayniqsa innovatsiya sohasida, yetakchi rolga ega bo'lib kelmoqdalar.

Har qanday mamlakat oldida ta'lim muassasasida yaratilgan ilmiy yutuqlarni qo'llash, ishlab chiqarishga uzatish global muammosi turadi. Mamlakatning muvaffaqiyati qanday tezlikda ilmiy faoliyat bugun bozorda yangi texnologiya va texnologik mahsulotlarda mujassamlanishi bilan, ya'ni ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish tezligi bilan aniklanadi. Bu jarayonda ta'lim muhim o'ringa egadir.



### 1.7 - Rasm. Universitetlarni transformatsiyalash modellari.

**Tadbirkor universitetlar Konsepsiyasida** universitetning klassik modeli qo'shimcha tadbirkorlik madaniyati, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bilan to'ldiriladi va faoliyati quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi:

<sup>27</sup> Alan Merten (2008). *Building a Global University. The Future of the Research University*. Ewing Marion Kauffman Foundation.

<sup>28</sup> Wissema, J.G. (2006). *Technostarters and the Third Generation University*. Published in Bulgarian language at the Publishing House of the University of Forest, Sofia. (Висема, Й. Техностартерите и университетът от трето поколение).

1. O‘z faoliyati uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish qobiliyatini kengaytirish, jumladan tadbirkorlik asosida;
2. O‘qitishning innovatsion uslublarini rivojlantirish va uning mazmunini zamonaviylashtirish;
3. Universitet olimlarining ilmiy ishlanmalari joriy qilinadigan biznes vakillari bilan yaqin aloqa qilishi.

Shunday qilib, ta’limning (oliy ta’lim) an’anaviy vazifasi quyidagicha transformatsiyalanadi:

- o‘quv faoliyat (yangi o‘quv fanlarining paydo bo‘lishi, o‘qitishning innovatsion uslublarining rivojlanishi)
- ilmiy faoliyat (yangi bilimlar generatsiyasi, individual tadqiqotlardan fanlararo guruhlardagi tadqiqotlarga o‘tish);
- ta’limning yangi («uchinchi») vazifasi – institut, universitet va kollejlarda bo‘linmalarida olib boriladigan ilmiy va ijodiy ishlar natijalarini tijoratlashtirish (patentlashtirish, litsenziyalash, kichik innovatsion korxonalar yaratish, texnologiyalar transferi va x.k.).

Tashqi va ichki muhitning o‘zgarishiga qarab ta’lim muassasalari ham xususiy sektor bilan yanada yaqin munosabatlarda bo‘lishi lozim<sup>[29]</sup>. Bu esa, o‘z navbatida, zarur natijalarga erishish uchun ta’lim muassasasi ichki tuzilmasini takomillashtirish va pedagoglarning munosabatini o‘zgartirish hamda vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

So‘nggi yillarda respublikamizda ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi muassasalar hamda ishlab chiqarish o‘rtasida bilimlar almashuvi va texnologiyalar transferiga bo‘lgan ehtiyoj muhim ahamiyat ega bo‘lmoqda.

Ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tuzilmalar o‘z intellektual mulklari hisobiga iqtisodiy foydalarini oshirish bo‘yicha yangi rollarga ega bo‘lmoqda. Bu rollar esa, biznes salohiyatiga ega bo‘lgan bilimlarni, texnologiyalarni aniqlash va

---

<sup>29</sup>Pavlov, D. (2014). *Academic Production of Entrepreneurs – Myth or Reality*. Plenary Report at 3rd International Conference on Business Administration and Economics "People. Ideas. Experience" ICBAER 2014, October 23-25, 2014, University of Resita, Romania.

boshqarish qobiliyati bo'lgan maxsus xodimlarni talab etmoqda<sup>30</sup>. Ularni quyidagicha atashadi:

- Agent (razvedkachi, bilib oluvchi);
- Bilimlar brokeri / Texnologiyalar transferi brokeri / Innovatsiyalar brokeri;
- Bilimlar sotuvchisi.

*Biznesda broker - agent, targ'ibotchi, diller, sotuvchi, savdogar bo'lib, sotadigan va sotib oladigan kishi hisoblanadi; siyosatda broker diplomat, mediator, vositachi, o'rtaga tushuvchi, muzokarachi; axborot olamida axborot resurslariga yo'l ochuvchi; ta'lim sohasida esa broker insonlar, tarmoqlar, tashkilotlar va resurslarni faol birlashtiruvchi faol vositachi va biron-bir yangilik yaratishga yoki mavjud narsalarga qiymat qo'shishga sharoit yaratuvchi hisoblanadi<sup>31</sup>.*

Broker lavozimiga nomzodlar tanlashning turli usullari mavjud. Ulardan biri bu innovatsiyalar brokeri tanlovidir (masalan, Innovatsiyalar vazirligi, Fan va texnologiyalar qo'mitasi brokerlar tarmog'ini yaratish maqsadida har bir hududdan bir nechta nomzodlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan innovatsiya brokeri uchun tanlov e'lon qiladi).

Innovatsiyalar brokeri lavozimida ishlaydigan shaxs tadqiqotchilar bilan muloqotga kirishib biladigan, bozor tadqiqotlari samaradorligining muvofiqligini dastlabki tahlillar o'tkaza oladigan darajada maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Agent tadqiqotchilar va biznes vakili bo'lgan sheriklar bilan muammosiz va samarali hamkorlikni o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak<sup>32</sup>.

Bu inson o'z faoliyatining erishiladigan maqsadga muvofiqligiga qat'iy ishonchiga asoslangan kuchli ichki motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. U mustaqil, tizimli, maqsadlarga erishishga butun kuchi va e'tiborini qaratib ishlash qobiliyati

---

<sup>30</sup> Improving knowledge transfer between research institutions and industry across Europe, European Commission, 2007, [http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download\\_en/knowledge\\_transfe\\_07.pdf](http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download_en/knowledge_transfe_07.pdf)

<sup>31</sup> Jackson, N. (2003) Introduction to brokering in higher education. In N. Jackson (Ed.), *Engaging and changing higher education through brokerage*. Aldershot, UK: Ashgate, 3-20

<sup>32</sup> [http://scouting.uni.lodz.pl/Linki/Efekty/Komponent\\_systemowy\\_-\\_produkt\\_finalny.pdf](http://scouting.uni.lodz.pl/Linki/Efekty/Komponent_systemowy_-_produkt_finalny.pdf), Praca zbiorowa Uniwersytet Łódzki, *Produkt komponent systemowy Innowacyjny model scoutingu w ujęciu systemowym*, Łódź 2014, s. 6.

bilan tavsiflanishi zarur. Brokerning munosibligi doimiy yakuniy natijaga intilish, o'z-o'zini nazorat qilish va optimizm bilan bog'liq bo'lishi kerak. Agent o'zgarishlar uchun ochiq, oson aloqa o'rnatuvchi va uzoq muddatli munosabatlarni qo'llab - quvvatlovchi bo'lishi lozim<sup>33</sup>.

Ta'lim muassasi nomidan ish yurituvchi innovatsion brokerlar quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1) broker ixtisoslashgan bilim sohasiga tegishli yuqori tijorat salohiyatiga ega bo'lgan tadqiqot loyihalarini aniqlash;

2) broker ixtisoslashgan bilim sohasida ilmiy-tadqiqot natijalari tijoratini boshlash uchun ilmiy va biznes sektorlari vakillari o'rtasida hamkorlik tarmog'ini yaratish va uni qo'llab-quvvatlash. Bu esa, o'z novbatida, broker quyidagi xatti-harakatlar orqali innovatsiyani amalga oshirishini anglatadi :

a) ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish jarayonini yo'lga qo'yish uchun ilmiy jamoatchilik va iqtisodiy ishlanmalar vakillari bilan muloqot va uchrashuvlar tashkil etish (eng kamida bir oyda to'rtta uchrashuv, har bir ushrashuv va muloqotni bayonlashtirish, ish natijasi va erishilgan yutuqlarni asoslar bilan hujjatlashtirish);

b) brokerlik baholash asosida yuqori tijorat salohiyatiga ega ilmiy-tadqiqot loyihalari ro'yxatini tuzish;

c) qo'shimcha tarmoqlar yaratish yoki litsenzion kelishuvga erishish bo'yicha tashabbus ko'rsatish;

3) ilmiy tadqiqot natijalari tijoratini tashkil etishda barqarorlikni ishlab chiqish, oliy ta'lim vazirligi tomonidan tashkillashtiriladigan va moliyalashtiriladigan innovatsion brokerlar uchun kadrlar tayyorlash ishlarida ishtirok etish<sup>34</sup>.

*Shunday qilib, bilimlar brokeri faoliyatini bilim sohasida qaror qabul qiluvchi shaxslarni vositachi sifatida tadqiqotchilar bilan bog'lovchi, o'zaro bir-*

---

<sup>33</sup> E. Gwarda-Gruszczyńska, T. Czaplą, *Kluczowe kompetencje menadżera ds. komercjalizacji*, PARP, Łódź 2011

<sup>34</sup> Ministry of Science, [http://www.nauka.gov.pl/g2/oryginal/2013\\_05/2eeb94bfcd02b3a61d54b4d392b1e4d5.pdf](http://www.nauka.gov.pl/g2/oryginal/2013_05/2eeb94bfcd02b3a61d54b4d392b1e4d5.pdf)

*birlarining maqsadlarini va kasbiy madaniyatini yaxshiroq tushunishiga, ularning o‘zaro hamkorligiga, yangi sherikchilik aloqalarini o‘rnatishga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab qaror qabul qilishda tadqiqotda asoslangan dalillardan foydalanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tavsiflashimiz mumkin.*

Milan shahrining ilmiy-tadqiqot institutlari va vositachilar o‘rtasidagi tajribasi misolida bilimlar brokeri faoliyatining asosiy yo‘nalishlari 2-ilovada keltirilgan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsiya” so‘ziga izoh bering.
2. Davlat sektori innovatsiyalarida ijtimoiy innovatsiyalarning tipologiyalari nimalardan iborat?
3. Innovatsion faoliyat tushunchasiga izoh bering.
4. Oslo qo‘llanmasi nechta innovatsiya turini taklif etadi?
5. Marketing innovatsiyalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Innovatsiyalarning asosiy bosqichlariga izoh bering.
7. Ijtimoiy innovatsiyalar qanday imkoniyatlar yaratadi?
8. Innovatsiya to‘siqlariga qanday izoh berasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta’lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati - T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov “Talim sohalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar” -“Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnal 2012 y. № 4 may.

4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

### **1.3. Innovatsiyalarni boshqarishda pedagogik innovatikaning maqsadi va vazifalari.**

*Tayanch soʻz va iboralar:* pedagogik yangiliklar, komponentlarni yaratish, pedagogik innovatika, guruh vazifalari, innovatika vazifalari, potensial vosita, oʻzgarishlar predmeti, modifikatsiyalashtirish yangiliklari, mahalliy yangiliklar, modulli yangiliklar, tizimli yangiliklar,

Ta'limdagi innovatsion jarayonlarni maxsus oʻrganish oʻtgan asrning oʻrtalarida rivojlandi. Dastlab tadqiqotchilar tomonidan pedagogik yangiliklarni umumlashtirish va keng jamoani xabardor qilish vazifalari amalga oshirilgan. Soʻng tadqiqotchilar vazifalari kengaydi: pedagogik yangiliklarni baholash, joriy etish jarayonlari tadqiqoti, oʻqituvchilar pedagogik ijodkorligi, ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari, oʻzgarishlar jarayonlarini boshqarish, pedagogik yangiliklarni tarqatish va oʻzlashtirish yoʻlida toʻsiqlarni bartaraf etish va boshqalar.

Ta'limda innovatsion jarayonlarning uch yoʻnalishini ajratish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy, psixolo-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv.

**Innovatsiya jarayoni** faqat odamlar innovatsion faoliyatni amalga oshirayotganligi sababli namoyon boʻladi. **Innovatsion faoliyat** – bu faoliyatning maxsus turidir. Uning maqsadi – ta'lim samaradorligini oshirish yoʻlida ta'lim amaliyoti usullari va mazmunini oʻzgartirishdir. Innovatsion faoliyatni yangi ta'lim tizimi yoki uning ayrim komponentlarini yaratish, ommalashtirish va oʻzlashtirish orqali ta'lim faoliyati amaliyotini maqsadli ravishda oʻzgartirish sifatida tushunish

mumkin. Innovatsion faoliyat ta'lim faoliyatidan, avvalambor, o'z funksiyasi bilan farq qiladi. Ta'lim faoliyati o'quvchi va talabalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, innovatsion faoliyat ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Innovatsion o'zgarishlar bugungi kunda quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: ta'limning yangi mazmunini shakllantirish, o'qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, o'qish jarayonida shaxsning o'zligini aniqlash sharoitlarini yaratish, o'qituvchi va talabalar faoliyati hamda fikrlash tarzini o'zgartirish, ular o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'zgartirish, ijodiy jamoalarni yaratish va rivojlantirish va boshqalar.

*Pedagogik innovatikaning umumiy vazifasi yangiliklarni yaratish, ommalashtirish va joriy etish jarayonlari samaradorligining innovatsion faoliyatning tarkibi, komponentlari xususiyatlari, uni amalga oshirish usullari va tashqi sharoitlari hamda bu faoliyat samaradorligini oshirish vositalarini yaratish bilan bog'liqligini o'rganish sifatida aniqlash mumkin.*

Pedagogik innovatika vazifalarini uch guruhga bo'lish mumkin.

*Birinchi guruh vazifalari* tavsif-tushuntirish xarakteriga ega. Ularning yechimi haqiqiy holatni, muammoni ochib berish va nazariy jihatdan tushuntirish va asoslab berishdan iborat (masalan, yangiliklarni joriy etish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, o'zgarishlarga qarshiliklar sabablarini o'rganish vazifalari).

*Ikkinchi guruh vazifalariga* innovatsion faoliyatning yangi modellarini ishlab chiqish, uni amalga oshirishning yangi texnologiyalarini, yangi tashkil qilish shakllarini yaratish vazifalari kiradi. Ushbu vazifalarning yechimi, amaldagiga nisbatan samaradorligi yuqoriroq bo'lishi uchun «innovatsion faoliyat qanday bo'lishi kerak?», degan savolga javob beradi. Bunda ta'lim tizimini rivojlantirishning butun modeli bilan bir qatorda innovatsion faoliyatning takomillashtirilgan usullari ishlab chiqilishi mumkin (masalan, pedagogik jamoalarning innovatsion faolligini motivlashtirish uslublari, o'zgarishlarga qarshiliklar bilan kurashish uslublari).

*Uchinchi guruh vazifalari* innovatsion faoliyat tizimini rivojlantirish uslublarini ishlab chiqish bilan bogʻliq: ularni tahlil qilish va baholash, takomillashtirish yoʻnalishlari va usullarini tanlash, ularga oʻzgartirishlar kiritish. Agar ikkinchi guruh vazifalar yechimi innovatsion faoliyatning oʻzining ehtimolli oʻzgarishlari makonini kengaytirsa, uchinchi guruh vazifalar ushbu makonda harakat qilish va yoʻnalish olish usullarini yaxshilaydi.

Pedagogik innovatika vazifalari ularning innovatsion jarayonning u yoki bu bosqichiga taaluqligi jihatidan ham ajratilishi mumkin: yangiliklarni yaratish, ommalashtirish va joriy etish. Har bir bosqichda innovatsion faoliyatni oʻrganishning mustaqil vazifalarini yechish va uni takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish mumkin.

Pedagogik innovatika vazifalarini ikki xususiyatga qarab guruhlariga ajratish, ularning toʻqqiz tipologiyasini aniqlash va strukturalash imkonini beradi (1.6-Jadval)



## Pedagogik innovatika vazifalari

### 1.6-Jadval

| <b>Maqsadlar bo'yicha vazifalar turi</b>  | <b>Innovatsion jarayonga taaluqligi bo'yicha vazifalar turi</b>   |   |   |
|---|---|---|---|
|   | Yangiliklarni yaratish bo'yicha faoliyatni o'rganish va takomillashtirish vazifalari  | Yangiliklarni ommalashtirish bo'yicha faoliyatni o'rganish va takomillashtirish vazifalari  | Yangiliklarni joriy etish bo'yicha faoliyatni o'rganish va takomillashtirish vazifalari                             |
| Innovatsion faoliyatni nazariy tavsiflash, holatni tushuntirish vazifalari                      | Yangiliklarni yaratish jarayonida innovatsion faoliyatni nazariy tavsiflash   | Yangiliklarni ommalashtirish jarayonida innovatsion faoliyatni nazariy tavsiflash   | Yangiliklarni joriy etish jarayonida innovatsion faoliyatni nazariy tavsiflash                                      |
| Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish vositalarini yaratish vazifalari                  | Yangiliklarni yaratish jarayoni samaradorligini oshirish vositalarini yaratish vazifalari   | Yangiliklarni ommalashtirish jarayoni samaradorligini oshirish vositalarini yaratish vazifalari   | Yangiliklarni joriy etish jarayoni samaradorligini oshirish vositalarini yaratish vazifalari                        |
| Innovatsion faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish texnologiyalarini yaratish vazifalari | Innovatsion faoliyatni yangiliklarni yaratish bosqichida tahlil qilish va takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalari | Innovatsion faoliyatni yangiliklarni ommalashtirish bosqichida tahlil qilish va takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalari | Yangiliklarni joriy etish bosqichida tahlil qilish va takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifalari |

## **Pedagogik innovatsiyalar turlari va ularning tavsifi.**

Barcha yangiliklar bir umumiy xususiyatga ega – pedagogik tizimlar samaradorligini oshirishning potensial vositasi hisoblanadi. Bu xususiyatni yo‘qotishi bilan yangilik yangilik bo‘lmay qoladi. Har bir yangilik alohida bir xususiyatga ega bo‘lishi bilan birgalikda, o‘xshashlikka ham egadir. Ahamiyatli umumiy xususiyatga ega bo‘lgan yangiliklar bir guruhni tashkil etadi va boshqalardan ushbu xususiyat bilan farq qiladi. Yangilikning u yoki bu guruhga taaluqligi uning turini aniqlaydi.

Olimlar innovatsiyalarni quyidagicha turkumlashadi:

- *ta'lim tizimlari tuzilmaviy elementlari* – maqsadlarni belgilashdagi, vazifalar, ta'lim va tarbiya mazmuni, o‘qitishning shakli, uslublari, texnologiyalari, vositalari, diagonistika tizimi, nazorat, natijalarni baholashdagi yangiliklar;

- *ta'lim sub'ektlarining shaxsiy rivojlanishi* – pedagog va talabalarning ma'lum bir qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilim, ko‘nikma, mahoratlari, faoliyat usullari, kompetensiyalarini rivojlantirish;

- *pedagogik qo'llash darajasi* – o‘quv jarayonida, o‘quv kursida, ta'lim tizimi darajasida, ta'limni boshqarish sohasida;

- *pedagogik jarayon ishtirokchilari o'zaro munosabati* – jamoaviy o‘qitish, guruhlarda o‘qitish, tyutorlik, repititorlik, oilaviy o‘qitish va boshqalar;

- *funksional imkoniyatlar* – yangiliklar-sharoitlar (ta'lim muhitini, ijtimoiy madaniyatni yangilashni ta'minlaydi), yangiliklar-mahsulot (pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar), boshqaruv yangiliklari;

- *amalga oshirish usullari* – rejali, tizimli, davriy, o‘z-o‘zidan, tasodifli;

- *ommalashtirish ko'lami* – bir pedagog faoliyatida, pedagoglar uslubiy kengashida, ta'lim muassasasida, bir guruh ta'lim muassasalarida, hududlar darajasida, mamlakat darajasida, xalqaro darajada;

- *ijtimoiy-pedagogik ahamiyati* – turdosh profilli ta'lim muassasalarida, bir kasbiy fan pedagoglari guruhida;

- *novatorlik tadbirlar hajmi* – mahalliy, ommaviy, global;

- *ko'zlangan islohotlar darajasi* – tuzatishlar kiritish (korrektirovka), modifikatsiyalash, zamonaviylashtirish, tub o'zgartirish, inqilobiy o'zgartirish.

Ushbu qo'llanmada kasb-hunar ta'limi muassasalarida joriy etiladigan yangiliklarning turkumini quyidagicha tavsiflaymiz: o'zgarishlar predmeti bo'yicha, islohotlar chuqurligi va yangilik darajasi bo'yicha (tub o'zgarishlar darajasi), islohotlar ko'lami bo'yicha.

O'zgarishlar *predmeti bo'yicha* yangiliklar ta'lim muassasasida qaysidir sohani o'zgartirishni bildiradi. Yangiliklarning yirik sohalari sifatida ta'lim muassasasining pedagogik tizimi va ichki boshqaruvidagi o'zgarishlarni ajratadilar. Ushbu sohalarning har biri ichidagi o'zgarishlarning predmeti tegishli jarayonlarni tashkil qilish maqsadlari, sharoitlari, mazmuni, vositalari, uslublari, shakllarida bo'lishi mumkin.

Tub o'zgarishlar darajasi bo'yicha yangiliklar *modifikatsiyalashtirish va tub o'zgartirishlarga* bo'linadi. Modifikatsiyalashtirish yangiliklarini joriy etish amalda foydalanilayotgan (dastur, metodika, algoritm va boshqalar)ga qisman o'zgartirishlar kiritish va takomillashtirishga yo'naltirilgan. Modifikatsiyalashtirish yangiliklari ta'lim jarayonining alohida komponentlarini takomillashtirish (masalan, modulli o'qitish, portfolio texnologiyasi) yoki mavjud metodikalarni konstruktiv birlashtirish natijasida yangi oldin ishlatilmagan metodika yaratish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tub yangiliklar avvalgi analoglari bo'lmagan prinsipial yangi g'oya va texnologiyalar dan foydalanish bilan bog'liq. Kasbiy ta'lim tizimida yangi o'qitish shakllari misol bo'lishi mumkin.

Yangiliklar islohotlar ko'lami bo'yicha ham farq qilinadi. Yangiliklar ko'lami islohot bilan qamrab olinadigan ta'lim tizimi sohalari soni bilan hamda uni amalga oshirishga jalb etilgan pedagogik jamoa a'zolari soni bilan aniqlanadi. Ko'zlangan o'zgarishlar ko'lami bo'yicha yangiliklar mahalliy, modulli va tizimlilarga bo'linadi.

*Mahalliy yangiliklar* tor maydonda modifikatsiyalashtirish xarakteriga ega katta bo‘lmagan o‘zgarishlarni bildiradi (masalan, ta’lim jarayoni natijalarini baholash uchun kompyuter test sinovlarini dasturini ishlab chiqish va foydalanish).

*Modulli yangiliklar* ta’lim muassasasining biron-bir quyi tizimining to‘liq o‘zgartirilishini ko‘zda tutadi (masalan, biron-bir fan bo‘yicha modifikatsiyalashtirilgan (mualliflik) o‘quv dasturi va u bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi texnologiya).

*Tizimli yangiliklarga* ta’lim muassasasi butun pedagogik tizimini ma’lum bir umumiy g‘oya, konsepsiya asosida qayta qurish yoki oldingi ta’lim muassasasi bazasida yangisini yaratish kiradi (masalan, ko‘p tarmoqli kollejlarni yaratish).

Bunda innovatsion jarayon ta’lim muassasasining o‘zida yoki hudud darajasida tashkil qilinishi mumkin.

Algoritm ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism hududdagi kasb-hunar ta’limi mavjud holati tavsifi va tahliliga bag‘ishlansa, ikkinchi qism tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha innovatsion faoliyat tuzilmasini taklif etadi va faoliyat turlariga muvofiq strategik vazifalarni shakllantiradi.

### **Nazorat savollari**

1. Ta’limdagi innovatsion jarayonlarni maxsus o‘rganish qachon rivojlanana boshlagan?
2. Ta’limda innovatsion jarayonlarning nechta yo‘nalishini ajratish mumkin?
3. Pedagogik innovatika vazifalarini nechta guruhga bo‘lish mumkin?
4. Pedagogik innovatikaning asosiy vazifalari nimadan iborat?
5. Pedagogik innovatsiyalarning asosiy turlariga tavsif bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta’lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati - T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.

3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov “Talim sohalarini rivojlantirish bo`yicha xorijiy tajribalar” -“Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta’lim, fan va innovasiya. Ma’anaviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

## II. BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARI INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari faoliyati xususiyatlari va modellari.

*Tayanch soʻz va iboralar:* tuzilmaviy siljishlar, rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, jamiyatdagi munosabatlarning oʻzgarishi, ta'lim tizimining holati, ta'lim xizmatlari bozori, milliy innovatsion tizim, asosiy shart-sharoitlar, omillar roʻyxati, ilmiy-texnologik rivojlanish koʻrsatkichlari, faoliyat koʻrsatish tamoyillari, tendensiyalarni ajratib koʻrsatish imkoni, ilmiy ishlarining tarkibiy qismlari.

Oxirgi oʻn yillar bir qator yoʻnalishlar boʻyicha iqtisodiy rivojlanishning sezilarli tuzilmaviy siljishlari bilan ifodalanadi. Birinchidan, ushbu davr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda industrial iqtisoddan bilimlarga asoslangan, yaʼni yangi bilimlar generatsiyasi va ularni amaliyotda qoʻllash iqtisodiy oʻsish va rivojlanishga kuchli taʼsir koʻrsatadigan iqtisodga oʻtish jarayoni kuzatilmoqda; ikkinchidan, dinamik oʻzgarishlar, kooperatsiya, innovatsion faoliyat subʼektlari oʻzaro integratsion aloqalari bilan mustahkamlangan milliy va mintaqaviy innovatsion tizimlar shakllanmoqda; uchinchidan, ilm talab, yuqori texnologik, innovatsion ishlab chiqarishlar iqtisodiy oʻsish va rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Yuqorida keltirilgan oʻzgarishlarga muvofiq iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish sohasida samarali ilmiy, texnik va innovatsion siyosatni amalga oshirish strategik vazifalardan biriga aylanmoqdi. Bunday siyosatni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari (OTM)<sup>35</sup>ga muhim rol ajratiladi va ularning asosiy vazifasi jamiyatning global rivojlanish tendensiyalari bilan belgilanadigan boʻlib,

---

<sup>35</sup> Oʻzbekiston Respublikasida -- oliy oʻquv yurtlari oliy ta'lim muassasalari deb yuritiladi. Oliy ta'lim muassasalariga universitetlar, akademiyalar, institutlar

OTMlarda yaratilgan yangi bilim va texnologiyalarni uzatish orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Jahon ilmiy hamjamiyati, davlat arboblari, yetakchi iqtisodchilar va tashkilotlar OTMlarni ko'p sonli yirik ilmiy - tadqiqotlar sektori; milliy innovatsion tizimning asosiy elementi; mintaqaviy innovatsiyalar tashkilotchisi (innovatsion klasterlarning markazi, yadrosi); g'oya, bilim, texnologiya bilan yakuniy innovatsion mahsulot o'rtasidagi asosiy bo'g'in; texnologiyalar va bilimlarni noakademik sohaga uzatish jarayonida "harakatga keltiruvchi"; bilimlarga asoslangan texnologiyalarni tijoratlashtirish markazi; bilim va texnologiyalar transferi tizimining asosiy elementi; innovatsiyalarni qidirishning istiqbolli maydoni; ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'sishi va rivojlanishining drayveri va nihoyat global tinchlik institutlari qatoriga kiritishadi.

Dunyoda OTMlar post-klassik rivojlanishi shakllanishining boshlanish davri o'tgan asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davr OTMlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi roli o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Eng ahamiyatli post-klassik OTMlar shakllanishining va ularga nisbatan jamiyatdagi munosabatlar o'zgarishining dastlabki shart-sharoitlari quyidagilardan iboratdir:

- zamonaviy sivilizatsiyaning texnogen xususiyati;
- jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllanishi;
- bilimlarni yaratish jarayonining murakkablashishi;
- talabalar va o'qituvchilar o'rtasida noananaviy fikrlashning hamda ta'lim qadriyatlari tizimining yangi modeli shakllanishi, loyiha faoliyatining rivojlanishi;
- OTMlarda innovatsion salohiyatni shakllantiradigan intellektual, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik, boshqaruv, axborot, tadbirkorlik va boshqa imkoniyatlarning rivojlanishi.

OTMlarga ish tamoyillari va faoliyat ko'rsatish modellarining o'zgarishi bir qator sharoitlar va omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan. Ko'pchilik olimlar, masalan, R. Kovan, A.N. Asaul, S.S. Galazova, B. M. Kaparov, oliy ta'limni hozirgi kunda rivojlanayotgan innovatsion xususiyatga ega bo'lgan "global bilim iqtisodiyoti",

"yangi tipdagi iqtisodiyot" doirasida modernizatsiyalash zarurligini ta'kidlamoqda. OTMlar faoliyati xususiyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan yana bir sharoit global iqtisodiy raqobat ekanligini ta'kidlash lozim. Jahon bankining Oliy ta'lim bo'yicha loyihalar koordinatori D. Salmi, Rossiya ta'lim instituti yetakchi ilmiy tadqiqotchisi I.D. Frumin global va intellektual rivojlanish sohasini, xususan, universitet ta'limi sohasini o'rgangan holda, "jahon darajasidagi universitetlar" o'rtasidagi yuqori raqobatni ta'kidlab, "universitetlar jahon iqtisodiyotining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotgan global ta'lim xizmatlari bozorida eng ilg'or bilimlar va ijodiy "aqlar" uchun global raqobatning asosiy ishtirokchilariga aylanmoqda", deb ta'kidlaydi. F. Maxlup, G. Chesbro, V.V. Ivanter, G.B. Kleyner, T.A. Meshkova, O.V. Perfiliyev kabi ko'plab xorijiy mamlakatlar va Rossiya tadqiqotchilari zamonaviy OTMni tavsiflaganda, o'z diqqatlarini yangi paydo bo'lgan milliy innovatsion tizim, hududiy klasterlar va turli darajadagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida OTMning integratsion aloqalarini kuchaytirishga qaratishadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimining holati va uning rivojlanishining ayrim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari G.Axunova, X.G.Alimdjanov, A.Vaxabov, E.Imamov, B.D.Kalmetov, M.X.Saidov, A.S.Kucharov, E.A.Seytxalilov, Sh.Qurbonov, G.A.Qosimov, D.X.Nabiev, R.M. Usmonova, Sh.Sh.Zaxidova, A.O.Eraliev, A.X Eshbaevlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining marketing, boshqarish, moliyalashtirish va ta'lim bozorini rivojlantirish yo'nalishlari D.X.Nabiev, A.O.Ergashev, Sh.Sh.Zaxidovalar tomonidan o'rganilgan.

E. Nabiyev o'z tadqiqotida ta'limning an'anaviy va yangicha qarashlarini qiyoslagan holda zamonaviy **ta'lim xizmatlari bozorining milliy iqtisodiyotda tutgan** o'rnini asoslab beradi. Ta'lim o'ziga xos soha bo'lib, u ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tarafdin u xalqning ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi tarafdin esa ta'lim xizmatlarini



ko'rsatish orqali mehnat bozoriga malakali ishchi kuchini yetkazib beruvchi soha bo'lib hisoblanadi<sup>36</sup>.

B. Kalmetovning ilmiy izlanishlari ham ta'lim xizmatlari bozorini tadqiq qilishga qaratilgan bo'lib, u ta'lim xizmatlari bozorini milliy bozorning muhim elementi ekanligini ta'kidlaydi va uning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi qonuniyatlarini o'rganishni shartligini asoslab, zamonaviy ta'lim xizmatlari bozorining vazifalarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim sifati va samaradorligini takomillashtirish yo'llari va shart-sharoitlarini intensiv izlab topish va amaliyotga joriy etish bilan tavsiflanadi. Bu borada respublikamiz yetakchi pedagog-olimlari R. Jo'raev, U. Inoyatov, Sh. Qurbonov, M. Seytxalilov, Sh. Sharipov, M. Quronov, Sh. Mardonov, D. Ruzieva, M. Yuldashevlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi

Ta'limning globallashtirish jarayonida OTM faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sohasida xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qator olimlarimiz tomonidan<sup>37</sup> xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish, rivojlantirish tajribalari tadqiq etilgan va ilg'or, samarali tajribalarni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga joriy borasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga mamlakatimiz iqtisodchi va pedagog olimlari ilmiy ishlarida bugungi kungi OTMlarining milliy innovatsion tizimning asosiy elementi, mintaqaviy innovatsiyalar tashkilotchisi, g'oyalar generatori, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi ularni bog'lovchi asosiy bo'g'in, texnologiyalarni

---

<sup>36</sup> [Набиев Э.Г. Сфера услуг в национальном воспроизводстве (теоретические, методологические основы) – Т.: ТГЭУ, 1993. 18 б. ]

<sup>37</sup> A.Muxtorov;Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish buyicha xorij tajribalari" -"Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may  
Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini Boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son, 28-bet  
Rivojlangan davlatlarda oliy ta'limi tizimi. Usmonov B.Ch. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 1-son, 6-bet

tijoratlashtirish markazi, bilim va texnologiyalar transferi tizimining asosiy elementi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o‘shishi va rivojlanishining yetakchisi sifatidagi biz uchun nisbatan yangi rollarini o‘rganishga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Mamlakatimiz OTMni jahon ta’lim xizmatlari bozorida o‘z o‘rnini egallashi yo‘lida OTMlarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi.

Turli mualliflarning ilmiy ishlarini o‘rganib chiqish bizga jahondagi zamonaviy OTMlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar ro‘yxatini tizimlashtirish imkonini berdi (2.1-jadval).

## 2.1.Jadval

### Jahonda zamonaviy OTMlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar<sup>38</sup>

| <b>Jahonda zamonaviy OTMlar shakllanishi shart-sharoitlari</b>                       | <b>Jahonda zamonaviy OTMlar shakllanishi omillari</b>   |
|--|---|
| <b>Global darajada</b>   |   |
| Global iqtisodiy, axborot va ilmiy maydonlarning shakllanishi                        | Axborot tizimi va informatsion jamiyatlar rolining tobora ortib borishi   |
|  | OTMlarning xalqaro ilmiy-tadqiqot konsorsiumlari, bilimlar va texnologiyalar transferi tarmoqlari; innovatsion tarmoqlar bilan integratsiyasi |
| Fan va texnologiyalar sohasining yuqori o‘shish dinamikasi, ularning murakkablashuvi | Fanlararo va tarmoqlararo aloqalar sonining ko‘payishi, konvergent texnologiyalarning rivojlanishi  |
|  | Oltinchi texnologik tizimning shakllanishi <sup>39</sup>  |
|  | Jamiyatda turli jarayonlarning raqamlashtirilishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi   |

<sup>38</sup> Mualliflar tomonidan tizimlashtirilgan va ishlab chiqilgan

<sup>39</sup> Oltinchi texnologik tizim - nano-, bio- va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ("o‘shish nuqtalari") kabi bazaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan tavsiflanadigan jahon texnik-iqtisodiy rivojlanishining yangi shakllanayotgan bosqichi (2010 - 2050 yy); texnologik o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarishlarning yirik majmuasi [44].

|  |  |
|--|--|
| OTMlarning bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko'rsatishi | Quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish tizimining shakllantirilishi: bilimlar generatsiyasi, bilimlar ni joriy qilish, innovatsion mahsulot va xizmatlar ko'rinishidagi bilimlarni sotish va tarqatish   |
| Jahon mahsulot va xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi                              | Innovatsiyalarning tez tarqalishi va kirib borishi   |
|  | Yirik yuqori texnologiyali biznesni yuritish, sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida dunyo bo'ylab innovatsion markazlarni yaratish, jahonning yetakchi OTMtlari ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari bilan hamkorlik qilish bilan tavsiflangan transmilliy korporatsiyalar sonining ko'payishi. |
|  | Intellektual mulk bozorining innovatsiya natijalarini amalga oshirish va joriy etish bosqichidagi yetakchi roli  |
| <b>Makrodarajada (milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizim darajasida)</b>                        |  |
| Mamlakatlar tomonidan innovatsion rivojlanish strategiyasining qo'llab-quvvatlanishi     | Mamlakatni innovatsion rivojlantirish sohasida strategik rejalashtirish va prognozlashtirish faoliyatini tashkil qilish  |
|  | Davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish   |
|  | OTMlar rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlovchi konkursli mexanizmlarni shakllantirish  |
| Innovatsion-tadbirkorlik muhitini shakllantirish   | Tashkilotlar innovatsion faolligini oshirish   |
|  | Venchur bozorida xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni ko'paytirish   |
| O'zaro hamkorlik tarmog'ini shakllantirish   | Muvofiq innovatsion infratuzilmaga ega milliy innovatsion tarmoqlarni va innovatsion ekotizimni shakllantirish   |
| <b>Mintaqa (hudud) darajasida</b>  |  |
| Mintaqa (hudud) darajasida o'zaro hamkorlik tarmog'ini shakllantirish                    | OTMlarning innovatsion faoliyati jarayonida talab etiladigan hamkorlik sohalariga muvofiq hududiy tarmoqlararo hamkorliklar sonining ko'paytirish  |
|  | Mintaqaviy darajada nafaqat vertikal, balki gorizontal aloqalarni o'z ichiga oladigan OTMlar va davlat muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimining murakkablashishi   |

|   |   |
|---|---|
|   | Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya (hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish)   |
| <b>OTM darajasida</b>   |   |
| Amaldagi bozor mexanizmlarining va tashqi innovatsion jarayonlarning OTMlar tashkiliy tuzilmasi va innovatsion infratuzilmasiga ta'siri | OTMlar, shu jumladan ularning ichki ilmiy va o'quv bo'linmalari faoliyatini reyting asosida baholash  |
|   | OTMlarda ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ularning natijalarini tijoratlashtirish vazifalarini bajarish zaruriyatini keltirib chiqaradigan, rivojlanishga turtki bo'ladigan raqobat muhitining ta'siri. |

Yuqoridagi shart-sharoit va omillar ta'sirida zamonaviy OTMlarning shakllanishi va rivojlanishi dunyoda fan, texnologiya va innovatsiya ko'rsatkichlarining o'sishi bilan bir vaqtda amalga oshirilgan.

Jahonda ilmiy-texnologik va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarining o'sishiga dunyoning yetakchi OTMlari ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va iqtisodning biznes sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy asosdagi o'zaro integratsion hamkorlik bilan bog'liq jarayonlar katta ta'sir ko'rsatgan. "Universitet - ilm talab ishlab chiqarish" tandemini shakllantirish sohasidagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodchi olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilishga imkon bergan va keyinchalik bozorga yo'naltirilgan universitet (OTM) ning ilmiy paradigmasini nazariy jihatdan umumlashtirish va tushunishga harakat qilingan. XX-asr oxirida zamonaviy OTMning intellektual mehnat, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy, moddiy, ma'rifiy, ma'muriy va boshqa resurslardan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ehtiyojlarini qondirishga asoslangan bozorga yo'naltirilganlik tamoyili konsepsiyasining vujudga kelishi "tadbirkor universitet" nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga asos solgan. Ta'kidlash joizki, "tadbirkor universitet" atamasi Kaliforniya universiteti professori Burton R. Klark

tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, 1998 yilda uning asosiy xususiyatlari va faoliyat ko'rsatish tamoyillarini shakllantirgan:

- 1) boshqaruv markazini mustahkamlash;
- 2) OTMdan tashqaridagi guruhlar va tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirish;
- 3) faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;
- 4) OTM bo'linmalarining tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish;
- 5) har tomonlama tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish.

Tadbirkor universitet nazariyasining keyingi nazariy - metodologik asoslari D. Uilyams, G. Iskovis, L. Leysdorf, D. Salmi tomonidan shakllantirilgan. Tadbirkor universitet (OTM)ning ilmiy paradigmasi boy nazariy manbalarga ega bo'lib, ularning diqqat markazida innovatsiyalar natijalarini tijoratlashtirish va yaratilgan bilim va texnologiyalarning samarali uzatilishini shakllantirish masalalari yotadi. Tadbirkor universitet (OTM) ilmiy paradigmasi genezisiga ta'sir ko'rsatuvchi tizimlashtirilgan asosiy ilmiy nazariyalar va konsepsiyalar, 1.1 jadvalda keltirilgan.

2.2 jadvalda taqdim etilgan, innovatsion faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirilgan tadbirkor OTMlarning ilmiy paradigmasini shakllantirishga oid ilmiy g'oyalar va qarashlar, bizga quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- XX asr oxiri - XXI asr boshlarida bilimlarni yaratish, to'plash, saqlash, uzatish va jamiyatda tarqatish borasidagi oliy ta'lim muassasalarining vazifalari dolzarb hisoblanadi;

- iqtisodiyot raqobatbardoshligining asosiy omillari sifatida ilmiy-tadqiqot sohasi ishtirokida ilm sig'imli va yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish orqali shakllanadigan ilm sig'imli va yuqori texnologiyalar tan olingan;

- tadbirkor universitetlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda integratsion hamkorlik va innovatsion faoliyatni amalga oshirish orqali iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishni ta'minlashda salmoqli hissa qo'shmoqdalar.

## 2.2. jadval

### Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan tadbirkorlik universitetining ilmiy paradigmasi genezisiga ta'sir etgan ilmiy nazariyalar va konsepsiyalar

| Ilmiy nazariya, konsepsiyaning asosiy g'oyasi  | Tadbirkor OTM nazariyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi unsurlar, muallif qarashi   |
|--|--|
| Iqtisodiy kon'yunkturaning yirik sikllari nazariyasi (1920-yillar);<br>Kondratiev N.D.   |  |
| Ilmiy - texnologik yangiliklar iqtisodiyot tuzilmasini qayta qurishning muhim omili  | Ilmiy hamjamiyatda OTMlarning fundamental ilmiy tadqiqotlarining amaliy ahamiyatiga chuqur e'tibor shakllanadi   |
| Innovatsion rivojlanish nazariyasi (1930-yillar); Shumpeter J.A.   |  |
| Iqtisodiy rivojlanishning lokomotivi dinamik jarayondagi innovatsiyalar hisoblanadi. Unda yangi texnologiyalar eskilarini almashtiradi va bu jarayon "ijodiy vayrona" deb ataladi. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishining mohiyati pirovardida mehnat unumdorligi va umumiy farovonlikning o'sishini taminlaydigan novator tadbirkorlar tomonidan innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni bilan aniqlanadi | Oliy ta'lim muassasalarining jamiyat ehtiyojlarini innovatsion olimlar faoliyatini rivojlantirish va unga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali qondirish imkoniyatlari, bu esa jamiyatdagi innovatsiyalarga olib keladi |
| Bilimlar iqtisodiyoti nazariyasi (1960-yillar) Druker P.; Maxlup F.; Makarov V.L., Kleyner G.B.  |  |
| Nazariyada iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omillari nomoddiy: bilim, inson kapitali, deb tan olingan  | OTMda intellektual mehnat resurslarining yuqori konsentratsiyasi tufayli u bilimlarning eng kuchli generatori va bilimlarni qayta ishlab chiqarish zanjirida markaziy ishtirokchi sifatida tan olinadi                                       |
| Klasterlarni rivojlantirish va mintaqalararo raqobat nazariyasi (1990 yillar) Porter M.; Enrayt M.; Kuk F.   |  |
| Ushbu iqtisodiy nazariyada "klaster" atamasi muomalaga kiritilgan bo'lib, u "ma'lum bir sohada birlashgan va bir-birini o'zaro to'ldiradigan umumiy faoliyat bilan shug'ullanadigan jug'rofiy jihatdan qo'shni bo'lgan kompaniyalar va ularga tegishli   | OTMning tadbirkorlik faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan hududiy iqtisodiy klasterlar bilan integratsiyasi darajasiga bog'liq  |

|   |  |
|---|--|
| <p>tashkilotlar guruhi" deb ta'riflanadi. Iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini oshirishning klasterga asoslangan usuli asoslab berilgan.</p>  |  |
| <p>Texnologik tizimlar va innovatsion taraqqiyot konsepsiyasi (1980-yillar) Glazev S.Yu.; Perez K.; Yakoves Yu.V.</p>   |  |
| <p>Texnologik o'zaro bog'liq yirik ishlab chiqarish majmualari (texnologik tizimlar)ni birin-ketin almashtirish jarayonini o'tkazish asosida uzoq muddatli texnik-iqtisodiy rivojlanishning mohiyatini ochib beradi. Texnologik tizimlar mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi va bazaviy innovatsiyalarning butun boshli majmuasini amalga oshiradi. Konsepsiya zamonaviy uzoq muddatli texnik- iqtisodiy rivojlanishning innovatsion taraqqiyotga turtki bo'ladigan oltinchi texnologik tizimga o'tishini asoslab beradi.</p> | <p>OTMLar innovatsion faoliyati natijalarining zamonaviy texnologik tizimga mansubligi unga asoslangan ilm talab mahsulot va xizmatlarni samarali amalga oshirish va global iqtisodiy makonga integratsiyalanish ehtimolini oshiradi.</p>                  |
| <p>Bilimlar va texnologiyalarni uzatish konsepsiyasi (1980 yillar oxiri) Argot L., Ingram P.; Matkin D.; Raysman A.; Grudzinskiy A.O., Bedный A.B.; Mindeli L.Ye., Kazansev L.K.; Fonshteyn N.</p>  |  |
| <p>Yaratilgan bilim va texnologiyalarni turli darajadagi va xarakterdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga (tashkilotlar, firmalar, korxonalar, mintaqaviy, milliy, global iqtisodiy tizimlar va boshqalar) uzatish ("o'tkazish")ni ta'minlovchi tashkiliy jarayonlar va tizimlarni tavsiflaydi. "Davlat - xususiy sektor" tizimida bilimlar transferi imkoniyatlari tadqiq etiladi</p>   | <p>OTM faoliyatida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga va shunga muvofiq ravishda ijtimoiy-iqtisodiy samaraga hissa qo'shadigan yaratilgan bilim va texnologiyalar transferini rivojlantirish ustuvor vazifa, deb tan olinadi.</p>                  |
| <p>Intellektual kapital konsepsiyasi (XX asrning 90-yillari o'rtalari) Yedvinsson L., Meloun M.</p>   |  |
| <p>Konsepsiya yuqori sifatli intellektual kapital (inson kapitali ijodi mahsuli, nomoddiy aktivlar, strukturaviy kapital) ni shakllantirishga asoslangan intellektual tashkilot, firmani iqtisodiy asoslashni taklif etadi kapital.</p>   | <p>OTMlarning faoliyati an'anaviy yo'nalishlardan tashqari, iste'dotli yoshlarni, mutaxassislarni, novator olimlarni jalb qilish, shuningdek intellektual mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, OTMLar</p> |

|  |   |
|--|---|
|  | intellektual mulk bozorini shakllantirish ishtirokchilariga aylanadilar   |
| <p>"Uchlik spiral" konsepsiyasi (XXI asr boshlari)<br/>Iskovis G.; Leydesdorf L.</p>   |   |
| Innovatsion mahsulotni yaratishning har bir bosqichidagi uch institut (fan (yoki OTM) - davlat-biznes) o'rtasidagi tashkilotlararo o'zaro hamkorlikni tavsiflaydi. Spiral tuzilishidagi bunday o'zaro hamkorlik OTMlarga bir-birlarining ba'zi bir xususiyatlarini qabul qilish va qo'llash imkonini beradi.   | OTMning tadbirkorlik salohiyati ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va davlat sektorlari bilan ham iqtisodiy, ham tashkiliy asosda yaqin o'zaro hamkorlik natijasida yuzaga keladi.   |
| <p>"Ochiq innovatsiyalar" konsepsiyasi (2003 y.)<br/>Chesbro G., Kristensen D., Olsen M., Xippel E, Monastirny YeA, Grik Ya.N.</p>   |   |
| Innovatsion faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro muloqot va hamkorlikning o'sishi hisobiga kuchayadi   | Bilimlar va ular asosida yaratilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarning tarqalishi OTMlar, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, kichik innovatsion kompaniyalar, rivojlanish institutlari, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va innovatsion faoliyatning boshqa ishtirokchilari say-harakatlarini birlashtirish asosida amalga oshiriladi   |
| <p>Innovatsion universitet (OTM) konsepsiyasi, (2000 - yillar)<br/>Asaul A.N., Kaparov B.M., Vladimirov A.I.</p>   |   |
| Konsepsiya OTMlar talabalari va o'qituvchilari muhitidagi intellektual salohiyat va novatorlik fazilatlarini qo'llagan holda OTMlar faoliyati ro'yxatida innovatsion tarkibiy qism sifatida o'quv faoliyati, ilmiy-texnikaviy (ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik ishlar) faoliyat, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zaruriyati mavjud ekanligini taklif qiladi va asoslaydi. | OTMlarning tadbirkorlik faoliyati bajariladigan quyidagi vazifalar xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos innovatsion xarakterga ega:<br>- ilmiy va innovatsion salohiyatni rivojlantirish;<br>imkoniyatlar;<br>- jamiyat va tashkilotlarning ehtiyojlarini (ta'lim, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalarda) qondirish;<br>- universitetda yaratilgan texnologiyalar asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish;<br>- innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish. |

Manba: jadval mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan



Zamonaviy OTMLar faoliyatining yuqorida keltirilgan tendensiyalari ilmiy hamjamiyatlarda e'lon qilingan, ularning ish faoliyati xususiyatlarini ochib beruvchi modellarda o'z aksini topgan. 2.1-rasmda zamonaviy OTMLarning ishlash xususiyatlarini tavsiflovchi modellarning tipologiyasi taklif qilingan.

| Model nomi  | Model tavsifi  |
|---|--|
| OTMning asosiy maqsadli yo'nalishi, vazifalari, ichki muhitini shakllantirish darajasida taqdim etilgan modellar                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish orqali global ilmiy va ta'lim makonida raqobatdoshlikni ta'minlash</li> <li>biznes- modellarga asoslangan boshqaruv tizimlari;</li> <li>amaliy foydalanish sohagsiga bilim va texnologiyalarni uzatish tizimlari</li> </ul>  |
| OTMLar faoliyat yo'nalishida innovatsiyalarga yo'naltirilgan tarkibiy qismga asoslangan model   | <ul style="list-style-type: none"> <li>Ilmiy innovatsion salohiyatni rivojlantirish;</li> <li>jamiyat va tashkilotlarning ehtiyojlarni (ta'limda, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar va boshqalar) qondirish;</li> <li>OTMLarda yaratilgan texnologiya asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish;</li> <li>innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish</li> </ul> |
| Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bilan integratsion o'zaro hamkorlik sharoitidagi model  | <ul style="list-style-type: none"> <li>OTMning innovatsion tizimi darajasida va undan tashqarida mantiqiy qurilgan aloqalarni rivojlantirish</li> </ul>  |
| OTMning infratuzilmaviy tarkibiy qismlariga asoslangan model  | <ul style="list-style-type: none"> <li>Uzluksiz innovatsion siklni ta'minlaydigan ilmiy- ishlab chiqarish, o'quv va ijtimoiy-madaniy zonani o'z ichiga olgan tadqiqot parklarini (tadqiqot markazi va biznes o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi maxsus infratuzilma) yaratish</li> </ul>   |
| OTMLarning milliy iqtisodiyot va uning innovatsion tizimini rivojlantirishda roli va ahamiyatini ta'kidlaydigan makroiqtisodiy modellar         | <ul style="list-style-type: none"> <li>OTMLar innovatsion loyihalarni amalga oshiradigan milliy innovatsion tizimning elementlaridir</li> </ul>  |
| Faoliyat yo'nalishlarida innovatsion tarkibiy qismga e'tibor qaratadigan OTMLarning mintaqaviy darajada xususiyatlarini aks ettiruvchi modellar | <ul style="list-style-type: none"> <li>OTM faoliyati yo'nalishlarini mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizim darajasida amalga oshirish</li> </ul>   |

**2.1-rasm. Zamonaviy OTMLar faoliyatining xususiyatlarini tavsiflovchi modellar tipologiyasi<sup>40</sup>**

<sup>40</sup> Mualliflar ishlanmasi

2.1-rasmda ifodalangan modellarning asosini, birinchidan, tadqiqot universitetlari g'oyasi (tadqiqot universitetlari tushunchasi birinchi marta XIX asrda nemis olimi V.Gumboldt tomonidan shakllantirilgan) tashkil etadi. Unda ta'lim va ilmiy tadqiqot integratsiyalashgan, xususan, fundamental tadqiqotlarning natijalari talabalar o'quv jarayonida ishlatilgan. Ikkinchidan, XX asr o'rtalarida AQSh yetakchi universitetlari rivojlanish tajribasidan olingan g'oya hisoblanadi. Unga ko'ra OTMlarning kuchli o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish majmualari biznes tuzilmalari, ishlab chiqarish va xizmatlar sohalari, menejment tizimlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Taklif etilayotgan tipologiyaga ko'ra, zamonaviy OTMlar faoliyatini o'rganish nuqtai nazaridan ilmiy qarashlarni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asosi bo'lgan birinchi darajali modellarga OTMning asosiy maqsadlari, vazifalari, ichki muhitini shakllantirish darajasidagi, shuningdek global iqtisodiy makonda uning raqobatdoshligiga ta'sir qiladigan omillar va sharoitlar darajasida taqdim etilgan nazariy modellar kiradi. Xususan, professor Djon Nilend jahon miqyosidagi tadqiqot universiteti (OTM) modelining asosiy tarkibiy qismlariga yuqori reputatsiya, iste'dodlarning to'planishi, ilmiy izlanishlarning sifati va ularni amalga oshirishga talabalarni jalb qilishni kiritadi.

"Tadqiqot universitetining yangi global modeli"ni shakllantirish bo'yicha izlanishlarni davom ettirib, D. Salmi va I. Frumin, OTM faoliyatining asosiy maqsadi oliy ta'limning globallasuvi sharoitida yuqori raqobatdoshlikni shakllantirish va natijada dunyoning eng yetakchi universitetlari reytingidan o'rin egallashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish bilim va texnologiyalarni uzatish tizimini yaratish vazifasini a'lo darajada bajarish orqali amalga oshiriladi. "Jahon miqyosidagi universitet" shakllanishiga yordam beradigan asosiy omillarga olimlar quyidagilarni kiritishadi: iste'dodli o'qituvchilar va talabalarning yuqori salmog'i mavjudligi; o'qitish va ilgg'or tadqiqotlar o'tkazish uchun sifatli sharoitlarni yaratish maqsadida resurslar bilan yetarlicha ta'minlanganligi; universitetlarga strategik innovatsion va moslashuvchan yondashuvlarni qo'llashga imkon

beradigan boshqaruv tizimi mavjudligi; kuchli ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar komponentiga egaligi; biznes va innovatsion tizim bilan yaqin institutsional aloqalar borligi; bitiruvchilarga mehnat bozorida talab darajasining yuqoriligi; davlat va nodavlat manbalari tomonidan katta miqdordagi moliyalashtirish mavjudligi; muhim xalqaro komponentga egaligi; yuqori mustaqillik darajasi borligi.

D. Uilyams, G. Itkovis, B. Klark, P. Xannonning innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan tadbirkorlik universitetini shakllantirish bo'yicha ilmiy ishlarining sharhi bizga quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratib olishga imkon beradi:

- rivojlanish strategiyasi va yetakchilikka intilish;
- universitetning ichki muhiti;
- fanlararo tadqiqotlar bazasi;
- faoliyatni moliyalashtirishning turli manbalari;

- talabalarni dars mashg'ulotlarida rasmiy o'qitish va talabalar strtaplarini moliyalashtirish va maslahat yordamini ko'rsatish bilan qo'llab – quvvatlashni ta'minlaydigan infratuzilmani yaratish orqali tadbirkorlik jarayoniga jalb qilish natijasida shakllanadigan tadbirkorlik madaniyati;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi;
- o'qituvchi va talabalarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish;
- universitetning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga tasiri.


Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi Ya.M. Mirkin, OTM faoliyatining asosiy xususiyati "ikki tabiatli" universitetlar modeli bilan tavsiflanadigan oliy ta'limning korporativlashuvi deb hisoblaydi:

- budjet (budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajaradigan muassasa);
- tijoriy (o'z daromadlarini maksimallshtirishga intiladigan ta'lim va ilmiy xizmat ko'rsatish bozorida iqtisodiy jihatdan mustaqil agent).

Universitetning asosiy maqsadli yo'nalishlari, vazifalari va ichki muhitini shakllantirish darajasidagi modellarni tavsiflash bo'yicha tadqiqotlarni o'rganish

bizga zamonaviy OTMning ichki muhitni shakllantirish darajasidagi umumlashtirilgan modelni ishlab chiqish imkonini beradi (2.2-rasm).


XXI asr boshlarida, bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishi va jahonda fan, texnologiya va innovatsiyalarning rivojlanishi sari, tadqiqotchilar o'z e'tiborlarini innovatsion komponentga ega universitetlar faoliyatini ko'rsatadigan modellarni o'rganishga qaratadilar. Ilmiy nashrlarni ko'rib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, aksariyat mualliflar universitetlar faoliyatiga innovatsion tarkibiy qismni kiritish zarurligini asoslab berishadi. Masalan, A.I. Vladimirov OTMlarning innovatsion tarkibiy qismiga innovatsion o'quv faoliyatini; ilmiy va innovatsion faoliyat (ITI va ishlab chiqarish faoliyati); turli xil xizmatlarni taqdim etish (axborot-tahliliy, marketing, servis xizmat ko'rsatish, iqtisodiy va menejment, konsalting, kadrlar, muhandislik va boshqalar)ni kiritadi. A.S. Bovkun, V.Yu. Tyurina OTMlarning innovatsion faoliyatiga ishlanmalarni yaratish va tijoratlashtirish, intellektual resurslarni bozor aktiviga aylantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlardan, metodlardan, o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni kiritishadi.



**2.2 –rasm. Zamonaviy OTM faoliyatining ichki muhitni shakllantirish darajasidagi umumlashtirilgan nazariy modeli<sup>41</sup>**

<sup>41</sup> Salmi, J. The Challenge of Establishing World-Class Universities: Directions in Development. Washington, DC: World Bank / J. Salmi. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://portal.unesco.org/education/en/files/55825/12017990845Salmi.pdf/Salmi.pdf>.

Tadqiqotchilar A.O. Grudzinskiy va A.B. Bedniylar universitetlar (OTMlar) "uchinchi missiya" (bilim va texnologiyalarni uzatish asosidagi tadbirkorlik)ni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojni asoslab, innovatsion universitet (OTM) ning funksional modelini aniqlashtiradilar. Olimlar "bilimlar uchburchagi" konsepsiyasiga muvofiq innovatsion universitet faoliyatining modelini taklif qilishadi: ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish va integratsiyalash (2.3-rasm).



**2.3-rasm. Innovatsion tarkibiy qismga ega universitetlar faoliyatining umumlashtirilgan nazariy modeli<sup>42</sup>**

<sup>42</sup> Грудзинский, А.О., Бедный А.Б., Трансфер знаний – функция университета / А.О. Грудзинский, А.Б. Бедный // Высшее образование в России. – №9. – 2009. – С. 66-71

A.N. Asaul, B.M. Karpovlar fikriga ko'ra universitetning innovatsion faoliyati birinchi navbatda innovatsion boshqarish konsepsiyasiga asoslanishi kerak. Shu asosda mualliflar biznes-jarayonlarni boshqarishda innovatsion yondashuv g'oyasini olg'a surishadi. Xususan, "Innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi oliy o'quv yurtini boshqarish" kitobida zamonaviy OTMning faoliyatidan biri innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, deb ta'kidlashadi.

Yuqoridagilarni xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy OTMlarning amaldagi modelida innovatsion tarkibiy qism mavjudligi innovatsion faoliyatni, jumladan uning ham an'anaviy bosqichlari (ITIn olib borish, ishlab chiqarishni loyihalash, ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, marketing tadqiqotlari, intellektual natijalarni tijoratlashtirish)ni amalga oshirishni, ham noan'anaviy (innovatsion komponentni ta'lim faoliyatiga joriy etish, innovatsiyani amalga oshirishda integratsion hamkorlikni, innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning yangi yo'nalishlari izlash va boshqalar)ni amalga oshirishni taqozo etadi. OTMlar faoliyati yo'nalishlarining kengayishi va ularning rivojlanishida innovatsiyalarning tutgan o'rni oshib borishi bilan ilmiy hamjamiyatda "innovatsion universitet" atamasi joriy qilindi va universitetda yaratilgan yangi bilimlarni, shu jumladan, inson faoliyatining xilma-xil (tabiiy fanlar, texnik va ijtimoiy-gumanitar) sohalaridagi texnologiyalarni jadal va keng miqyosda uzatish orqali jamiyatning jadal rivojlanishiga ko'maklashadigan tashkilot sifatida e'tirof etildi. Bunday tashkilotning asosiy xususiyati, birinchi navbatda, intellektual resurslar, ta'lim, tadqiqot va biznes muhiti mavjudligidir.

Infratuzilma tarkibiy qismlariga (komponentlariga) asoslangan universitetlarning amaldagi modellariga alohida etibor qaratish lozim. Umuman olganda, OTMning innovatsion infratuzilmasi deganda OTMlar tomonidan innovatsion jarayonlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan tashkiliy-iqtisodiy institutlar va bo'linmalar majmui tushuniladi. Majmuadagi innovatsion faoliyat tarkibiy qismlarini to'liq universitetning tashkiliy va iqtisodiy tizimining

elementi (innovatsion tizim, tadbirkorlik ekotizimi va boshqalar) sifatida kiritish mumkin. Xususan, chet ellik tadqiqotchi Yan Maksvell innovatsion faoliyat ishtirokchilari (ichki bo'linmalar va innovatsion faoliyatning tashqi sub'ektlari) o'rtasidagi texnologiyalar va intellektual mulk transferi, ularni tijoratlashtirish jarayonidagi o'zaro munosabatlar tizimiga asoslangan innovatsion faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan "universitetlarning tadbirkorlik eko tizimini" yaratish zaruratiga o'z e'tiborini qaratgan. Bunday ishtirokchilar qatoriga olim ilg'or tajribalar markazlari, korxonalar markazlari, texnoparklar va inkubatorlar, davlat maqsadli moliyalashtirish jamg'armalari, o'quv va treninglar o'tkazish bo'limlari, universitetning "ekish investitsiyasi" jamg'armalari, ilmiy-tadqiqot ishlari buyurtmachilari, spin-off kompaniyalar, tashqi venchur kapitalistlarini kiritadi.

OTMLar innovatsion faoliyatiga oid xorijiy tajribalarni tizimlashtirish, innovatsion infratuzilmani shakllantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari (vazifalari)ni ajratish imkonini beradi:

- kichik innovatsion biznesni tashkil qilish;
- tadqiqotlarni rag'batlantirish;
- texnologiyalar transferini ta'minlash;
- tadbirkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish;
- faol tadbirkorlikni rag'batlantirish.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar (vazifalar)ni yanada aniqlashtirish maqsadida OTMLar innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlaydigan innovatsion infratuzilmaning asosiy tarkibiy unsurlarini belgilaymiz:

- moliyaviy infratuzilma (davlat, xususiy, davlat-xususiy, xalqaro institutlar, tarmoq korxonalari, kredit tashkilotlari, turli homiylik mablag'lari, biznes farishtalar);
- ta'lim va ilmiy infratuzilma (ITI, o'quv markazlari, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, konsalting va axborot-tahlil markazlari va boshqalar);

- innovatsion faoliyat natijalari transferini ta'minlaydigan infratuzilma (texnologiyalar transferi ofislari, tijoratlashtirish markazlari, intellektual mulkni boshqarish markazlari, texnologiyalarni patentlash va litsenziyalash ofislari va boshqalar);

- ishlab chiqarish va texnologik infratuzilma (texnopolislar, kichik innovatsion korxonalar, jumladan OTM hududida yaratilgan, biznes-inkubatorlar, maxsus iqtisodiy zonalar va boshqalar);

- ilmiy – ishlab chiqarish infratuzilmasi – tadqiqot markazlari va biznesni birlashtiradigan, startap bosqichida tadqiqotchilar ishtirokida kichik yuqori texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ilmiy-tadqiqot parklari va texnopark tuzilmalarini, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, kichik innovatsion va yuqori texnologiyali korxonalar, biznes-inkubatorlar, mintaqaviy ilmiy-ishlab chiqarish tizimlari (ilmiy-texnologik klasterlar, innovatsion klasterlar)ni yaratishga asoslangan kompleks innovatsion infratuzilma;

- kadrlar tayyorlash infratuzilmasi (qayta tayyorlash va malakani oshirish institutlari, tadbirkorlik markazlari va boshqalar);

- axborot infratuzilmasi (texnologiyalar transferi markazlari, biznes farishtalar tarmog'i kabi manbalardan tegishli axborotlarni olish imkonini beradigan injiniring markazlari, davlat tuzilmalari, integratsion birlashmalar).

Makro darajadagi zamonaviy universitetlarning amaldagi modellari tavsifiga o'tadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotchilar ko'p hollarda universitetlarning milliy innovatsion tizimni (MIT) shakllantirishdagi o'рни va ahamiyatiga e'tibor qaratishadi.

Aksariyat olimlar OTMlarni MITni belgilaydigan asosiy unsur, zarur bilim va qisman texnologiyalar bilan ta'minlaydigan baza sifatida qarashadi. Masalan, mualliflar M.N. Rudenko, A.A. Glumova MITdagi korxonalar, OTMlar va davlat ilmiy muassasalarining o'zaro hamkorligi natijasida vujudga keladigan bilim va axborot oqimini shakllantirishda OTMlarning muhim rolini ta'kidlashadi. Tadqiqotchilar fikricha, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tadqiqotlarning



sifati va ilmiy-tadqiqot institutlarining sanoat bilan o‘zaro hamkorligi innovatsiyalarni ilgari surishda eng muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, tuzilmaviy OTMLar milliy innovatsion tizim (MIT)ning ilmiy-tadqiqot sektoriga mansub. Shu bilan birga, MITning muhim unsurlari sifatida venchur kapitali, kichik innovatsion korxonalar, innovatsion infratuzilma, hududiy iqtisodiy klasterlar, mintaqaviy innovatsion tizimlar, davlat sektorini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Milliy innovatsion tizimda universitetlar faoliyatining ajralib turadigan xususiyati uning yuqorida ko‘rsatilgan barcha unsurlar bilan yaxlit o‘zaro hamkorligidir.

OTMLar tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy amaliyoti innovatsion jarayon natijadorligini ta’minlovchi milliy innovatsion tizimdagi turli darajali (to‘rsimon) integratsion hamkorlikni ta’kidlaydi. OTMLar faoliyatining integratsion hamkorlik nuqtai nazaridan mavjud modellarining mohiyati ilm talab, yuqori texnologiyali, innovatsion mahsulotni yaratishning har bir bosqichida ishtirokchilarning, shu jumladan OTMLarning, innovatsion jarayonlardagi o‘zaro aloqadorligini tavsiflashdir. Shu bilan birga, olimlar yuqori texnologiyalarni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan sanoat tuzilmalari va universitetlarning o‘zaro hamkorligiga, fundamental va amaliy fan yutuqlariga asoslangan yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga katta ahamiyat beradilar. Bunday o‘zaro hamkorlikda universitetlarning asosiy vazifalaridan biri yangi bilimlarni yaratish va ular asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi.

Masalan, "uchlik spiral" modeli OTMning tadbirkorlik va innovatsion salohiyatini tavsiflaydi va innovatsion tarkibiy qismni yaratishga hissa qo‘shadigan "fan-davlat-biznes" ko‘rinishidagi tashkilotlararo o‘zaro hamkorlik doirasida ushbu salohiyatdan foydalanish imkoniyatlarini asoslaydi. "Tetraedr" modelida OTMning innovatsion infratuzilmasi o‘z bilim sohalarida innovatsiyalarda ishtirok etish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlaydigan "laboratoriya bazasi" vazifasini o‘taydi.

Ilmiy hamjamiyatning innovatsion jarayonlarni tadqiq etish sohasidagi empirik va nazariy tajribasi ilm-fan va amaliyotning integratsiyasi masalalarini yanada chuqurroq o'rganishga va innovatsion mexanizmlardan foydalangan holda innovatsion faoliyatni faollashtirishga olib keladigan innovatsion tizimlardagi bilimlar iqtisodi institutlarining hamkorligi va kooperatsiyasining xususiyatlarini ochib beradigan OTMLar integratsion o'zaro hamkorligining nazariy modellarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy OTMLar innovatsion ilmiy - tadbirkorlik majmualari bo'lib, unda quyidagi faoliyat turlari va ularga tegishli funksiyalar amalga oshiriladi:

- o'quv faoliyati - o'quv va ilmiy-malaka funksiyalarini, qo'shimcha va uzluksiz ta'lim funksiyalarini amalga oshirish;

- ITI amalga oshirish (ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish) – ilmiy-tadqiqot va intellektual funksiya;

- tadbirkorlik faoliyati - iqtisodiy funksiya;

- innovatsion faoliyat – novatorlik, ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish funksiyasi;

- strategik rejalashtirish va prognozlash - uzoq muddatli rejalashtirish funksiyasi.

Tadqiqotchilar va iqtisodchilar fanlar, texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi mavjud sharoitlar va tendensiyalarning o'zaro bog'liqligi ta'siri ostida shakllantirilgan zamonaviy OTMLar faoliyatining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatishadi:

- yaratilgan bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslariga uzatishda markaziy rolda ishtirok etish;

- ochiq va moslashuvchan tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini shakllantiradigan va boshqaruv bo'g'inini mustahkamlashga hissa qo'shadigan OTMning biznes-modellarini joriy etish;

- universitet "kampuslari" ning mintaqaviy taqsimoti;

- innovatsion faoliyat natijalarini tijorlashtirish muammolarini hal etish, har tomonlama tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishga asoslangan OTM iqtisodiy funksiyasi ahamiyatining tobora oʻsib borayotgani;

- tegishli innovatsion infratuzilmani, shu jumladan OTMni innovatsion - tadbirkor sifatida tavsiflashga imkonini beradigan kichik innovatsion korxonalarni yaratish bilan OTMning innovatsion faoliyatini rivojlantirish;

- OTMning turli darajadagi va xarakterdagi tizimlarda ishlashi (bilim va texnologiyalar transferining mintaqaviy tizimi, innovatsion ekotizim, ilmiy-texnikaviy tizim, mintaq va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, jahon iqtisodiy makoni va boshqalar);

- OTMlarning davlat sektori, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalari bilan yaqin hamkorligi va oʻzaro aloqadorligi;

- turli fan sohalarida qoʻshma innovatsion loyihalarni amalga oshirish zarurati tufayli innovatsion faoliyatni amalga oshirishda fanlararo aloqalarni rivojlantirish;

- innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari tuzilmasini xususiy investitsiyalar ulushi ustunligi bilan oʻzgartirish;

- istiqbolli ilmiy yoʻnalishlar roʻyxatiga kiritilgan va kelajakda amaliy foydalanish uchun ilmiy-texnik asos boʻla oladigan fundamental tadqiqotlarga eʼtibor qaratish;

- global ilmiy, taʼlim va iqtisodiy tizimga yuqori darajada integratsiyalashish;

- mintaq iqtisodiy rivojlanishiga hissa qoʻshish;

- dunyoning boshqa mamlakatlaridan yosh olimlar va talabalarni OTMga faol jalb qilish;

- ayrim tadqiqot sohalarida yuqori mavqega ega boʻlish va yetakchilik qilish;

- mustaqil ekspertlar hamjamiyatlarini shakllantirishda OTMlarning faol ishtirokini taʼminlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, tavsif etilgan modellarni jamiyatning innovatsion jarayonlarida ishtirok etadigan OTMlarni rivojlantirishning yangi innovatsion modellar qatoriga kiritadilar. Zamonaviy OTMlar faoliyatining umumlashtirilgan modeli ularning o'quv, ilmiy va iqtisodiy faoliyat olib borishini, shuningdek uning tarkibida innovatsion infratuzilma ob'ektlari mavjudligini ta'kidlaydi. Shu asosda OTMlar, bir tomondan innovatorlar avlodini o'qitish va bitkazish, boshqa tomondan esa iqtisodiyotning turli sohalari uchun innovatsion g'oyalar va mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash uchun modellarni yaratmoqda. Bunday modellarni O'zbekiston sharoitida OTMlarda yaratish uning asoslarini batafsil o'rganish va keng targ'ibot etishni talab etadi. Shuning uchun, ushbu o'quv qo'llanmada biz, avvalambor, bilim va ularni boshqarishga oid bir qator foydali tushunchalar berishni, so'ng innovatsion faoliyatning asosiy vosita bo'lib xizmat qiladigan transfer g'oyasi, bilimlar va texnologiyalarni uzatish hamda transfer jarayonida foydalaniladigan modellar, uslublar va dastaklarni keltirishni maqsad qilib qo'ydik.

### **Nazorat savollari**

1. Dunyoda OTMlar post-klassik rivojlanishi shakllanishining boshlanish davri qaysi asrga to'g'ri keladi?
2. OTMlar shakllanishining va ularga nisbatan jamiyatdagi munosabatlar o'zgarishining dastlabki shart-sharoitlari nimalardan iborat?
3. E. Nabiyeu o'z tadqiqotida ta'limning an'anaviy va yangicha qarashlarini qanday qiyoslagan?
4. B. Kalmetovning ilmiy izlanishlari nimaga qaratilgan?
5. "Tadbirkor universitet" nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga asos solgan olimlar haqida nima deya olasiz?
6. OTMlarning ilmiy paradigmasini shakllantirishga oid ilmiy g'oyalar va qarashlar qanday tendensiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi?

7. "Universitetlarning tadbirkorlik eko tizimini" haqida nima deya olasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati - T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" - "Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

### **2.2. Innovatsion – tadbirkor universitetlar konsepsiyasining nazariy va metodologik ilmiy ta'minoti.**

*Tayanch soʻz va iboralar: innovatsion tadbirkorlik, faoliyat natijalarini tijoratlashtirish, tijorat ob'ekti, iqtisodiyotni liberallashtirish, tijoriy transfer, intellektual faoliyat, raqobat ustunligi, potensial manbalar.*

Universitetlarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdagi muhim masalalardan biri bu innovatsion jarayonning turli ishtirokchilari tomonidan OTMdagi innovatsion faoliyatning natijalarini tijoratlashtirishga qaratilgan tizimli tadbirlarni tashkil etish va rivojlantirish zaruriyatidir. Innovatsion jarayonlar rivojlanishining hozirgi bosqichida tijoratlashtirish yuqori texnologiyalar, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga

samarali joriy etish va bozor kanallari orqali bilim va texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalarning tarqalishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi atamalarning sharhlarini ilmiy va nazariy ko‘rib chiqish asosida 2.3-jadvalda ularning asosiy mazmun va ma‘nosini yoritib o‘tamiz

### 2.3-jadval

#### **Innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan tadbirkor universitet (OTM) konsepsiyasi tushuncha va kategoriyalari apparati bazaviy atamalari <sup>43</sup>**

| <b>Atama nomi</b>                    | <b>Atamaning asosiy mazmun va ma‘nosi (muallif tomonidan ajratilgan)</b>   |
|--------------------------------------|--|
| Bilimlar                             | Raqobat ustunligi va tashkilot resurslarining potensial manbalari bo‘lgan o‘zlashtirilgan tushunchalar, tamoyillar, qonunlar, tajribalar, ko‘nikmalar va ishlab chiqilgan texnologiyalar ko‘rinishidagi intellektual faoliyat natijalari   |
| Texnologiya                          | Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, boshqaruv, tijorat bilimlari va tajribalarining o‘ziga xos tizimi, ular asosida yangi yoki takomillashtirilgan usullar, uslublar, operatsiyalar, muolajalar, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqalar ishlab chiqilishi mumkin.   |
| Innovatsion faoliyat natijalari      | Iqtisodiyotning turli sohalarida amaliy foydalanish potensialiga ega bo‘lgan innovatsion ishlanmalar, intellektual mulk ob‘ektlari, yangiliklar va texnologiyalar ko‘rinishidagi amalga oshirilgan fundamental, amaliy tadqiqotlar, o‘tkazilgan tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyihaviy, eksperimental ishlarning natijalari |
| Bilimlar va texnologiyalar transferi | Intellektual faoliyat natijalarini o‘tkazish, uzatish, joriy etish va ulardan foydalanish jarayonlarini amalga oshiradigan faoliyat  |
| Innovatsiya                          | Jamiyatdagi o‘zgarishlarga olib keladigan hamda har  |

<sup>43</sup> Mualliflar qarashlari asosida tuzilgan

|  |  |
|--|--|
|  | xil turdagi va xarakterdagi innovatsion jarayonlarni keltirib chiqaradigan bozor shartlarida joriy qilinadigan yangilik, innovatsiya   |
| Tadbirkor universitet                      | Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar talabiga javoban tijoriy asosda yangi yaratiladigan bilimlarni taklif etadigan OTM   |
| Innovatsion faoliyat                       | Intellectual faoliyat natijalarini yaratishga, rivojlantirishga, fan, texnika va jamiyatning barcha sohalarida tarqatishga va qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, novatorlik, tijoriy xarakterdagi faoliyat   |
| OTMning innovatsion-tadbirkorlik faoliyati | Innovatsion va tadbirkorlik infratuzilmasini yaratishga va uning faoliyatini ta'minlashga, shuningdek innovatsion ishlanmalar, innovatsiyalar, texnologiyalar va innovatsion loyihalarni yaratishga va tijorlashtirishga, innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga qaratilgan o'quv, ilmiy, texnologik, tashkiliy, ishlab chiqarish, moliyaviy va tijoriy faoliyatlarni to'plami |

Tadbirkor universitetlarning innovatsion faoliyati natijalarini tijorlashtirishning nazariy asoslarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki OTMlar tadbirkorlik faoliyatining o'zagi innovatsion faoliyat natijalarini tijorlashtirish bo'lsada, olimlarimiz tomonidan yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun, tijorlashtirish atamasini talqin qilish yondashuvlarini uning ob'ektiga qarab tizimlashtirish, yaratilgan innovatsion yechimlarga nisbatan "transfer" tushunchasiga aniqlik kiritish, "texnologiyalarni tijorlashtirish" va "texnologiyalarning tijoriy transferi" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganish, OTMlarning innovatsion faoliyat natijalarini tarqatish sohasidagi "tijorat asosida sotish", "tijorlashtirish", "tijoriy transfer" tushunchalarining qiyosiy tavsifini berish muhim vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiyotning, savdo-iqtisodiy aloqalarning va innovatsion taraqqiyot nazariyasining rivojlanishi bozor munosabatlarining elementi sifatida "tijoratlashirish" atamasini adabiyotlarda talqin qilishning turli ilmiy va nazariy yondashuvlari paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, Oslo qo'llanmasi tijoratlashirishni bozor kanallari orqali innovatsiyalarni tarqatish (diffuziya) vositasi sifatida belgilaydi va bu uning iqtisodiy ma'nosini ochib beradi. Bir qator mualliflar, Yu.A. Avanesov, Ye.V. Vaskin, A.N. tijoratlashirish deganda jismoniy shaxslar, korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan tabiiy ne'matlarni qazib olish, tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotib olish va sotish yoki boshqa tovar, xizmat va pul evaziga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq manfaatdor shaxslar yoki tashkilotlarning o'zaro manfaatli faoliyati tushuniladi. Ya.S. Matkovskaya tijoratlashirishni innovatsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir qator marketing chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali mavjud bozor tuzilmasini yangisiga aylantirish jarayoni sifatida talqin qiladi. V.I. Muxopad tijoratlashirishni mulk ob'ektini savdo yo'li bilan daromadga aylantirish jarayoni, deb ta'kidlaydi. Uzoq xorij olimlari F. Kotler, G. Armstronglar tijoratlashirishni seriyali ishlab chiqarishni o'zlashtirish va bozorga yangi mahsulotni chiqarish sifatida belgilaydilar. Shuni ta'kidlash kerakki, tijoratlashirish mohiyatini aniqlashda tadqiqotchilar tijorat ob'ektini ham aniqlaydilar. Tijorat ob'ektidan bog'liq ravishda "tijoratlashirish" tushunchasini talqin qilishdagi turli yondashuvlar 2.4-jadvalda tizimlashtirilgan.

#### 2.4-jadval

#### Tijorat ob'ektidan bog'liq ravishda "tijoratlashirish" tushunchasini talqin qilishdagi tizimlashtirilgan turli yondashuvlar

| Muallif  | Tijoratlashirish yetakchi belgisining mezoni | Atamaning ilmiy-nazariy talqini    |
|--|--|------------------------------------|
| Tijorat ob'ekti: yaratilgan bilimlar (ilmiy va ilmiy – texnik natijalar) |  |                                    |
| Dejina I.G. va   | Tizimning                                    | Intellektual faoliyat natijalarini |



|   |  |   |
|---|--|---|
| boshqalar                                       | tuzilmaviy unsuri  | tarqatish vositasi, tijorat ob'ekti sifatida belgilangan bilim va texnologiyalar transferining asosiy shakl   |
| Vladika M.V.                                    | Yangiliklarni bozorda joriy etish jarayoni                                 | Innovatsion jarayonning asosiy bosqichi, ilmiy-texnik g'oyalarni ishlab chiqishning yakuniy sikli bo'lgan yangiliklarni bozorga joriy qilish jarayoni; bilimlarni mahsulotga, xizmatga yoki foyda olish maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lgan faoliyatga aylantirish jarayoni   |
| Tixonov N.A.<br>Muxopad V.I.,<br>Kozmetskiy Dj. | Bilimlar transformatsiyasi jarayoni  | Ilmiy- tadqiqot faoliyati natijalarini joriy etish, ularga egalik huquqlarini va tegishli moddiy vositalarni, keyinchalik ularning asosida mahsulotlar ishlab chiqarib, ishlarni bajarib va xizmatlar ko'rsatib, jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan va foyda oladigan tijorat tashkilotlariga topshirish bilan tavsiflanadigan bozorda talab qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarga bilimlarni transformatsiyalash jarayoni |
| Mirkin Ya.M.                                    | Innovatsion faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish jarayoni | Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini joriy etish jarayoni bo'lib, unda tadqiqot natijalari asosida mahsulot ishlab chiqarib, ishlarni bajarib va xizmatlarni ko'rsatib, bozor ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadida tijorat tashkilotlariga egalik huquqlari va   |

|   |  |   |
|---|--|---|
|   |  | tegishli moddiy vositalar o'tkaziladi   |
| Zinov V.G.  | ITIni bozorda rag'batlantirish usuli                 | Ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotda ommalashtirishning eng samarali usuli bo'lib, unda ilmiy natijani bozorga chiqariladigan tovarga aylantirishda barcha qatnashuvchilarning o'zaro foydali tijoriy hamkorligi amalga oshiriladi.   |
| Tijorat ob'ekti: innovatsion mahsulot   |  |   |
| Goldshteyn G.Ya., Kotler F. va boshqalar, Lamben J., Valinurova L.S. va boshqalar | Tizimning tuzilmaviy unsuri                          | Innovatsion faoliyatning asosiy bosqichi (ba'zi hollarda innovatsion jarayon zanjirining yakuni), buning natijasida innovatsion mahsulotni ishlab chiqaruvchi (yoki egasi) sarf-xarajatlari qoplanadi va o'z faoliyatidan foyda olinadi |
| Tijorat ob'ekti: intellektual kapital   |  |   |
| Lukicheva L.I.  | Iqtisodiy foyda olish. Xo'jalik oborotga jalb qilish | Intellektual kapitalni tijoratlashtirish – ham korxonada, ham tashqi muhitda intellektual kapital tarkibiy qismlarini iqtisodiy oborotga kiritishdan foyda olish  |

Manba: jadval mualliflar tomonidan tuzilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga asosan qabul qilingan "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim va fan, ishlab chiqarish integratsiyasini yanada rivojlantirishgi alohida e'tibor qaratilgan. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning

raqobatbardoshligini oshirish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasidagi islohotlarni amalga oshirish ko‘zda tutilganligi kelajakda ta’lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirishda zamin yaratilishda xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan strategiyada ilm-fan sohasini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlar dasturi yaratish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi ishlab chiqildi va loyihada quyidagi masalalar aks ettirilishi nazarda tutiladi:

-ilmiy-tadqiqot muassasalarining innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish, istiqbolli sohalarda kichik innovatsion korxonalar, texnoparklarni tashkil etish (biotexnologiya, farmasevtika, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika, robototexnika, metallurgiya, nanotexnologiya);

-intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, ixtirolarga bo‘lgan huquqlar va boshqalar) buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek bu sohadagi davlat nazoratini kuchaytirish.

### **Nazorat savollari**

1. OTMdagi innovatsion faoliyatning natijalarini tijoratlashirishga qaratilgan tizimli tadbirlar nimalardan iborat?
2. Innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan tadbirkor universitet (OTM) konsepsiyasi tushuncha va kategoriyalari apparati bazaviy atamalari nimalardan iborat?
3. Oslo qo‘llanmasi tijoratlashirishni bozor kanallari orqali innovatsiyalarni tarqatish qanday amalga oshiriladi?
4. Tijorat ob’ektiga bog‘liq ravishda “tijoratlashirish” tushunchasini talqin qilishdagi tizimlashtirilgan yondashuvlar nimalardan iborat?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ishlab chiqilgan loyihasini qaysi masalalar aks ettirilishi nazarda tutilgan?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati - T.: 2004.;
3. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
4. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" - "Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
5. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
6. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>
7. <http://www.erisee.org/node/43>
8. Regulation No 772/2004 of European Union

## **2.2. Tijoratashtirish, transfer va innovatsion tadbirkor OTM tushunchalarini talqin qilishdagi asosiy yondashuvlar.**

*Tayanch soʻz va iboralar:* innovatsion yechimlar, ilmiy-texnik ishlanmalar, yechimlar, texnologiyalar, innovatsion loyihalar, "bilimlar transferi", huquqiy muhofaza qilish, ilmiy-texnikaviy faoliyat, tijoratashtirishning asosiy usullari, transfer yoʻnalishlari, transferning tijoriy shakli, moliyaviy resurslar.

Yaratilgan innovatsion yechimlarga nisbatan "transfer" tushunchasini oʻrganishga oʻtadigan boʻlsak, shuni taʼkidlash kerakki, texnologiyalar transfer intellektual mulk huquqini OTMlardan ishlab chiqarish korxonalariga oʻtkazish jarayoni sifatida 19-asrning 80-yillari oʻrtalarida paydo boʻlgan. Biroq, bilim va texnologiyalar transferi ilmiy konsepsiyasining shakllanish va rivojlanish davrining boshlanishini oʻtgan asrning 70-80-yillari bilan bogʻlaydilar. Chunki shu davrda ilmiy-texnik "nou-xau" ni OTMning ilmiy-tadqiqot laboratoriyasidan ishlab chiqarishga oʻtkazish, OTMlar va sanoat oʻrtasidagi aloqalarni rasmiylashtirish, ishlab chiqilgan texnologiyalarni tarqatish (uzatish) va joriy qilish (oʻzlashtirish) jarayonlari keng amalga oshirilgan. Ingliz tilidan tarjima qilinganda transfer (transfer) "oʻtkazish, uzatish" degan maʼnoni anglatadi. Innovatsiyalarning metodologik, innovatsion faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish masalalarini qamrab oluvchi bilimlar sohasi boʻlgan innovatika fanida, "transfer" atamasi kelgusida foydalanish uchun tajriba, koʻnikma, ilmiy-texnik ishlanmalar, yechimlar, texnologiyalar va innovatsion loyihalarni uzatish orqali yaratilgan innovatsion yechimlarni ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda joriy etish va moslashtirish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda yangi bilim va texnologiyalarga nisbatan "transfer" tushunchasini talqin qilishning turli xil yondashuvlari mavjud (2.5-jadval).

**Bilim va texnologiyalarga nisbatan "transfer" tushunchasini talqin qilishdagi asosiy yondashuvlar**

| <b>Muallif<br/>(manba)</b>   | <b>Atamaning ilmiy-nazariy talqini</b>  |
|--|---|
| <b>Jarayonli yondashuv</b>   |   |
| Ivanov V.V.,<br>Luksha O., Pilnov G.,<br><br>Tarasova O.,<br>Sushkov P.,<br>Yanovskiy A. | Tadqiqot va ishlanmalar natijalarini, bilimlarni qandayir foydalanish uchun uzatish jarayoni. Uzatishg maqsadi ushbu natijalardan tijorat maqsadlarida foydalanish (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, keyingi tadqiqotlar o'tkazish va ishlanmalar ishlab chiqish uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilish va boshqalar), shuningdek notijorat maqsadlarda foydalanish (tadqiqotning yangi yo'nalishlarini izlash, bilimlarni tarqatish va almashish va boshqalar) bo'lishi mumkin. |
| Xaysbers X.,<br>Rozebum Y.   | Iqtisodiy o'sishga va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga olib keladigan bilimlar va texnologiyalarni aniq yangi mahsulotlar va xizmatlarga aylantirishga ko'maklashadgan jarayon   |
| Sherstobitova T.I.   | Tijoriy daromad olish maqsadida ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliy qo'llash sohasiga, yangi mahsulot marketingi va ishlab chiqarishiga o'tkazish jarayoni  |
| <b>Mohiyatli yondashuv</b>   |   |
| Gibson D.  | Texnologiyaning ma'lum bir axborot kanallaridan foydalangan holda, uning bir individual yoki jamoaviy egaligidan boshqasiga o'tish harakati   |
| Fonshteyn N.M.   | Aniq vazifani bajarishga mo'ljallangan axborotni uzatish  |
| Akperov I.G.,<br>Petrashov A.V.  | Milliy (mintaqaviy) iqtisodni transformatsiyalashning bir dastagi   |
| <b>Tizimli yondashuv</b>   |   |

|                                 |  |
|---------------------------------|--|
| Bedniy A.B.                     | Yangi texnologiyalarni yaratuvchidan foydalanuvchiga o'tkazishni ta'minlaydigan tizim va jarayonlar  |
| Xaysbers X.,<br>Rozebum Y.      | Har qanday innovatsion tizimning muhim unsuri  |
| Nazarov M.A.,<br>Fedoseeva S.V. | OTM va uning tashqi muhiti, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali korxonalar, o'rtasida ko'p kanalli va ko'p darajali interfeysni tashkil etish chora-tadbirlari tizimi  |
| Faoliyatli yondashuv            |  |
| Raysman, A.                     | Ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun dastaklar, uslublar, muolajalar yoki yuridiy huquqlarni o'tkazish yoki uzatish   |
| Fraskati<br>qo'llanmasi OECD    | Ilmiy-texnik xizmatlar, texnologik jarayonlarni qo'llash, mahsulot ishlab chiqarish uchun ilmiy-texnik bilimlarni va tajribalarni utkazish   |
| Shaposhnikov A.A.               | Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar natijasida olingan bilim, tajriba, sanoat mulki bemaol tarqatiladigan, ilmiy - texnik xizmatlarni taqdim etish yo'li bilan uzatiladigan yoki korxonalar tomonidan mahsulot yoki jarayon sifatida joriy etish uchun sotib olinadigan hatti-harakatlar ketma-ketligi |

Yuqoridagi atamalarni belgilashga yondashuvlar xilma-xilligi qonunchilik bilan huquqiy hujjatlarda "texnologiyalar tranferi, "bilimlar transferi", "innovatsion faoliyat natijalari transferi" kabi umumiy tushunchalarning mustahkamlanmaganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3855-son qarorida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan amalda foydalanishning tahlili ularni

yaratish, huquqiy muhofaza qilish va joriy etish jarayonida quyidagi tizimli muammolar mavjudligi e'tirof etildi:

birinchidan, oxirgi 5 yil ichida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan va patentlangan ixtirolar sonining yiliga 0,5 foizini tashkil etuvchi tijoratlashtirish darajasi yetarli emas;

ikkinchidan, chop etilgan ilmiy maqolalar va yaratilgan intellektual mulk ob'ektlari soni ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari bo'lib qolmoqda, bunda ularni joriy etish natijalari hisobga olinmayapti;

uchinchidan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ularning tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalari uchun, shuningdek, ilmiy-texnikaviy dasturlarga davlat mablag'lari sarflanishining samaradorligi uchun lozim darajada mas'uliyatni namoyon etmayapti;

to'rtinchidan, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning, shu jumladan, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalar ro'yobga chiqarilishida iqtisodiyotning real sektori korxonalari ishtirokini rag'batlantirishning samarali vositalari joriy etilmagan;

beshinchidan, amaldagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga tezkorlik bilan joriy etishni ta'minlamayapti.

Mahalliy ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni jadal joriy etishni ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishda ilm-fan hissasini oshirish, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatning istiqbolli mahalliy yutuqlarini ilgari surishning samarali mexanizmlarini yaratishga e'tibor qaratiladi.

Bunda:



Ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish sohasidagi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

-respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini jadal va keng joriy etish;

-fanlararo aloqalarni, shu jumladan, xalqaro fanlararo aloqalarni shakllantirish jarayonlarini rag'batlantirish, qo'shma dasturlar ishlab chiqish va jamoalarni yaratish;

-ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirishning aniq vazifalarini hal etishga, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan amaliy natijalarni olishga yo'naltirish;

-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga xizmat qiladigan yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish sohasida innovatsion tadqiqotlarni olib borish;

-tadqiqotlarni mamlakatni izchil rivojlantirish bo'yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar va texnologiyalarni jadal ishlab chiqishga yo'naltirish.

Quyidagilar ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy usullari etib belgilandi:

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

tijorat tashkilotlarini tashkil etish, bunda ularning ta'sischilaridan biri ustav fondiga hissa sifatida intellektual mulk ob'ekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan muassasa (yoki ixtisoslashtirilgan affillangan tashkilot) hisoblanadi;

intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish va mazkur ob'ektlardan foydalanish huquqini litsenziya shartnomalarini tuzish orqali, shu jumladan, ularni keyinchalik ushbu huquqlar oluvchisi tomonidan tijoratlashtirish sharti bilan berish.

Keltirilgan ta'riflarga ko'ra OTMlarning innovatsion faoliyati natijalarini uzatishning asosiy jihati bilim va texnologiyalarni tijorat va notijorat asosida uning foydalanuvchilariga kelajakda amaliy qo'llash yoki ishlab chiqarish resurslari, omillari (intellektual, texnologik va boshqalar)sifatida foydalanish uchun uzatish hisoblanadi. Binobarin, transfer yo'nalishlari orasida ajratib turadigan asosiy tasniflash xususiyati, iqtisodiy tarkibning mavjudligi yoki yo'qligi bo'lib, tadbirkor universitetlar faoliyat yo'nalishlarini aniqlashda muhim hisoblanadi.

OTMlarning innovatsion faoliyati natijalari transferi jarayonlarini o'rganishning keyingi qismiga o'tishda shuni ta'kidlash kerakki, innovatika fanida "texnologiyalarni tijoratlashtirish" va "texnologiyalar transferi" tushunchalari ko'pincha birgalikda qo'llaniladi. Shuning uchun, ushbu tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikka aniqlik kiritamiz. Ko'pgina ilmiy ishlarda "texnologiyani tijoratlashtirish" va "texnologiyalar transferi" tushunchalarining turli semantik tarkibi tijorat va notijorat asosida uzatish shakllarining mavjudligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ushbu tushunchalarning turli semantik tarkibi turli maqsadlar bilan izohlanadi. Birinchi holda, maqsad sotishdan muntazam foyda olish, ikkinchisida - texnologiyani undan foydalanuvchi tegishli tashkilotning biznes amaliyotiga foydalanish uchun uzatish hisoblanadi. Biroq, "texnologiyani tijoratlashtirish" va "texnologiyalar transferi" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi tijorat shaklida bo'lsa, bizning fikrimizcha, masala munozarali bo'lib qolmoqda. Ushbu tushunchalarning o'zaro nisbati bo'yicha ilmiy qarashlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ta'kidlash kerak:

1. "Texnologiyani tijorat asosida uzatish" yoki "tijoriy tranfer" va "texnologiyani tijoratlashtirish" tushunchalarini farqlash.

Bizning fikrimizcha, ilmiy qarashlarning ushbu yo'nalishi klassik bo'lib, unda texnologiyani tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi ikki alohida jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, S.V. Terebova, V.V. Titov, A.B. Bedniy texnologiyalar transferi innovatsion jarayonining hamma bosqichlarida mavjudligini, tijoratlashtirish esa, oxirgi bosqichda amalga oshirilishini,

shuningdek, transfer OTMdan tijorat sohasiga keyinchalik tijoratlashtirish uchun intellektual mulkka egalik huquqini uzatish, deb ta'kidlashadi.

Ilmiy adabiyotlarda "tijoriy transfer" va texnologiyani tijoratlashtirish "tushunchalari o'rtasidagi farq 90-yillarda xususiy firmalarning ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari bilan o'zaro qamkorlikda qo'shma tadqiqotlar olib borish jarayonidan iborat bo'lgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmining rivojlanishi bilan ham bog'liq, deb ta'kidlanadi. Texnologiya muallifiga to'lovlar uni sanoat kompaniyasiga uzatish jarayonida amalga oshiriladi (litsenziya shartnomasi asosida), sanoat kompaniyasi texnologiyani bozorga tijoratlashtirish natijasida (texnologiyaga asoslangan mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko'rsatish natijasida) mukofot oladi.

Shunday qilib, "tijoriy transfer" va "texnologiyalarni tijoratlashtirish" tushunchalari o'rtasidagi munosabatni o'rganishda klassik yo'nalishga ko'ra, texnologiyalar transferi ishtirokchilari universitetlar (OTMlar) va ishlab chiqilgan texnologiyalarga qiziqish bildiradigan tashkilotlar bo'lsa, texnologiyalarni tijoratlashtirishning asosiy ishtirokchilari ushbu texnologiyaga asoslangan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tijorat tashkilotlari va bevosita mahsulot iste'molchilari hisoblanadi.

2. Bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirishni transferning tijoriy shakli bilan tenglashtirish.

Bizningcha, bu ilmiy yo'nalish tasodifan paydo bo'lmagan. Birinchidan, intellektual mulkning jahon bozori shakllanishi natijasida intellektual mulkni himoyalash sohasida qonunchilik va huquqiy jihatlar ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi. OTMlarda ham intellektual mulk ishlab chiqishni rivojlantirish va unga o'z huquqlariga ega bo'lishni taminlash imkoniyatlari oshganligi sababli, ular intellektual mulk huquqlarini tijoratlashtirishning ishtirokchilari va tashabbuskorlariga aylanadilar. Ikkinchidan, 1998 yilda B. Klark tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkor universitet konsepsiyasi, ilmiy va o'quv tashkiloti bo'lgan OTMni tijorat tashkilotining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minladiva

natijada faoliyatning yangi yoʻnalishni - OTM tomonidan ishlab chiqariladigan bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirishni shakllantirildi

Texnologiyalarni tijoratlashtirishni transferning tijoriy shakli sifatida taʼriflash koʻplab ilmiy ishlarda uchraydi. Masalan, T.I. Sherstobitova, T.F. Gareev, M.V. Vladika texnologiyalarni tijoratlashtirishni tijoriy transfer sifatida aniqlashadi va transfer obʼektlarini texnologiyalarni tijoratlashtirish obʼektlari bilan tenglashtirishadi. Shunga koʻra, tadqiqotchilar intellektual mulkni, texnik va texnologik bilimlarni va axborotni texnologiyaning tijoriy transferi (tijoratlashtirish) obʼektlariga bogʻlashadi.

3. Texnologiyani tijoratlashtirishni transfer unsuri, uning samaradorlik mezonini sifatida belgilash.

Ushbu ilmiy yondashuvga S.Z. Radnabazarova tomonidan texnologiyalar transferiga berilgan taʼrifni kiritish mumkin. Tadqiqotchining taʼkidlashicha, texnologiyalar transferi jarayoni innovatsion ishlanmani yaratishdan tortib, uning asosida mahsulot chiqarish orqali bozorga tatbiq etishgacha boʻlgan barcha bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Texnologiyani tijoratlashtirishni muallif toʻgʻridan-toʻgʻri mahsulot ishlab chiqarish va bozorga chiqarish bosqichini oʻz ichiga olgan transfer jarayonining ajralmas qismi sifatida tushunadi.

Ilmiy qarashlarning ushbu yoʻnalishi "texnologiyani tijoratlashtirish" va "texnologiyalar transferi" tushunchalarining oʻzaro bogʻliqligini, xususan, uning tijorat shaklini toʻgʻri anglab olish imkoniyatini beradi. Bunday holda, ikki jarayonning semantik maʼnolari va asosiy xususiyatlari aniqlanadi. Innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy muhim xususiyati bu uni transfer unsuri sifatida tasniflashdir. Innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning sifat xususiyatlaridan biri bu transfer jarayonlariga hamroh boʻlgan va uning iqtisodiy tarkibiy qismi boʻlgan tijorat faoliyatini amalga oshirish choralari tizimidir. Shunday qilib, OTMlarning innovatsion faoliyati natijalarini tijoratlashtirish transfer samaradorligini aniqlash mezonlaridan biridir.

Yuqoridagi ilmiy ynalishlarni sarhisob qilsak, tijoriy transfer va bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirish bir xil natijani ta'minlaydi - innovatsion faoliyat natijalarini tarqatish orqali innovatsion-tadbirkor OTMlarni rivojlantirish.

"Texnologiyalarning tijoriy transferi", shuningdek "tijoratlashtirish" va "transfer" atamalarini aniqlash bo'yicha turli yondashuvlar bizga "tijorat asosida sotish", "tijoratlashtirish", "tijoriy transfer" tushunchalarini, ushbu iqtisodiy hodisalarning muhim va sifatli xususiyatlarini ajratgan holda, qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi (2.6-jadval).

## 2.6-jadval

### OTMlar innovatsion faoliyati natijalarini tarqatish sohasida "tijorat asosida sotish", "tijoratlashtirish", "tijoriy transfer" tushunchalari qiyosiy tasnifi<sup>44</sup>

| Qiyoslash xususiyatlarini      | OTMlar innovatsion faoliyati natijalarini tarqatish sohasida o'rganilayotgan tushunchalar |   |   |
|--------------------------------|---|---|---|
|                                | Tijorat asosida sotish  | Tijoratlashtirish   | Tijoriy transfer  |
| Baholash dastagi               | Tijoratlashtirish va tijoriy transfer jarayonlarining haqiqiy o'lchovi                    | OTM innovatsion faoliyati samaradorligi, innovatsion faoliyat natijadorligining raqobatbardoshligi, innovatsion infratuzilma faoliyatining haqiqiy o'lchovi | Innovatsion faoliyat natijadorligini tijoratlashtirish haqiqiy o'lchovi |
| Innovatsion jarayonga nisbatan | Innovatsion faoliyat natijadorligini tijoratlashtirish ketma-ketligining                  | Innovatsion jarayonning barcha bo'g'inlarini (generatsiya, joriy etish, amalga oshirish) birlashtiradigan innovatsion jarayon zan-                          | Innovatsion jarayonning unsuri  |

<sup>44</sup> Mualliflar ishlanmasi

|                        | yakuniy bosqichi  | jirining yakuniy bosqichi   |   |
|------------------------|---|---|---|
| Mohiyati xususiyatlari | Olingan innovatsion faoliyat natijalarini daromad olish bilan tavsiflanadigan tarqatish usuli | Jarayonning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini, innovatsiyalar samaradorligini va faoliyat natijalari transformatsiyasini ta'minlash, ularni tijorat asosida amaliy foydalanish mexanizmini yaratishga qaratilgan murakkab jarayon  | Innovatsion faoliyat natijalarini tarqatishni ta'minlaydigan amaliy foydalanishga uzatishning tijoriy shakli  |
| Sifat xususiyatlari    | Innovatsion faoliyat natijalaridan amaliy foydalanish uchun joriy etishda maqsadli yo'nalish  | OTMning innovatsion potensialini ro'yobga chiqarishga va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga, natijani talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar va xizmatlargacha yetkazishga yo'naltirilgan ko'p bosqichli tashkiliy-iqtisodiy jarayon | Yaratilgan bilim va texnologiyalar transferi tizimining unsuri, innovatsion faoliyat natijalarini tijorat asosida foydalanuvchilarga o'tkazish jarayoni |

Tadbirkor universitetlar tushunchasini anglab olish uchun zarur bo'lgan atamalarni sharhlab bo'lganimizdan keyin "tadbirkor universitet" tushunchasini tahlil qilishga o'tamiz. Ushbu mavzuga ko'plab maqolalar va kitoblar bag'ishlangan. Biroq, ushbu adabiyotlarni tahlil qilish qiziq tuyg'uni keltirib chiqaradi: mualliflarning fikri "tadbirkor universitet" tushunchasini talqin qilishda juda katta farq qiladi. Ushbu atama ostida o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishga qodir bo'lgan OTMni, o'qitishning

innovatsion usullarini qoʻllaydigan universitetni, sanoat bilan uzviy aloqada boʻlib, universitet olimlarining ilmiy ishlanmalarini joriy etadigan universitetni tushunadilar. Ushbu kelishmovchilik "tadbirkor universitet" tushunchasini toʻgʻri talqin qilishni murakkablashtiradi va koʻpgina OTMlarning oʻzini reklama qilish uchun yetarli asoslarsiz tadbirkor deb eʼlon qilishlariga olib kelishi mumkin. Bizning fikrimizcha, tadbirkor universitet tushunchasining aniq taʼrifini asoslab berish va unga muvofiq OTMda tadbirkorlik faoliyati darajasini tahlil qilish sxemasini ishlab chiqish, ularning oʻz faoliyatini modernizatsiyalash va strategik rivojlanishni rejalashtirishga yordam beradi.

Y. Shumpeter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan "tadbirkorlik" atamasini turli xil yoʻllar bilan aniqlashga harakat qilingan. Tadbirkorlikning ixtirochilik, maqsadlarga erishishdagi qatʼiyatlilik, tavakkal qilishga tayyorlik kabi xususiyatlari deyarli hamma tomonidan qabul qilingan. Y. Shumpeterning mashhur "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (1911) asari nashr etilgandan beri tadbirkorlik fenomeni haqida yuzlab maqola va kitoblar yozilgan. Ushbu tadqiqot ishimizda tadbirkorlik nima ekanligi toʻgʻrisidagi turli ilmiy yondashuvlar va taʼriflarni tahlil qilish, taqqoslashga toʻxtalib oʻtish zarurati yoʻq deb hisoblaymiz. Chunki tadbirkorlik tushunchasi alohida mustaqil izlanishni talab etadigan tadqiqot obʼektidir. Buning uchun tegishli adabiyotlarga murojaat qilish mumkin.

Bizning fikrimizcha, Garvard Biznes Maktabining professori Xovard Stivenson tadbirkorlikning eng keng qamrovli taʼrifini bergan: "Tadbirkorlik - bu hozirgi vaqtda nazoratda boʻlgan resurslardan tashqaridagi imkoniyatlarni izlash"<sup>45</sup>.

Bunday izlanishlarni amalga oshirish uchun yuqorida sanab oʻtilgan barcha xususiyatlarga ega boʻlish kerak. Ushbu taʼrifning yana bir afzalligi shundaki, u biznes sohasi bilan cheklanib qolmagan. Stivensonga koʻra, tadbirkorlik inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida mumkin.

---

<sup>45</sup>«Entrepreneurship is a pursuit of an opportunity beyond the resources currently controlled» — Howard Stevenson.

Keyinchalik Stivensonning ta'rifi intellektual tadbirkorlik konsepsiyasini taklif qilgan R. Chervits tomonidan kengroq ma'noda yoritildi. Chervitsning ta'kidlashicha, "moddiy boylik yaratish - bu tadbirkorlikni namoyon bo'lishining birsohasi. Tadbirkorlik bu biznes emas. Bu dunyoni egallashga bo'lgan munosabat, madaniy innovatsiyalar jarayonidir". Bu juda aniq izoh bo'lib, tadbirkorlik barcha uchta madaniyatda: gumanitar, tabiiy-ilmiy va biznesda amalga oshirilishi mumkinligini anglatadi. Etibor bering, tadbirkorlikni bunday anglash ushbu tushuncha va kreativlik tushunchasi o'rtasida bog'liqlikni yaratishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, tadbirkor universitetni yaratish muammosini R. Florida tomonidan aniq tasvirlangan kreativlik sinfining rivojlanishi bilan bog'laydi.

"Tadbirkor universitet" tushunchasi 90-yillarning o'rtalaridan beri nashr etilgan ko'plab asarlarda qo'llanilgan. Biroq, bu tushunchaning aniq ta'rifi yuqorida ta'kidlaganimizdek, hali ham yo'q. Aksariyat mualliflar tadbirkor universitetning xususiyatlarini, Ropke kabi, shunchaki tasvirlagan. Muallif, tadbirkor deb atalishiga da'vo qiladigan universitetlarga, quyidagi talablarni qo'yadi:

universitet tashkilot sifatida tadbirkorlik hatti-harakatlarini, xulqini namoyish etishi kerak;

universitet a'zolari - o'qituvchilar, talabalar, xodimlar - tadbirkor bo'lishi kerak;

universitet va uning atrof-muhiti o'rtasidagi o'zaro hamkorlik universitet va mintaqaning "tuzilmaviy qo'shilishiga" olib kelishi kerak.

Ushbu o'rganilayotgan konsepsiyaning eng mashhur ishlab chiquvchilaridan biri bo'lgan B. Klarkning ta'kidlashicha, tadbirkor universitetning asosiy xususiyati bu yangi bilimlarni yaratish va tarqatishni tijoratlashirishdan qo'rqmaslikdir. Uning fikricha, bunday universitet a'zolari tijoratlashuvni akademik ta'lim an'analari va ta'lim sifatiga xavf soluvchi tarzida ko'rmaydilar. Ushbu yondashuv, yaqqol ko'rinishda bo'lmasada, universitetni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashni ko'zda tutadi. Klark ta'kidlashicha, tadbirkor



universitetning samarali faoliyat ko'rsatishining muhim sharti - tashqi muhit bilan moslashuvchan va strategik hamkorlikni ta'minlaydigan boshqaruv uslubidir.

Keltirilgan xususiyatlar tadbirkor universitet qatoriga kiritish uchun zarur bo'lgan muhim elementlarni aks ettirmaydi, deb bo'lmaydi. Biroq, ushbu tushunchani faqat tijoratlashtirish yoki an'anaviy tarzda tushuniladigan tadbirkorlikning ba'zi bir shakllarigacha toraytirish, bizning fikrimizcha, quyida tavsiflangan oliy ta'limning bugungi muammolarini yechish yo'llarini ko'rsatishga imkon bermaydi.

Bizning fikrimizcha, xorijiy zamonaviy OTMlarning oldida bir nechta jiddiy muammolar turibdi va ularni o'z vazifalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Xuddi shunday holat mamlakatimiz OTMlarida ham, oxirgi yillardagi o'zgarishlar natijasida, kuzatilmoqda.

Birinchi muammo universitet ta'limining "ommaviylashib borayotganligi". Zamonaviy universitet modelini shakllantirishgacha bo'lgan davrda (XVIII asr oxiri-XIX asr boshi) oliy ta'lim bilan jamiyatning kam qismi qamrab olingan va unga ega bo'lish faqat ayrimlar uchun qoidaga kirgan edi. Bunday sharoitda OTMga o'qishga kirishga qat'iy talablar qo'yish (masalan, xorijiy tillarni bilish) va o'qimishli va intellektual salohiyat bo'yicha bir-biriga yaqin talabalar auditoriyasiga mo'ljallangan yuqori darajadagi o'qitishni ta'minlash mumkin edi. Ommaviy oliy ta'limga o'tish bilan vaziyat o'zgaradi. Xususan, o'qishga kiruvchilarning tayyorgarlik darajasidagi va talabalarning o'qishga motivatsiyasidagi tafovut o'sib boradi, ularning madaniy va intellektual rivojlanish darajalaridagi farqni gapirma ham bo'ladi. Ko'pgina zamonaviy universitetlar ushbu muammoni "o'qishga kirish jarayonida" va o'quv jarayonida talablarni kamaytirish orqali "hal qilishmoqda"; bundan tashqari, ular talabalarning tayyorgarlik darajasini tenglashtirish jarayonini amalga oshirishga ham majbur bo'lmoqdalar va shu tariqa umumta'lim maktablari ilgari bajargan vazifani qisman bajarmoqdalar.

Zamonaviy universitet modelini yaratganga qadar, uning asosiy vazifalari bilimlarni yaratish va tarqatish hisoblanardi. Biroq, jamiyat talab qiladigan bilimlarning tabiati asta-sekin o'zgardi. Zamonaviy universitetning modeli tabiiy bilimlarning jadal rivojlanishi davrida, fizika, kimyo va boshqa aniq fanlardagi kashfiyotlar inson hayotini o'zgartirganda shakllandi. O'sha paytdagi universitetlarda ta'limdagi e'tibor "ijobiy" fanlarni o'rganishga o'tkazildi. Industrial rivojlanish davri uchun ushbu hodisalarning rivojlanishi tabiiy hol edi. Biroq, industrial davr tugadi va biz "bilimlar iqtisodiyotiga" o'tmoqdamiz. Ushbu davrda qanday bilimlar zarur, faqat tabiiy fanlar bilan cheklanib qolamizmi, degan savol tug'iladi. Bilimlar iqtisodiyoti ijtimoiy bilimlarning ko'payishi hisobiga rivojlanmoqda, bu esa o'z mohiyatiga ko'ra eksklyuziv bo'la olmaydi va jamiyatning deyarli har bir a'zosi uchun zarurdir.<sup>46</sup> Bundan tashqari, ushbu sharoitlarda bilimlar faqat olimlar tomonidan yaratilib qolmaydi: ijtimoiy bilimlar, masalan, biznesda iste'molchilarning xulq-atvorini anglab olish jarayonida tug'iladi. Shunday qilib, universitet qanday bilimlarni yaratishi va tarqatishi kerakligini o'ylab ko'rishi talab etiladi. Ushbu bilim tabiatining o'zgarishi uni tarqatish usullarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Industrial rivojlanish davrida, iqtisodiyotning asosi moddiy aktivlar va moliyaviy kapital bo'lganida, amaliyotga yo'naltirilgan bilim asosan OTMLarda kam mukofot evaziga olimlar tomonidan yaratilgan. Faqat industrial rivojlanish davrining oxirida intellektual mulk va intellektual kapital tushunchalari shakllandi. Bilim raqobatbardoshlik ustunligining asosiy manbai va iqtisodiy rivojlanish mexanizmiga aylanadigan yangi iqtisodiyotga o'tish jarayonida muammo tug'iladi: moliyaviy kapital egalari bilimlarni (ular bu bilimlarning yaratilishiga bevosita aloqador bo'lishmasada) qo'llash natijasida hosil bo'lgan daromadning asosiy qismini olishadi, bilimlarni yaratadigan va tarqatadigan universitet o'qituvchilari esa ushbu bilimlarni biznesda qo'llayotganlarga nisbatan ancha kam haq oladilar.

---

<sup>46</sup> Г.Н. Константинов, С.Р. Филонович. Что такое предпринимательский университет.  
<http://docplayer.ru/32695293-Chto-takoe-predprinimatelskiy-universitet.html>

Universitetda tugʻilgan barcha bilimlar hamma egalik qilishi mumkin boʻlgan jamoatchilik mulki boʻlishi kerakligi qanchalik ravshan? Bu savollarga javob berish ancha qiyin va bu yerdagi eng muhim qiyinchiliklardan biri shundaki, jamiyatdagi ayirboshlash shakllari va shartlarini tavsiflovchi tushunchalar tizimi industrial rivojlanish davrida paydo boʻlgan va bilimlar iqtisodiyotida roʻy berayotgan jarayonlarni tasvirlash uchun yaxshi moslanmagan. Aynan shuning uchun, kapital tushunchasini, kapitalning moliyaviy va intellektual shakliga "ijtimoiy kapital" tushunchasini qoʻshish orqali kengaytirishga urinishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy universitetlarning oldida turgan yana bir muammo bu madaniyatlar oʻrtasidagi tobora kengayib borayotgan "tafovut"dir. Agar 1960-yillarning boshlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda Ch.P. Snouning "Ikki madaniyat"<sup>47</sup> (Snou gumanitar va tabiiy ilmiy madaniyat vakillari oʻrtasidagi oʻzaro bir-birini yoqtirmaslik xavfi mavjudligini taʼkidlagan) toʻgʻrisidagi maʼruzasi nashri keng muhokamaga olib kelgan boʻlsa, hozir "Uch madaniyat" deb atash mumkin boʻlgan ilmiy ish nashriga ehtiyoj tugʻilmoqda. Snou tomonidan gumanitar va tabiiy ilmiy madaniyatlar oʻrtasidagi qarama-qarshilikka shakllangan biznes madaniyati qoʻshildi. Etibor bering, "universitet" nomi oʻzi inson bilimlari va madaniyatining maʼlum birligini, yaxlitligini anglatadi. Ushbu madaniyatlar oʻrtasidagi haqiqatan ham sivilizatsion tafovutni bartaraf etishda universitet qanday rol oʻynashi kerak? Bizning fikrimizcha, tadbirkor universitet konsepsiyasi OTM faoliyati natijalarini zamon talablariga yaxshiroq mos kelishini taʼminlashga qaratilgan universitetni modernizatsiyalash borasidagi muhim gʻoyalardan biriga aylandi. Shu sababli, biz yana bir bor "tadbirkor universitet" tushunchasining taʼrifiga qaytishni maqsadga muvofiq deb topdik.

---

<sup>47</sup> Сноу Ч.П. Две культуры. Сборник публицистических работ (1973), <http://mexalib.com/view/53392>

Tadbirkor universitetlarni shakllantirish va rivojlantirishga, "uchlik spiral" konsepsiyasi muallifi G. Iskovich kitobining katta qismi bag'ishlangan<sup>48</sup>. "Uchlik spiral" konsepsiyasi mohiyatini chuqurroq o'rganish bizga tadbirkor universitet tushunchasini yanada aniqlashtirishga yordam beradi. Innovatsion rivojlanish bilan bog'liq holda, "uchlik spiral" modeli uchta institutning, spiral tuzilmasi ko'rinishidagi, o'zaro hamkorligini tavsiflaydi: fan (yoki universitet) - davlat - biznes. Bu institutlarga bir-birlarining ba'zi xususiyatlarini qabul qilish va o'zida saqlab qolish imkonini beradi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) ilmiy bilimlarga asoslangan jamiyatda universitetlarning sanoat va davlat bilan o'zaro hamkorlik rolini kuchaytirish mansub; 2) uchta institut (universitet - davlat - biznes) hamkorlikka intiladi, bunda innovatsion tarkibiy qism davlat tashabbusi bilan emas, balki ushbu o'zaro hamkorlik natijasida hosil bo'ladi; 3) an'anaviy funksiyalarga qo'shimcha ravishda, uchta institutning har biri boshqa institutsional sohalarning funksiyalarini qisman o'z zimmasiga oladi va noan'anaviy funksiyalarni bajarish qobiliyati innovatsiya manbai hisoblanadi. Amalda bu quyidagilarda ifodalanadi: universitetlar ta'lim va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishni davom etgan holda universitet inkubatorlarida yangi kompaniyalar tashkil etish orqali iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadi, biznes qisman ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi va universitet ta'limi jarayonida ishtirok etadi, davlat an'anaviy qonunchilik va tartibga solish roliga qo'shimcha ravishda ijtimoiy tadbirkor va venchur investori sifatida qatnashadi. Ushbu modelda yetakchi o'rin tadbirkorlik yoki sanoat tipidagi universitetlarga aylanayotgan, bilimlarni amalda qo'llaydigan va yangi o'quv fanlarini ishlab chiqadigan universitetlarga beriladi.

Klassik universitetlardan farqli o'laroq, tadbirkor universitetlar o'quv, ilmiy-tadqiqot va tadbirkorlik faoliyatini birlashtirib, undan daromad oladilar, shuningdek ular o'z tarkibida innovatsion infratuzilma ob'ektlariga ega. G. Iskovich

---

<sup>48</sup> Ицковиц Г. Тройная спираль. Университеты – предприятия – государство. Инновации в действии / пер. с англ. под ред. А.Ф.Уварова. Томск: Изд-во ТУСУР, 2010.

tadbirkor universitetni ajratib turadigan asosiy tamoyillar va xususiyatlarni belgilab beradi, jumladan:

- akademik rahbariyatning strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish qobiliyati;

- uchta universitet missiyalarining uyg'unligi: ta'lim, ilmiy-tadqiqot va iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish;

- ma'lum darajada avtonomiyaga egaligi hamda davlat va biznes tomonidan nazoratning yo'qligi yoki cheklanganligi;

- rivojlanishning strategik yo'nalishini ishlab chiqish va boshqa institutsional sohalar qatori, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha qo'shma loyihalarni, ayniqsa, mintaqaviy darajada, tuzishda qatnashish erkinligi;

- boshqa institutsional sohalar bilan yaqin hamkorlik qilish (universitet jamiyatdan ajralib qolmasligi uchun);

- akademik resurslarni, shu jumladan, universitet binolari va ilmiy-tadqiqot natijalari ko'rinishidagi intellektual mulk kabi moddiy mulkni, huquqiy nazorat qilish;

- patentlash, litsenziyalash va inkubatorlarni yaratish orqali texnologiyalar transferini tashkil etish qobiliyati;

- ma'muriyat vakillari, fakultetlar va talabalar o'rtasida korporativ tadbirkorlik etikasi.

Shunday qilib, G. Iskovis ta'rifiga ko'ra, tadbirkor universitet yangi korxonalarini tashkil etishda o'qituvchilar va talabalarga yordam ko'rsatadigan tabiiy inkubator hisoblanadi. Bundan tashqari, tadbirkor universitet bilimlarni amaliyotda qo'llashda yetakchilik qilishi va akademik bilimlarni yaratishdagi o'z hissasini oshirishi kerak. U tadqiqot yo'nalishini aniqlashi va zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlash va tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb qilish uchun bilimlar "mukammallik piramidasini" yaratishga e'tiborini qaratishi lozim.

Umuman olganda, akademik tadbirkorlikning modelini beshta xususiyatga asoslanib tavsiflash mumkin.

1. Kapitallashtirish: bilim amaliyotda foydalanish va fanlarni rivojlantirish uchun yaratiladi va tarqatiladi.

2. O‘zaro bog‘liqlik: tadbirkor universitet biznes va davlat bilan yaqin hamkorlik qiladi.

3. Mustaqillik: tadbirkor universitet nisbatan mustaqil muassasadir; u boshqa institutsional sohalar tomonidan yaratilgan va ulardan bog‘liq bo‘lgan tuzilma emas.

4. Aralash shakllar: mustaqillik va o‘zaro bog‘liqlik tamoyillari o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish bu ikkala maqsadni bir vaqtning o‘zida amalga oshirish imkonini beradigan gibrid tashkiliy shakllarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

5. Refleksivlik: universitet ichki tuzilmalari va uning biznes va davlat bilan o‘zaro aloqalari doimiy ravishda yangilanib borishi bilan ularning universitet bilan o‘zaro munosabatlari o‘zgarib boradi.

Shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, “uchlik spiral” modelini rivojlanirishda G. Iskovis tadbirkor universitetlarning ahamiyati va roli haqida gapirarkan, ilmiy hamjamiyat o‘rtasidagi universitetga nisbatan tadbirkorlik tuzilmasi sifatidagi ko‘p ma’noloi munosabatni e’tiborsiz qoldirmaydi: "Ko‘pgina olimlar OTMlarning asosiy vazifasi ilmiy va ma’rifiy faoliyat, shuning uchun, ular iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda ishtirok etmasliklari kerak, deb hisoblashadi."<sup>49</sup> Shuni tushunib olish kerakki, universitet faqatgina firma ochishga ko‘maklash va texnologiyalar transferini ta’minlab, korxonalar rolini qisman bajarishi mumkin, lekin u haqiqiy korxonada faoliyat ko‘rsata olmaydi.

Uchlik spiral modelidan farqli ravishda, tadbirkor universitetning bir oz boshqacha talqini Robert Dj. V. Tayssenning "Universitetlar va sanoat bilan bog‘liq ilm: tadbirkorlikka yo‘naltirilganlikni baholash modellari va ko‘rsatkichlari" asarida <sup>50</sup> keltirilgan bo‘lib, u tadbirkor universitetlarga

---

<sup>49</sup> Ицковиц Г. Тройная спираль. Университеты – предприятия – государство. Инновации в действии / пер. с англ. под ред. А.Ф.Уварова. Томск: Изд-во ТУСУР, 2010.

<sup>50</sup> Tijssen Robert J.W. Universities and industrially relevant science: Towards measurement models and indicators of entrepreneurial orientation // Research Policy. 2006. № 35. P. 1570–1571.

quyidagicha ta'rif beradi: "Tadbirkor universitetlar deganda, tadbirkorlik va innovatsion muhitni yaratadigan, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan, bilim va texnologiyalarning samarali transferi uchun an'anaviy universitet va korxonalar munosabatlari asosida yangi o'zaro manfaatli aloqalarni boshqaruv va bozor amaliyoti integratsiyasi asosida o'rnatishga intiladigan universitetlar tushuniladi."

Rossiyalik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, tadbirkorlik tashkiloti (universitetga nisbatan) quyidagilarni anglatadi: 1) o'z faoliyatida maqsadli innovatsiyalarga asoslangan, risk va o'zgaruvchan talab sharoitida ishlashga qodir bo'lgan; 2) iqtisodiy samarali, daromadli faoliyat bilan shug'ullanadigan; 3) bunda asosiy omillar odamlar, guruhlar va ularning kompetentligi hisoblanadi va ularning faoliyati foyda va risklar muvozanatiga asoslanadi; 4) rahbariyat ijrochilarning huquqlari va majburiyatlarini maksimal darajada bo'lib beradigan; 5) faoliyatini iste'molchiga qaratgan va uning talablari o'zgarishiga o'z vaqtida javob beradigan tashkilot.<sup>51</sup>

Yuqoridagi xususiyatlar quyidagilarni ko'zda tutadi: tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, innovatsion va tadbirkorlik infratuzilmasi ob'ektlarini shakllantirish; shaxsiy rivojlanish uchun moliyaviy manbalarni kengaytirish; asosiy professor-o'qituvchilarning ish xaqi miqdorining ularning faoliyati natijalariga bog'liqligini shakllantirish (universitet bilan birgalikda kichik korxonalarini tashkil etish, joriy qilish uchun istiqbolli ilmiy – tadqiqot loyihalarini amalga oshirish va boshqalar), tadbirkorlik faoliyati asoslari bo'yicha kurslar orqali o'quv dasturlarini kengaytirishni tashkil etish, ilmiy loyinalarni amalga oshirish uchun istiqbolli loyinalarni amalga oshirish va boshqalar), tadbirkorlik faoliyati bo'yicha kurslar orqali ta'lim dasturlarini kengaytirish.

Ta'kidlash kerakki, universitetning ilmiy-tadqiqot faoliyati va uning tadbirkorlik yo'nalishi ko'p jihatdan bir qator madaniy omillarga bog'liq. Xususan,

---

<sup>51</sup> Грудзинский А.О. Университет как предприниматель-ская организация // Социологические исследования. 2003. № 4.

OTMlarining "ichki boshqaruv madaniyati" (masalan, ta'lim muassasasida qabul qilingan rag'batlantirish tizimlari), mintaqaviy va milliy darajadagi ilmiy-tadqiqot va tahlim faoliyatining "tashqi boshqaruv madaniyati" (masalan, qonunchilik va meyoriy ramkalar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari), shuningdek, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy madaniyati (masalan, hayot darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda riskni oldini olish) ko'zda tutilmoqda. Bu, ayniqsa, Yevropaning turli mamlakatlaridagi tadbirkor universitetlarining "ilg'or tajribalari" ni ko'rib chiqqanda sezilarli bo'ladi.

OTMni amaliy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga undovchi ichki rag'batlantirish bilan bir qatorda, bugungi kunda ko'plab innovatsion universitetlar tashqi moliyalashtirish dasturlarida tobora faol ishtirok etishga, biznes bilan ilmiy-tadqiqot shartnomalarini tuzishga va davlat-xususiy sheriklikda (DXSh) ishtirok etishga majbur qiladigan tashqi kuchlar ta'sirini sezmoqda.

Tadbirkor universitet tushunchasi to'g'risidagi yuqoridagi sharhlar asosida biz shunday xulosaga keldikki, tadbirkor universitet tushunchasi ta'rifini berishda G. Stivenson tomonidan "tadbirkorlik" tushunchasiga berilgan ta'rifdan foydalanishimiz maqsadga muvofiq va uning asosida universitetning umumiy tadbirkorlik salohiyatini ko'rib chiqamiz. Asosiy vazifalarni hal ilish uchun OTM resurslarga muhtoj. Tabiiyki, cheklangan resurslar OTMning asosiy vazifalarini hal qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Stivensonning ta'rifidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, tadbirkor bo'lgan universitet doimiy ravishda ushbu cheklanmani bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

OTM uchun faoliyatning aynan qaysi yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, tadbirkor deb nomlanishni istagan OTM uchta yo'nalish bo'yicha cheklanmani oshib o'tishi kerak:

- yangi tadqiqot usullarini yaratish va yangi bilim yo'nalishlari yoki allaqachon o'rganilgan sohalardagi yangi muammolarni o'rganish ustida doimiy ish olib borish orqali **bilimlarni shakllantirish;**



- o‘qitishning innovatsion usullarini rivojlantirish, fan va amaliyotning so‘nggi yutuqlarini aks ettirish orqali o‘qitish mazmunini takomillashtirish asosidagi **ta’lim**;

- tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarning har xil turlaridan foydalangan holda bilimlarni amaliyotga **joriy qilish**.

Ta’kidlash kerakki, biron bir sohaning ahamiyatini boshqasi hisobidan oshirish nohaqlik hisoblanadi. Uzoq muddatda biriga boshqasiga zarar yetkazib katta ahamiyat berish muqarrar ravishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Masalan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga e’tibor qaratganda ta’limdagi innovatsiyalarga ahamiyat bermaslik muhim resursni yo‘qqa chiqarib yuborishi mumkin: ushbu ilmiy maktab namoyondalari bo‘lgan yosh iqtidorli tadqiqotchilar oqimi kamayadi. Ilmiy tadqiqotlarga zarar yetkazib, o‘qitishga haddan ortiq e’tibor berish o‘qituvchilar malakasining pasayishiga olib keladi. Amaliyot bilan doimiy aloqaning yo‘qligi tadqiqotni faqat o‘qituvchining ilmiy daraja va unvon olish maqsadiga aylantirib qo‘yadi. O‘qitish jarayoni amaliyot bilan bog‘liq bo‘lmagan ta’limning oqibatlarida esa hammaga aniq.

Shunday qilib, biz yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanib, tadbirkor universitetning ta’rifini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

**"Tadbirkor universitet - bu yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirish, ichki muhitni qayta shakllantirish va tashqi muhit bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmini rivojlantirish orqali bilimlarni yaratish, o‘qitish va bilimlarni amaliyotga joriy etish sohalaridagi cheklanmalarni oshib o‘tish uchun muntazam ravishda harakat qiladigan va urinadigan oliy ta’lim muassasasi"**.<sup>52</sup>

Ushbu uchala sohadagi cheklanmalar doimo resurslarning asosiy turlari, xususan, moliyaviy, axborot va insonresurslari yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Ushbu resurslarni jalb qilish ko‘pincha tadbirkorlikning asosiy belgisi sifatida

---

<sup>52</sup> Mualliflar ta’rifi

qabul qilinadi, ammo bizning fikrimizcha, bu nuqtai nazar notog'ri, chunki resurslarni izlash yuqoridagi uchta sohada cheklanmalarni yengib o'tishga nisbatan ikkinchi darajali. Shunga qaramay, resurs muammosini hal qilmasdan, OTMning tadbirkorlik faoliyatini amalga chiqarish mumkin emas, shuning uchun bu yerda juda jiddiy urinishlar talab etiladi. An'anaviy OTMlar, qoida tariqasida, resurs muammosini ular emas, balki ular faoliyat ko'rsatayotgan muhit hal qilishi kerak bo'lgan vazifa, deb bilishadi. Ajablanarlisi shundaki, tashqi-muhit ushbu muammoni hal qilishni o'z zimmasiga olganda, OTMlarning tadbirkorlik salohiyati pasayadi.

Ta'kidlash joizki, resurslar muammosi universitetning ichki muhitidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan, uning korporativ madaniyatidagi o'zgarishlar, shuningdek, tashqi muhitdan ajralib qolish tendensiyasini bartaraf etish bilan bog'liq.

Tadqiqotni talab etadigan yana bir muhim muammo - tadbirkor universitetlarni shakllantirish va rivojlantirishning yagona metodikasining, foliyatini baholashning umumiy mezonlarining ishlab chiqilmaganligidir. B. Klark tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosan yosh texnik universitetlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga bag'ishlangan. Shu munosabat bilan olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkor OTMlar uchun xulosalar va tavsiyalar gumanitar yo'nalishdagi va ko'p asrlik tarixga ega klassik universitetlar uchun faqat qisman qo'llanilishi mumkin.

Yevropa universitetlarida 10 yildan ko'proq davr mobaynidagi o'zgarishlarni o'rgangan B. Klarkning tadqiqotlarini davom ettirish natijasida tadbirkor universitetlarning jarayonli rivojlanish yondashuvi shakllandi. Ushbu yondashuvning asosiy yetakchi tamoyillari tadbirkor universitetni uning evolyusiyasi nuqtai nazaridan o'rganish (ya'ni, universitet sanoat bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka kirishgandan boshlab ma'lum vaqt ichida qanchalik darajada tadbirkorga aylandi) va shartnoma asosidagi tadqiqotlarni rivojlantirish. Ushbu jarayonning ba'zi xususiyatlarini (tadbirkor universitetni shakllantirish) turli mamlakatlardagi universitetlar faoliyatini taqqoslash imkonini beradigan

ikkita indikatorga keltirish mumkin. Bular tadqiqot sohasidagi hamkorlik intensivligi indeksi (research cooperation intensity, RCI) va korporativ iqtiboslik intensivligi (corporate citation intensity, CCI). Ushbu ko'rsatkichlar qo'shimcha tasdiqlashga muhtoj bo'lgan spekulativ ko'rsatkichlar bo'lishiga qaramasdan, universitetlar va sanoat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning tarkibiy xususiyatlarini, ayniqsa makro darajada, o'rganish uchun katta instrumental ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadbirkor universitetlariga jarayonli yondashish bir qator cheklanmalarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ko'rsatkichlar darajasiga asoslangan xulosalar faqat ko'plab ilmiy nashrlar tayyorlaydigan va yuqori patent faolligiga ega bo'lgan akademik fanlar va sanoat tarmoqlariga tegishli. Ayrim holatlarda universitetlar juda kam miqdordagi patentlarni ro'yxatdan o'tkazadilar (fan sohasidan qat'iy nazar) va bu ularning faoliyati to'g'risida ma'lum bir xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Ushbu yondashuvning juda tor tahliliy qamrovi tufayli, ta'lim va o'qitish faoliyati, bilim va texnologiyalar transferi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va boshqa faoliyat turlarining hissasi hisobga olinmay qolishi mumkin. Ular oxir-oqibat universitet iqtisodiy foydasini yaratishning yanada muhimroq omili va yanada samarali vositasi bo'lishi mumkin.

Ushbu jarayonning har bir bosqichiga mamlakat, tarmoq va tashkiliy xususiyatlarga bog'liq bo'lgan bir qator omillar turli xil ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olib, ushbu murakkab tizimni bitta ishonchli o'lchov modeli va ikkita ko'rsatkich bilan osonlikcha baholash mumkinligi shubha tug'diradi.

Tadbirkor universitetlarning mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini aniqlash muammosiga ham xorijiy mualliflar asarlarida katta e'tibor berilmoqda. Professorlar Allan Gibb va Pol Xannonlar Buyuk Britaniya misolida universitetlarning mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlar, shuningdek biznes bilan o'zaro hamkorligini ochib berishgan.<sup>53</sup>

---

<sup>53</sup> Gibb A.A., Hannon P. Towards the Entrepreneurial University // International Journal of Entrepreneurship Education. 2006. № 4, 73 б.

Milliy innovatsion tizimni rivojlantirishda tadbirkor universitetlarning roli Bart Van Loy<sup>54</sup> ilmiy ishlari bag'ishlangan. Universitetlar yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish va rivojlantirish, mavjud texnologik va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga imkon beradigan g'oyalarni (bilim va texnologiyalar) ishlab chiqaradilar. Shu bilan birga, universitetlarning nafaqat fundamental tadqiqotlarning ilmiy va tijoriy muvaffaqiyati yuqori darajadagi noaniqligi bilan bog'liq bo'lgan, balki muvaffaqiyatli bo'lganda ham iqtisodiy natijalarni olishning adresliligi va keng ufqligi bilan bog'liq bo'lgan bozor tanazzuliga qarshi turishi qiyin. Bundan tashqari, Bart Van Loy universitetlarning texnologiyalarni rivojlantirishga qo'shadigan muhim hissasini oshirishi mumkin bo'lgan qonunchilik bazasini takomillashtirishga e'tibor qaratgan.

Jerald Braun akademik tadbirkorlikni shakllantirishdagi ikkita yondashuvni chuqur tanhlil qiladi: "bilimlar konteyneri" (knowledge container) va "tadbirkorlikka o'rgatish" (entrepreneurial learning) hamda iqtisodiy o'sishning neoklassik va evolyusion nazariyasi doirasidagi ularning asoslari. U "tadbirkorlikka o'rgatish"ni amalga oshirishdagi to'siqlarni (jumladan, universitetning noinnovatsion madaniyati / tarixi / munosabatlar, haddan tashqari byurokratlashgan tartibga solish) tanhlil qilishga katta e'tibor beradi. OTMlarda tadbirkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning zarur shartlari olim tadbirkorlarning, universitetlararo raqobatning mavjudligi, tadbirkor universitetlarni o'quv tashkilotlari sifatida ko'rib chiqishdir.

Bizning fikrimizcha, umumiy holda, OTM faoliyatidagi tadbirkorlikni rivojlantirish muammaosini sxematik ravishda quyidagi matritsa shaklida ko'rsatish mumkin (2.7-jadval).

---

<sup>54</sup> Van Looy Bart. The Role of Entrepreneurial Universities within Innovation Systems: An Overview and Assessment // Review of Business and Economics. 2009. № 1, 62–81 б.

## OTMning tadbirkorlik faoliyati matritsasi

| <b>Resurs cheklanmalarini oshib o'tish</b><br><b>Haqiqiy tadbirkorlik</b>         | <b>Inson resurslari tanqisligini bartaraf etish</b> | <b>Moliyaviy resurslar tanqisligini bartaraf etish</b> | <b>Axborot resurslari tanqisligini bartaraf etish</b> |
|---|---|--|---|
| <b>Bilimlar generatsiyasi sohasidagi cheklanmalarni bartaraf etish</b>            |   |  |   |
| <b>O'qitish sohasidagi cheklanmalarni bartaraf etish</b>                          |   |  |   |
| <b>Bilimlarni amaliyotga joriy etish sohasidagi cheklanmalarni bartaraf etish</b> |   |  |   |

Ushbu matritsadan foydalanib, OTMning tadbirkorlik faoliyati mujassamlangan potensial yo'nalishlarini aniqlab olish, ularning amaldagi tajribasini o'rganish va faoliyatida tadbirkorlikni rivojlantirishning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqish va tavsiyalar berish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan oliy ta'lim muammolaridan biri, uch madaniyat: gumanitar, tabiiy-ilmiy va biznes o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishdir. O'ylaymizki, tadbirkor universitet ushbu muammoni hal qilishda ham mazmun, ham o'qitish usullarini modernizatsiya qilish orqali muhim rol o'ynashi mumkin.

Muammo shundaki, OTMda talabalar uchta turli madaniyatlarning tillarini o'rganish imkoniyatidan mahrum. Xususan, tabiiy fanlar ta'limi deyarli hissiy sohani to'liq e'tiborsiz qoldiradi va kamdan-kam hollarda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlardan ajraladi. Bo'lajak olimlar va muhandislar ilmiy g'oyalari va kashfiyotlarni ishlab chiqarishi asosida biznes turgan mahsulotlar va xizmatlarga aylantirish mexanizmlarini tushunmaydilar. Aslida, zamonaviy ta'lim madaniy oliftagarchilikning shakllanishiga yordam beradi.<sup>55</sup>

Ushbu muammoni hal qilish uchun tadqiqot darajasida fanlararo guruhlar, markazlar va tarmoqlar kabi faoliyatni tashkil etish shakllari allaqachon ishlatilmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etish uchun ushbu tajribadan foydalanish mumkin, bunda uchta madaniyat vakillari bo'lgan talabalar qo'shma loyihalarni amalga oshiradilar, boshqa madaniyat vakillariga mansub bo'lgan tushunchalar, til va mentalitet tizimini o'zlashtiradilar. Bizning fikrimizcha, o'quv jarayonidagi fanlar bo'yicha cheklanmalarni yengib o'tish, hozirgi kundagi odatdagi darslardan qochish va ijodiy odamlar uchun o'qitishni yanada jozibador faoliyat sohasiga aylantirish imkonini beradi.

Ushbu g'oyani amalga oshirishga uchun, birinchi navbatda, OTMning zamonaviy tuzilishini takomillashtirish talab etiladi. OTMning kafedralarga bo'linishi, o'qituvchilar yuklamasining belgilab qo'yilganligi va mablag'larni taqsimlash tartibi bilim olami sifatidagi universitetni tashkil qilish g'oyasini hayotga tatbiq etishda innovatorlar darhol duch keladigan muammolardir. Bunday yondashuv oliy kasbiy ta'limning qat'iy standartlar tizimi bilan ham murakkablashadi. Ta'kidlash kerakki, tuzilishni o'zgartirmay, hozirgi kunda oliy ta'lim standartlarini "kompetensiyaga asoslangan yondashuv" asosida takomillashtirish harakatlari ham, bu yerda yordam bermaydi.

---

<sup>55</sup> Г.Н. Константинов, С.Р. Филонович. Что такое предпринимательский университет. <http://docplayer.ru/32695293-Chto-takoe-predprinimatelskiy-universitet.html>

## **Nazorat savollari**

1. Bilim va texnologiyalarga nisbatan "transfer" tushunchasini talqin qilishdagi asosiy yondashuvlar nimalardan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3855-son qarorida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan amalda foydalanishning tahlili ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish va joriy etish jarayonida qaysi tizimli muammolar mavjudligi e'tirof etildi?
3. Ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashirish sohasidagi asosiy vazifalari etib nimalar belgilab qo'yildi?
4. Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari tijoratlashirishning usullari etib nimalar belgilandi?
5. "Texnologiyani tijoratlashirish" va "texnologiyalar transferi" tushunchalarining ilmiy qarashlarning qaysi yo'nalishlarini ta'kidlash mumkin?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati - T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Ташкент: Адолат, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" - "Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whytechtrans>

6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

#### **2.4. Innovatsion – tadbirkor universitetlar rivojlanishining xorijiy tajribasi**

*Tayanch soʻz va iboralar:* mehnat bozori, kasbga tayyorlash tuzilmasi, global raqobat, xalqaro tajribalar, iqtisodiyot tarmoqlari, ish haqi darajasi, uch turdagi aniq natija, oliy taʼlimning qiymati, harakatlar strategiyasi, Global innovatsion indeks reytingi, loyihaviy boshqaruv mexanizmlari, innovatsion faoliyat, infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, smart-texnologiyalari, oʻquv jarayonida foydalanish, xususiy sheriklikni rivojlantirish, munosib hissa qoʻshish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar koʻlami.

Oʻtgan asrning oʻrtalarida hali, innovatsion iqtisodiyot va "uchlik spiral" tushunchalari paydo boʻlishidan ancha oldin, baʼzi rivojlangan mamlakatlarda klassik universitetlarni tadbirkorlik shakliga oʻzgartirish tendensiyasi shakllana boshladi. Bu jarayon butun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar bilan belgilanadi.

AQShda Silikon vodiysining yaratilishi bu jarayonning klassik namunasi hisoblanadi. Silikon vodiysining tarixi, Massachusetts shtati maʼmuriyatining 1930-yillardagi Buyuk depressiya taʼsirini Massachusetts texnologiya instituti (MTI) vositasida biznes va fanning oʻzaro muloqoti yordamida yengishga intilishi bilan bogʻliq. Dastlab, bu "universitet - korxonalar" va "davlat - universitet" oʻrtasidagi ikkitomlamalar oʻzaro hamkorlik edi. Universitetda nafaqat fundamental fanlarni (fizika va kimyo), balki natijalarini ishlab chiqarish faoliyatida amaliy qoʻllashga yoʻnaltirilgan amaliy fanlarni rivojlantirishga ham eʼtibor qaratildi. Muvaffaqiyat asosi boʻlib, firmalar yaratish, ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va biznesni qoʻllab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqish boʻyicha koʻp yillik urinishlar, xizmat qiladi. Asta-sekin, ikki tomonlamar munosabatlar "uchlik



spiral” munosabatlarigacha o‘sib bordi. Uning shakllanishida 1980 yildagi "Patentlar va tovar belgilari to‘g‘risida"gi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar muhim rol o‘ynadi, unga muvofiq universitetlar va boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosida ular tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarga intellektual mulk egaligi huquqlari berildi.<sup>56</sup>

Hozirgi kunda AQSH tadbirkor universitetlarining asosini I va II toifadagi tadqiqot universitetlari deb ataladigan 235 universitet tashkil etadi, ular Amerika oliy ta’lim tizimining yadrosi va fundamental tadqiqotlarning asosiy markazi hisoblanadi.<sup>57</sup> Ular orasida Garvard, Yel, Kolumbiya, Viskonsin, Stenford, Berkli, Minnesota universitetlari, MIT va boshqalar bor. Ularning ko‘plari dunyo reytingida birinchi o‘rinlarni egallaydi. Aynan ularda fundamental fan sohasidagi bazaviy va amaliy tadqiqotlarning katta qismi mujassamlangan.

Ilmiy ishlanmalarni olib borish va ularni tijoratlashirish bilan bir qatorda universitetlar an’anaviy universitetlarga xos bo‘lmagan boshqa funksiyalarni ham bajaradilar, masalan ilmiy ishlanmalarni litsenziyalash, kompaniyalarning shakllanishiga ko‘maklashish, hududlarni rivojlantirish va boshqalar.

Ushbu belgilarning eng muhimi, bizning fikrimizcha, tadqiqot - kashfiyot (ixtiro) - tijorat jozibadorligini baholash - intellektual mulkni himoya qilish - mahsulotni ilgari surish biznes-rejasini ishlab chiqish - litsenziyalash sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy bilimlarni tijoratlashirishdir. Ushbu jarayonning natijalari to‘g‘risida har bir Amerika universitetining hisobotlarida ochiq e’lon qilinadigan litsenziyalash faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab ko‘rsatkichlardan xulosa qilish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: ixtirolar, patentlashtirishga berilgan talabnomalar va olingan patentlar, amaldagi litsenziyalar soni, tijoratlashirishning har xil turlaridan olingan daromad miqdori

---

<sup>56</sup> Ицковиц Г. ДНК инновационного развития. ОПЕК.ру. Экспертный портал Высшей школы экономики.  
URL: <http://www.opes.ru/1335337.html>

<sup>57</sup> Исследовательские университеты США: механизм интеграции науки и образования / Под ред. В.Б. Супяна. М.: Магистр, 2013

va boshqalar.<sup>58</sup> Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlarning mavjudligi universitetning innovatsion faoliyatining amaliy natijalarini baholash imkonini beradi.

Tadbirkor universitetning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, uning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasidir. Ushbu funktsiyani birinchi bo'lib ma'lum bir shtatning rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo'jaligiga zarur kadrlar tayyorladigan agrar universitetlar amalga oshirdilar. Hozirgi vaqtda ularning aksariyati oldingi funktsiyalarini saqlab qolgan holda, ilm-fanning deyarli barcha sohalarini qamrab oladigan yirik ilmiy-tadqiqot markazlariga aylanishdi.

Tadbirkor universitetlarning yuqori texnologiyali va ilm talab kompaniyalarni bir hududga to'plash hamda universitet, biznes va investitsiya tashkilotlarining salohiyatini birlashtiradigan ilmiy-tadqiqot va texnologik parklarni shakllantirishga qo'shgan hissasi shubhasizdir. Natijada yangi ish o'rinlari, yangi sanoat tarmoqlari yaratiladi va yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Masalan, bugungi kunda Stenford tadqiqot parkida yuqori texnologiyalar sohasidagi 150 nafar kompaniya (shu jumladan Cisco Systems, Cypress Semiconductor, Google, Hewlett-Packard, Orbitz, Silicon Graphics, Yahoo! va boshqalar) taqdim etilgan bo'lib, ularda taxminan 23 ming kishi faoliyat olib boradi. Ko'plab innovatsion kompaniyalarning jalb qilinishi San-Fransisko ko'rfazining janubiy hududini zamonaviy texnologiyalar, dasturiy ta'minot va biotexnologiya ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi bo'lgan Silikon vodiysiga aylantirdi.

Tadqiqot parklarining yana bir yorqin misollari - bu Shimoliy Karolina shtatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan "Tadqiqot uchburchagi" parki (1958 yilda Shimoliy Karolinaning uchta universitetida tashkil etilgan), shuningdek, Bostonning innovatsion rivojlanishini belgilab bergan "Boston- marshruti 128" texnoparki (MTI, Shimoli-sharqiy va Garvard universitetlari bazasida yaratilgan)

---

<sup>58</sup> Организация инновационной деятельности в университетах США: Сборник учебно-методических материалов. Н. Новгород, 2011.

hisoblanadi. Ilmiy potensial va innovatsion kompaniyalarni jalb qilish ushbu hududlarni yirik ilmiy markazlarga aylantirish imkonini berdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, AQSHda tadbirkor universitetlarning rivojlanishi va shakllanishi uzoq tarixga ega va ushbu mamlakatda uzoq yillar davomida to'plangan an'analar hamda ilm-fan va ta'limning yangi tendensiyalari sintezidir. Universitetlar biznes va yangi boshqaruv tizimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kuchli o'quv, ilmiy va ilmiy-ishlab chiqarish komplekslariga aylandi.

G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida tadbirkor universitetlarni tashkil etish jarayoni nisbatan yaqinda boshlandi va uning rivojlanishi, qoidaga ko'ra, mavjud klassik universitetlarni isloh qilish asosida amalga oshirildi. Umuman olganda, universitetlar AQShda bo'lgani kabi kuchli ilmiy bazaga ega emas, deyish mumkin, ammo yirik ilmiy-tadqiqot institutlari, milliy laboratoriyalar, ilmiy parklar va boshqa tuzilmalarni o'z ichiga olgan umummilliy innovatsion tizimning elementlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir mamlakat iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari va an'analarini hisobga olgan holda o'ziga xos yondashuvga ega.

Masalan, Buyuk Britaniyada Kembrij, York kabi uzoq tarixga ega klassik universitetlar tadbirkor universitetning ba'zi funksiyalarini amalga oshirishni boshladilar. 2008 yildan beri har yili "universitetning barcha faoliyat sohalarida, ularning ichki muhiti va madaniyati nafaqat barcha xodimlar va talabalar o'rtasida tadbirkorlik tafakkurining rivojlanishiga hissa qo'shadigan tarzda, shuningdek, mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda sezilarli ta'sir ko'rsatadigan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etgan" universitetlarni aniqlash va tan olish uchun tanlovlar o'tkazilmoqda. Tanlovning birinchi yilida g'olib Buyuk Britaniyaning yetakchi tadqiqot universiteti bo'lgan Nottingem universiteti bo'lib, u 1980-yillarda birinchi marta tadbirkorlik ta'limini joriy qilgan. Keyingi tanlovlar g'oliblari Xertfordshir, Koventri, Xaddersfild, Sharqiy Angliya va Straeklayd universitetlari bo'lishdi. Bir necha bor finalchilar qatoriga kiritilgan universitetlar

orasida Edinburg, Northampton va Plimut universitetlari bo'lishgan. Ushbu universitetlarning har biri mamlakatda ilmiy va tadbirkorlik faoliyatni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan. Chet ellik ekspertlarning fikriga ko'ra, tadbirkorlik universitetining maqomi oxir oqibatda universitetning mintaqaviy va milliy tadbirkorlik maqsadlariga qanday hissa qo'shishi, shu jumladan universitet o'zining innovatsion-tadbirkorlik amaliyotini qay tarzda tarqatishi va siyosiy ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi.<sup>59</sup>

Germaniyada, uning boy ilmiy an'analariga ko'ra, tadbirkor universitetlarning rivojlanishi Baden-Vurtemberg yeri<sup>60</sup> kabi yuqori innovatsion potensialga ega bo'lgan (fundamental va izlanish tadqiqotlarini amalga oshiruvchi 14 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 14 ta amaliy tadqiqotlar instituti, 60 dan ortiq sanoat kompaniyalari tadqiqot markazlari, 9 ta universitet, 39 ta texnik kollej va boshqalar) yoki Saar federal yeri kabi texnologiyalar transferi va yuqori texnologiyali korxonalarni joylashtirishga ixtisoslashgan o'rtacha innovatsion potensialga ega bo'lgan (2 ta universitet, 8 ta ixtisoslashgan tashkilotlar, jumladan, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi, yuqori texnologiyali korxonalarni yaratish va imtiyozli shartlardagi ijara taqdim etadigan 5 tamarkaz) mintaqaviy innovatsion klasterlarni shakllantirish xususiyati bilan bog'liq.<sup>61</sup>

Germaniyaning yana bir noyob ilmiy - hududiy kompleksi Germaniyaning g'arbiy qismini (Shimoliy Reyn-Vestfaliya), Gollandiyaning janubiy qismini (Janubiy Limburg mintaqasi) va Belgiyaning sharqiy qismini (Valloniya mintaqasi) qamrab oluvchi, Maas-Reyn uchburchagi yoki Maas-Reyn Yevro mintaqasi, deb nomlanuvchi hudud hisoblanadi. Ushbu hududda yettita yetakchi texnik va uchta tibbiyot universiteti, bir qator dunyo miqyosidagi davlat va xususiy tadqiqot markazlari: Shimoliy Reyn-Vestfaliyaeri Aaxen universiteti, Liyoj va Maastrixt

---

<sup>59</sup> Программа «ЭВРИКА». Университет – регион – бизнес: на путях интеграции. М., 2013.

<sup>60</sup> Germaniyada ma'muriy hududlar "yer"larga bo'lingan (mualliflar izohi)

<sup>61</sup> Диваева Э.А., Мухамедьяров А. Зарубежный опыт формирования инновационной системы в регионах // Экономика и управление. 2011. №3

shaharlarining universitetlari, Xasselt universiteti, Limburg shaxri xalqaro universiteti, Ochiq Gollandiya universiteti va boshqalar.<sup>62</sup>

Bugungi kunda Shimoliy Reyn-Vestfaliya federal yeri uni innovatsion sohada yetakchiga aylantirish muammolarini hal qilmoqda, xususan sanoatni rivojlantirish bo'yicha klaster strategiyasini, texnologiyalar tamsferi va patentni himoya qilish strategiyasini amalga oshirish. Beshta bozorda allaqachon 16 klaster tashkil etilgan: energiya; sog'liqni saqlash; logistika; innovatsion materiallar va texnologiyalar; bilimlarga asoslangan xizmatlar. 2002 yildan boshlab, qonunchilikdagi o'zgarishlarga ko'ra ixtirolarning egalariga aylangan universitetlarning huquqlarini amalga oshirish uchun, Shimoliy Reyn-Vestfaliya shahrida Provendis maxsus agentligi tashkil etildi. Uning vazifasi yangi bilimlarning patentga layoqatliligini baholash va federal shtatdagi universitet laboratoriyalarida olingan innovatsiyalarni tijoratlashtirish masalalarini hal qilishdan iborat. Hozirgi kunda agentlik 24 ta universitetdagi 20 mingdan ortiq olimlarga, texnologiyani litsenziyalash bo'yicha tashqi ofis sifatida, xizmat ko'rsatmoqda.

Universitetlarning raqobatbardoshligi va ilmiy samaradorligini baholash uchun bir qator indikatorlardan foydalaniladi: "zo'r tashabbus" tanlovlarining natijalari, yirik ilmiy loyihalarda ishtirok etish, taniqli olimlar soni (masalan, Leybnis mukofoti sovrindorlari, Nobel mukofoti laureatlari), nufuzli nashrlarda chop etilgan maqolalar soni, chet ellik professor-o'qituvchilar va talabalar soni, xalqaro shartnomalar va loyihalar soni.<sup>63</sup> 2005 yildan boshlab ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga qo'shimcha moliyalashtirish uchun nomzodlarni aniqlash maqsadida "sifat tashabbusi" doirasida universitetlar tanlovi o'tkazilmoqda. Erkin Berlin universiti, Aaxen texnika Universiteti, Frayburg, Gettingen, Heydelberg universitetlari. Lyudvig-Maksimilian nomidagi Myunxen shahridagi, Myunxen

---

<sup>62</sup> Проект программы Европейской Комиссии TEMPUS-IV «Навстречу модели университета исследовательского и предпринимательского типа в системе высшего образования России, Украины и Молдовы» № 144855-TEMPUS-2008-DE-JPHES. Университет исследовательского и предпринимательского типа: европейский опыт для Молдовы, России и Украины, 2011

<sup>63</sup> Певзнер М.Н., Петряков П.А. Новое общественное управление» в вузах Германии: путь к автономии или утрата академических традиций? // Непрерывное образование: XXI век. 2013. № 3.

texnika universiteti, Karlsrue texnika instituti tanlov g'oliblari bo'lishgan. Bundan tashqari, 2001 yildan boshlab tadbirkorlik ta'limi sifatini baholash uchun universitetlar reytingi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tuzilmoqda: tadbirkorlik, marketing va kommunikatsiya bo'yicha taklif etilayotgan kurslar, rag'batlantirish va rivojlantirish dasturlari, yangi kompaniyalarni tashkil etish va texnologiyalar transferi bo'yicha faoliyat, maqsadli guruhlar motivatsiyasi, hamkorlik va aloqalar.<sup>64</sup>

Biznes, davlat va ta'lim tizimining "uchlik spiral" tipidagi hamkorligi asosida tadbirkor universitetlarni muvaffaqiyatli shakllantirishga Shvesiya namuna bo'lishi mumkin. 80-yillardan boshlab Shvesiya hukumati izchil ravishda universitetlarni sof ta'lim faoliyatidan tadbirkorlikka aylantirish siyosatini olib bordi. Bunda davlat tomonidan moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada kengaytirildi va yirik kompaniyalar, o'z navbatida, ularning ilmiy mahsulotlari homiylari va buyurtmachilari bo'lishdi. Yirik biznes tomonidan universitetning keng ko'magi shved uchlik spiral modelining o'ziga xos belgisidir. Bundan tashqari deyarli barcha universitetlarda amaliy tadbirkorlik ta'limi va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish tizimlari yaratildi.

Bunga misollar sifatida amaliy tadbirkorlik yo'nalishini birinchilardan bo'lib amalga oshirgan va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan universitetlardan biriga aylangan Lund universiteti; Yevropadagi eng yirik tibbiyot universitetlaridan biri va Shvesiyadagi eng yirik tibbiy o'quv va ilmiy markazi bo'lgan Karolina universiteti; innovatsion ishlanmalar va ularni joriy etish sohasidagi eng yirik Chalmers texnika universiteti, Geteborg universiteti, Qirollik texnologiya instituti. Tadbirkor universitetlar eng yirik texnoparklar shakllantirilgan markazga aylandi: yuqori texnologiyali va ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etishga ixtisoslashgan Ideon texnoparki (Lund universiteti bazasida), "Shvesiya Silikon Vodiysi" deb nom olgan Kista Science City texnoparki (Qirollik texnologiya

---

<sup>64</sup> Тараканов В.В. Модернизация системы университетского управления: зарубежный опыт // Вестник Волгоградского государственного университета. Сер. 3: Экономика. Экология. 2007. Вып. 11.

instituti va Stokgolm universiteti tomonidan tashkil etilgan Axborot texnologiyalari universiteti bazasida).<sup>65</sup>

Gʻarbiy Yevropadagi barcha davlatlar ham tadbirkor universitetlarni shakllantirishda yagona yondashuvni qoʻllamagan. Fransiya bundan mustasno, u yerda ilmiy ishlanmalarning aksariyati faqat universitetlarda emas, balki ilmiy markazlar va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Ular, qoida tariqasida, innovatsion rivojlanishning raqobatbardosh qutblar deb ataladigan maxsus klasterlari tarkibiga kiradi. Innovatsiya sohasida Milliy ilmiy tadqiqotlar markazi va uning yettita ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, Milliy matematika fanlari instituti, Milliy yadroviy tadqiqotlar va elementar zarrachalar fizikasi instituti, Yer va astronomiya fanlari Milliy instituti va boshqalar qatnashmoqda. Faqat 2000-yillarning boshidan ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va tijoratlashtirishda universitetlarning rolini kuchaytirish uchun uchta yoʻnalishda qadamlar qoʻyildi: bir qator tegishli qonunlarning qabul qilinishi, yangi institutsional tuzilmalarni shakllantirish, yangi dastur va loyihalarni joriy etish shaklidagi davlat ishtirokining sezilarli kengayishi.

Ushbu jarayonning boshlanishiga taʼlim muassasalariga davlat hisobidan startaplar tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishga imkon beradigan innovatsiyalar toʻgʻrisidagi qonunning qabul qilinishi boʻldi. Bu jarayon 2006 yilda Fransiya tadqiqotni isloh qilish toʻgʻrisidagi qonun qabul qilinishi bilan tezlashdi. U yangi institutsional tuzilmani - universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini birlashtiradigan tadqiqot va oliy taʼlim markazlarini yaratishga imkon berdi.<sup>66</sup> Bunday tuzilmani yaratishni taʼlim va ilmiy funksiyalarni bitta muassasada birlashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlashning sof moliyaviy choralardan yanada tizimlisiga ketma-ket oʻtishning oraliq bosqichi sifatida baholash mumkin.

---

<sup>65</sup> Лучко М.Л. Развитие инноваций в Швеции: традиции, современность и будущее // Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал. 2010. № 1

<sup>66</sup> Галье Э.-П. Каждый кластер конкурентоспособности составляет пятилетний план // Инновационные тренды. 2011. № 11.

Kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlovchi yana bir innovatsion tuzilma bu kichik va oʻrta biznesni moliyalashtirish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha agentlik (davlat agentligi) hisoblanadi. Ushbu tuzilma real tijorat istiqboliga ega boʻlgan innovatsion loyihalarni yaratish, ishlab chiqish va joriy etish bosqichida risklarni boʻlishish orqali kichik va oʻrta kompaniyalarga yordam beradi.<sup>67</sup>

Shuningdek, Fransiya davlatining xususiy kompaniyalar va davlat ilmiy muassasalari oʻrtasidagi aloqalarni kuchaytirish tashabbusini ham taʼkidlashimiz zarur. 2000-yillarning boshlarida "takomillashtirish" tashabbusi" boʻyicha davlat dasturi qabul qilindi. Dasturning maqsadi - oliy taʼlim va ilmiy tadqiqotlar tizimining tarqoqligini bartaraf etish, shuningdek, dunyo miqyosidagi oʻnlab koʻp fan tarmoqlarini qamrab oladigan taʼlim va tadqiqotlar markazlarini yaratishni ragʻbatlantirishdir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun dastur 2010 yilda milliy bank sektori kredit bilan taʼminlandi. Uning birinchi ishtirokchisi tarkibida 13 ta OTM, Strasburg va Bordo universitetlari boʻlgan Parijning tabiiy va gumanitar fanlar universiteti boʻldi. Bundan tashqari, Fransiyaning beshta mintaqasida texnologiyani uzatishni tezlashtirish boʻyicha jamiyatlar tashkil etildi.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash mumkinki, Fransiya universitetlari raqobatbardosh qutblar tarkibiga kiradi, ammo ilgʻor ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishda ilmiy institutlar hozircha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlikning eng koʻzga koʻringan klasterlari qatoriga Nitsa shahridagi Sophia Antipolis (axborot texnologiyalari); Minatec (Yevropadagi noyob innovatsion park, mikro va nanotexnologiya sohasidagi eng zoʻrlaridan biri)ni, Tuluzadagi "Aerokosmik vodiy" (aviatsiya)ni, Marseldagi Optitec (optika va fotonika) ni va Lion shahridagi Lyon Biopôle (biotexnologiya)ni birlashtiradigan Grenobldagi Minalogic (nanotexnologiya va ulanadigan tizimlar)ni kiritish

---

<sup>67</sup> Шансон Г. Центры конкурентоспособности – наиболее значительные элементы французской инновационной системы // Инновационные тренды. 2011. № 11.



mumkin.<sup>68</sup> Tadbirkor universitetlarni shakllantirishdagi yetakchi rol davlat tomonidan saqlanib qolingan.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropada tadbirkor universitetlarni shakllantirish tajribasi ushbu jarayonning har bir mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi va uning madaniy va milliy an'analariga mos keladi. Turli yondashuvlar rivojlanishning innovatsion modelini qurishning universal sxemasi mavjud emasligini (bo'la olmaydi ham) va shuning uchun, tadbirkor universitetlarni shakllantirishning ham yagona sxemasi mavjud emasligini anglatadi. Bundan tashqari, "uchlik spiral" modelining (biznes - davlat - universitetlar) o'zaro bog'liqligi zanjirida, ba'zi mamlakatlarda "biznes-universitetlar" yoki "davlat-universitetlar" munosabatlari ustunlik qiladi.

Rossiyada yangi turdagi tadbirkor universitetning jadal rivojlanishi 2009 yilda Rossiyaning yetakchi OTMlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturining qabul qilinishi bilan boshlandi. Uni amalga oshirish yangi OTMlarni - federal universitetlarni (FU) va milliy tadqiqot universitetlarini (MTU) tashkil etish orqali oliy ta'lim tizimini kengaytirish, shuningdek OTMlarning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirishni va ularning ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorligini ta'minlaydi.

Ushbu jarayonning huquqiy asosi Rossiya Federatsiyasi Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar bo'lib, ular asosida OTMlarda kichik korxonalar tashkil etish, OTMlar va korporatsiyalar o'rtasida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, OTMlarda innovatsion infratuzilmani yaratish va yetakchi olimlarni jalb qilishni tartibga solish tadbirlari ko'zda tutilgan.<sup>69</sup>

Federal universitetlarni yaratishdan maqsad, mintaqaviy ta'lim tuzilmalarini optimallashtirish va oliy o'quv yurtlari bilan federal okruglar iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash asosida oliy kasbiy ta'lim

---

<sup>68</sup> Монсан П. Финансовые гранты от исследовательских организаций постепенно исчерпывают себя // Инновационные тренды. 2011. № 11

<sup>69</sup> О.А. Андрюшкевич, И.М. Денисова. Формирование предпринимательских университетов в инновационной экономике. ЭНСП № 3 (66) 2014

tizimini rivojlantirishdir. FU ushbu missiyani federal okrugda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yirik dasturlarini malakali kadrlar bilan muvozanatli ta'minlash, shuningdek muammolarning ilmiy, texnik va texnologik yechimlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, shu jumladan intellektual faoliyat natijalarini amalda qo'llash orqali amalga oshiradi. Birinchi ta'lim muassasalari 2007 yilda Janubiy (Rostov-na-Donu) va Sibir (Krasnoyarsk) federal okruglaridagi mavjud universitetlar va akademik markazlar asosida tashkil etilgan. 2014 yilga qadar to'qqizta shunday ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ularda boshqaruvning yangi tizimlari joriy etilmoqda va universitetlarning o'zlari innovatsion-texnologik rivojlanish va xalqaro darajadagi xodimlarni tayyorlash markazi sifatidagi ta'lim, fan va biznesning integratsiyalashgan komplekslariga aylanmoqda.

Milliy tadqiqot universiteti - bu fan va ta'limning integratsiyasi tamoyillariga asoslangan ta'lim va ilmiy faoliyatni amalga oshiradigan oliy o'qquv yurti. MTUlarining eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari quyidagilardan iborat: bilimlar generatsiyasi va texnologiyalarni iqtisodiyotga samarali uzatishni ta'minlash qobiliyati; keng ko'lamli fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish; magistrlar va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning yuqori samarali tizimi, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining rivojlangan tizimi mavjudligi.

2009–2010 yillarda "milliy tadqiqot universiteti" toifasini belgilash maqsadida universitetlarni rivojlantirish dasturlari tanlovi o'tkazildi. Birinchi tanlov asosida 12 universitet, shu jumladan N.Ye. Bauman nomidagi MDTU, Oliy iqtisodiyot maktabi (OIM), Novosibirsk davlat universiteti, Tomsk politexnika universiteti (TPU), Perm davlat texnika universiteti va boshqalar ushbu maqomga ega bo'lishdi. Ikkinchi tanlov natijasida yana 15 universitet MTU maqomini oldi, jumladan: Moskva davlat qurilish muhandisligi universiteti, Irkutsk davlat texnika universiteti, I.M. Gubkina nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Janubiy Ural davlat universiteti va boshqalar.

Hozirgi kunda yetakchi Rossiya universitetlari tarmog'i shakllantirilgan: maxsus maqomga ega ikkita universitet - M.V. Lomonosov nomidagi Moskva

davlat universiteti va Sankt-Peterburg davlat universiteti, 8 ta FU va 29 ta MTU, shu jumladan 9 taklassik universitetlar, 17 ta texnik universitetlar, 1 ta tibbiyot 1 ta iqtisodiyot sohasidagi universitetlar hamda Rossiya Fanlar akademiyasining akademik ilmiy va o'quv markazi.<sup>70</sup>

Rossiya universitetlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Rossiya Federatsiyasi hukumatining qaroriga binoan 2010 yilda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratish bo'yicha kompleks loyihalarni amalga oshirish uchun subsidiyalar olish huquqiga ega bo'lgan tashkilotlarni tanlash bo'yicha tanlov o'tkazildi va 57 ta korxonalar tanlov g'oliblari sifatida aniqlandi.

OTMlarning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish borasida, 2010 yilda Rossiya Federatsiyasi hukumatining qaroriga binoan, so'nggi uch yil ichidagi OTMlarning ilmiy, o'quv va innovatsion potensialini tahlil qilish asosida OTMlarni rivojlantirish dasturlari tanlovi o'tkazildi. Birinchi tanlov g'oliblari tanlovda ishtirok etgan Rossiyaning 199 ta OTMlaridan 56 tasi, shu jumladan 14 ta Moskva ta'lim muassasalari, 4 ta Sankt-Peterburgning 2 ta Tomskning OTMlari. Keyingi yil, tanlovning ikkinchi bosqichi natijasida mamlakatning yana 22 OTMlari g'olib bo'lishdi.

2012 yil sentabr oyida Rossiya tadbirkor universitetlari assotsiatsiyasi tuzildi, uning asosiy vazifasi uchlik spiral modeli doirasida OTMlar, biznes va davlat o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirishdir. Bundan tashqari, assotsiatsiyaga a'zo bo'lgan universitetlarning vazifalari quyidagilardan iborat: tadbirkor universitet mezonlarini shakllantirish; ishtirok etuvchi universitetlar tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv modellari va korporativ madaniyatni ilgari surish; "Skolkovo" jamg'armasi bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish; OTMning davlat korporatsiyalari va global bozor bilan

---

<sup>70</sup> О.А. Андриюшкевич, И.М. Денисова. Формирование предпринимательских университетов в инновационной экономике. ЭНСП № 3 (66) 2014

ishlashining asosiy "interfeysi" sifatida OTM atrofida innovatsion kompaniyalar guruhini yaratish mexanizmlarini tarqatish.<sup>71</sup>

Hozirgi kunda yetti universitet tadbirkor universitetlar assotsiatsiyasiga a'zo. Ushbu assotsiatsiyaga a'zo bo'lgan barcha universitetlar mamlakatning innovatsion tizimini texnologiyalar, yechimlar, servislar bilan ta'minlovchilardir. Ular rivojlanish institutlari, davlat korporatsiyalari va kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilishadi va ularning dargohida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Hozirgi kunda Rossiya OTMlari ta'lim va ilmiy-ishlab chiqarish integratsiyasining turli shakllari va sxemalarini sinab ko'rishmoqda. Ulardan ko'proq taniqlilari - o'quv-ilmiy-innovatsion komplekslar (O'IK), o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari (O'IChK) va ilmiy parklar hisoblanadi.

O'IK tuzilmasiga odatda OTMlar, kichik va o'rta innovatsion korxonalar (ko'pincha OTMlar negizida tashkil etilgan), O'IKning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish uchun venchur fondi, shuningdek innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'maklashadigan biznes-inkubatorlar, talabalar va texnologiyalar inkubatorlari kiradi. O'IK innovatsion mahsulotlariga yangi mutaxassisliklar va kadrlar tayyorlash hamda qayta tayyorlash yo'nalishlari, yangi materiallar tajribaviy namunalari, yangi texnologiyalar va ilm talab mahsulotlar kiradi. O'IK faoliyatini moliyalashtirish nafaqat venchur fondi, balki budjet manbalari, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash xalqaro va budjetdan tashqari fondlar, bank krediti tomonidan ham amalga oshiriladi.

O'IChKlar iqtisodiyotning ta'lim, ilmiy-texnik va sanoat sohalarini birlashtirish shaklidir. Ularning asosiy vazifasi ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi tomonidan ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar bilan ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini muvofiqlashtirishdan iborat. O'IChK tarkibiga maktablar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, ilmiy-tadqiqot

---

<sup>71</sup> Конференция «Развитие предпринимательских университетов как системообразующих элементов инновационных территориальных кластеров», октябрь 2012, г. Томск. URL: <http://community.sk.ru/events/1339.aspx>

institutlari, OTMlar, turli tashkiliy shakldagi sanoat tuzilmalari kirishi mumkin. Shunga muvofiq, O'IICHK tuzilmasi "OTM - tadqiqot instituti - sanoat korxonasi", "texnik OTM - sanoat korxonasi" va boshqalarga o'xshash bo'lishi mumkin.

O'IICHK oldida turgan asosiy vazifalar majmuani tashkil etuvchi tashkilotlarning salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida sanoat tuzilmalarini ilmiy qo'llab-quvvatlash, mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, oliy ta'lim, fan va sanoatning integratsiyasini amalga oshirishdir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun O'IICHK ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi, tadqiqot rejalarini ishlab chiqadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi va moliyalashtirish masalalarini hal qiladi, o'qituvchilarni mutaxassislarning malakasini oshirish uchun tashkilotlarga yuboradi, ishlab chiqarish korxonalarini xodimlarini O'IICHK o'quv muassasalariga malaka oshirishga jalb qiladi, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashga yordam beradi. Ularning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish nafaqat budjet va aksiyadorlik jamg'armalari, balki kinnovatsion mahsulot va xizmatlarni sotishdan olinadigan foyda hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat, biznes va fanning o'zaro hamkorligi bo'yicha "uchlik spiral" konsepsiyasini 2010 yilda "Skolkovo" jamg'armasini (yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish Markazini rivojlantirish jamg'armasi) tashkil etish orqali amalga oshirishga harakat qilindi. Uning asosiy maqsadi innovatsion loyihalar (kompaniyalar) havzasini shakllantirish va ularning o'zaro hamda innovatsion tizimning asosiy ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlashdir. U ko'plab muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi, ularning asosiylari quyidagilar: innovatsion jarayonning to'liq siklini shakllantirish, shu jumladan ta'lim va ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlari, ularning natijalarini tijoratlashtirish; ilg'or ilmiy g'oyalar va dunyo miqyosidagi tadqiqotlar va ishlanmalar, shuningdek, beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan intellektual va ijodiy resurslarni birlashtirish.

"Skolkovo" tarkibiga innovatsion klasterlar, texnopark, o'quv muassasalari va boshqalar kiradi. Ilk talabalarni qabul qilish Skolkovo fan va texnologiyalar institutida (SkolTex) 2012 yil iyun oyida amalga oshirilgan va Skolkovo universitetini shakllantirishni 2020 yilga qadar yakunlash rejalashtirilgan.

Shunday qilib, Rossiyada an'anaviy OTMlarni tadbirkor universitetlarga aylantirish jarayoni endigina boshlandi. U asosan yirik shaharlarda joylashgan mamlakatning yetakchi universitetlarini qamrab olgan va ularning soni hali ham oz. Bunday universitetlar tarkibida tadqiqot komponenti paydo bo'la boshladi, ammo uning rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion infratuzilmaning yaratilishi va kam darajada mutaxassislar tayyorlash dasturlarini o'zgartirish va talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish hisobiga ro'y bermoqda. OTMlar va sanoat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka kelsak, hozircha asosan OTMlardan sanoatga bilimlarni uzatishning chiziqli modeli mavjud: OTMlar ta'lim va tadqiqot funksiyalariga, sanoat ishlab chiqarish va sotishga, vositachi tashkilotlar esa (agar ular mavjud bo'lsa) uzatish jarayoniga javobgardir.

Rivojlangan mamlakatlar va Rossiya Federatsiyasining innovatsion tizimida tadbirkor universtitetlar rolini o'rganish ularning shakllanish va rivojlanish tarixini umumlashtirish va tajribasini tizimlashtirish imkonini berdi (2.8-jadval).

Bizning fikrimizcha, "sof" ko'rinishda xorijiy modellarning birontasi ham mamlakat innovatsion rivojlanishini ta'minlaydigan O'zbekistonda innovatsion-tadbirkor OTMlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida qo'llab bo'lmaydi. O'zbekistonda innovatsion-tadbirkor OTMlarni shakllantirish va rivojlantirishda xorijda amaldagi mexanizmlarning faqat ayrim elementlaridan foydalanish mumkin. Umuman olganda, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimi oldida turgan muammolar tadbirkor universitetlarni shakllantirish orqali yechimini topishi shubhasiz. Shu bilan birga OTMlarda innovatsion-tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan yangi tuzilmalarni tuzish, qonunchilikni takomillashtirish, mahalliy hokimiyat va davlat tomonidan rag'batlantirish talab etiladi.

2.8-jadval

Rivojlangan mamlakatlar innovatsion tizimida tadbirkor universtitetlar shakllanishi va rivojlanishi

| Mamlakatlar  | Innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsion tuzilmalar   |  |  |  |  |  | Tashkiliy xususiyatlar   |
|--------------|---|--|--|--|--|--|--|
|              | Ilmiy-tadqiqotlar generatsiyasi   | Ilmiy ishlarni tijoratlashtirish   | Kompaniyalarni shakllantirish va rivojlantirish-ga ko‘maklashish   | Texnologiyalarni patentlash va litsenziyalash  | Tadbirkorlik ta’limi dasturlari  | Mintaqa rivojlanishiga ko‘maklashish   |  |
| AQSh OTMlari | <p>Stenford – tadqiqot parki;</p> <p>Shimoliy Karolina shtati universitetlari – park «uchburchak tadqiqot» parki;</p> | <p>Nyu-York shtati universitetlari – kichik biznesni rivojlantirish markazi;</p> <p>Masachusets – biznes-inkubatorlar, «Universitet parki»;</p> <p>Pittsburg –</p> | <p>Stenford –3 mingdan ortiq kompaniyalar;</p> <p>Beylor – Dj.F. Bau nomidagi tadbirkorlik markazi;</p> <p>Merilend texnologik tadbirkorlik instituti–MIPS</p> | <p>Garvard, Stenford – texnologik rivojlanish bo‘limi;</p> <p>MTI – texnologik litsenziyalash boshqarmasi;</p> <p>Kaliforniya universiteti –</p> | <p>Stenford – 90 ta;</p> <p>Kolumbiya – 30 ta qo‘shimcha ta’lim dasturlari;</p> <p>Pittsburg – “Ilmiy tadbirkorlik”,</p> <p>“Innovatsiyalarni tijoratlashtirish” malaka oshirish</p> | <p>Kaliforniya agrar universitetlari Garvard, Boston universitetlari – bandlikni ta’minlash;</p> <p>Kaliforniya – “Qo‘shma tadqiqotlar</p> | <p>1950-1960 yillarda shakllana boshlagan;</p> <p>“uchlik spiral” modeli bo‘yicha hamkorlik;</p> <p>235 tadan ortiq OTMlar</p> |

|                 |   |   |   |  |   |   |  |
|-----------------|---|---|---|--|---|---|--|
|                 | <p>Purdy – kashfiyotlar parki;</p> <p>Prinston – 60 ta tadqiqot institutlari va markazlari;</p> <p>Pensilvaniya – 164 ta tadqiqot institutlari va markazlari;</p> <p>Masachusets (MTI) – Linkoln laboratoriyasi</p> | <p>texnologiyalar menejmenti ofisi;</p> <p>Shimoliy Karolina texnologiyalar transferi ofisi, texnologik inkubator;</p> <p>Dyuk – korporativ va venchur rivojlanish ofisi;</p> <p>Xyuston – Volf nomidagi tadbirkorlik markazi;</p> <p>Kaltex – texnologik transfert ofisi</p> | <p>sanoat hamkorligi dasturi</p>            | <p>texnologiyalar ni uzatish bo‘limi</p> | <p>kurslari;</p> <p>Purdy – “Tadbirkorlik va innovatsiyalar” dasturi;</p> <p>MTI – “Innovatsiya va global yetakchilik”, “Sanoat uchun lider” dasturlari;</p> <p>Xyuston universiteti – Wolffest dasturi;</p> <p>Notr Dam universiteti – 37 ta tadbirkorlik bo‘yicha kurslar</p> | <p>dasturi”;</p> <p>Shimoliy Karolina universiteti – kichik biznesni texnologiyalarni rivojlantirish Markazi, programma SBIR i STTR</p> | <p>tadbirkor universitet hisoblanadi;</p> <p>aksariyat OTMLar xalqaro reyting tizimida yetakchi o‘rinlarni egallaydi</p> |
| Buyuk Britaniya | <p>Kembridj – tadbirkorlarni o‘qitish</p>   | <p>Kembridj – tadqiqot Markazi (neft qazish va</p>  | <p>Nortxempton – 83 ta yangi korxonalar</p> | <p>London imperial kolleji –</p>         | <p>Notingem tadbirkorlik va innovatsiyalar</p>  | <p>Surrey – yangi ish joylarini yaratish (3</p>   | <p>1980 yillarda rivojlanish</p>   |



|         |   |   |  |   |   |  |  |
|---------|---|---|--|---|---|--|--|
| OTMlari | <p>markazi, korporativ aloqalar ofisi;</p> <p>Nottingem – tadbirkorlik va innovatsiyalar instituti;</p> <p>Xertfordshir – bioximik laboratoriya;</p> <p>London imperial kolleji – tadbirkorlik markazi;</p> <p>Koventri – korxonalar amaliy tadbirkorligi instituti;</p> <p>York – York ilmiy parki (biomarkaz; IT-</p> | <p>qayta ishlash sohasida xaqaro tadqiqotlar);</p> <p>Surrey – tadqiqot markazi, biznes-inkubator (AKT, mobil telefoniya, dasturiy ta’minot, jumladan kompyuter o’yinlari, biomeditsina, bio-va kimyoviy texnologiyalar, farmasevtika);</p> <p>London imperial kolleji – texnologiya transferi kafedrasini;</p> <p>Xertfordshir – o’yinlar studiyasi;</p> <p>Plimut – interfaol</p> | <p>yaratilgan (2010–11 yillar.);</p> <p>Xertfordshir (universitet bioparki) – har yili 250 ming kichik va o’rta kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorlik, 10 mingta yangi korxonalar ochishda ko‘maklashish;</p> <p>Edinburg – sozdano 40 ta yangi kompaniyalar yaratilgan (2009–2010 yillar);</p> <p>Plimut – 5 mingta. Kompaniyalar</p> | <p>texnologiya transferi ofisi;</p> <p>York-innovatsion markaz;</p> <p>Edinburg – bilimlarni, g‘oyalarni almashish guruhi</p> | <p>instituti– barcha kafedra va fakultetlarda tadbirkorlik ta’limi, birinchi bosqich talabalari uchun qo‘shimcha ta’lim;</p> <p>Xertfordshir – barcha kafedra va fakultetlarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik dasturi;</p> <p>Koventri – kurs “Univnsitetda liderlik va tadbirkorlik” kursi;</p> <p>Nortxempton – ta’lim jarayoniga ijtimoiy tadbirkorlikni</p> | <p>ming), mahalliy mahsulot va xizmatlar bilan ta’minlash. Parkni 1992 yili tark etgan 80 ta korxonadan 50%i mintaqada qolishgan;</p> <p>Plimut – mintaqaviy loyihalarda ishtirok etish, 250 nafar bitiruvchilar 111 kompaniyada stajirovka o‘taydi va ularning 73% i doimiy ishlashda qoladi;</p> <p>Xaddersfeld – mintaqaviy</p> | <p>boshlangan; umum-milliy innovatsion tizimning elementi sifatida hamkorlik; kuchli tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish;</p> <p>turli ko‘rik tanlovlar;</p> <p>aksariyat OTMlar xalqaro reyting tizimida yetakchi o‘rinlarni egallaydi</p> |
|---------|---|---|--|---|---|--|--|

|                          |   |   |   |  |   |  |   |
|--------------------------|---|---|---|--|---|--|---|
|                          | markaz)   | tizimlar studiyasi  | bilan hamkorlik,<br>150 ta<br>korxonalar<br>ochishda<br>ko‘maklashgan;<br><br>Koventri –<br>kichik va o‘rta<br>biznes<br>vakillariga<br>maslahatlar<br>ko‘rsatish<br>bo‘yicha birinchi<br>o‘rinda |  | joriy etish;<br><br>Xaddersfild–<br>talabalar uchun<br>tadbirkorlik<br>stajirovkalari<br>dasturi, “Biznes<br>yaratish” bakalavr<br>dasturi;<br><br>Edinburg –<br>talabalar,<br>xodimlar<br>tomonidan<br>yaratilgan<br>biznesni qo‘llash<br>dasturi, kurslar | kichik biznes<br>bilan, yoshlar<br>o‘rtasida<br>tadbirkorlikni<br>rivojlantirish<br>bo‘yicha<br>mahalliy<br>hokimiyatlar<br>bilan o‘zaro<br>hamorlik,<br>mahorat darslari<br>va tanlovlar<br>o‘tkazish |   |
| Ger<br>maniya<br>OTMlari | Brandenburg<br>texnika<br>universiteti –<br>BIEM an der<br>BTU Cottbus<br>Markazi;<br><br>Gelzenkirxen<br>amaliy fanlar | Myunxen oliy<br>maktabi – biznes-<br>inkubator;<br><br>Potsdam<br>universiteti –<br>Potsdam<br>Transfer<br>markazi; | Myunxen oliy<br>maktabi –<br>biznes-inkubator<br>(15–20 ta<br>startaplar har yili<br>chiqariladi);<br><br>Brandenb<br>urg texnika   | Brandenburg<br>texnika<br>universiteti –<br>BIEM an der<br>BTU Cottbus<br>Markazi –<br>patentlash va<br>litsenziyalash,<br>startaplar, | Lyuneburg<br>universiteti –<br>tadbirkorlik<br>asoslari bo‘yicha<br>seminar; “Social<br>Change Hub”<br>loyihasi;<br><br>Vitten-Xerdeke  | Gelzenkirxen<br>amaliy fanlar<br>universiteti –<br>bozor<br>tadqiqotlarini<br>o‘tkazish;<br>biznesni<br>boshlovchilarni<br>moliyaviy   | 1990 yillar<br>o‘rtalarida<br>rivojlangan;<br><br>mintaqaviy<br>innovatsion<br>klasterlar<br>yaratish<br>modeliga |

|  |   |  |  |                                 |  |  |   |
|--|---|--|--|---------------------------------|--|--|---|
|  | <p>universiteti – Innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish instituti</p> | <p>Brandenburg texnika universiteti – BIEM an der BTU Cottbus Markazi;<br/>Gelzenkirxen amaliy fanlar universiteti – tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazi</p> | <p>universiteti – BIEM an der BTU Cottbus<br/>Markazi – startaplarni muvofiqlashtirish, ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishga ko‘maklashish;<br/>Gyottingen xususiy oliy maktabi – tadbirkorlik markazidagi<br/>E-LAB laboratoriyasi, startaplar (investorlarni izlash va bozorga chiqish);<br/>Gelzenkirxen</p> | <p>texnologiyalar transferi</p> | <p>universiteti – tadbirkorlik bo‘yicha majburiy dastur, GründerWerkstat startap ustaxonalarida mashg‘ulotlar;<br/>Gelzenkirxen amaliy fanlar universiteti – tadbirkorlik dasturlari, ishlab chiqarish stajirovkasi va talabalar bitiruv loyihalarini korxonalarda aprobatsiyasi, firmalar xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash pullik dasturlari;<br/>Biznes rejalarni</p> | <p>qo‘llab – quvvatlash, mahalliy aholini tadbirkorlik faoliyatiga, innovatsiyalarni boshqarishga o‘qitish</p> | <p>asoslangan; ilmiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus agentliklar mavjudligi; Keng miqyosda rag‘batlantiruvchi ko‘rik tanlovlar o‘tkaziladi;<br/>xalqaro reyting tizimida yetakchi o‘rinlarni egallagan OTMlar soni oshmoqda;</p> |
|--|---|--|--|---------------------------------|--|--|---|

|                  |  |  |  |  |   |   |   |
|------------------|--|--|--|--|---|---|---|
|                  |  |  | <p>universiteti – biznes-inkubator, tadbirkorlar uchun bepul xizmatlar;</p> <p>Leypsig menejment oliy maktabi– startaplar uchun Talabalar tashabbusi Accelerate@HH L</p> |  | tuzish bo‘yicha maslahatlar   |   | innovatsion tizim davlat va mahalliy hokimiyalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi                 |
| Ros siya OTMlari | <p>Tomsk DU– Innovatika instituti;</p> <p>Nijegorod DU (NNGU) – 6 ta ITI;</p> <p>Oliy Iqtisodiyot Maktabi (VShE) –</p> | <p>Tomsk DU – talabalar biznes-inkubatori, ishlanmalarni tijoratlashtirish ofisi;</p> <p>Sankt-Peterburg ilmiy tadqiqot universiteti –</p> | <p>Tomsk DU (TUSUR) – o‘quv-ilmiy-innovatsion qutb, 135ta kompaniyalar yaratilgan;</p> <p>Sankt-Peterburg ilmiy tadqiqot universiteti – 33</p>                           | <p>TUSUR – intellektual mulkni himoyalash agentligi;</p> <p>LETI – intellektual mulk ob’ektini huquqiy</p> | <p>TUSUR – loyihaviy o‘qitish, “Innovatika”, “Elektron texnikada innovatsiyalarni boshqarish”, “Mexatronika va robototexnikada innovatsiyalarni</p> | <p>TUSUR – Tomsk MIZning “Elektronika va AKT” yo‘nalishi bo‘yicha elementi, federal va idoraviy</p> | <p>2010 yillarda harakatlar boshlangan; ikki tomonlama hamkorlik modeliga asoslangan; yangi</p> |

|  |  |  |   |  |   |  |  |
|--|--|--|---|--|---|--|--|
|  | <p>107 ta ITI va markazlar, 32 ta ilmiy-o'quv va loyiha-o'quv laboratoriyalari, 16 ta xalqaro laboratoriyalar;</p> <p>Moskva fizika-texnika instituti (MFTI) – o'quv-ilmiy ishlab chiqarish kompleksi, bio-biznes-inkubator,</p> <p>innovatsion ta'lim texnologiyalari</p> | <p>texnopark;</p> <p>Sankt-Peterburg elektrotexnika universiteti (LETI) – texnopark, ilmiy-ta'limiy markaz, tijoratlashirish va transfer markazi;</p> <p>NNGU – innovatsion-texnologik markaz;</p> <p>VShE – tadbirkorlik markazi, innovatsion markaz;</p> <p>MFTI – yoshlar tadbirkorligini</p> | <p>ta kichik innovatsion korxonalar;</p> <p>VShE – innovatsion loyihalarni rivojlantirish bo'limi;</p> <p>TPU – 252 ta korxonalar bilan strategik hamkorlik, sozdano 28 ta tijorat korxonalarini yaratilgan</p> | <p>himoyalash;</p> <p>VSHE – intellektual mulk masalalaribo'yicha bo'lim;</p> <p>MFTI – texnologiyalar transferi ofisi (huquqiy himoya);</p> <p>TPU – patentlashtirish va himoya bo'limi</p> | <p>boshqarish”;</p> <p>Sankt-Peterburg ilmiy tadqiqot universiteti – “Yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash innovatsion tizimi” dasturi;</p> <p>LETI – uzluksiz ta'lim instituti, “Zukko”, “Strategik hamkor”, “Innovatsiyalar marketingi” dasturlari;</p> <p>VSHE – “Innovatsiyalar marketingi” kursi;</p> <p>MFTI – korporativ tadbirkorlik</p> | <p>loyihalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;</p> <p>Sankt-Peterburg ilmiy tadqiqot universiteti – RUNNet ishlab chiqaruvchisi;</p> <p>LETI – Sankt-Peterburg innovatsion tashkilotlari va innovatsion loyihalar ro'yxatiga kiritilgan;</p> <p>TPU – federal maqsadli dasturlarda ishtirok etish, 11 ta texnologik platformalarda qatnashish</p> | <p>tuzilmadagi OTMlarni - (FU va MTU) tashkil etish; tadbirkor universitetlar assotsiatsiyasi tuzilganligi;</p> <p>rag'batlantiruvchi turli ko'rik-tanlovlar;</p> <p>hamkorlikning turli sxemalarini sinab ko'rish (O'IK va O'IChK</p> |
|--|--|--|---|--|---|--|--|

|  |   |   |  |  |   |  |  |
|--|---|---|--|--|---|--|--|
|  | <p>aborato-riyasi;</p> <p>Tomsk politexnika universiteti (TPU) – 11 ta ilmiy-ta’limiy va o‘quv institutlari, 9 ta innovatsion ilmiy-o‘quv markazlari, 66 ta ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari</p> | <p>rivojlantirish markazi;</p> <p>TPU – innovatsion-texnologik markaz, texnologiyalar transferi, talabalar biznes-inkubatori, OO” TPU texnologik inkubator”</p> |  |  | <p>markazida o‘qitish;</p> <p>TPU – AKT bo‘yicha dasturlar, tadbirkorlik bo‘yicha innovatsion o‘quv-metodik resurslar</p> |  | <p>); innovatsion tizim davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi</p> |
|--|---|---|--|--|---|--|--|

## **Nazorat savollari**

1. Hozirgi kunda AQSH tadbirkor universitetlarining asosini I va II toifadagi tadqiqot universitetlari deb ataladigan 235 universitet tashkil etadi, ular Amerika oliy ta'lim tizimining yadrosi va fundamental tadqiqotlarning asosiy markazi hisoblanadi. Ular orasida qaysi universitetlarni bilasiz? Izohlab bering.
  2. Tadbirkor universitetning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
  3. G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida tadbirkor universitetlarni tashkil etish jarayoni qachon boshlangan?
  4. Universitetlarning raqobatbardoshligi va ilmiy samaradorligini baholash uchun bir nimalardan foydalaniladi?
  5. Fransiya universitetlari raqobatbardosh qutblar tarkibiga kiradi va ilg'or ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishda ilmiy institutlar hozircha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? O'z fikringizni bildiring.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati -T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" -"Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whYTECHTRANS>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

### **III. BOB. OLIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYALAR**

#### **3.1. Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish**

Ta'lim tizimining rivojlanishi mehnat bozori tendensiyalariga bevosita bog'liq. Shu sababli, avvalambor, mehnat bozori, xususan yoshlar mehnat bozori tahlillarini o'tkazamiz. Bugungi kunda yoshlar mehnat bozori quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- yoshlarda kasbiy qiziqishlarning yetarli shakllanmaganligi;
- o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy maqsadlarining o'zgarib borayotganligi, ishchi kasblarga qiziqish pastligi, xizmatchi kasblariga (meditsina, bank, yuridik) ehtiyoj oshayotganligi va aksariyat yoshlarda yuqori talablarning qo'yilishi;
- kasbga tayyorlash tuzilmasiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda tuzatishlar kiritish mexanizmining ishlamayotganligi;
- aksariyat korxonalar va tashkilotlarda yosh ishchi va mutaxassislarning mehnat adaptatsiyasi dasturining yo'qligi;
- tayyorlanayotgan mutaxassislar malaka darajasining ish beruvchilar talablariga javob bermasligi;
- oliy ta'lim bitiruvchilariga davlat va korxonalar buyurtmasining mavjud emasligi;
- ish haqi pastligi, mehnat sharoitlarining qoniqarsizligi, ish joyi sifatining pastligi;

Bundan ko'rinib turibdiki, oliy ta'limda oddiy islohotlar yetarli emas - talabalar va ish beruvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta'lim xizmatlarini o'zgartirish uchun innovatsiyalar zarur va quyidagi chaqiriqlarga javob berishi kerak:

global raqobat - ish tabiati va iqtisodiyot strukturasi o'zgarishlariga javob berishi;



bilimlar iqtisodining rivojlanishi;  
ta'lim xizmatlarining shaxsga qaratilishi va buyurtmaga asoslanishi;  
jamiyatning umid bilan kutishlarining o'sib borishi;  
demografik omillar – hayot davomida ta'lim;  
yoshlar o'rtasida norasmiy ishsizlik va ijtimoiy ayirishlar;  
rivojlanayotgan texnologiyalar - AKT;  
nokognitiv ko'nikmalar ahamiyatining e'tirof etilishi – masalan, Xekman, Feynshteyn tadqiqotlari; ish beruvchilarning talablari.

Xalqaro tajribalarni o'rganish oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni umumlashtirish imkonini beradi.

Xalqaro ta'lim tizimidagi bir qator keng ko'lamli tendensiyalar quyidagilardan iborat:

1. Nokognitiv ko'nikmalar va kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modellari - masalan. Singapur, Daniya mamlakatlari tajribasi.

2. Kasbiy va akademik ta'lim o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish – masalan, Avstraliya va Angliya mamlakatlari tajribasi.

3. Tuzilmalarni soddalashtirish, moslashuvchanlikni oshirish - masalan. Daniya, Germaniya, Buyuk Britaniya mamlakatlari tajribasi. Ta'lim olishni yengillashtirish, xizmatlarni kengaytirish, natijani yaxshilash, hayot davomida ta'lim, shaxsga qaratish.

4. Ish beruvchilarning ahamiyatli ishtiroki.

5. AKT - masofaviy talim.

Bugungi kunda ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra tovar hisoblanadi va ta'lim xizmatlari talab va taklif kategoriyalariga aniq bo'lingan.

Ta'limga ehtiyoj inson (shaxs) tomonidan namoyon etiladi. Ushbu ehtiyojni moliyalashtirish davlat, o'zi uchun ishchilarni tayyorlash xarajatlarini qoplaydigan korxonalar va oila tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun, aytish mumkinki, ta'lim xizmatlariga bo'lgan to'lovga qobil talab haqiqatda qisman va nisbatan katta bo'lmagan hajmda talab namoyon etuvchi hisobidan bo'lishi mumkin.

Demak, mehnat bozori uchun ishchi kuchini tayyorlaydigan oliy ta'lim sohasida to'lovga qobil talabni shakllantirishda bozor komponenti kuchayadi.

Ta'lim xizmatlariga talab ish beruvchilar talabi va mehnat bozorida umumiy holat asosida shakllanadi. Ijtimoiy qayta ishlab chiqarish nuqtai nazaridan ta'lim tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun yangi ish kuchini kasbiy tayyorlash (yoshlar ta'limi). Uning hisobidan yangi yaratiladigan ish o'rinlarini to'ldirish va bo'shagan ishchilarni almashtirish amalga oshiriladi;

- faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Fan – texnikaning intensiv rivojlanishi bilimlarni doimo to'ldirib borishni talab etganligi sababli uzluksiz ta'lim konsepsiyasi vujudga keldi. Jamiyatning ta'lim tizimi xizmatlariga ehtiyojlarining ushbu tuzilmasidan davlat, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini aniqlovchi omillar to'plami kelib chiqadi. Bu omillar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyot tarmoqlarining mutaxassislariga bo'lgan joriy va istiqbolli ehtiyojlari;

- ish haqi darajasi;

- egallagan mutaxassisligi bo'yicha vatanida (xorijda) ish topish imkoniyatlari;

- kasbning ijodiy potentsiali, kelajagining borligi, mehnat bozori o'zgarishlariga moslashish imkoniyatlari.

Ushbu omillarning talab namoyon etuvchi turli sub'ektlarga tasir darajasi katta farq qiladi. Masalan, tarmoqning ma'lum bir mutaxassislikka bo'lgan ehtiyoji korxonada yaxshiroq namoyon bo'ladi, lekin uning kelajakni baholash imkoniyatlari chegaralangan. Bu imkoniyatlar korxonaning investitsiya loyihalari asosida aniqlanadi. Investitsiya loyihalari esa uch-besh yildan ko'p muddatga mo'ljallangan. Shuning uchun, tarmoq kelajagini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash holati faqat makro darajada real baholanishi mumkin. Aniq bir shaxsning o'z professional kelajagini aniqlashdagi imkoniyatlari ham mehnat bozorida holat, ish haqi, kelajakda ish topish imkoniyatlari, ta'lim xizmatlari sifati to'g'risida yetarli axborotga ega bo'lmaganligi sababli cheklangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha oliy ta'lim muassasalari **uch turdagi aniq natijani** yaratish uchun faoliyat ko'rsatadi va bu natija **oliy ta'limning qiymatini** ifodalaydi:

1. Ish va daromad imkoniyatlari nuqtai nazaridan individual shaxs uchun qiymat.
2. Ishlab chiqarish unumdorligi nuqtai nazaridan ish beruvchi uchun qiymat.
3. Jamiyat umumiy rivojlanishi va ijtimoiy maqsadlariga erishishga ta'siri nuqtai nazaridan jamiyat uchun qiymat.

**Shunday ekan, bunday holat bir qator savollar tug'diradi:**

**Birinchidan,** oliy ta'limga sarflanadigan xarajatlar va olinadigan manfaatlar ta'minlaydigan ijobiy balans tomonlar o'rtasida qanday taqsimlanishi kerak?

Aslida barcha uch tomon ham oladigan manfaatlariga mutanosib ravishda to'lashlari kerak. Lekin, bilim va tushunib olishdagi to'siqlar kim va qancha manfaat olishini baholash imkonini bermaydi. Demak, to'lovdagi har bir tomonning hissasini aniqlash ham qiyinchilik tug'diradi. Shunga qaramay, oliy ta'limdan jamiyatning oladigan manfaati ahamiyatli ekanligini isbotlash talab etilmasa kerak. Shuning uchun oliy ta'lim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarurdir.

**Ikkinchidan,** oliy ta'limni individuallashtirish va ish bilan bandligini ta'minlash o'rtasida nomutanosiblik mavjudmi?

Ta'lim xizmatlarini faqat ta'lim oluvchilarning shaxsiy ehtiyoji va talabiga (o'z-o'zidan shakllanadigan, tahlil va o'rganishlarga asoslanmagan) muvofiq tashkil qilinishi ularni ish bilan ta'minlash istiqbolini mutlaqo yaxshilamasligi mumkin.

Har qanday rivojlangan mamlakatda, madaniyatli jamiyatda uning har bir a'zosi, jumladan yosh fuqarosi, ta'lim olish imkoniyatlariga (umumiy o'rta va kasb-hunar) ega bo'lishi lozim. Lekin bu hamma odamlar bir xil yuqori darajadagi bilim va malaka olishga erishishlari mumkinligini bildirmaydi. Shunga qaramay, jamiyat har bir a'zosi ta'lim olish uchun taxminan teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi mumkin va zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoniga muvofiq, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini izchil ta'minlash maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirish, ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti ekanligi belgilab qo'yildi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan o'zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini berilmayotganligiga alohida e'tibor qaratildi va O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish Strategiyaning bosh maqsadi etib belgilandi.

Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Strategiyada belgilangan asosiy yo'nalishlar bevosita oliy ta'lim tizimi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uni modernizatsiyalash zarurligidan dalolat beradi:

### **Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish**

1. Loyihaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalangan holda dasturiy-maqсадli prinsip asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishga davlat tomonidan buyurtma berish orqali tadqiqotlar tashkil etish mexanizmini joriy etish.

2. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Noyob ilmiy-texnik uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini tashkil etish.

4. O'zbekiston Respublikasida ilmiy faoliyat nufuzini oshirish.

5. Mamlakatimiz va xorijdagi ilmiy-texnik axborot manbalarini to'plash, saqlash va qayta ishlashga, axborot fondlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini shakllantirish, yuritish va ulardan foydalanishga ixtisoslashgan respublika, tarmoq va hududiy ilmiy-texnik axborot resurslari va tashkilotlaridan iborat davlat ilmiy-texnik axborot tizimini yaratish.

6. Intellektual mulk ob'ektlarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish.

7. Texnologiyalar transferi bo'yicha milliy va hududiy ofislarni tashkil etish.

8. Ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun texnoparklar xabi, erkin iqtisodiy zonalar, erkin sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish.

9. Xorijiy hamkorlar bilan mahalliy ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda sotish bo'yicha qo'shma tashkilotlarni shakllantirish uchun davlat ko'magini kuchaytirish.

### **Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish**

1. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko'paytirish va 2021 yilga borib bu ko'rsatkichni yalpi ichki mahsulot hajmining 0,8 foiziga yetkazish.

2. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg'armalari, innovatsiya banklari, venchur jamg'armalari) tashkil etish.

3. Mamlakatni innovatsion rivojlantirishni rag'batlantirish uchun bank kreditini olish tartib-taomillarini va talablarini soddalashtirish.

4. Innovatsion taraqqiyotni mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

5. Ilmiy-texnologik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish.

6. Innovatsion loyihalar va salohiyatli investorlarning doimiy ravishda yangilab boriladigan yagona ma'lumot bazasini tashkil etish.

7. Innovatsion loyihalar uchun grantlar va texnik ko'mak mablag'larini olish va ulardan foydalanish tartib-taomillarini soddalashtirish va shaffofligini oshirish.

### **Infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish**

1. Telekommunikatsiya sohasini normativ-huquqiy tartibga solish tizimini, shu jumladan davlat-xususiy sherikligi asosida tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish.

2. 2021 yilgacha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar eksporti ulushini ular umumiy hajmining 4 foiziga yetkazish.

3. Barcha operatorlar uchun xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ulanishni erkinlashtirish.

4. Aholini axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan foydalanishga rag'batlantirish.

5. Startap loyihalar uchun texnopark tashkil etish orqali mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish tarmog'ini rivojlantirish.

### **Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish**

1. O'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish).

2. Nogiron bolalar ta'lim va tarbiyadan teng sharoitda bahramand bo'lishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shu jumladan:

ta'lim muassasalarida ko'tarish qurilmalari, panduslar, sanitar xonalarda maxsus moslamalar o'rnatish, tutqichlar, maxsus partalar, stollar va boshqa maxsus kompensator vositalari bilan jihozlash orqali «to'siqsiz muhit» yaratish;

imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiyalashgan holda o'qitish dasturlarini yaratish;

ta'lim muassasalarini tegishli kadrlar (pedagog-defektologlar, bolalarni ruhiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash.

3. Hududiy va milliy darajada ta'lim jarayoni natijalarini tizimli monitoring qilish asosida ta'lim sifatini va uning mamlakat innovatsion rivojlanishi darajasiga ta'sirini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Mehnat bozoridagi tendensiyalar o'zgarib borishini hisobga olgan holda qayta tayyorlashga muhtoj yoshlar uchun kasb-hunar kollejlarida qisqa muddatli o'quvlar tashkil etish.

5. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinishini oshirish.

6. Tabiiy va texnik fanlar yo'nalishlari bo'yicha talabalar ulushini ko'paytirish.

7. Chop etilgan ilmiy maqolalar soni, ulardan iqtibos keltirish indeksi, xalqaro konferensiyalar va seminarlarda ishtiroki, olingan patentlari soni bo'yicha tanlab olingan sohadagi eng faol oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining tadqiqot yo'nalishini kuchaytirish.

8. Tarmoq va mintaqaviy iqtisodiyot ssenariylari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida innovatsion faoliyat rivojini prognozlashtirish tizimining alohida bo'g'ini sifatida yetakchi oliy ta'lim muassasalarida forsayt markazlarini tashkil etish. Oliy ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhitini ilmiy-texnologik prognozlashtirishni ta'minlash, ularning texnologik va innovatsion muhitini va ustuvor innovatsion yo'nalishlarini rivojlantirish.

### **Raqobatni rivojlantirish va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish**

1. Xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish.

2. Iqtisodiyotni taraqqiyotning innovatsion yo'lga o'tishini ta'minlaydigan raqobatbardosh bozorni shakllantirish va resurslardan samarali foydalanish.

3. Monopoliyaga qarshi siyosatni, shu jumladan davlat-xususiy sherikligini joriy etish hisobiga takomillashtirish, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun tabiiy monopoliyalar sub'ektlari tovarlari, ishlari va xizmatlaridan foydalanishda teng sharoitlarni ta'minlash, monopol korxonalar mahsulotlariga narx shakllanishining samarali mexanizmlarini joriy etish.

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlar yaratish va ichki bozorning monopollashuvini oldini olish.

5. 2021 yilga borib davlat kadastrini ishlarini yuritishning to'liq raqamlashtirilishini ta'minlash va mulkni ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomilini soddalashtirish.

6. Qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasini ishlab chiqarish ulushini 2025 yilga borib 20 foizdan ziyodga oshirish.

Strategiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimini ham muvofiq ravishda rivojlantirishni talab etadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh



qilishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, oliy taʼlimni modernizatsiya qilish, ilgʻor taʼlim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yoʻnalishlari belgilab berildi.

Quyidagilar oliy taʼlim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy taʼlim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va maʼnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini taʼminlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy taʼlim tizimini innovatsion rivojlantirish quyidagi ustuvor yoʻnalishlar asosida amalga oshiriladi:

ilmiy-innovatsion jarayonlar natijalarini oʻquv jarayonida foydalanish asosida oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy taʼlim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

oliy taʼlim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini taʼminlash, oʻz-oʻzini moliyalashtirish yoʻllarini kengaytirish;

oliy taʼlim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini innovatsion asosda takomillashtirish;

oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish OTMlarining innovatsion va tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida erishilishi kutiladigan quyidagi natijalar O'zbekiston OTMlari oldida rivojlanishning yagona yo'li innovatsiya va tadbirkorlik ekanligini yana bir bor isbotlaydi:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish, sohada raqobat muhitining yaratilishi va rivojlanishi;

oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishiga erishish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga innovatsiyalarga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish asosida oliy ta'lim mazmuni sifatini oshirish,;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta‘lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish;

oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta‘minlash;

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirilishi;

oliy ta‘lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligi ta‘minlash;

ta‘limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

### **Nazorat savollari**

1. Ba‘zi rivojlangan mamlakatlarda klassik universitetlarni tadbirkorlik shakliga o‘zgartirish tendensiyasi qachon shakllana boshladi?
2. "Patentlar va tovar belgilari to‘g‘risida"gi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar qanday rol o‘ynaydi?
3. Ilmiy ishlanmalarni olib borish va ularni tijoratlashtirish bilan bir qatorda universitetlar an‘anaviy universitetlarga xos bo‘lmagan boshqa funksiyalarni ham bajaradilarmi?
4. Tadbirkor universitetning muhim xususiyati nimada?
5. AQSHda tadbirkor universitetlarning rivojlanishi va shakllanishi uzoq tarixga egami? Aniq misollar bilan tushuntirib bering.
6. Germaniyada, uning boy ilmiy an‘analariga ko‘ra, tadbirkor universitetlarning rivojlanishi haqida nima deya olasiz?

7. Kichik va o'rtta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi innovatsion tuzilmalar haqida nima deya olasiz?
8. Raqobatbardoshlikning eng ko'zga ko'ringan klasterlari haqida fikr bildiring.
9. Rossiyada yangi turdagi tadbirkor universitetning jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
10. O'zbekistonda rivojlanib kelayotgan yosh tadbirkor universitetlar haqida nima deya olasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati -T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: АДОЛАТ, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" -"Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whYTECHTRANS>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

### **3.2. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish tizimi**

**Tayanch so'z va iboralar:** *joriy etiladigan yangiliklar, innovatsiyalarni izlash, innovatsiyaning dolzarbligini baholash, foydalilik samarasi, ekspertiza natijalari, texnik topshiriq, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish, madaniyatini shakllantirish, birgalikdagi faoliyat jarayoni, axborot harakati, ijodiy faoliyat,*

*loyihaviy faoliyatda shaxs darajasi, maqsadga intilish, qat'iyatlilik, talabchanlik, mustaqillik, g'ayratlilik, prinsipiiallik, jasurlik.*

### **3.2.1. Yangiliklarni izlash va joriy etish**

Ta'lim muassasalarida joriy etiladigan yangiliklar shu ta'lim muassasasida yaratilgan yoki tashqaridan olingan bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasasining mavjud muammosini o'rganib, o'zgartirish kiritishning ob'ektiv zaruriyatini aniqlab bilish va bu uchun mavjud innovatsion ishlanmalardan foydalana olish qobiliyati uning yangiliklarga sezgirligi deyiladi. Tashkilot qanchalik ilgari o'zi uchun foydali yangiliklarni topib olsa va qanchalik ko'p bunday yangiliklarni o'zlashtirsa, shunchalik innovatsiyalarga sezgir hisoblanadi.

Ta'lim muassasasining yangiliklarga sezgirligi uning o'zi uchun foydali yangiliklarni qanchalik darajada faol izlashi, ularni to'g'ri baholashi va joriy etishi bo'yicha qaror qabul qilishni tavsiflaydigan xususiyatdir.

Innovatsiyalarni izlash ishlab chiqilgan va ommalashtirilayotgan yangiliklar to'g'risidagi axborotlar manbalariga doimiy murojaat qilishni bildiradi. Ular o'rtasida kasbiy adabiyotlarni o'qib borish, ilmiy-amaliy nashrlar bilan tanishib borish, olimlar, mutaxassislar, ish beruvchilar bilan muloqotda bo'lish, novator pedagoglar bilan uchrashuvlar o'tkazish bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni aniqlab olish maqsadida ketma-ketlikda bir nechta muolajalarni o'tkazish tavsiya etiladi.

Birinchiidan, o'zgarish predmeti nimadan iborat ekanligini aniqlash. Bunday predmetlar ta'lim muassasasining pedagogik tizimi, ta'lim maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari, tashkil qilish shakllari, ta'lim - tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Ikkinchiidan, ta'lim muassasasi uchun ushbu innovatsiyaning dolzarbligini baholash. Yangilik, agar pedagogik tizimni rivojlantirish yoki takomillashtirish bo'yicha muhim muammo uning yordamida yechilishi mumkin bo'lganda, dolzarb hisoblanadi.

So'ng navbatdagi muolajaga o'tish kerak – olinadigan foydali samara salohiyati va ishonchlilik darajasini baholash. Bunda quyidagi savollarga javob berish lozim:

- innovatsiya negizida qanday g'oya turibdi, ilmiy asoslanganmi va qanday ilmiy asosga ega?

- ishlab chiquvchilar bahosiga ko'ra innovatsiyaning ehtimolli foydaligi qanday?

- bu baho nimaga asoslangan (yangilik tajriba-sinovdan o'tganmi va uning natijalari qanday)?

- Yangilik boshqa ta'lim muassasalarida ham qo'llanilganmi va uni joriy etishning natijalari qanday?

- Agar natijalar turlicha bo'lsa, buning sabablari nimada, yangilikning o'zi bilan bog'liqmi yoki uni qanday joriy etilishi bilan bog'liqmi?

Yangilikning ahamiyatli foydalilik samarasi tan olingan taqdirda uni joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni baholash zarur. Buning uchun quyidagi savollarga javob topish talab etiladi:

- innovatsiyani joriy etishning taxminiy davomiyligi qancha;

- qancha mehnat sarfi talab etadi (nechi kishi uni joriy etish bilan band bo'ladi va ularning har biri tomonidan qancha vaqt sarflash talab qilinadi);

- joriy etish jarayoni ishtirokchilari qanday malakaga ega bo'lishi kerak va personalni maxsus o'qitish zarurati bormi;

- maxsus moddiy-texnika ta'minoti talab etiladimi va bu qancha mablag' talab etadi;

- mazkur yangilikni qo'llashning qandaydir huquqiy cheklanmalari mavjud emasmi.

Agar ekspertiza natijalari asosida innovatsiyaning umumiy baholanishi ijobiy bo'lsa, ta'lim muassasasining rahbariyati va pedagogik jamoasiga yangilikni ko'rib chiqish va uni joriy etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun taklif tayyorlanadi. Taklif quyidagilarni o'z ichiga olgan texnik topshiriq ko'rinishida bo'lishi mumkin:

- 1) mazkur yangilikning qo'llanilishi natijasida yechimi topilishi mumkin bo'lgan muammo;

- 2) kutiladigan foydali samara va unga erishish ehtimolligi;

- 3) yangilikning kelajagi;
- 4) joriy etishning taxmini davomiyligi;
- 5) joriy qilishga talab etiladigan mehnat sarflari hajmi;
- 6) pedagoglarni maxsus tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj va uni amalga oshirish imkoniyatlari;
- 7) qo'shimcha moddiy-texnik ta'minotga bo'lgan ehtiyoj;
- 8) joriy etishga talab etiladigan umumiy moliyalashtirish hajmi.

Amaliyotda ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati ayrim hollarda kam samarali yoki umaman samarasiz bo'lishi mumkin. Buning asosiy sabablari quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

8. potensial samarali yangiliklar o'z vaqtida joriy etilmaydi yoki joriy etish cho'zilib, kech amalga oshiriladi, shuning uchun yangilikni qo'llashning foydali samarasi olinmay qoladi;

9. zarur innovatsion potensialga ega bo'lmagan yangilik joriy etiladi (yangilikning foydaligini baholash jarayonidagi xatolar yoki yangilik foydali samara keltirishi mumkinligi uchun emas, balki uni joriy etish moda bo'lganligi uchun joriy etilishi);

10. yangilik kiritishga ochiq yoki yashirin qarshilik ko'rsatilishi, yoki joriy etishni qoniqarsiz tashkil qilish kutiladigan natija bermaydi;

11. yangilikni joriy etish dastlab kutilganga nisbatan haddan tashqari ko'p xarajat talab etadi;

12. baholashdagi xatoliklar, joriy etishni qoniqarsiz tashkil etish yoki yangilikka kuchli qarshiliklar ta'sirida joriy etish muddatlari dastlab kutilganga nisbatan juda ko'p vaqtni talab etishi mumkin.

Tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga quyidagilar ko'maklashadi:

a) ta'lim muassasasi tashkiliy tuzilmasining moslashuvchanligi, ya'ni, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan vaqtinchalik tashkiliy tuzilmalarni (shtab, ishchi guruh) yaratish qobiliyati. Bunda vertikal (rahbariyatning tegishli buyruqlari, yo'riqnomalari va boshqalar bo'yicha ishtirokchilar faoliyatini

kelishtirish) emas, balki gorizontal (rahbarning ishtirokisiz ishtirokchilar faoliyatini mustaqil kelishtirishni amalga oshirish) birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatiga urg'u beriladi;

b) ta'lim muassasasi korporativ madaniyati va rahbarlik uslubi;

c) ta'lim muassasasi a'zolarining mavjud muammolar va innovatsiyaning afzalliklari to'g'risida axborotga ega ekanligi;

d) joriy etishni rejalashtirish va boshqarish jarayoniga personalni jalb etish;

e) aniq belgilangan maqsadlarning mavjudligi va o'zgarishlar jarayonini mukammal rejalashtirish;

f) ta'lim muassasasida o'zgarishlarni amalga oshirishni qo'llab – quvvatlaydigan asosiy ta'sirchan guruhlarining mavjudligi;

g) ishtirokchilar motivatsiyasi (munosib taqdirlash tizimining mavjudligi);

h) rahbariyatning qarshiliklar sabablarini tahlil qilish, ularni bartaraf etishning munosib uslublarini qo'llab bilish, joriy etish jarayonini doimiy va samarali nazorat qilish qobiliyati;

f) yo'lga qo'yilgan kommunikatsiya tizimining mavjudligi.

Innovatsiyalarni joriy etishning muhim bir sharti ***vaqtinchalik ijodiy jamoani*** shakllantirish hisoblanadi va uning samarali faoliyatidan joriy etishning natijadorligi ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Har bir ta'lim muassasasida jamoaning barcha yoki aksariyat a'zolari tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan ma'lum bir qadriyatlar, normalar, qoidalar, an'analar, urf-odatlar mavjud bo'lib, ular xodimlarning birgalikdagi faoliyati va o'zaro munosabatlarini tartibga solish vazifasini bajaradi. Bu tartibga soluvchi regulyatorlar majmuasi ***ta'lim muassasasi madaniyatini*** shakllantiradi va yangiliklarni joriy etishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Agar, masalan, pedagogik jamoada barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan norma aniq amal qilmasa, unda innovatsiyalar ijobiy qabul qilinmaydi va qo'llab – quvvatlanmaydi, chunki ular barqarorlikni buzadi. Aksincha, jamoada birgalikdagi ishni samaraliroq amalga oshirishga intilish norma hisoblansa hamda pedagoglarning innovatsion faolligi



ushbu norma tomonidan qo'llab-quvvatlansa, mazkur ta'lim muassasasida yangiliklarni joriy etish muhiti qulay bo'ladi.

Hammaga ma'lumki, har bir rahbar faoliyatida ma'lum bir dastxat – **rahbarlik uslubi** shakllanadi. Rahbarlar o'zida mujassamlashtirgan uslubga muvofiq ravishda u yoki bu boshqaruv masalalarini yechishga turlicha ahamiyat beradilar, turlicha yondashadilar va turlicha yechim usullarini qo'llaydilar. Rahbar tomonidan amalga oshiriladigan uslub qo'l ostidagilarning ijodiy faolligini rag'batlantirishi, jamoada innovatsion faoliyat uchun qulay psixologik muhitni shakllantirishga ko'maklashishi mumkin yoki, aksincha, xodimlarda passiv faoliyatni tug'dirishi, javobgarlikni olmaslik tuyg'usini o'rnatishi mumkin.

Pedagogik jamoani **motivatsiyalaydigan** innovatsion faoliyatning muhim tarkibiy qismi xodimlarni yangilikning afzalligi, uning imkoniyatlari va muvaffaqiyatsizlikning risk darajasi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash hisoblanadi. Har bir jamoa a'zosi muvaffaqiyatli joriy etish natijasida nimaga ega bo'lishini, muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, nimadan ajralishini aniq bilishi kerak. Ijobiy yoki salbiy motivatsiyaning shakllanishi joriy etish to'g'risida qaror qabul qilish va rejalashtirish bosqichida boshlanadi. Agar innovatsiyani baholash va tanlashni faqat ta'lim muassasasi ma'muriyati amalga oshirsa va pedagoglar bu jarayonga jalb etilmasa, jamoaning motivatsiyasiga jiddiy teskari yo'l tutilgan bo'ladi, chunki inson o'zi shakllantirilishiga ishtirok etmagan maqsadlar, uning maqsadlari bo'lmaydi. Xuddi shu sababli ishtirokchilarning innovatsiyani joriy etishni rejalashtirishga bevosita qatnashmasligi salbiy motivatsiyaga olib keladi, va aksincha, rejalashtirishda ishtirok etish, muvaffaqiyatga ishonchsizlikni va omadsizlikdan qo'rqishni bartaraf etadi.

Innovatsiyani samarali joriy etish yaxshi **rejalashtirishsiz** amalga oshmaydi. Joriy etishning barcha ishtirokchilari qanday natijalar va qanday muddatlarda olinishini kerakligini aniq bilishlari lozim. Mukammal ishlab chiqilgan barcha ishtirokchilarga ayon bo'lgan joriy etish rejasining mavjudligi, aniq natijalarga erishish yo'lidagi ularning urinishlarini kelishtirish vazifasini yengillashtiradi, joriy etish davomida muammoli holatlarni o'z vaqtida aniqlab olish va undan chiqishning

samarali yo‘llarini topish imkoniyatlarini beradi. Innovatsiyalarni joriy etish rejalarining eng ko‘p tarqalgan kamchiliklari – oraliq va yakuniy natijalarning aniqlashtirilmaganligi, rejalashtiriladigan harakatlar tarkibining to‘liq emasligi, ularning muddatlar va natijalar bo‘yicha muvofiqlashtirilmaganligi.

Har qanday birgalikdagi faoliyat ular o‘rtasidagi kommunikatsiyani taqozo etadi, ya’ni axborotni bir-biriga uzatishni talab etadi. Kommunikatsiya tarmog‘ida vujudga keladigan uzilishlar birgalikdagi faoliyat jarayoniga va natijalariga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas. Kommunikatsiya yo‘lida bir qancha to‘siqlar mavjud. Yuqoriga yoki quyiga uzatilgan axborot mazmuni atayin yoki odamlarning quloq solishni, axborotni tuzishni, anglab olishni bilmasligi tufayli tasodifan buzilishi mumkin, u to‘liq ma’noda yetkazilmasligi mumkin. Axborot harakati yo‘lidagi to‘siqlar kommunikatsion kanallarning ortiqcha yuklanishi, pedagoglarning turli xil ishlar bilan haddan tashqari bandligi natijasida, ularning umumiy masalalarni birgalikda muhokama qilish uchun uchrashishga vaqt topa olmasliklari tufayli vujudga kelishi mumkin. Yana bir to‘siq kommunikatsiya kanalining mavjud emasligidir. Masalan, agar yangilikni joriy etish qarorini ishlab chiqishda faqat rahbariyat qatnashsa va o‘qituvchilarning fikri va takliflari ularni qiziqtirmasa, kommunikatsion kanal shakllanmagan hisoblanadi. Bu qo‘l ostidagilar va rahbarlarni bir-biridan uzoqlashtirishga olib keladi. Kommunikatsiya tarmog‘idagi buzilishlar jamoada salbiy ijtimoiy-psixologik muhit holatida ham yuz berishi mumkin. Xodimlar o‘rtasidagi nizolar ular o‘rtasidagi zarur ishchan muloqotni, ochiq namoyon etilmasa ham, to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

### **3.2.2. Yangiliklarni joriy etishda loyihaviy yondashish**

Turli faoliyat sohalarida innovatsiyalarni joriy etishdagi muvaffaqiyatsizliklar, joriy etish jarayonini tashkil qilishning samarali texnologiyalari va shakllarini izlab topishni rag‘batlantiradi. Natijada joriy etishning loyihaviy yondashuvi shakllanadi.

Loyihaviy faoliyat ibtidosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u insonlar ijtimoiy hayotida tarixiy paydo bo‘lgan turli ko‘rinishdagi faoliyatlardan biri hisoblanib, atrof borliqni isloh etish bilan bog‘liqdir. Loyihaviy faoliyat sub’ekti sifatida alohida shaxs yoki jamoa namoyon bo‘lishi mumkin. Loyihaviy faoliyat ob’ekti esa, ham moddiy, ham

nomoddiy (texnologiya, dastur, muhit, tizim) bo‘ladi. Loyihalashtirish ob‘ektining xususiyati shundaki, loyihalashtirish jarayonida u hali mavjud bo‘lmaydi, lekin tasvir sub‘ekt tomonidan, haqqoniy sifatida qabul qilinadi. Loyihaviy faoliyatning maqsadi dunyoni o‘zgartirish, rivojlantirish uchun yangi nimanidir yaratish hisoblanadi. O‘z mazmuniga ko‘ra loyihaviy faoliyat ijodiydir. Maqsadidan kelib chiqqan holda loyihaviy faoliyat sub‘ekti barcha bosqichlar (maqsadlarni belgilash, tahlil, sintez, baholash)da erkin tanlovni amalga oshiradi: muammoni o‘rganish uchun axborot manbalarini, nazariyalarni va tahlil qilish uslublarini tanlaydi, loyihalash ob‘ektining turli xil kombinatsiyalarini modellashtiradi, bir qancha muqobil variantlar ichidan birta konseptual modelni aniqlaydi. Psixolog olimlar ijodiy faoliyatning ham umumlashtirilgan bosqichlarini quyidagi fazalarga turkumlashadi: mantiqiy asoslangan izlanish, intuitiv yechim, intuitiv yechimni verballashtirish (yozma, chizma, model kabi turli ko‘rinishga keltirish), verballashtirilgan yechimni rasmiylashtirish (mantiqiy yakunlash).

Ijod nazariyasining yetakchi g‘oyalaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, ijodiy fikrlashga asoslangan loyihaviy faoliyat ham ongli psixologik jarayonlar (taqqoslash, tahlil, sintez), ham ong bilan bog‘liq bo‘lmagan (intutitiv) fikrlash bilan tavsiflanadi. Psixolog olimlarning muhandislik faoliyati psixologiyasining tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, intutitiv fikrlash loyihani ishlab chiquvchilar uchun loyihalashning hamma bosqichlarida namoyon bo‘ladi va muammoning yechimi bilan bog‘liq umumiy fikrlash faoliyatida har bir bosqichda turli «salmoqqa» ega. Intutiv taxminni tanqidiy baholash, uning to‘g‘riligini tekshirish – loyihalashtirish jarayonining muhim bosqichidir.

Loyihaviy faoliyatda shaxs darajasi ham muhim o‘rin egallaydi, chunki psixologik nuqtai nazardan loyihalashtirish doimo individuallashtirilgan, doimo insonning mavjud bilim, ko‘nikmalari to‘plami, uning ijodiy, intellektual, irodaviy va emotsional xislatlari bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatga ega. Loyihalashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sub‘ekt ma‘lum bir shaxsiy fazilatlarga va ijodkorlik qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Ijodiy fikrlash insonning bir qator xususiyatlarining ustunligi bilan bog‘liq: originallik

(intellektual g'oyani ifodalashning g'ayritabiiyligi, intellektual yangilikka bo'lgan kuchli intilish), semantik moslashuvchanlik (ob'ektni yangi qirradan ko'ra olish qobiliyati), ijodiy moslashuvchanlik (ob'ektning yangi, kuzatishdan yashirin tomonlarini ko'rish uchun uni shu tarzda o'zgartirib idroklash qobiliyati), semantik spontan moslashuvchanlik (noaniq vaziyatda turli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati).

Tadqiqotchilar shaxs fazilatlari ichida o'ziga ishonch, to'g'ri baholay olish qobiliyati, ijobiy natijaga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat, maqsadga intilish, qat'iyatlilik, talabchanlik, mustaqillik, g'ayratlilik, prinsipiiallik, jasurlik, yuqori intellektual faollikni ijodiy faoliyatning yuqori darajadagi samaradorligini ta'minlaydigan shaxs xislatlari sifatida ajratadilar.

Loyihalashning psixologik jarayoniga oid adabiyotlarni tahlil qilish bizga loyihaviy faoliyat - axborotni qayta ishlashga asoslangan, ham mantiqiy va ham intuitiv fikrlash bilan tavsiflanadigan, shaxsiy fazilatlar va ijodiy qobiliyatlar bilan bog'liq bo'lgan ijodiy aqliy faoliyat degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Loyiha maqsadidan (kelajakda biron narsani yaratish, shakllantirish) va yuqorida muhokama qilingan loyihalash jarayonining bosqichlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, loyihaning natijasi nima qilish va qanday bajarish kerakligi to'g'risidagi savollarga javob beradigan va g'oyalarni amalga oshirish mexanizmini o'z ichiga oladigan amaliy harakatlar dasturi - ya'ni ishlab chiqilgan kontsepsiya (fikrlar konstruksiyasi) hisoblanadi.

Tizimli yondashuv asosida o'tkazilgan tahlil hamda loyiha faoliyatini ijodkorlikning falsafiy va psixologik belgilari bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqish, quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Loyiha jarayoni bir qator bosqichlardan iborat: maqsadlarni aniqlash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash. Bu bosqichlar mavjud jami yechimlardan eng yaxshisi aniqlanmagunga qadar ko'p marta takrorlanadi. Loyiha faoliyatining natijasi - ishlab chiqilgan kontsepsiya. Kontsepsiya nima qilish va qanday amalga oshirish kerakligi to'g'risidagi savollarga javobdan va g'oyalarni amalga oshirish uchun mexanizmni o'z ichiga oladigan amaliy faoliyat dasturidan iborat.

2. Falsafa nuqtai nazaridan loyiha faoliyati quyidagilar asosida ijodiy faoliyat deb tasniflanadi: jamiyat, madaniyat rivojlanishiga yo'naltirilgan; muammoni qo'yish va yechimini topishdan iborat; elementlarni, usullarni, g'oyalarni kombinatsiyalash jarayonlariga asoslangan; maqsadga muvofiq loyihalash sub'ekti hamma bosqichlarda turli muqobil variantlarni erkin tanlashni amalga oshiradi; loyiha mahsuli yangilikka, ijtimoiy ahamiyatga, progressivlikka ega.

3. Psixologiya nuqtai nazaridan loyihalash - axborotni qayta ishlashga asoslangan, ham mantiqiy va ham intuitiv fikrlash bilan tavsiflanadigan, shaxsiy fazilatlar va ijodiy qobiliyatlar bilan bog'liq bo'lgan ijodiy aqliy faoliyat.

Faoliyatni tashkil etishning shakli (usuli) sifatida loyiha xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maqsadlarni aniq belgilash (erishish kutiladigan natijalar)da;
- kichik maqsadlarning tuzilmasini ishlab chiqishda;
- loyiha oxirida o'z faoliyatini tugatadigan vaqtinchalik ishchi guruhlarining shakllanishida;
- tadbirlarni rejalashtirishning maxsus usullarini qo'llashda;
- tadbirlarni muvofiqlashtirishning maxsus usullarini qo'llashda.

Loyiha muammolarni qo'yishdan boshlab, uning yechimini topishning umumiy g'oyasini shakllantirish va aniq harakatlar tizimini amalga oshirishgacha yagona hayot sikliga ega.

Loyiha va muntazam amalga oshiriladigan jarayonlarning qiyosiy tavsifi 3.1-jadvalda ko'rsatilgan.

### 3.1-Jadval

#### Loyiha va muntazam amalga oshiriladigan jarayonlarning qiyosiy tavsifi

| Loyiha   | Jarayon   |
|--|---|
| 1. Vaqtinchalik jarayon: yagona hayot sikliga ega            | 1. Doimiy jarayon: muntazam bir xil harakatlar takrorlanadi       |
| 2. Natija loyiha amalga oshiriladigan tizim uchun o'ziga xos | 2. Har bir jarayonni amalga oshirish bir xil natijaga ega (oz-moz |

|   |  |
|---|--|
|   | o'zgarish bilan)                               |
| 3. Loyihani amalga oshirishni tashkil qilishning standarti mavjud emas. Har bir loyiha uchun alohida yaratiladi | 3. Reglamentlashtirilgan ijroni tashkil qilish |

Muammoni hal qilishda loyiha yondashuvini amalga oshiradigan ta'lim muassasasining faoliyatiga innovatsiyani joriy etishni tashkil qilish shakli **joriy etish loyihasi**, deb nomlanadi. Har bir loyiha o'z rivojlanish jarayonida ma'lum bosqichlardan o'tadi. Loyihalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan innovatsiyalarni izlab topishdan boshlanadi va joriy etish loyihasini ishlab chiqish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Bu loyihani ishga tushirish bosqichi. Keyingi bosqichlarda: loyihaning ishchi guruhi shakllantiriladi, uning umumiy maqsadi va aniq vazifalari shakllantiriladi, rejalar ishlab chiqiladi - innovatsiyalarni joriy etish jadvali, loyiha ishtirokchilari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi va loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tadbirlar amalga oshiriladi.

Joriy etish loyihasi quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- 1) muammoni aniqlash va uning dolzarbligini asoslash;
- 2) joriy etiladigan yangilik;
- 3) loyihaning umumiy maqsadini aniqlash;
- 4) loyihani amalga oshirish bosqichlari, ularning muddatlari va kutilayotgan natijalari;
- 5) loyihani amalga oshirish reja-jadvali;
- 6) ijrochilarning tarkibi va ular o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash;
- 7) zarur moliyaviy va moddiy-texnik resurslar;
- 8) loyihani amalga oshirish jarayonini va natijalarini nazoratini tashkil qilish usullari;

Joriy etish loyihasi samarali bo'lishi uchun muayyan prinsiplar asosida amalga oshirilishi kerak. Prinsiplar - faoliyat qanday bo'lishi (yoki qanday bo'lmasligi) kerakligini belgilaydigan umumiy qoidalardir.

***Dolzarlilik prinsipi*** loyiha ta'lim muassasasi uchun muhim bo'lgan muammoni hal etishga qaratilganligini, ya'ni innovatsiya tanlovi asoslangan va qandaydir kam ahamiyatli omillar (masalan, moda) bilan emas, balki samarali faoliyat bilan bog'liq bo'lishi kerak.

***Davomiylik prinsipi*** ta'lim muassasasida o'zgarishlarni amalga oshirishda revolyusion emas, balki evolyusiya talabini belgilaydi.

***Maqsadga yo'naltirilganlik prinsipini*** amalga oshirish loyiha maqsadining natijasiga muvofiqligini belgilaydigan maqsad, natijalar va mezonlarni aniq belgilashni nazarda tutadi.

***Tizimlilik prinsipi*** amalga oshiriladigan loyiha, ko'lamidan qat'iy nazar, birinchidan, o'quv muassasasining ta'lim tizimiga innovatsiyalarning organik tarzda kirib borishini ta'minlashi va halokatli keskinliklar keltirib chiqarmasligini, va ikkinchidan, kutilayotgan natijani olish uchun zarur bo'lgan harakatlarning to'liqligi va ular o'rtasida muvofiqlikning ta'minlanishini talab etadi.

Qaysidir maydonchada potensial samarali bo'lgan ba'zi innovatsiyalar mavjud ta'lim tizimiga mos kelmasligi va uning buzilishi, butunligini yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin. Tizimlilik tamoyili joriy etiladigan innovatsiya mavjud ta'lim tizimiga shunday kiritilishi kerakki, ta'lim muassasasi ko'rsatkichlarini pasaytirish emas, balki bir butun sifatida yaxshilanishini ta'minlashni talab etadi.

Yana bir jihatdan tizimlilik prinsipni joriy etiladigan innovatsiyalarning kutilayotgan natijalariga erishish uchun amalga oshiriladigan harakatlarning tarkibi va tuzilishining butunligini talab qiladi.

***Ilmiy prinsipini*** amalga oshirish, har bir innovatsiyaning asosiy g'oyasi ilmfan bilimlariga mos kelishi va unga tayanishini bildiradi. Ko'pincha bunday asos faqat yangilik yaratuvchilarning e'tiqodi bo'lishi mumkin. Lekin bu aslo yetarli emas. Rejalashtirilgan o'zgarishlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikka doir har qanday taxminning markazida sabablar va ularning oqibatlari o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi ilmiy bilim bo'lishi kerak.

**Muvofiqlashtirish prinsipi** har bir loyiha ishtirokchisi yoki ularning guruhleri rejaları va harakatlari boshqalarning rejaları va harakatlariga muvofiq bo'lishi kerakligini belgilaydi.

**Ishtirok etish prinsipiga** ko'ra, loyihaning barcha ishtirokchilari maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish jarayonini monitoring qilishda ishtirok etsa, innovatsiyalarni joriy qilish yanada samarali bo'lishini belgilaydi.

Psixologiyadan ma'lumki, odamlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarni o'zi belgilasa, unga erishish uchun ko'proq harakatlarni amalga oshiradilar. Boshqalar tomonidan ularga qo'yilgan maqsadlar, ularning maqsadlari emas. Bunday maqsadlar ijrochilarning faolligini rag'batlantirmaydi, motivatsiya bo'lmaydi. Barcha ijrochilarning loyihani boshqarishda ishtirok etishi, shuningdek, quyidagi afzalliklarga ega:

- guruhning har bir a'zosi u tomonidan amalga oshirilayotgan loyihaning qismi ishning umumiy natijalariga qanday ta'sir qilishini tushunadi;
- guruhning barcha a'zolari qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etganda, qarorlar yanada oqilona bo'ladi;
- birgalikda qaror qabul qilish umumiy natijalarga tegishlilik va mas'uliyat hissini kuchaytiradi;
- qiyin vaziyatlarda jamoa a'zolari o'rtasida oson murosaga erishiladi.

**Resurslar ta'minoti prinsipi.** Agar ta'lim muassasasi zarur moliyaviy va moddiy-texnik resurslarga ega bo'lmasa va loyiha ishtirokchilari uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarga ega bo'lmasa, innovatsiyani joriy etish yakuniy maqsadiga erishilmaydi.

**Rejalashtirishning uzluksizligi prinsipi** ish rejasining haqiqiy bajarilish bilan muntazam solishtirish va rejalar haqiqiy holatdan orqada qolgan taqdirda, ularni muvofiqlashtirishni ta'minlash zarurligini nazarda tutadi.

Nazorat prinsipi loyihani amalga oshirish jarayonida samaradorlikka nisbatan turli tahdidlarning o'z vaqtida aniqlanishi va ularning salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun zarur choralar ko'rilishini nazarda tutadi. Buning uchun



oraliq natijalarni (maqsadlarni) aniqlash, unga mos ravishda nazorat davriyligini ta'minlash va noxush holatlarda qaror qabul qilish kerak bo'ladi.


### **3.2.3. Innovatsiyalarni joriy etish maqsadlarini ishlab chiqish**

Maqsad odatda erishish xoxlanadigan natija obrazi sifatida tushuniladi. Bu bilan u chiroyli orzular, umidlar va boshqalarga mos keladi. Biroq, ulardan farqli o'laroq, maqsad shunday natija obraziki, unga ko'ra, belgilangan natijaga erishish muddatlari va talab etilgan muddatlarda erishish uchun mavjud imkoniyatlar sub'ektni natijani olish yo'lida harakat qilishga undaydi. Shunday qilib, **loyihani amalga oshirishning maqsadi** – o'quv muassasasining ta'lim tizimida mavjud bo'lgan dolzarb muammolar va imkoniyatlarga mos ravishda, joyi va muddati bo'yicha aniqlangan kutiladigan o'zgarishlarning obrazi hisoblanadi.

Boshqaruv nazariyasida maqsadlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) aniq va o'lchovli (tekshiriladigan);
- 2) vaqtga yo'naltirilgan, ya'ni muayyan bashorat istiqboliga ega;
- 3) erishish mumkin bo'lgan, ya'ni, tashkilot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yetarli bo'lmagan resurslar yoki tashqi omillar ta'siri tufayli tashkilotning imkoniyatlaridan ortiq maqsadni belgilash halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin;
- 4) samarali, tashkilotning barcha maqsadlari o'zaro qo'llab-quvvatlanishi kerak, ya'ni bitta maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlar va qarorlar boshqa maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Maqsadlarni ishlab chiqish va ularni baholashda quyidagi maqsadli modeldan foydalanish qulay (3.1-rasm). Ushbu model maqsadning asosiy aloqalarini va xususiyatlarini belgilaydi.



**3.1-Rasm. Maqsad belgilash modeli**

**“Maqsad – ehtiyoj”** munosabati. Har bir maqsad kutiladigan natija obrazi sifatida muayyan ehtiyojga mos keladi va uni o‘z mazmunida aks ettiradi. Maqsadning bu xususiyati **dolzarblik** deb ataladi.

**“Maqsad – imkoniyat”** munosabati. Har qanday maqsad, agar tegishli sharoitlar bo‘lmasa, erishilmasligi mumkin. Maqsad mazmuni mavjud resurslarga va turli cheklovlarga mos kelishi kerak. Maqsadning bu xususiyati **reallik** deyiladi.

**“Maqsad – natija”**munosabati. Maqsad - kutiladigan natijaning obrazi. Ushbu obraz kutiladigan va haqiqatda erishilgan natijalarni solishtirish imkonini berishi kerak. Maqsadning nazorat qilish vositasi sifatidagi xususiyati **nazorat** deb ataladi.

**“Maqsad - vaqt”** munosabati. Maqsadlar vaqt bo‘yicha cheklangan yoki cheksiz bo‘ladi. Cheksiz maqsadlar - ideallardir. Amaliy maqsadlar har doim cheklangan. Shuning uchun, hamma holatlarda maqsadga erishish kerak bo‘lgan

vaqt yoki vaqt oralig‘i aniqlanishi kerak. Maqsadning bu xususiyati *vaqt bo‘yicha aniqlik* deb ataladi.

“*Maqsad – joy*” munosabati. Har qanday kutiladigan natija makonning u yoki bu joyida olinishi kerak. Maqsadning kutiladigan natijani olish joyini aniqlash xususiyati *makondagi aniqlik* deb ataladi.

Maqsadlarni aniqlashda ko‘pincha o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita nuqson uchraydi: ular *noaniq* va natijalarni *o‘lchab bo‘lmaydigan* tarzda aniqlanadi. Bunga misol tariqasida aksariyat hollarda turli xil tahrirda umumiy qilib belgilanadigan ta‘limning "barkamol va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish" maqsadini keltirish mumkin. "Shaxs" deganda nima nazarda tutilganligi (psixologiyada bir nechta shaxs nazariyasi mavjud), bitiruvchilarda qaysi fazilatlar rivojlantirilishi va qanday darajada, qanday uslublar bilan maqsadlar va haqiqiy natijalarning o‘zaro bog‘liqligi solishtirilishi aniqlanmaguncha, bunday tahrir juda yaxshi holda faqat niyatni bildirishi va aslida yolg‘on maqsad hisoblanadi. Maqsad kutiladigan natijaning obrazi bo‘lganligi sababli, bu obraz turli ma‘nolarda talqin etishga imkoniyatlar qoldirmaslik uchun batafsil darajada aniqlanishi kerak, ya‘ni aniq tafsilotlar bilan qanday natijaga erishish kutilmoqda. Bundan tashqari, kutiladigan natija qanday mezonlar bo‘yicha va qanday usullar orqali haqiqiy natija bilan taqqoslanishi kerakligi aniq belgilanishi zarur. Maqsad aniq belgilanmagan bo‘lsa, unga erishilganlikni tekshirish uchun zarur talablarni taqdim etish mumkin emas. Bunday holatda har qanday olingan natijani tegishli maqsadga muvofiq deb qabul qilish mumkin.

Har qanday innovatsiyalarni joriy etish ta‘lim tizimining muayyan tarkibiy qismlarini (komponentlarini) modifikatsiyalashni va shu orqali uning natijalarini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: bitiruvchining qo‘shimcha malaka olishi, yangi ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantirish, o‘quv kurslarini o‘zlashtirish vaqtini qisqartirish; talabalar salomatligini yaxshilash va boshqalar.

Har qanday innovatsiya, joriy qilingan taqdirda, qanday o‘zgarishlarni ta‘minlashi mumkinligini belgilaydi. Agar innovatsiya yetarlicha yaxshi ishlab

chiqilgan bo'lsa, unda natijalardagi o'zgarishlarning imkoni bor taxminiy diapazoni (uning salohiyati)ni ham aniqlaydi. Shu sababli, ta'lim muassasasining haqiqiy imkoniyatlariga asoslanib, kutiladigan natijalarni bashoratlash kerak.

Joriy etishning kutilayotgan natijalari o'lchab bo'ladigan tarzda belgilanishi kerak, ya'ni baholash imkoniyati bo'lishi va shuning uchun, ularning har biri uchun tegishli o'lchov mezonlari shkalasi ishlab chiqilishi (yoki qabul qilinishi) kerak. O'lchovlar nazariyasida o'lchov shkalasi deganda har bir kuzatiladigan ob'ektga muvofiq ravishda ma'lum bir son belgilanadigan algoritmi - shkala qiymati tushuniladi. Shkalani yaratish vazifasi tegishli o'lchov raqamlarini baholanadigan ob'ektning xususiyatlariga mos ravishda belgilash, shuningdek, o'lchash muolajalarini o'rnatishdan iboratdir. Shkalalarning to'rtta asosiy turi mavjud: nominal, tartibli, teng intervalli va teng munosabatli.

Pedagogikada ko'pincha tartibli shkala ishlatiladi. Pedagogikada juda kam hollarda o'lchov birligini tuzish mumkin, chunki bunday birlik har qanday sharoitda ham o'zgarmagan holda qolishi kerak (metr o'lchami yoki kilogrammning o'lchami o'zgarmas, aks holda turli sharoitlarda olingan ma'lumotlarni solishtirish mumkin bo'lmaydi).

Tartibli shkalada o'lchovlar faqat ayrim xususiyatlarga ko'ra guruhlariga bo'linibgina qolmay, ular o'rtasida "yomon - yaxshiroq", "ko'proq-kamroq" turidagi nisbatlar tartibi ham belgilanadi. Tartibli shkala qiymatlari ba'zan daraja deb ataladi.

O'zgarishlar natijalarini baholash shkalasi aniqlanmagan innovatsiyani joriy qilishning maqsadi – yomon belgilangan maqsad.

Misol tariqasida ta'lim muassasasi o'quv rejasiga "Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari" fanini kiritish maqsadini belgilashni ko'rib chiqamiz.

Yangi o'quv dasturining yaratuvchisi fikriga ko'ra, uning kiritilishi talabalarga biznes va tadbirkorlik, biznes faoliyatini tashkil etish, uning turlari, ish faoliyatini rejalashtirilishi, moliyalashtirish, soliqqa tortish va korxonani boshqarish, biznes-rejalar tuzish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish tizimini rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish, ishga joylashtirishda va kasbiy muvaffaqiyatlarga

erishishda ularning shaxsiy bilim, ko'nikma hamda malakasini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabalar uchun fan mashg'ulotlarining maqsadi quyidagicha aniqlandi:

*bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik asoslari, bitiruvchilarni ishga joylashtirish tizimini rivojlantirish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish, ishga joylashtirishda va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda o'quvchilarning shaxsiy bilim, ko'nikma hamda malakasini shakllantirish, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi vakolatlarini bilishi, o'z kasbi va mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh hodim sifatida tayyorlash, muzokaralar olib borishni o'rgatish ko'nikmalarini o'rganishlari uchun amaliy bilimlar majmuasini berishdan iboratdir.*

Bitiruvchilarga fanni o'qitishda quyidagi talablarni shakllantirish ko'zda tutilgan:

- *tadbirkorlik va biznes faoliyatining mohiyatini anglay olishi;*
- *tadbirkorlikka xos xarakter qirralarini shakllantirishi;*
- *tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanish qarorini qabul qilishga tayyorlash;*
- *mehnat jamoasi bilash ishlashga tayyorlash;*
- *kelgusidagi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglay olishi;*
- *kasbiy faoliyatini olib borish uchun yuqori darajadagi ishtiyoqning mavjudligi.*

Ushbu maqsadlarga erishish uchun avvalo, "ular aniq va o'lchanadigan tarzda aniqlanganmi?" degan savolni berishimiz kerak. "Tadbirkorlik va biznes faoliyatining mohiyatini anglay olishi", yoki "tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug'ullanish qarorini qabul qilishga tayyorlash" deganda nima tushinilishining talqini ko'p bo'lishi mumkin. Agar tegishli malakalarning shakllanish darajalari ko'rsatkichlari belgilanmagan va ularni baholash metodlari aniqlanmagan bo'lsa, maqsadlar aniq va o'lchalanadigan tarzda qabul qilinmasligi kerak. Bu ularning dolzarbligini va realligini keyinchalik baholashning iloji yo'qligini bildiradi.

Biz koʻrgan misolda, maqsadlarni belgilashning aniqlik va oʻlchanuvchanlik shartlari umuman olganda bajarilgan, chunki oʻquv dasturining mazmunida talabalarni nimaga oʻqitishni xoxlashlari va taʼlim natijalarini qanday baholanishi ochib berilgan.

Koʻrib chiqilayotgan innovatsiyani joriy etish maqsadlarini belgilash misolini tahlil qilishni davom ettirib, "*unga erishishga dolzarb ehtiyojlar mavjudmi?*", degan savolni qoʻyamiz. Ushbu holatda, matnda keltirilgan koʻnikmalarning shakllantirish maqsadlarining dolzarbligini eʼtirof etish mumkin, chunki ular talabalarni rivojlantirishning obʼektiv ehtiyojlariga mos keladi. Biroq, bu talabalarning oʻzlari ushbu ehtiyojni anglashlari va oʻqituvchi tomonidan qoʻyilgan maqsadlarga erishish ular uchun dolzarb ekanligini tushunishlarini bildirmaydi. Shuning uchun, maxsus harakatlar amalga oshirilmasa, oʻqituvchi belgilagan darslarning maqsadlari bilan talabalar koʻzda tutadigan maqsadlar juda katta farq qilishi mumkin.

Keyingi savol: "*maqsadlar realmi*"? Bu savolga javob koʻpgina omillarga bogʻliq. Birinchi navbatda, dasturlar mazmuni va unda foydalaniladigan oʻqitish texnologiyalariga bogʻliq. Lekin nafaqat bular istalgan taʼlim natijalariga erishish mumkinligini belgilaydi. Kerakli natijaga erishish realligi tajriba oʻtkazilayotgan taʼlim muassasasi oʻqituvchilari ushbu innovatsiyani joriy etishni xoxlashi va amalga oshirishni bilishidan ham koʻp jihatdan bogʻliq. Shuningdek, bu ish uchun yetarli miqdorda oʻquv vaqti ajratilishi, talabalar oʻquv dasturida nazarda tutilgan mashgʻulot shaklida bilimlarni egallashga tayyorligi, talabalarning oʻqish istagi borligi kabi omillardan ham bogʻliq boʻladi.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni belgilash modeliga amal qilgan holda dars mashgʻuloti ishlanmasini ishlab chiqish va joriy etish maqsadlarni qoʻyishdagi innovatsiya hisoblanadi.

#### **3.2.4. Innovatsiyani joriy etishni rejalashtirish**

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, yangilikni joriy etishni sifatli rejalashtirish - amalga oshiriladigan oʻzgarishlar samaradorligining eng muhim shartlaridan biridir. Reja - kutiladigan natija (maqsad)ga erishish imkonini beradigan harakatlar va ular oʻrtasidagi aloqalar majmuini belgilaydigan faoliyat modelidir.

Rejalashtirishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- noaniqlikning salbiy ta'sirini yo'qotish;
- muhim vazifalarga e'tiborni qaratish;
- iqtisodiy tejamkorlik faoliyatni ta'minlash;
- nazoratni osonlashtirish;
- muvofiqlashtirishni yengillashtirish.

Reja amalga oshirilayotgan harakatlar va vaziyatni nazorat qilish, uni operativ tahlil qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. U keraksiz o'zgarishlarga imkon qadar erta munosabat bildirish uchun zarurdir. Harakatlar rejasi, ayniqsa, innovatsiyalarni joriy etishda bir kishi emas, guruh ishtirok etganda, o'ta muhim ahamiyat egallaydi. Shunda u guruh a'zolari harakatlarini kelishish va muvofiqlashtirish vositasiga aylanadi.

Innovatsiyalarni joriy etish rejasini ishlab chiqishda quyidagilarni aniqlash kerak:

- joriy etish belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur va yetarli bo'lgan harakatlar tarkibini (nima amalga oshirilishi lozim);
- harakatlarning kutilayotgan natijalarini (harakatlar natijasida nimaga erishiladi);
- harakatlarni boshlash va yakunlash muddatlari (qachon harakatlar bajarilishi kerak);
- mas'ul ijrochilar (ijrochi kim).

Innovatsiyalarni joriy etish rejasi yanada samarali bo'lish uchun muayyan talablarga javob berishi kerak:

- 1) maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan harakat tarkibining to'liqligini ta'minlash;
- 2) harakatlar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish va shu tariqa ularni ijro mazmuni va muddati bo'yicha muvofiqlashtirish va kelishuvchanligini ta'minlash;
- 3) resurslar bilan ta'minlash va ijro etish muddatlari bo'yicha reallikni ta'minlash;

4) xato va buzilishlarga, ya'ni jarayonning oraliq natijalarini nazorat qilish asosida aniqlangan rejalashtirilgan maqsadlardan chetga o'g'ishlarga nisbatan sezgir bo'lish;

5) ratsional darajadagi batafsillikni ta'minlash, ya'ni, nazorat qilinadigan oraliq maqsadlar o'rtasidagi vaqt oralig'ini shunday belgilashki, nazorat qilish urinishlari xarajatlari va ularning natijadorligi o'rtasidagi nisbat optimallashtirilishiga erishilsin.

Ko'pgina rejalarining asosiy kamchiliklari ularning belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlarning to'liqligini ta'minlay olmasligi, faoliyatlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatmasligi, oraliq maqsadlarning belgilanmasligi yoki noaniq belgilanishi hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni rejalashtirishda chora-tadbirlar, harakatlar to'liqligini ta'minlash juda qiyin. Ayrim harakat va chora – tadbirlarning “esdan chiqishi” yangiliklarni joriy qilish davomiyligini sezilarli darajada uzaytirishga olib keladi. Chunki ishni amalga oshirish davomida qoldirib ketilgan harakat aniqlanganda ijro paytida rejaga sezilarli darajada tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga to'g'ri keladi. Rejaga kiritilgan har bir yangi harakat va tadbirning bajarilishi esa qo'shimcha vaqtni talab etadi. Misol uchun, yangi o'quv texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgan bo'lsada, maxsus kurslarda o'qituvchilarni o'qitish rejada unitib qoldirilgan bo'lsa, tegishli kurslarni o'tkazish uchun rejadagi sanalarini moslashtirishga ehtiyoj tug'iladi, natijada innovatsiyalarni joriy etish bir yilga cho'zilishi mumkin.

Agar mantiqiy harakatlar ketma-ketligi va tarkibi aniqlangan bo'lsa, rejalashtirishning navbatdagi bosqichida ijrochilarni aniqlash va innovatsiyalarni amalga oshirish reja-jadvalini (yo'l xaritasi) tuzish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifa - barcha rejalashtirilgan harakatlarning vaqt bo'yicha oqilona taqsimlanishi va muvofiqlashtirilishini ta'minlash hisoblanadi. Buning natijasida, shuningdek, harakatlarning to'liqligini ta'minlash asosida, muddatlar bo'yicha rejaning realligiga erishiladi.



Rejalashtirilgan tadbirlarni vaqt mobaynida taqsimlash nafaqat ularning har birining muddatini aniqlashni, balki ularni vaqt oralig'ida o'zaro muvofiqlashtirishni ham anglatadi. Ba'zi xatti-harakatlar faqat ketma-ketlikda, boshqasi parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin. Amallarni oqilona taqsimlash loyihada qatnashuvchilarning muntazam ish hajmi bilan bir maromda yuklashga erishish imkonini beradi va ishda "bandsizlik" va "haddan tashqari yuklanish"ga yo'l qo'ymaydi.

Loyiha ishini rejalashtirishning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

to'rsimon diagramma;

tasmasimon diagramma;


bosqichlar bo'yicha reja;

ishlarni rejalashtirishning jadval shakli;

chiziqli diagramma yoki Gantt diagrammasi.

Ushbu vazifani bajarishda Gantt grafigi deb atalmish tasma ko'rinishidagi diagrammadan uzoq yillardan beri muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda. Gantt diagrammasiga misol 3.2.- rasmda keltirilgan bo'lib, unda o'ngda reja bo'yicha harakatlar va tadbirlar nomi ko'rsatiladi va gorizonttal o'q bo'yicha ularni bajarish vaqt intervallari belgilanadi.

| Chora-tadbirlar                   | Yillar va oylar |   |    |    |    |          |   |   |   |   |   |   |   |   |
|-----------------------------------|-----------------|---|----|----|----|----------|---|---|---|---|---|---|---|---|
|                                   | 2020 yil        |   |    |    |    | 2021 yil |   |   |   |   |   |   |   |   |
|                                   | 8               | 9 | 10 | 11 | 12 | 1        | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| 1.....<br>.....<br>.....<br>..... |                 |   |    |    |    |          |   |   |   |   |   |   |   |   |
| 2.....<br>.....<br>.....<br>..... |                 |   |    |    |    |          |   |   |   |   |   |   |   |   |
| 3.....<br>.....<br>.....<br>..... |                 |   |    |    |    |          |   |   |   |   |   |   |   |   |



### 3.2-Rasm. Gantt diagrammasi

Har bir segmentning uzunligi tadbirning davomiyligini ko'rsatadi. Diagrammada strelkalar yordamida vazifalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatish mumkin. Diagramma loyihani amalga oshirishning ketma-ket qadamlarini ko'rgazmali taqdim etish bilan birgalikda, bir vaqtda bajarilishi talab etiladigan vazifalarni ham yaqqol ko'rsatadi.

Gantt diagrammasi shunday mukammal tahliliy dastakki, 100 yil davomida hech qanday o'zgarishsiz foydalanib kelingan, faqatgina 1990 yilda o'zaro aloqalarni yanada batafsil ifodalash uchun vazifalar o'rtasida aloqa chiziqlari bilan to'ldirilgan.

Modelda barcha aloqalar variantlari amalga oshiriladi:

1. Ish boshlanishining mustaqil lahzasi.
2. Boshlanish-yakunlash.
3. Boshlanish-boshlanish.
4. Yakunlash-yakunlash.

## 5. Yakunlash -boshlanish.

Gantt grafigini malakali darajada qanday tuzish mumkin? Nimani bunda inobatga olish kerak? Bu savollarga javoblarni oddiy loyiha misolida ko'rib chiqamiz.

Gantt grafigini tuzish darhol boshlanishi mumkin bo'lgan harakatlarni aniqlashdan boshlanadi, ya'ni ularni amalga oshirishdan oldin qandaydir boshqa tadbirlarni amalga oshirish talab etilmaydigan ishlarni belgilaymiz.

Buning uchun chap tomonda vazifalar ko'rsatilgan va o'ng tomondagi ustunlarda ularning asosiy parametrlarini ifodalaydigan quyidagi ko'rsatkichlar aks ettirilgan jadval ishlab chiqiladi:

1. Vazifalar nomi.
2. Davomiyligi.
3. Boshlanish sanasi.
4. Yakunlash sanasi.
5. Zarur resurs.
6. Mehnat sig'imi (talab etiladigan ish kuni).
7. Bajarilish foizi.
8. Ustuvorlik parametri.
9. Vazifa bo'yicha vaqt zahirasi.
10. Oldingi harakatlarni aniqlashtirish.
11. Oldingi harakatning joriy harakat bilan bog'liqligi.
12. Joriy ish vaqtining oldingi ish vaqtiga nisbatan siljishi.

Jadvaldagi ma'lumotlarni grafikga kiritamiz. 2.2-rasmdagi diagramma misolida № 1 va 3 raqamli tadbirlarni darhol boshlanishi mumkin bo'lgan va oldin qandaydir boshqa tadbirlarni amalga oshirish talab etilmaydigan, deb faraz qilamiz. Ularning tegishli davomiyligiga muvofiq grafikda segment belgilanadi (qora segmentlar). № 2 tadbir faqat №1 harakat yakunlangandan keyin boshlanishi mumkin. Shuning uchun, uning boshlanish vaqti № 1 harakatni yakunlash vaqtiga mos bo'ladi. Ushbu nuqtadan boshlab № 2 tadbir davomiyligiga muvofiq vaqt oralig'i ajratiladi. № 4 harakat № 2 va 3 raqamli tadbirlar yakunlangandan so'ng boshlanadi. Rasmdan

ko‘rinib turibdiki, № 3 tadbir № 2 ishdan ilgari amalga oshirilishi mumkin, lekin uning natijasi aslida keyinchalik zarur, toki, № 2 harakat yakunlanmaguncha № 4 ish boshlanmaydi. Shuning uchun, bu erda №3 harakatning № 4 ish boshlanguncha zaxiradagi vaqti mavjud (uning segmenti kulrang bilan bo‘yalgan) va uning boshlanish vaqti zaxira vaqti miqdoriga muvofiq siljirilishi mumkinligini bildiradi. Grafikni ishlab chiqishning keyingi qadamlari yuqorida tasvirlangan tartibga o‘xshash amalga oshiriladi. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, № 7 tadbir № 4 harakat tugaganidan so‘ng, № 6 tadbir esa, №5 harakatlari tugagandan so‘ng boshlanadi, № 8 harakat № 6 va № 7 harakatlardan keyin boshlanadi, ammo № 6 harakat bo‘yicha zahira mavjud. Shunday qilib, innovatsion loyihani amalga oshirishning umumiy davomiyligi aniqlanadi. Agar biror sababga ko‘ra u rahbariyatni qoniqtirmasa, unda butun loyiha muddatini qaysi harakatlarning davomiyligini kamaytirish hisobiga qisqartirish mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qilishi kerak.

Bugungi kunda loyihaning sifatli kalendar rejasini ishlab chiqish murakkab emas, chunki MS Project kabi zamonaviy va qulay dasturlardan foydalanish mumkin. Ammo qanday qilib Gantt diagrammasi dolzarbligini loyihani amalga oshirishning butun davomida ta‘minlash, oson ish emas. Hamma narsani oldindan ko‘zda tutishning iloji yo‘q, grafikga muntazam qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritishga qilinadigan mehnat xarajatlari esa oqlanmaydi. Shuning uchun, rejani ushbu qulay ko‘rinishda taqdimot qilib, bir necha bor muhokamadan o‘tkazish lozim.


### **3.2.5. Joriy etiladigan loyiha ishchi guruhi**

Ko‘p hollarda innovatsiyalarni joriy qilishni bir kishi emas, balki bir guruh xodimlar amalga oshiradi. Bu guruh *loyihaning ishchi guruhi* deb ataladi. Guruh tarkibiga nafaqat ta‘lim muassasalari xodimlari, balki boshqa tashkilotlarning tegishli mutaxassislari va olimlari ham kiritilishi mumkin.

Ish guruhlarining oqilona soni 2-10 kishidir. Ishchi guruhlar ta‘lim muassasasi rahbariyatining buyrug‘i bilan tuziladi. Biroq, innovatsiyalarni joriy etishda ishtirokchilar tarkibining aniqlanishi, ularni rasmiy ravishda guruhlashning faqatgina bir bosqichidir. Uning samarali faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishidan oldin, unda tuzilmani shakllantirish, ishtirokchining o‘z o‘rnini

belgilash, kommunikatsiya tarmoqlarini shakllantirish va boshqa jarayonlar amalga oshiriladi. 3.3-rasmda joriy etish loyihasining sub'ekti sifatida guruhni shakllantirishning asosiy bosqichlari ko'rsatilgan.

*Shakllantirish* bosqichida guruh a'zolari noaniqlik holatida bo'lishadi. Ular har birlaridan nima kutilayotganligini yaxshi tasavvur qilib bilishmaydi. Ushbu bosqichda loyiha ishtirokchilari nafaqat loyihaning umumiy maqsadlarini, balki o'zlarining guruh a'zolari sifatida ham anglab olishadi.



### 3.3-Rasm. Ishchi guruhni shakllantirish bosqichlari

*Bijg'ish* bosqichi guruh a'zolarining manfaatlari, g'oyalari, fikrlari o'rtasidagi farqlarning namoyon bo'lishi va ular o'rtasida ziddiyat va nizolarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Guruh a'zolari birgalikda ishlashlari kerak bo'lgan kishilarning alohida manfaatlarga, boshqa ustuvorliklarga yoki boshqa motivlarga ega ekanliklarini kashf etishadi. Kelishmovchiliklar nima qilish kerakligi va kim buni amalga oshirish kerakligi bo'yicha ham chiqadi. Ba'zi loyiha qatnashchilari guruhdagi ishlar juda ko'p vaqt talab etayotgani va muammolarni hal qilishda ishtirok etishlariga to'g'ri kelayotganligi bo'yicha norozilik bildirishadi. *Bijg'ish*

bosqichi birgalikdagi ishni rejalashtirish jarayonining ko'p qismini tashkil etadi. Ba'zi guruhlar bu bosqichda "qulab ketadi", boshqalari esa farqlarga moslashadi, ayrimlari "kemadagi isyonni" qattiq bosim ostida bostirishadi yoki qarama-qarshiliklarni ochiqchasiga muhokama qilishadi. Ushbu bosqichda, ayniqsa, guruh rahbarining roli muhim ahamiyatga ega. Uning harakatlaridan bijg'ish bosqichining davomiyligi va uning natijalari bog'liq.

*Me'yorlash (barqarorlashtirish)* bosqichi, odatda, rejalashtirish jarayonining oxirida sodir bo'ladi. Bu bosqichda guruhning tashkiliy tuzilmasi, birgalikdagi faoliyatning umumiy qoidalari shakllantiriladi. Guruh a'zolari bir-birining xususiyatlari to'g'risida allaqachon juda aniq tushunchalarga ega bo'lishadi. Ular o'z hamkasblariga ishchan moslashishni, birgalikda ishlashning kerakli usullarini topishni, umumiy qabul qilingan hatti-harakatlar standarti majmuini shakllantirishni, topshiriqni bajarishga yondashishni kelishishni boshlashadi. Loyiha ishtirokchilari guruhda turli rollarni egallaydi. Jamoa a'zolari o'zaro til topishadi va natijada ularning birgalikdagi faoliyatlari samaradorligining ortishiga erishiladi. Oldingi bosqichdagi ziddiyat pasayadi va birgalikdagi ish maqsadi birinchi qatorga chiqadi.

*Ishni bajarish* bosqichida guruhni birgalikdagi faoliyat sub'ekti sifatida shakllantirish jarayoni tugallanadi. Guruhning har bir a'zosi o'ziga qabul qilgan majburiyatlarni bajaradi, guruhdagi munosabatlar birgalikdagi ish mazmuni bilan belgilanadi. Guruh loyihani amalga oshirishni maqsad qilib olgan yagona, maqsadli yo'naltirilgan sub'ekt bo'lib shakllanadi. Guruh a'zolari birgalikdagi faoliyatga dahldorligini va faqatgina jarayon uchun emas, balki guruh ichidagi munosabatlar uchun ham mas'ul ekanliklarini sezishadi.

Guruhni shakllantirish jarayoni loyihaning yakunlanishi va ishchi guruhning tarqatilishi bilan tugaydi.

Har qanday guruhning ish samaradorligini oshirish uchun a'zolar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlash, ularning rollari va o'zaro hamkorlik usullarini aniqlash muhim. Odamlar turli bilimlar, qobiliyat, tajriba, qiziqishlarga ega, shuning uchun

guruh tuzilmasi har bir guruh a'zosining kuchli tomonlaridan foydalanishga imkon berishi juda muhim.

Guruhlar tadqiqotlarida guruh a'zolari rollarini alohida ajratish va ularning muvozanatini ta'minlash guruh ishining samaradorligini oshirishi aniqlangan (3.2-jadvalga qarang).

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, tarkibida quyidagi qobiliyatlarga ega shaxslar bo'lganda guruhlar eng yaxshi natijalarga erishadi: qobiliyatli "rais"; kuchli "g'oyalari generatori"; "g'oyalari generatori"ni rag'batlantiradigan kamida bitta "intellektual"; "matematik" - muhokama qilingan takliflarning kamchiliklarini o'z vaqtida "hisoblash" imkoniga ega bo'lgan xodim.

### 3.2-Jadval

#### Guruh a'zolari roli

| Tip                 | Xususiyatlar  |
|---------------------|---|
| Ijrochi             | Intizomli, ishonchli, konservativ va samarali. G'oyalarni amaliy harakatlarda amalga oshirish qobiliyatiga ega  |
| Muvofiqlashtiruvchi | Yetuk, o'ziga ishongan, yaxshi rais. Maqsadlarni aniq belgilash, qarorlarni qabul qilish va vakolatlarni taqsimlash qobiliyatiga ega  |
| Tashkilotchi        | Dinamik, harakatchan, da'vat qiladigan, talabchan, bosim o'tkazadigan. Uning jasurligi va energiyasi unga har qanday qiyinchiliklarni yengishga imkon beradi, u mag'lubiyatdan nafratlanadi |
| Generator           | Inventiv (kashfiyotchi), boy tasavvurga ega – noan'anaviy muammolarni hal qila oladigan g'oyalarga ega odam   |
| Izlanuvchi          | Ekstravert (tashqi dunyoga ochiq), g'ayratli, muloqotchan. Imkoniyatlarni tadqiq etadi, aloqalar o'rnatadi, o'z tabiatiga ko'ra - tarmoq xodimi   |
| Matematik           | Mulohazali, aql-idrokli, strategik fikrlash qobiliyatiga ega. Barcha muqobil variantlarni ko'rib biladi, har bir narsani o'lchaydigan - inspektor   |
| Komanda o'yinchisi  | Yumshoq, qabul qila oladigan, diplomat xarakterga ega. U tinglay oladi, guruh a'zolarining o'zaro kelishmovchiliklari oldini oladi - ham shaxsga, ham                                       |

|  |  |
|--|--|
| Ish yakunini<br>baholovchi<br>Mutaxassis | vaziyatga nisbatan sezgir<br>Harakatchan va vijdonli. Xatolar va kamchiliklarni<br>tekshiradi. Topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi<br>O‘z ishining ustasi, tajribali, yagona. Tor sohadagi<br>professional |
|--|--|

### **3.2.6. Innovatsiyalarni joriy qilishga qarshiliklar**

Odatda yangiliklarni joriy etishda pedagogik jamoaning bir qismi unga qarshilik ko‘rsatadi. Bunday qarshilikning shakllari turlicha bo‘lishi mumkin: innovatsiyalarda qatnashishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishdan (u yoki bu bahonalar bilan), faoliyatda ishtirok etganday ko‘rsatish (simulyatsiya), lekin innovatsiyalarning ijobiy natijalar bermasligini namoyish etish. Aksariyat hollarda qarshiliklarni aniqlab olish oson emas, chunki qarshiliklar shunday tuziladiki, uni tashuvchilariga, bir tomondan, innovatsiyalardan ishonchli himoyalash imkonini bersa, boshqa tomondan, ularning pozitsiyasining oshkor etilmasligini ta‘minlaydi.

Innovatsiya bo‘yicha tadqiqotlarda anti-innovatsion xulqning bir qator odatiy shakllari aniqlangan.

Innovatsiyalarni *muhokama qilish bosqichida* uning joriy etilishidan qochish harakatida, «Bizda bu allaqachon mavjud», «Biz bu muvaffaqiyatga erisha olmaymiz», «Bu bizning asosiy muammolarimizni hal qilmaydi», «Bu qayta ishlab chiqishni talab qiladi», «Bu yerda hamma narsa aniq emas», "Boshqa takliflar ham mavjud", kabi argumentlarni keltirishda namoyon bo‘ladi. Bunday argumentlar turli xil shakllarda ifodalanishi mumkin, biroq ularning ma‘nosi bir: "Bizni mavjud holat ham qoniqtiraveradi".

Innovatsiyalarni *joriy etish bosqichida* yangiliklarga qarshiliklar boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi. "Qisman joriy etish" - innovatsiyani bosqichma-bosqich joriy etish niqobi ostida uning faqat ayrim elementlarini o‘zlashtirish. "Abadiy tajriba" - innovatsiyani keng joriy etish oldidan tajriba sinov bosqichi amalga oshiriladigan bo‘lsa, bu bosqich innovatsiyalarning maqsadga muvofiqligi isbotlangandan keyin ham davom etilishi mumkin. "Hisobotda joriy etish" - innovatsiyalarni joriy etish to‘g‘risida taqdim etilgan hisobot bilan yangilikni



haqiqatda o'zlashtirish darajasi o'rtasidagi farqdan iborat. Bunda dolzarb farq darajasini aniqlash odatda qiyin bo'ladi. "Parallel joriy etish" - yangilik eskisi bilan, chiqarib tashlanishi kerak bo'lsa ham, birga amal qiladi.

*Qarshilikning asosiy sabablari* sifatida quyidagilarni ajratadilar: noaniqlik, yo'qotish tuyg'usi, o'zgarishlar hech qanday yaxshilikka olib kelmasligi to'g'risidagi ichki ishonch. Shu bilan birga, noaniqlik, yomon axborot ta'minoti yoki ehtimoli bo'lgan oqibatlarining qiyinchiliklarini ob'ektiv tushuntirilmaganlik natijasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun, himoyalash va xavfsizlikni ta'minlash motivi odamlarning o'z hatta-harakat usullarini tanlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odamlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikdan qochishadi va xatarga (risk) turli daraja moyillikka ega.

Innovatsiya ta'lim muassasasi uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, unda ishlaydigan odamlar, yangiliklar ular manfaatlariga zarar yetkazadi, deb hisoblashlari mumkin. Bu fikr haqiqatga mos kelishi yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, innovatsiya qo'llab-quvvatlanmaydi.

Innovatsiyalarga qarshilik ko'pincha insonlar innovatsiyalarni ta'lim muassasasi uchun zarur emas, unga ehtiyoj yo'q yoki ularning manfaatlariga zid bo'lishiga ichki ishonchga ega bo'lishlaridan kelib chiqadi. Ular mavjud muammolarni hal qila olmaydi, aksincha ularni ko'paytiradi, deb o'ylashlari mumkin.

Joriy etish loyihasini amalga oshiruvchi ishchi guruhlar joriy etish sharoitlarini tahlil qilib, hamkasblari tomonidan ehtimoli bo'lgan qarshiliklarni oldindan bilib olishlari kerak.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish muammolarini yechishda umumiy va xususiy kamchiliklar mavjud. **Umumiy kamchiliklarga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- innovatsiyalarni joriy etish ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga qaratilgan butun **tizim** sifatida qaralmaydi;

- erishilgan yutuqlarni samarali amaliyotga tatbiq etish shart-sharoitlar ochib berilmagan va asoslanmagan;

- bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish qonuniyatlari aniqlanmagan;
- innovatsiyalarni ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayonini boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar mavjud emas.

Oliy ta’lim tizimiga taaluqli **xususiy** kamchiliklar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- innovatsiyalarning belgilangan bosh maqsaddan ajralgani - mehnat bozorida raqobatlasha oladigan mutaxassisni tayyorlash;
- innovatsiyalarning kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining kelajakdagi ish beruvchilar ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan nomutanosibligi;
- innovatsiyalarni joriy etishda muayyan hudud uchun tayyorlanadigan mutaxassisliklarning hududdagi kasblar va mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojiga e’tibor bermaslik.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil qilish uchun quyidagi **pedagogik shartlarni** ajratish mumkin:

- innovatsion faoliyat maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida amalga oshiriladi;
- innovatsiyalarni joriy etish o‘quv jarayoni ishtirokchilarining huquqlarini buzmasligi kerak;
- innovatsiyalar pedagogik jamoa, talabalar va ularning ota-onalari tomonidan talab etiladigan bo‘lishi kerak;
- innovatsion jarayonda ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlik tamoyiliga asoslanishi;
- innovatsiyalarga o‘qituvchilarning ishtiroki ijobiy motivatsiya, o‘quv jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Ta’lim muassasasining mavjud muammosini o‘rganib, o‘zgartirish kiritishning ob’ektiv zaruriyatini aniqlab bilish va bu uchun mavjud innovatsion shlanmalardan foydalana olish qobiliyati uning yangiliklarga sezgirligi deyiladi. Siz bu fikrga qanday qaraysiz? O‘z fikringizni bildiring.

2. Innovatsiyalarni aniqlab olish maqsadida ketma-ketlikda bir nechta muolajalarni o'tkazish tavsiya etiladi. Bu mulojalarga nimalar kiradi? Tushuntirib bering.

3. Ta'lim muassasasining rahbariyati va pedagogik jamoasiga yangilikni ko'rib chiqish va uni joriy etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun qanday taklif tayyorlanadi? Bu takliflarga nimalar kiradi? Tushuntirib bering.

4. Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga qnimalar ko'maklashadi?

5. Rahbarlik uslubi qanday sharoitda shakllanadi?

6. Yangiliklarni joriy etishda loyihaviy yondashish haqida nimalarni bilasiz?

7. Innovatsiyalarni joriy etish maqsadlarini ishlab chiqishda nimalarga e'tibor berish kerak?

8. Innovatsiyani joriy etishni rejalashtirish nimalarga e'tabor berish kerak?

9. Gantt diagrammasi haqida nimalarni bilasiz? Tushuntirib bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati -T.: 2004.;
2. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: АДОЛАТ, 2003.
3. A.Muxtorov, Sh.I. Mustafaqulov "Talim sohalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar" -"Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
4. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'anaviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son
5. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whYTECHTRANS>
6. <http://www.erisee.org/node/43>
7. Regulation No 772/2004 of European Union

## XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda mehnat bozori uchun talab etiladigan malakali kadrlar tayyorlash maqsadida kasb-hunar ta'limi tizimini isloh etish xorijiy tajribalardan foydalanishga va kasb-hunar ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalashga qaratilgan. Buning uchun mamlakat ta'lim tizimini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda va jahon ta'limi tizimiga yaqinlashishning aniq yo'llarini shakllantirish uchun tegishli strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Kasbiy ta'limni rivojlantirishda bir necha metodologik yondashuvlar mavjud.

**Adaptiv yondashuv** - ta'lim xizmatlari ko'rsatishda ta'lim muassasalarining o'z imkoniyatlarini potensial talabalar va kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga bog'liq ravishda moslashtirish bo'yicha faolliklarini oshirish bilan tavsiflanadi. Bu yondashuv quyidagilar orqali amalga oshiriladi: ta'lim xizmatlari va bitiruvchilar yakuniy attestatsiyasining yangi avlodini ishlab chiqishda ijtimoiy sheriklik tizimi orqali; o'qishga kirish va qo'shimcha malaka olishni ta'minlash uchun qo'shimcha ta'lim xizmatlari tizimi orqali, qo'shimcha ta'lim olish; ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan qaytar aloqa tizimi orqali. Ta'lim muassasalarining moslashish jarayoni, ularning hududiy va ichki xususiyatlari (ta'lim muassasalarining turi, ularni boshqarish tizimi, pedagog kadrlar, jihozlar bilan ta'minlanganligi, qabul shartlari va kontingenti, ta'lim muassasasining jozibadorligi va an'analari, hududning iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim xizmatlaridan foydalanish qulayligi va boshqalar)ga bog'liq ravishda, turlicha kechadi.

**Analitik yondashuv** amaldagi ishchi kasblar va mutaxassisliklarning mehnat bozoridagi o'zgarishlar va iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv quyidagilardan iborat:

- hududiy mehnat bozori talablarini tahlil qilish;
- iqtisodiy noaniqlik holatida bo'lajak xodimlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalariga bo'lgan talablarni bashoratlash mexanizmini takomillashtirish;

- ta'lim muassasalari, talabalar va ish beruvchilar uchun uchrashuv nuqtasi sifatida viloyat va shahar miqyosida "Ta'lim birja"lari tashkil etish;

- mehnat bozorining turli xil talablarini qondirishga yo'naltirilgan yanada moslashuvchan va ochiq ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

- qo'shimcha oliy ta'limining yangi shakllarini ishlab chiqish va joriy etish.

**Optimallashtirish** yondashuvi hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini qayta tuzish, uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ta'lim muassasalarining yangi turlarini va biznes tuzilmalarida maxsus korporativ o'quv markazlari yaratish; amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish korxonalarida "dual" tizimda amalga oshirishni ta'minlashga asoslangan; texnologiyalar bilan boyitilgan muhitda loyihalarga asoslangan o'qitishdan foydalanadigan yangi Tech High Schools (yuqori texnologiya maktablari) tashkil etish; mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaradigan bir yoki bir nechta "ustaxonalar"ga asoslangan hududiy o'quv - ishlab chiqarish muassasalari yaratish; ta'lim muassasalarida innovatsion g'oyalarga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish bazalarini tayyorlash; davlat – xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan ta'lim muassasalari; xorijiy davlatlar kasbiy ta'lim muassasalari filialini tashkil etish va boshqalar)ni yaratishda foydalaniladi.

**Modulli-vakolatli** yondashuv yangi ta'lim mazmunini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, yangi avlod standartlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv asosida oliy ta'lim sifatini baholash tizimi joriy etiladi.

**Shaxsiy faollik** yondashuvi asosida ta'lim mazmuni va o'qitishni tashkil etish yotadi. Bu o'qitishning yangi shakllarini tashkil qilishda - bir qator kasb va mutaxassislik bo'yicha masofaviy va eksternat ta'lim, shuningdek, oliy ta'limning o'quv ishlab chiqarish majmuasi xorijiy ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishda va joriy etishda namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida, ayniqsa, o'quv jarayonini tashkil etishning so'nggi kurslarida zarur kasbiy ko'nikmalarni ishlab chiqish, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, kasbiy munosabatlarning korporativ etikasini yaratish maqsadida

korxonaning virtual modelini ishlab chiqish imkonini beradigan **imitatsion** yondashuvdan keng foydalanish.

Birinchi uchta yondashuv yangi iqtisodiy sharoitda hududiy oliy ta'lim tizimida innovatsion islohotlarni ta'minlasa, oxirgi uchta yondashuv muayyan ta'lim muassasasida yangi ta'lim vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi va uning imidjini shakllantiradi.

Ma'lumki, yangi talablar hayot davomida ta'limni shakllantirishga qaratilgan. Oliy ta'lim uchun bu quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- turli mamlakatlarda olingan kasbiy malakalarning taqqoslay olinishi;
- "kredit birligining" (talabaning ma'lum darajada bilim va ko'nikmalar olishini ta'minlaydigan o'quv ishlari hajmining yagona birligi) bosqichma-bosqich to'planishi orqali malakalarni olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ilgari ish faoliyatida, rasmiy va norasmiy ta'lim jarayonida olingan malakalarning tan olinish mexanizmlarini shakllantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish hayot davomida ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasi bitiruvchilar malakasini ishlab chiqarish talablariga muvofiq ravishda ta'minlash hisoblanadi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimini boshqarish funksiyalari, ya'ni maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, motivlashtirish va nazorat qilish vazifalari faqat ta'lim muassasalarining vazifasi bo'lib qolmoqda.

Birinchi, turli mamlakatlarda xodimlarda samarali mehnat qobiliyatlari mavjudligini baholash va tasdiqlash vazifasi turlicha hal etiladi. Bizda bu bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi bo'lib, ularning natijalari bo'yicha kasb va ixtisoslikka ega bo'lganligi to'g'risida tegishli hujjat beriladi. Kasbiy malaka va malakaviy razryad berish ko'zda tutilmagan. Bu jarayonda ta'lim muassasasi ham o'qitadi, ham baholaydi. Ish beruvchilarning iste'molchi sifatidagi ishtiroki past darajada.

Ikkinchi, kasbiy malaka va malaka darajasini baholash mezonlari, uslublari ishlab chiqilmagan. Bu esa milliy malakalar tizimida o'z aksini topishi lozim. Milliy

malakalar tizimi - mehnat bozori tomonidan ishlovchilarning malakasiga qo'yiladigan talabni va ta'lim tizimi tomonidan malakalar taklifini huquqiy va institutsional tartibga solish mexanizmlari majmuidir. Oliy ta'limda ham shundaymi?

Milliy malakalar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasblar kasbiy faoliyati sohalari va malaka darajalari bo'yicha guruhlarga ajratilgan mehnat faoliyati turlari (kasblarning) va malakalarning ro'yxati;
- kasbiy faoliyat sohalari bo'yicha kasbiy standartlar;
- kasbiy standartlarni tan olinishi (ro'yxatga olish) muolajasi (qoidalari va mexanizmlari);
- milliy malakalar ramkasi;
- malakalar sohasida milliy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun institutsional, tashkiliy va uslubiy mexanizmlar;
- dasturlar katalogi shaklida talab etiladigan ma'lumot va o'qitish (kompetensiyalar) natijalari ko'rsatilgan darajalar, kasbiy faoliyat sohalari bo'yicha tabaqalashtirilgan malakalar ro'yxati;
- malaka sifatini ta'minlash tizimi (baholash va malakani tasdiqlash tartibi, ya'ni rasmiy yoki norasmiy ta'lim olish yoki ish tajribasi davrida o'zlashtirilgan malakani sertifikatlash).

Bunda, malakalar ramkasi tan olinadigan malakalarning darajalar bo'yicha tizimli va strukturalashtirilgan tavsifi hisoblanadi. Bu malakalarni olingan ta'lim darajasini aniqlash uchun belgilangan mezonlarga muvofiq rivojlantirish va turkumlashning bir vositasi hisoblanadi.

Malakalar ramkasi ta'lim tizimida emas, balki mehnat bozorining ehtiyojlari va malakalarini, mavjud va zarur ishchi kuchini tahlil qilish asosida shakllanishi va ta'lim darajalariga bog'lanishi kerak. Bu majburiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishdan so'ng barcha malaka darajalarini o'zlashtirish mumkin degani emas. Ma'lum darajadagi malakalar faqat mehnat faoliyati tajribasi davomida olinadi. Aynan shu narsani kasbiy faoliyatning aniq sohalari uchun mutaxassislar aniqlashi kerak bo'ladi.

Xalqaro hujjatlarga muvofiq ta'limning quyidagi turlari tan olingan:

- ✓ rasmiy - davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida olinadi;
- ✓ norasmiy - rejalashtirilgan faoliyat davomida amalga oshiriladi, ya'ni o'rganish komponentini o'z ichiga oladigan kundalik ish holatida;
- ✓ spontan ta'lim - insonning kundalik hayoti davomida amalga oshiriladi: ishda, oilada va boshqalar.

Bizning mamlakatimizda ham kompetensiyalarga asoslangan ta'limga o'tish dastlabki qadamlari qo'yilmoqda. Hozirda esa, bizning tizimda faqat malakaga tenglashtirilgan diplom beriladi, rasmiy, norasmiy va spontan ta'lim asosida malaka olish huquqi qonun hujjatlari bilan belgilanmagan.

Milliy malakalar tizimini loyihalashtirishda quyidagi shartlar bajarilishini ta'minlash kerak:

- ✓ ta'limning va mehnat bozorida talabga ega malaka olishning uzluksiz traektoriyasini yaratish maqsadida turli darajadagi dasturlarning uzviyligini ta'minlash;
- ✓ o'quv jarayonini ham ta'lim muassasalarida, ham ish joylarida tashkil etish;
- ✓ ta'lim olishning qulayligi va talabalarni ijtimoiy himoyalashni ta'minlash;
- ✓ barcha manfaatdor tomonlarning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Ta'kidlash joizki, Milliy malakalar tizimi turli manfaatdor tomonlar uchun foydalidir, chunki u quyidagilarni ta'minlaydi:

*ish beruvchilar* uchun - ishlovchilarning ishonchli va samarali kompetensiyalari darajasi indikatorlarini, yangi malakalarni ishlab chiqishda yo'nalishlarni, kadrlarni o'qitish ehtiyojlarini aniqlash vositasi, malakalarning sifat indikatorlarini va ularning mamlakat uchun ahamiyatini;

*ishlovchilar uchun* – o'z ta'limi va martabasini oshirishni asoslangan holda rejalashtirishni, malaka sifati indikatorlari va ularning bozordagi talabgorligini, kompetensiyalarni tan olinishi va ulardan foydalanishni, ishga joylashish, mehnat pog'onasida o'sish imkoniyatlarini;

*ta'lim sohasidagi siyosat uchun mas'ulga* – oliy ta'lim tizimini tahlil qilish va rivojlanishini shakllantirish uchun ma'lumotlarni;



*ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi uchun* - sertifikatlar va diplomlarga qo'yiladigan talablarni belgilash usullarini, malaka tizimi monitoringini yuritish vositasi, ta'lim standartlarini yaratish va tan olish vositalari va usullarini;

*ta'lim tuzilmalari uchun* - rasmiy malakalar to'g'risidagi ma'lumotni, ta'lim va o'qitish sifatini ta'minlash mexanizmini, ish beruvchilar bilan o'quv dasturlari maqsadlarini va baholash usullarini belgilash imkonini beruvchi o'zaro muloqot qilish usullarini;

*talabalar* - ishga joylashish va o'sish istiqbollarini, talab etiladigan malakalarni aniqlash vositasi, bandlik xizmatlari bilan aloqalar o'rnatishni.

Milliy malakalar tizimi malakalar bozorini shakllantirishni ta'minlaydi va diplomlar bozori o'rnini egallaydi, ishlovchining qadr-qiyamatini mavjud diplom bilan emas, balki haqiqiy egallagan malakasi bilan ta'minlaydi.

## ILOVALAR

1-ilova

### Yevropa Ittifoqi ta'lim muassasalarida innovatsiyalar va texnologiyalar transferiga tegishli eng yaxshi amaliyotlar namunasi

#### 1. "Biznes uchun ilm - Universitet tadqiqotlar va tijoratlashtirish inkubatori sifatida" loyihasi

|   |
|---|
| <b>1. Innovatsion tizim/ Bilimlar uchburchagi (Mintaqaviy Innovatsion Tizim, Bilimlar Uchburchagi (BU) nomi, masalan:</b>   |
| "Biznes uchun ilm - Universitet tadqiqotlar va tijoratlashtirish inkubatori sifatida"   |
| <b>2. Mamlakat (tizim/BU tadbiiq qilinadigan mamlakat)</b>  |
| Polsha  |
| <b>3. Mintaqa (tizim/BU tadbiiq qilinadigan mintaqa)</b>  |
| Sventokshiskiy viloyati   |
| <b>4. Muddatlar (tizim/BU tadbiiq qilinadigan davrni ko'rsating)</b>  |
| Loyiha Yevropa ijtimoiy fondining (ESF) operatsion inson kapitali dasturi bilan hamkorlikda moliyalashtirildi. Loyiha muddati oktabr 2008 yildan noyabr 2009 yilgacha                   |
| <b>5. Budjet (agar aniq bo'lsa, tizim/BUni tadbiiq qilishga ajratilgan mablag'ni ko'rsating)</b>  |
| Loyihaning umumiy qiymati 167 000 Yevro.  |
| <b>6. Qo'llab-quvvatlovchi tashkilot (tizim/BUni tayyorlagan tashkilotni ko'rsating- masalan: vazirlik, boshqarma, OO'Yu, tadqiqot va rivojlantirish markazi, klaster va boshqalar)</b> |
| -   |
| <b>7. Aloqa manzillari (tizim/BUni ishlab chiqqan qo'llab-quvvatlovchi tashkilotning asosiy manzili)</b>  |
| Yan Koxanovski universiteti, Yevropa fondi bo'limi.<br>Zeromskiy ko'chasi 5, Kelse, Polsha PL-25-369  |

vebsayt: [www.ujk.edu.pl](http://www.ujk.edu.pl); Edita Grjesik.

### **8. Asl hujjatga/tavsifga havola (asl hujjatga havolani kiriting/tizim/BUning internet sayti)**

Yan Koxanovski universiteti vebsayti [www.wynalazki.kielce.pl](http://www.wynalazki.kielce.pl)

### **9. Umumiy maqsad (tizim/BU doirasida bayon etilgan siyosiy maqsad, konsepsiya va umumiy maqsadlarning qisqacha tavsifi - vazifa, tasavvur, maqsad)**

Loyihaning asosiy maqsadi Sventokshiskiy viloyati iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda viloyat ilmiy-tadqiqot salohiyatidan mintaqaviy va milliy darajada foydalanishdan iborat. Mazkur yakunlangan loyiha 2007 yilda Yan Koxanovski universiteti va Kelse shahri o'rtasida imzolangan kelishuv natijasi bo'lib, u talaba, aspirant va ilmiy xodimlarda tadbirkorlik kayfiyatini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli hamkorlikni ko'zda tutadi. Loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar ta'lim muassasasi xodimlarining tadqiqot natijalarini tijoratlashirish, texnologiyalar transferi zarurligi, shuningdek, intellektual va sanoat mulklari ahamiyati bo'yicha bilimlarini oshirishga sabab bo'ldi.

### **10. Xususiy maqsadlar (tizim/BU doirasidagi asosiy ustivor yo'nalishlarni ko'rsating)**

- xodimlarda ilmiy ishlarda ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashirish, texnologiyalar transferi, ya'ni ishlab chiqarishga joriy etish zaruriyati, shuningdek, intellektual va sanoat mulki ahamiyati to'g'risidagi bilimlarini oshirish;
- biznes sektoriga innovatsiya, bilim va texnologiya transferi mavzularida turli seminar, o'quv kurslari va kooperatsion birja portali yaratish orqali ma'lumotlar tarqatish;
- xodimlarning ilmiy - tadqiqot natijalarini tijoratlashirish bo'yicha qobiliyatini mustahkamlash;
- professor-o'qituvchilar o'rtasida tadbirkorlik muhitini yaratish;
- fan va biznes hamkorligi yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tish;

- universitetlar taklif etayotgan mutaxassisliklarni tayyorlash sifati va ularning korporativ sektor (ish beruvchi) talablariga muvofiqligini oshirish.

## **11. Manfaatdor tomonlar (tizim/BUdan asosiy manfaatdor tomonlar ro'yxati, ularning roli va xissasi)**

Yan Koxanovski universiteti - loyiha yetakchi

Kelse texnologik parki - hamkor

Loyiha natijasidan foydalanuvchilar:

- ilmiy idoralar, shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari tuzilmalari, tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish xodimlari;
- ta'lim bilan bog'liq tashkilot xodimlari

### **11.1. Hususiy sektor**

- Tadbirkorlar
- Kichik va o'rta biznes korxonalarini

### **11.2. Ta'lim muassasasi**

Mahalliy oliy ta'lim muassasalari olim va tadqiqotchilari, talabalar.

### **11.3. Bilim**

Yan Koxanovski universiteti

### **11.4. Hukumat tashkiloti**

-

### **11.5. Biznesni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar**

Kelse texnologik parki

## **12. Tashkiliy tuzilma, nou-xau transferti**

**Yan Koxanovski universiteti** – mintaq va universitet rivojlanishi uchun ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish ahamiyatini keng ommaga yetkazish bo'yicha mas'ul va rahbar.

**Kelse texnologik parki (KTP)** tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish uchun uzluksiz (hayot davomida) ta'lim va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi markaz. Ko'p tarmoqli iqtisodiyotda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni yaratish bilan bog'liq mavjud muammolarni hal etish maqsadida tashkil etilgan. Uning

vazifasi yangi kompaniyaga bozorda mustaqil harakat qilishida yordam berishdan iborat. Shuningdek, KTP akademik tadbirkorlik, fan va iqtisodiyot o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va universitetlarda tashkil etilgan kompaniyalar inkubatsiyasi bilan ham shug'ullanadi. Mintaqada tayyor infrastruktura, biznes muhit va ishlab chiqilgan xizmatlar majmui bilan texnologik kompaniyalar rivoji uchun imkoniyatlar yaratadi.

**13. (Tizim/BU doirasida qo'llab-quvvatlash uchun tanlangan ustivor yo'nalishlar ro'yxatini keltiring, masalan: energiya tejamkorligi, turizm va b/q.)**

- Bilimlar transferi
- Nou-xau transferi

Bilimlar uchburchagi ishtirokchilari o'z e'tiborini imkon qadar 2007-2013 yillarda energiyadan samarali foydalanish, tibbiy turizm, yarmarka va kongress, bilimlar transferi, loyihalash kabi mintaqaning ustivor yo'nalishlariga qaratishi lozim. Sventokshiskiy viloyati uchun 2014-2020 yillarga mo'ljallangan yangi mintaqaviy innovatsion tizim (MIT) mana shu yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi, shuningdek, uning asosiy maqsadlaridan biri bu barcha ilmiy tadqiqot tashkilotlarining "kritik massa"si bilimlar transferi bo'yicha tashkil etilishini va bu soha bo'yicha foydaning kamida  $\frac{1}{4}$  qismi ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan kelib tushishini nazorat qilishdan iborat.

**14. Kutiladigan natijalar (Tizim/BU natijalari/ta'sirlari/nazorat ko'rsatkichlarini tavsiflang)**

- Seminar va davra suhbatlari – korxonalar innovatsion talabi, biznes xizmatlar va tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish tizimi va intellektual mulk himoyasi bilan bog'liq texnologiyalarni ishlab chiqish kabi ma'lumotlarni biznes sektori va bilim sohasidagi hamkorlik ahamiyatiga oid keng ommaga tarqatish;
- Bilimlarni tijoratlashtirish, shuningdek, innovatsion loyihalarni baholash, texnologik va innovatsion yechimlar tijorati, mualliflik huquqi va patentlar, marketing, loyihalashtirish va tijoratlashtirish strategiyalari bo'yicha

yangi texnologik loyihalar ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish, innovatsion biznes rejalarni rivojlantirish bo'yicha menejerlik ko'nikma va malakalarni oshirish;

- Vositachilik – universitet va ilmiy tuzilmalar bilan biznes sektor o'rtasida innovatsion hamkorlik bo'yicha taklif taqdimotlar o'tkazish;
- Ilmiy tadqiqot va bilimlar portali – intellektual mulk, xususan, kashfiyotlar va foydali ishlanmalar, tovar belgilari va korxonalar universitetlarga taklif qilayotgan mutaxassisliklar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish

## **1. Bilimlar tranferi ofislariga misollar (KTO)**

### **Ilmiy va texnologik park jamg'armasi (Las-Palmas-de-Gran-Kanariya Universiteti, Ispaniya)**

KTO/TTO Las-Palmas-de-Gran-Kanariya Universitetining ilmiy va texnologik park jamg'armasi (Fundación Parque Científico Tecnológico de la Universidad de Las Palmas de Gran Canaria) ([www.otriulpgc.es](http://www.otriulpgc.es)) xuzurida amal qiladi.

Ushbu tuzilma alohida bo'lim bo'lib, mahalliy hukumat va universitet tomonidan yaratilgan jamg'arma hisoblanadi.

#### ***Vazifalari:***

Las-Palmas-de-Gran-Kanariya universiteti tadqiqodchilarni, tadbirkorlarni va kompaniyalarni innovatsiya infrastrukturasi, texnologik resurslar va qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlar bilan, xususan, ilmiy va texnik tadqiqodlar va texnologik rivojlanish jarayoni uchun, ta'minlashni muhim deb bilib, ilmiy-texnologik park jamg'armasini yaratdi (Fundación Parque Científico Tecnológico).

***Jamg'armaning missiyasi*** ilmiy tadqiqotlarni va innovatsiyalarni amalga oshirish va ularni boshqarish, yuqori malakali xizmatlar ko'rsatish hamda

universitetlar, ilmiy tadqiqod muassasalari, kompaniyalar va bozorlar o'rtasida texnologiya va bilim oqimlarini boshqarish va rag'batlantirishdan iborat.

Texnologik park jamg'armasi kompaniyalarni innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish maqsadida, ularning ilmiy tadqiqot va texnologik rivojlanish jarayonlari uchun zarur bo'lgan, bazaviy infrastruktura bilan ta'minlaydi. Bu innovatsion kompaniyalarni, ularni inkubatsiya va generatsiya (tiklanish) yo'li orqali yaratish va rivojlantirish imkonini beradi. Jamg'arma, shuningdek, yuqori sifatli qo'shimcha qiymat yaratadigan boshqa xizmatlar ham ko'rsatadi.

***Xizmatlar:***

- innovatsion korxonalar uchun ofis va tovarlar ajratish;
- ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va innovatsiyalar uchun alohida moliyalashtirish manbalarini izlash, aksariyat, yevropa grantlari hisobidan;
- hamkorlarni izlash, shartnomalar tuzish va konsorsiumlar tashkil qilish;
- ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni loyihalash va ishlab chiqish bo'yicha maslahatlar berish;
- Gorizont 2020 kabi Dasturlar bo'yicha loyihalarni qo'llash;
- universitet va kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi hujjatlarni tuzish, rasmiylashtirish, ular bo'yicha maslahat berish;
- universitet ilmiy tadqiqotlari natijalarini ommalashtirish va joriy etish;
- biznesni moliyalashtirish va manbaini izlash bo'yicha maslahat berish;
- ilmiy-tadqiqot loyihalari, grantlar va shartnomalarni iqtisodiy boshqarish;
- tadqiqotchi va qo'llab-quvvatlovchini yollash;
- loyihalarni asoslash va sertifikatlash;
- kurslar, seminarlar, konferensiyalarni tashkil qilish;
- ilmiy tadqiqotlar natijalarini himoya qilishning turli ko'rinishlari bo'yicha maslahatlar berish;
- turli milliy va xalqaro organlarni qo'shgan holda himoya jarayonini boshqarish;
- talab etiladigan hujjatlarni ro'yxatga olishni nazorat qilish va monitoringini yuritish.

***Personal:***

- menejer 1 kishi (boshqaruvchi).
- ma'muriy va iqtisodiy monitoring ofisida 4 kishi.
- yevropa loyihalari ofisida 3 kishi.
- texnologiyalar transferi ofisida 3 kishi.
- intellektual mulk ofisida 1 kishi.

**San-Diegodagi Kaliforniya universiteti**

***Texnologiyalar transferi ofisi:*** <http://invent.ucsd.edu/invent/>

San Diego Texnologiyalar transferi ofisi (TTO) **missiyasi:**

*Universitet jamoasi va jamiyat manfaati yo'lida universitet innovatsiyalarini uzatishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.*

San-Diegodagi Kaliforniya universiteti ushbu oliygohda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsiyalarni rivojlantirish va ulardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash jamiyat ravnaqi uchun muhimligini tan oladi. Intellektual mulk va intellektual mulk sifatida innovatsiyalarni turli intellektual mulk qonunlari va xalqaro savdo traktatlariga muvofiq samarali boshqarish va himoya qilish universitetning o'z missiyalariga erishish maqsadida innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirishni qo'llab-quvvatlashdagi muhim qadam hisoblanadi.

1994 yil noyabrda ushbu jarayonni rag'batlantirish va ko'maklashish uchun universitet o'z kampusida Texnologiyalar Transferi Ofisi va Intellektual mulk sohasida xizmatlar (TTO)ni tashkil etdi.

Tadqiqotchilar va universitet ma'muriyati bilan bevosita yaqinligi tufayli, TTO universitetda yaratilgan intellektual mulk ishlanmalarini boshqarish, universitet jamoasiga intellektual mulkka doir ilmiy va informatsion xizmatlar ko'rsatishda, juda qulay hisoblanadi.

Universitetning maqsadi - ofisdan xususiy sektorga ishlab chiqilgan innovatsiyalarni jamiyat manfaatini ko'zlab rivojlantirish va uzatishda yuqori faollik madaniyatini shakllantirishdir.

***TTO majburiyatlari:***



- Kaliforniya universiteti tadqiqotchilari tomonidan bajarilgan yoki universitet resurslaridan foydalanib ishlab chiqilgan intellektual mulkni ma'muriy boshqarish;
- universitet intellektual mulkining qiymatini va foydaliligini maksimallashtirish uchun tegishli himoya va uzatish strategiyalarini ishlab chiqish;
- litsenziyalash va intellektual mulkning boshqa ko'rinishdagi shartnomalarini tuzish vakolati;
- intellektual mulkka bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha Kaliforniya universiteti xodimlariga yordam berish va o'rgatish;
- TTO ish falsafasi;
- universitet va universitet tadqiqotchilari manfaatlari uchun xizmat qilish va ularni himoyalash;
- universitetdagi mavjud innovatsiyalarni faol va teng huquqli marketingini tashkil qilish;
- litsenziatlar bilan o'zaro xavf va manfaatlarni adolatli taqsimlash;
- iqtisodiyot tarmoqlari bilan uzoq muddatli va o'zaro madaniyatlar almashuviga asoslangan hamkorlikni amalga oshirish.

### **Kolorado Universiteti Texnologiyalar Transferi Ofisi**

<http://www.cu.edu/technology-transfer-office>

Kolorado Universiteti Texnologiyalar Transferi Ofisi, Kolorado Universiteti jahonshumul tadqiqotlari butun jahon darajasidagi tadqiqotlarga turtki bo'lishi lozim, deb hisoblaydi.

*Biz har kuni Kolorado Universiteti tadqiqotchilarini dunyodagi dolzarb muammolarni hal qilish va yashash tarzini yaxshilash tadqiqotlarida ko'maklashish uchun ishlab chiqaruvchi hamkorlar, ishbilarmonlar va investorlar bilan uchrashtiramiz.*

Patentlar, mualliflik huquqi va litsenziyalashtirish faoliyatida ortirilgan tajribadan foydalanib, biz kashfiyotlarni shaffof, moslashuvchan, intellektual mulkni boshqarish xizmatlari ko'rsatishning eng yaxshi amaliyotlari orqali ta'sirchan turtkiga aylanishiga yordam beramiz va universitet va jamiyatda turli

tijoratlashtirish dasturlariga ega bo'lgan universitetdagi to'rtta o'quv kampuslari tadqiqotchilarini birlashtiramiz.

### ***Xizmatlar***

Texnologiyalar Transferi ma'muriy markazi bir qator sohalarda qo'llab-quvvatlashlarni ta'minlaydi: intellektual mulkni boshqarishda, marketing va kommunikatsiyalarda, siyosatni ishlab chiqishda, yuridik maslahatlarda, moliyaviy boshqaruvni joriy etishda, shu bilan birga kampuslar o'rtasida tezkor o'zaro munosabatlarni o'rnatishda. Jumladan, Kaliforniya Universiteti Texnologiyalar Transferi universitet ilmiy-tadqiqot hamjamiyatiga quyidagi xizmatlar ko'rsatadi:

- o'qituvchilarga intellektual mulk bo'yicha savollarda maslahatlar beradi;
- intellektual mulkni boshqarish va yirik grant takliflari uchun tijoratlashtirishni rejalashtirishda ko'maklashadi;
- kampus tadqiqotchilariga turli seminarlar, informatsion byulletenlar va maxsus tadbirlar vositasida texnologiyalarni uzatish jarayoni to'g'risida maslahatlar beradi;
- iqtidorli talabalar, o'qituvchilar va xodimlarni jalb etadi va ularning kashfiyotlarini tahlil qiladi;
- talabalarni va tijoratlashtirish hamkorlarni bozorni baholashga jalb etadi;
- biologik materiallar kabi «Moddiy tadqiqot mahsuli»ni uzatishga tayyorlaydi va boshqaradi;
- tijorat maqsadlarida foydalanish uchun patentlar va mualliflik huquqlarini litsenziyalashtiradi va litsenziyalarni boshqaradi.

### **Bilimlar Transferi Ofisi (Gonkong shahar universiteti)**

Bilimlar Transferi Ofisi (Gonkong shahar universiteti)—  
<http://www6.cityu.edu.hk/kto/>

### ***Bilimlarni uzatish Ofisi haqida***

Bilimlar Transferi Ofisi Vitse-Prezidenti Devonining (tadqiqotlar va texnologiyalar bo'yicha) hisoboti universitet va jamiyat o'rtasida bilimlarni almashishda muhim bo'g'in hisoblanib, texnologiyalar, nou-xau, tijorat va notijorat tashkilotlar uchun ko'nikma va tajribalarni qamrab oladi. Bilimlar Transferi orqali

Ofis sanoat, biznes va jamoatchilik bilan Gonkong shahri va uning atrofidagi holatni yanada tubdan yaxshilash yoʻlida yaqin aloqalar oʻrnatishga harakat qiladi.

***BTO vazifalari:***

BTO Gonkong shahar universitetida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi taʼminlash uchun yaratilgan bilimlarni himoyalash, tadbqiq etish, almashish va tijoratlashtirishda asosiy rolni oʻynaydi. BTO universitet tomonidan ishlab chiqilgan intellektual resurslarga oson erishishni taʼminlash yoʻlida bosh boʻgʻin boʻlishga harakat qiladi.

**Isis Innovation Ltd – Oksford universiteti**

Isis Innovation Ltd. - <http://isis-innovation.com/>

Isis Innovation Oksford Universitetining tarmoq kompaniyasi hisoblanib, Oksfordda texnologiyalarni uzatish va akademik maslahatlar berishni boshqaradi, shuningdek butun dunyo boʻylab mijozlarga maslahat xizmatlari koʻrsatadi.

Bizning missiyamiz dunyodagi yetakchi xalqaro texnologiyalar transferi tashkilotiga aylanish, barcha mijozlarimizga foydali boʻlish va tijoratlashtirishning ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlaridan maksimal ravishda foydalanish maqsadida Oksford universitetida yaratiladigan texnologiyalar va tajribalarni yetkazishdan iborat.

Isis Innovation oʻz faoliyatini uchta biznes guruhlarda tashkillashtiradi: Texnologiya Transferi Ofisi, Oxford University Consulting (OUC) va Isis Enterprises.

Texnologiyalar Transferi guruhi oʻz intellektual mulklarini litsenziyalashtirish, sotish va qoʻshimcha daromad olish yoʻllari orqali tijoratlashtirishni maqsad qilgan universitet tadqiqotchilari bilan ish olib boradi. Guruh, shuningdek, mijozlarga Oksford universiteti va boshqa muassasalarda ishlab chiqilgan yuqori sifatli koʻrsatkichlar bazasi (Patient Reported Outcome)ga kirish imkoniyatini beruvchi Isis Outcomesni hamda Oxford bilan ishlaydigan tadbirkorlarga mualliflik huquqi va nou-xau asosida intellektual mulkni dasturiy taʼminotini ishlab chiquvchi Isis Software inkubatorini oʻz ichiga oladi. Isis Angels Network tarmogʻi yangi

imkoniyatlarni izlayotgan investorlar uchun ma'lumotlar va tarmoq yangiliklarini yetkazib beradi.

Isis Innovation Oksford universiteti texnologiyalarini litsenziyalashtirishni boshqaradi, shu bilan birga o'zi tashkil etilishida yordam bergan spin-aut kompaniyalarni ham litsenziyalashtiradi. Istiqbolli texnologiyalarning dastlabki intellektual mulk himoyasidan boshlab, bizning ishonchli jarayon bozorni tahlil etish, marketing va sanoatdagi potensial hamkorlarimiz bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishda davom etadi. 2013 yilda Isis 100 ga yaqin yangi patent arizalarini taqdim etdi, 2000 dan ortiq patentlar va mavjud ishlanmalar portfelini boshqardi, litsenziyalash uchun ijozat berilgan 300 ta texnologiyani sotdi, hamkorlar bilan 100 ga yaqin litsenzion shartnomalarni tuzishda muvaffaqiyatli muzokaralar olib bordi<sup>72</sup>.

## **2. Fanlar brokeriga misol**

Top 500 novatorlar (yangilik yaratuvchilar)

<http://top500innovators.org>

Polsha Respublikasining Fan va oliy ta'lim vazirligi mamlakatda akademik soha va tadbirkolar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish maqsadida bilimni tijoratlashtirishni boshqarish "Top 500 novatorlar" dasturini yaratadi. Dastur davomida tanlab olingan nomzodlar Akademik Reytingga ega bo'lgan hamkor Jahon Universitetlari (masalan, Stenford universiteti yoki Kaliforniya universiteti, Berkli)da 9 haftalik o'quv dasturlarni tugatishadi.

Kurslar Polsha universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, texnologiyalarni uzatish ofislari vakillarini ilmiy-tadqiqot loyihalarini boshqarish ko'nikmalariga va bozorga yuqori texnologik mahsulotlarni chiqarishga o'rgatadi.

Shu bilan birga Dastur davomida uning qatnashchilari kompaniyalar qay tarzda intellektual mulkka egalik qilib, turli iqtisodiyot tarmoqlarida o'zgartirishlarni amalga oshirganligini o'rganish uchun muhim texnologik kompaniyalar (energetika, biotexnologiyalar, axborot texnologiyalar va texnologiyalarni uzatishlarni qo'shgan holda)ni borib ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. O'quv dasturlarida asosiy e'tibor

---

<sup>72</sup> <http://techtransfercentral.com/reprints/ttt/214-isis-innovation/>

innovatsiyalar, ijro va boshqaruv mahorati, tadbirkorlik, intellektual mulk va texnologiyalar transferi masalalariga qaratiladi.

Dastur to'liq Polsha Fan va oliy ta'lim vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. 2015 yilda xorijda malaka oshirish va ta'lim olish uchun 500 kishi tanlab olingan.

**O'quv mavzulari:**

- fan va iqtisodiyot o'rtasidagi hamkorlik;
- tadqiqotlarni boshqarish;
- ilmiy - tadqiqot natijalarini tijoratlash.

Vazirlik ishtirokchilarning ta'lim olish, yo'l, yashash, sug'urtalash va viza olishga sarflanadigan xarajatlarni to'liq moliyalashtirib, ishtirokchilarga o'quv jarayoni davomidagi qo'shimcha xarajatlari uchun ham mablag' ajratdi.

Dastur qatnashchilari ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashda muhim rol o'ynaydigan xorijiy kompaniyalarning ishlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Tadbirkorlar va venchur kapital vakillari bilan uchrashishdi, soha bo'yicha va tadqiqot uslublari bo'yicha o'z g'oyalarini taqqoslashdi va boyitishdi.

**Kimlar ishtirok etishi mumkin:**

Polsha o'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalarining tabiiy fanlar, texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, veterinariya, tibbiyot fanlari va jismoniy tarbiya sohalarida ish yuritayotgan olimlari va tadqiqotchilari hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari va texnologiyalar transferini tijoratlash savollari bilan shug'ullanuvchi texnologiya transferi markazi xodimlari<sup>73</sup>.

---

<sup>73</sup><http://top500innovators.org/program-top500/o-programie>

## Oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish asosiy yo'nalishlari

Oliy ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyatni rivojlantirishga tayyorlash

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish

### Oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish

#### Ta'lim jarayoni innovatsiyalari

**Ta'lim maqsadlariga o'zgartirishlar kiritishga oid innovatsiyalar**

**Ta'lim maqsadlaridagi o'zgarishlarga muvofiq ta'lim mazmunida innovatsiyalar**

**Ta'lim xizmatlari ko'lamida innovatsiyalar:**  
qisqa muddatli kasbiy ta'lim kurslari;  
 korporativ treninglar va master-klasslar;  
 katta yoshdagi aholining turli toifalarini o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

**Ta'lim shakllarida innovatsiyalar:** kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy.

**O'quv-metodik ta'minotda innovatsiyalar:** tayyor o'quv majmualar, vizuallashtirilgan elektron resurslar, onlayn kurslar, virtual trenajyorlar, infografikalar ishlab chiqish, "dars ssenariysi konstruktori" platformasini joriy etish

**Ta'lim uslubida innovatsiyalar:** ta'limning faol va interfaol uslublari va shakllaridan foydalanish, pedagogik texnologiyalarni (kasbiy ko'nimalarni shakllantirishga qaratilgan metodlar) qo'llash hamda axborot texnologiyalardan foydalanish asosida o'qitish

**Ta'lim natijalarini baholashda innovatsiyalar:** kompetentlikni baholash, talaba portfoliosini shakllantirish, talabalar tomonidan bir-birini baholash

**Pedagoglar malakasini oshirish jarayonida innovatsiyalar**

#### Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sohasidagi innovatsiyalar

**Amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish korxonalarida "dual" tizimda amalga oshirish (Germaniya)**

**Biznes va korxonalarda korporativ ta'lim: pilot mashg'ulotlari, biznes va korxonalaridagi maxsus o'quv markazlari yaratish (Buyuk Britaniya)**

**Texnologiyalar bilan boyitilgan muhitda loyihalarga asoslangan o'qitishdan foydalanadigan yangi Tech High Schools (yuqori texnologiya maktablari), texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish tashkil etish (AQSh)**

**Mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaradigan kichik innovatsion korxonalar (Daniya)**

**Yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kengashlar, federatsiyalar; fanlar assotsiatsiyasi, sho'bxalar tashkil qilish, DXSh asosida hamkorlik va sheriklikni rivojlantirish**

**Xorijiy ta'lim muassasalari, kompaniyalari filialini tashkil etish, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish**

**Ta'lim muassasalarida innovatsion g'oyalarga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirish**

**Barcha faoliyat sohaslarida Davlat – xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish**

## **Hududiy oliy ta'lim tizimini isloh qilish dasturini ishlab chiqish algoritmi**

### **Kirish**

Hududiy oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ahamiyati, maqsad va vazifalari.

### **1. Hudud oliy ta'lim tizimining joriy holati tahlili**

#### **1.1. Oliy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.**

Oliy ta'lim tizimining umumiy tavsifi beriladi: hududning umumiy ta'lim makonida oliy ta'lim tizimining o'rnini va rolini ko'rsatish (oliy ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim muassasi tavsifi, unda tayyorlanadigan yo'nalishlar, mutaxassisliklar, tayyorlov yo'nalishlarining tuman va viloyatlar kesimida taqsimoti, kontingent, kadrlar salohiyati, o'quv-moddiy bazasi, tuzilmasi va boshqalar); oxirgi 3 yil ichida asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini taqdim etish.

*Ko'rsatkichlar va indikatorlar:*

- ta'lim muassasalari soni;
- yil boshi va oxirida talabalar kontingenti, jami nafar;
- pedagog xodimlarning soni, jami, jumladan, ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega professor-o'qituvchilar;
- ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi, (%);
- YaHM (yalpi hududiy mahsulot) tarkibida oliy ta'lim xarajatlarning ulushi, (%);
- bir talabani o'qitishga sarflanadigan haqiqiy xarajatlar, (so'm);
- umumiy moliyalashtirishda budjetdan tashqari tushumlar ulushi, (%), oldingi yilga nisbatan o'sishi (%);
- oliy ta'limni umumiy moliyalashtirish hajmida kapital qo'yilmalarga xarajatlarning ulushi, (%);
- ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirish: (100 nafar talabaga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni); shundan, internet tarmog'iga ulangan o'quv muassasalardagi kompyuterlar ulushi, (%);

- o'quv vositalari (videoproektor, elektron doska, televizor va netbuk) bilan jihozlanganlik darajasi (ta'lim muassasasidagi jihozlangan o'quv xonalarining guruhlariga bo'lgan nisbati, %);

- ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanganlik (fanlar soatlariga mo'ljallangan mavjud ko'rgazmali qurollarning umumiy fanlar soatiga nisbati,%);

- tayyorlanadigan mutaxassisliklar bo'yicha o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, shu jumladan elektron resurslar (elektron o'quv resurslar, videoresurslar, multimedia, infografikalar va boshqalar);

- tayyorlanadigan mutaxassisliklar bo'yicha jihozlangan o'quv laboratoriya bilan ta'minlanganlik darajasi, (%).

## **1.2. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifati.**

Oliy ta'limning ijobiy tomonlarini ko'rsatish kerak:

talabalarining tayyorgarlik darajasi, o'quv jarayonining sifati, ta'lim xizmatlari bozorida (to'lov-shartnoma va boshqa pullik xizmatlar) oliy ta'limga bo'lgan talab ko'rsatiladi.

*Ko'rsatkichlar va indikatorlar:*

- yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha imtiyozli diplomga sazovor bo'lgan bitiruvchilar ulushi, jami, (%), shu jumladan, magistratura bitiruvchilari;

- magistraturaga o'qishga qamrab olish ulushi (yo'nalish bo'yicha bitiruvchi bakalavrlar soniga nisbatan), doktoranturaga qamrab olish (magistratura mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar soniga nisbatan, %);

- , magistraturaga o'qishga kirish tanlov darajasi (bir o'ringa hujjat topshirganlar soni), doktoranturaga kirish tanlov darajasi (bir o'ringa hujjat topshirganlar soni);

- yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra "4" va "5" baholar olgan bitiruvchilar ulushi, (%);

- uzrsiz sabablarga ko'ra talabalar safidan chetlashtirilgan va kursida qoldirilgan talabalarining ulushi, (%);



- bitiruvchilarning umumiy bandligi, bitiruvchilar umumiy sonidan (hamma hollarda harbiy xizmatga va bola parvarishi ta'tiliga bo'lganlar hisobga olinmaydi) bandligi ta'minlangan bitiruvchilar ulushi (%), jumladan:

- ishga joylashtirish, shundan, egallagan mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanganlar;

- keyingi bosqichida o'qishni davom ettirayotganlar;

- o'z tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar;

- bir yilda o'rtacha bir o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar asosidagi dars ishlanmalari, soat;

- innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan dars mashg'ulotlarining umumiy soatlardagi ulushi, %;

- bir yilda o'rtacha bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan:

- namunali darslar, mahorat darslari, seminar-treninglar;

- ommaviy axborot vositalarida, ilmiy jurnallarda va anjumanlar materiallari to'plamida chop etilgan maqolalar, axborotlar;

- nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy ishlar, monografiyalar;

- ishlab chiqilgan elektron resurslar;

- ish haqi to'lanib o'tkaziladigan ishlab chiqarish amaliyotlarida jalb qilingan talabalarning umumiy amaliyot o'tuvchilar sonidagi ulushi;

- kasb-hunar ta'limini moliyalashtirishning umumiy hajmida ta'lim faoliyati natijasida olingan budjetdan tashqari mablag'larning ulushi (%).

## **2. Hududning iqtisodiy rivojlanishida oliy ta'lim tizimining roli**

### **2.1. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozori holati**

Mintaqaning iqtisodiyoti uchun oliy ta'lim tizimining ahamiyatini asoslab berish kerak: iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini, ustuvor rivojlanish tarmoqlarini, mehnat resurslari holatini, ish kuchiga talabning tuzilishini, oliy ta'lim ixtisoslariga bo'lgan talabni, ishga joylashtirish va ishsizlik muammolarini ko'rsatish.

*Ko'rsatkichlar va indikatorlar:*

- yalpi hududiy mahsulot (milliard so'm);

- sanoat ishlab chiqarish hajmi (jami; hududda rivojlangan sanoat tarmoqlari kesimida, milliard so‘m);
- qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmatlar va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmi (milliard so‘m);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (ming kishi);
- ishsizlar soni (rasman ro‘yxatga olingan, (ming kishi);
- yil oxirida bandlik va mehnat munosabatlari xizmatida bo‘sh ish o‘rinlar soni;
- ish beruvchilar tomonidan ko‘p talab etiladigan kasblar ro‘yxati;
- hududning yaqin istiqboldagi ustuvor rivojlanish tarmoqlari;
- mahalliy va xorijiy investitsiya dasturlari asosida ochiladigan yangi korxonalar tahlili.

## **2.2. Hudud iqtisodiyoti uchun oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash**

Bunda hudud iqtisodiyoti uchun oliy ta‘lim tizimining samaradorligini namoyish etish zarur: oliy ta‘lim bitiruvchilarining mehnat bozorida talabga ega ekanligi, ularning ish beruvchilar talablariga muvofiqligi, tayyorlanadigan mutaxassislarida mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi, korxonalar va shaxslar tomonidan oliy ta‘limga talab mavjudligi.

*Ko‘rsatkichlar va indikatorlar:*

- oliy ta‘lim bitiruvchilari (jami, jumladan bakalavrlar va magistrlar, ming kishi);
  - yil oxirida bandlik va mehnat munosabatlar boshqarmasida bo‘sh ish o‘rinlarida oliy ma‘lumotli mutaxassisliklar ulushi (oliy ma‘lumotli mutaxassislar bilan solishtiriladi, %);
  - oliy ta‘lim bitiruvchilarining umumiy bandligi darajasi, % ;
  - bandlik va mehnat munosabatlar boshqarmasida ro‘yxatda turgan bitiruvchilarning ulushi, (%);
  - shartnoma asosida (katta yoshdagilar) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida tahsil olgan shaxslar soni (ming. kishi);
- jumladan, bandlik va mehnat munosabatlar boshqarmasi yo‘llanmasi asosida, kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar va individual shartnomalar bo‘yicha;

- oliy ta'lim tizimida umumiy o'qitilganlarda katta yoshdagilar, xotin-qizlarning ulushi, (%).

### **3. Oliy ta'lim tizimining ijtimoiy funksiyalari**

#### **3.1. Oliy ta'lim olishning qulayligi va variativligi**

oliy ta'lim tizimining ijtimoiy missiyasini amalga oshirilishini namoyish qilish kerak: oliy ta'lim tizimining ijtimoiy roli qanday amalga oshirilayotganini, ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga qanday erishilayotganligini ko'rsatish – ta'lim olishga erishish qulayligi, variativligi, tez moslashuvchanligi va boshqalarni, oliy ta'lim tizimining, hududning qanday muammolarga duch kelayotganligi ko'rsatish.

*Ko'rsatkichlar va indikatorlar:*

- 16-20 yoshdagi ta'lim tizimidan tashqarida qolgan yoshlarning ulushi (18-24 yoshdagi yoshlar soni va barcha turdagi (oliy ta'lim), jumladan, nodavlat va xorij ta'lim muassasalarida o'qiyotgan shu yoshdagilar o'rtasidagi farq, kishi;

- oliy ta'limda o'qiyotganlarning 18-24 yoshdagi aholi sonidagi ulushi, (%);

- umumta'lim maktablari 11 sinf bitiruvchilarining taqsimlanish balansi (mehnat bozoriga, oliy ta'lim muassasalariga, (%);

- 10 000 aholidan oliy ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar soni (jami katta yoshdagilar bilan; faqat yoshlar, kishi);

- turli dasturlar bo'yicha o'qiyotganlar tarkibi (o'rta ma'lumot, o'rta maxsus ma'lumot, oliy ma'lumot bazasida, %);

- talabalar turar joylarida yotoq o'rinlari soni, (birlik);

- oliy ta'lim talabalarining umumiy sonida yotoqxonalarda yashovchi talabalarning ulushi, (%).

#### **3.2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalarini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish**

Oliy ta'lim tizimining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalarining ta'lim olish huquqlarini ta'minlashdagi alohida o'rnini namoyish etish zarur: ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalarining oliy ma'lumot olishga o'rgatishga tizimning ishtirokini, oliy ta'lim tizimining boshqa ta'limga nisbatan bu muammolarni hal

etishda yetakchi rolga ega ekanligini, ushbu guruh talabalari sonining dinamikasini, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalarining ta'lim makonida saqlab qolish borasida olib borilayotgan ishlarni (talabalik safidan chetlashtirish, o'qishini ko'chirish, ishga joylashtirish holatlarida ularga imtiyozlar berish) ko'rsatish.

*Ko'rsatkichlar va indikatorlar:*

- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning umumiy oliy ta'lim tizimidagi talabalar kontingentidagi ulushi (jami, shu jumladan, guruhlar bo'yicha: chin yetim va yarim yetimlar, ko'p farzandli kam ta'minlangan oilalar farzandlari, imkoniyati cheklangan bolalar va boshqalar,%);

- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalariga oliy ta'lim tizimida ta'lim olishga erishish uchun yaratilgan qulayliklar ko'rsatkichlari (ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalarining boshqa ta'lim tizimlaridagi va oliy ta'lim muassasalaridagi solishtirma og'irligi o'rtasidagi nisbat, %);

- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalari talabalarining uzrsiz sabablarga ko'ra o'qishdan chetlashtirilgan talabalar sonidagi ulushi, (%), talabalar umumiy sonidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifalari talabalari ulushi, (%) o'rtasidagi nisbat;

#### **4. Vazirlik va idoralar, mahalliy budjetdan hamda o'z-o'zini moliyalashtirish tizimida oliy ta'limning istiqbollarini baholash**

4.1. Tasarrufida bo'lgan vazirlik va idoralar, viloyat hokimiyati boshqaruv organlari va xo'jalik sub'ektlari tomonidan oliy ta'lim tizimiga nisbatan munosabatni baholash.

Vazirlik va idoralarning yuqori mavqe'li rahbarlari hamda hududdagi turli elitaning oliy ta'lim tizimiga bo'lgan munosabatini baholash kerak: ularning oliy ta'lim tizimi to'g'risidagi xabardorlik darajasini, oliy ta'lim tizimiga, ta'lim muassasalariga bo'lgan munosabatining haqiqatga mosligi, (so'rovlar natijalariga ko'ra, ommaviy axborot vositalaridagi nashrlar tahlili va boshqalar asosida) ko'rsatish lozim.

### ***So‘rov natijalari:***

- tarmoqning va hududning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishida oliy ta'lim tizimining rolini baholash;
- oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalarining o'zgarishi munosabati bilan taxminlarni baholash;
- moliyalashtirish manbalari o'zgarishidan so'ng oliy ta'lim tizimiga nisbatan munosabatlarni baholash.

### **4.2. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalarining o'zgarishi bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar ishlab chiqish yo'nalishlari**

Ustuvor chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab olish lozim: oliy ta'lim tizimni "himoyalash"ning aniq choralari— turli manbalardan moliyalashtirishning, mulkni boshqarishning, talabalarni va xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning, ish beruvchilar va hokimiyat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni mustahkamlashning normativ-uslubiy bazasini ishlab chiqishning zaruriyatini ko'rsatish kerak.

### ***Tahlil natijalari bo'yicha asosiy xulosalar:***

- Oliy ta'lim tizimiga ta'sir etadigan asosiy xavf-xatarlar va salbiy omillarni tavsiflash;
- hududda kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

Yuqoridagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik vazifalari yo'nalishlarini belgilaydi va quyidagilarni ta'minlaydi:

- oliy ta'lim olish va ta'limni rivojlantirish xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimini isloh etish;
- oliy ta'lim va o'qitishning mazmunini takomillashtirish va sifatini oshirish;
- hudud iqtisodiyoti uchun oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- ta'lim muassasasining real maqsadlarga yo'naltirilgan moslashuvchan va faoliyatni kommunikativ muvofiqlashtirishni ta'minlovchi vaqtinchalik tuzilmalarni yaratish qobiliyatiga egaligi;

- tushunarli, amalda erishib bo'ladigan maqsadlarning mavjudligi va o'zgarishlarni aniq rejalashtirish;

- tashkilot madaniyati, imidji va boshqaruv uslubi;

- tashkilotning ichki va tashqi aloqalari, jamoa a'zolarining o'zgarishlar to'g'risida axborotga va motivatsiyaga ega ekanligi;

- joriy etish jarayonini amalga oshirishni turli bosqichlarda muntazam va samarali nazorat qilish.

#### **4- ilova**

### **Oliy ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha hududiy harakatlar dasturining tuzilishi**

#### **1 - Strategik vazifa: oliy ta'lim olish va kasbga o'qitish xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash**

1.1. **Tezkor vazifa:** oliy ta'lim oluvchilar guruhlarining soni va joylashuvi haqida ma'lumot to'plash va ularning ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish.

##### *Faoliyat turlari:*

1.1.1. Mahalliy hokimiyat organlari orqali ma'lumot yig'ish (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari statistikasi);

1.1.2. Mahalliy hokimiyat organlari, oliy ta'lim muassasalari orqali maktab bitiruvchilarining mavjud oliy ta'lim bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish;

1.1.3. Mahalliy hokimiyat organlari, ta'lim muassasalari orqali qishloq joylaridagi maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga ehtiyojlarini aniqlash;

1.1.4. Bandlikni ta'minlash xizmatlari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar kengashlari va boshqa axborotga ega bo'lgan jamoat tashkilotlari orqali bazaviy ma'lumotidan qat'iy nazar (to'liq bo'lmagan umumiy

oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus, oliy va maʼlumotsiz) oliy taʼlim mutaxassisligini egallashni istagan katta yoshdagilar va yoshlar haqida maʼlumot toʻplash;

1.1.5. Katta yoshdagi (ishlaydigan) aholining taʼlim ehtiyojlarini (malaka oshirish, kasb egallash va boshqalar) oʻrganish mexanizmini ishlab chiqish;

1.1.6. Qizlarning oliy taʼlimga boʻlgan ehtiyojlarini oʻrganish va qizlarga xos kasblar boʻyicha kadrlar tayyorlashni yoʻlga qoʻyish;

1.1.7. Oliy taʼlim muassasalariga hujjat topshirgan, lekin oʻqishga kirib bilmagan yoshlar oʻrtasida tashfiqot ishlarini amalga oshirish va turli kurslar tashkil qilish.

**1.2. Tezkor vazifa:** Taʼlim olish va ishlash imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun oliy taʼlim oluvchilar guruhlarining soni va joylashuvi haqida maʼlumot toʻplash va ularning taʼlim ehtiyojlarini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

1.2.1. Taʼlimga va oʻqitishga muhtoj boʻlgan, lekin imkoniyatlari cheklangan guruhlar (nogironlar, yetimlar, sogʻligʻida nuqson boʻlgan bolalar, umumiy oʻrta maʼlumotga ega boʻlmagan yoshlar, chekka aholi punktlarida yashovchi yoshlar) toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻrganish, koʻrsatkichlarni aniqlash.

1.2.2. Nogironlar, yetimlar, sogʻligʻida nuqson boʻlgan bolalarning oliy taʼlimga boʻlgan ehtiyojlarini aniqlash va oʻqitish uchun sharoitlar yaratish.

1.2.3 Mahalliy hokimiyat organlari orqali olis qishloq aholi punktlarida yashovchi yoshlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻplash.

**1.3. Tezkor vazifa:** ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun zarur boʻlgan har xil turdagi yordamni aniqlash va taʼminlash mexanizmini ishlab chiqish; jamgʻarmalar va boshqa turdagi qoʻllab-quvvatlash manbalarini shakllantirish (stipendiyalar, yotoqxonalar, maxsus kiyim, oziq-ovqat va yoʻl xarajatlarini qoplash).

*Faoliyat turlari:*

1.3.1. Oliy taʼlim tizimidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tartibini yaratish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish.

1.3.2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga yordam berish uchun ta'lim tizimining asosiy fondlaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, yotoqxonalarda joylar sonini oshirish.

**1.4. Tezkor vazifa:** Barcha yoshlar ta'lim, olishda qo'llab-quvvatlash sharoitlari to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida kasbga yo'naltirish (proforientatsiya) mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish.

*Faoliyat turlari:*

1.4.1. Kasbga yo'naltirish bo'yicha axborotni taqdim etadigan asosiy manbalarni aniqlash;

1.4.2 Kasbga yo'naltirilgan saytlarni yaratish;

1.4.3 Talabalarning turli qiziqishlariga qarab turli yo'nalishlarga (to'garaklarga) yo'naltirish kanallarini aniqlash;

**1.5. Tezkor vazifa:** Mehnat bozorining bitiruvchilarga bo'lgan talabi va shaxslar ehtiyojlariga muvofiq bo'lajak talabalar uchun zarur o'quv o'rinlarini ta'minlash.

*Faoliyat turlari:*

1.5.1. Pulli ta'lim xizmatlarini tez moslashuvchan va o'zgaruvchan etib ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish.

**2 - Strategik vazifa:** Hududiy oliy ta'lim tizimini isloh etish.

**2.1. Tezkor vazifa:** oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlarini birlashtirish, yopish yoki qayta tashkil etishni o'z ichiga olgan oliy ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarining turlari (ishchi kasblar, mutaxassislar tayyorlovchi, o'quv-ishlab chiqarish majmualari) bo'yicha davlat siyosati ijrosini ta'minlovchi hududiy dastur ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

2.1.1. Oliy ta'lim tizimini isloh etish bo'yicha davlat siyosatiga muvofiq hududiy dastur ishlab chiqish maqsadida ekspert guruhini tuzish (viloyat hokimining qarorini tayyorlash);



2.1.2. Ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqiladigan dasturning ustuvor yo‘nalishlarini hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi bilan muvofiqlashtirish.

2.1.3. Dasturda quyidagilarga asoslangan yangi tipdagi oliy ta‘lim muassasalarini kollejarini yaratishga asosiy e‘tiborni qaratish:

- korxonalarda va biznes tuzilmalarida maxsus korporativ o‘quv markazlari yaratish;

- amaliy mashg‘ulotlarni, amavliyotlarni ishlab chiqarish korxonalarida “dual” tizimda amalga oshirishni ta‘minlash;

- texnologiyalar bilan boyitilgan muhitda loyihalarga asoslangan o‘qitishdan foydalanadigan yangi Tech High Schools (yuqori texnologiya maktablari) tashkil etish;

- mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaradigan bir yoki bir nechta “ustaxonalar”ga asoslangan hududiy o‘quv - ishlab chiqarish muassasalari yaratish;

- ta‘lim muassasalarida innovatsion g‘oyalarga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish bazalarini tayyorlash;

- davlat – xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish;

- xorijiy davlatlar yetakchi ta‘lim muassasalari filialini tashkil etish.

**2.2. Tezkor vazifa:** Oliy ta‘lim hududiy boshqarmasining tarkibini takomillashtirish (moslashuvchan ta‘lim xizmatlarini taqdim etish uchun yangi tashkiliy tuzilmani malakali kadrlar bilan kuchaytirish, yangi bo‘limlar uchun yangi vazifalar va majburiyatlarni aniqlash, xodimlarni qayta tayyorlash).

*Faoliyat turlari:*

2.2.1. Ta‘lim tizimini isloh etish davlat siyosatiga muvofiq hududiy ta‘limni boshqarish organining yangi vazifalari va majburiyatlarini aniq belgilash;

2.2.2 Oliy ta‘lim tizimini hududiy boshqarish organining yangi vazifalari va majburiyatlariga muvofiq lavozim vazifalariga o‘zgartirishlar kiritish.

**2.3. Tezkor vazifa:** Ta‘lim muassasasi darajasida boshqarishning yangi sharoitlarida faoliyat yuritishga tayyorligini qayta ko‘rib chiqish va tayyor bo‘lishini

ta'minlash (boshqaruv tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, rahbarlarni tayinlash / ishdan bo'shatish / rotatsiya o'tkazish yoki qayta tayyorlash).

*Faoliyat turlari:*

2.3.1. Boshqaruv tizimini takomillashtirish va yangi tashkil etiladigan yoki qayta tuziladigan mutaxassisliklari uchun ta'sis shartnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2.3.2. Yangi tipdagi mutaxassisliklar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur me'yoriy, huquqiy, uslubiy hujjatlar majmuasini tayyorlash va tasdiqlash (shtatlar jadvali, ta'lim muassasasi nizomi, litsenziyasi, akkreditatsiyasi, sertifikatlash, ro'yxatdan o'tkazish va boshqalar).

**2.4. Tezkor vazifa:** Hududiy oliy ta'lim tizimining yangi operativ qoidalari va muolajalarini ishlab chiqish va joriy etish (mahalliy hokimiyat va oliy ta'lim mutaxassislari o'rtasida o'zaro hamkorlik qilish qoidalarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tartibga solish, tegishli qarorlarni tayyorlash va tasdiqlatish).

*Faoliyat turlari:*

2.4.1. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, moliyalashtirish, samaradorligini baholash, mulki (binolar, jihozlar, yer)dan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish.

**2.5. Tezkor vazifa:** Ta'lim mazmuni va sifatini ta'minlashning hududiy tizimini qayta ko'rib chiqish (oliy ta'lim va o'qitish ehtiyojlarini tahlil qilish; ta'lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish; o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishni, o'qituvchilarning malakasini oshirishni, ta'lim sifati nazorati va sertifikatlashtirish xizmatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish).

*Faoliyat turlari:*

2.5.1. Oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan hamkorlikda hududiy oliy ta'limni metodik ta'minotini innovatsion yondashgan holda takomillashtirish.

**2.6. Tezkor vazifa:** oliy ta'lim sohasida hududiy maslahat tizimi va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish (oliy ta'lim bo'yicha hududiy va shahar, tuman kengashlarini tashkil etish, ularning faoliyat yuritish tartibini ishlab chiqish).

*Faoliyat turlari:*

2.6.1. Hududiy va shahar, tuman kengashlarini tashkil etish (tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kengashlar, federatsiyalar, fanlar assotsiatsiyasi, sho'balarni tashkil qilish).

### **3 - Strategik vazifa: Oliy ta'limda o'qitish mazmunini va sifatini takomillashtirish**

**3.1. Tezkor vazifa:** oliy ta'limda o'qitish sifatini ta'minlash bo'yicha hududiy siyosatni ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

3.1.1. Hududda ta'limi sifatini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

3.1.2. Hududlarda malakani sertifikatlash markazlarini tashkil qilish (masalan, kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutiga biriktirilgan), jumladan, ushbu markaz tegishli kasbga tayyorlovchi o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'lim ustalarining malakasini oshirish uchun metodik (resurs) ta'minoti sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

3.1.3. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan xizmatlari ko'rsatish sifatini, yangi kurslar va o'quv rejalarining samaradorlini, bitiruvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish va Ta'lim sifati inspeksiyasi bilan hamkorlikda nazoratni kuchaytirish.

**3.2. Tezkor vazifa:** oliy ta'lim tizimining faoliyatiga ijtimoiy sheriklarni jalb qilish.

*Faoliyat turlari:*

3.2.1. Ijtimoiy sheriklarni quyidagilar bo'yicha ekspert sifatida jalb qilish:

- malaka talablarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonini jihozlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

**3.3. Tezkor vazifa:** hududning iqtisodiy muhim tarmoqlari uchun malakali ishchilar va mutaxassislarni tayyorlash uchun hududiy buyurtmani shakllantirishda ishtirok etish.

*Faoliyat turlari:*

3.3.1. Hududiy buyurtmani shakllantirish tartibini ishlab chiqish va uni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi bilan muvofiqlashtirish.

**3.4. Tezkor vazifa:** oliy ta'lim o'quv moddiy bazasini tahlil qilish va uni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

**4 - Strategik vazifa: Hududiy oliy ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish**

**4.1. Tezkor vazifa:** oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalaridan unumli foydalanish (davlat, korxonalar, aholi).

*Faoliyat turlari:*

4.1.1. Maqsadli dasturlarda ishtirok etish;

4.1.2. Moliyalashtirishning imkoni bor manbalarini, shu jumladan, xorijiy grant loyihalarini o'rganish.

4.1.3. Budjetdan tashqari moliyalashtirishning imkoni bor manbalarini o'rganish.

**4.2. Tezkor vazifa:** Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda ishlab chiqarish korxonalarini jalb etish mexanizmini ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

4.2.1. Korxonalar bilan maqsadli kadrlar tayyorlash, o'quv moddiy bazani rivojlantirish bo'yicha shartnomalar tuzish.

4.2.2. Talabalar amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish uchun ish beruvchilar assotsiatsiyalari bilan hududiy bitimlar tuzish.

**4.3. Tezkor vazifa:** Oliy ta'limni hududiy moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

4.3.1. Kasb-hunar ta'limi muassasalarini qisman davlat tomonidan moliyalashtirish (ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar toifasini o'qitish uchun) mexanizmini ishlab chiqish;

4.3.2. Talaba boshiga moliyalashtirish me'yorlarini ishlab chiqish;

4.3.3. Turli kasb guruhlari xarajatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirishning me'yoriy bazasini ishlab chiqish;

4.3.4. Ta'lim natijalariga ko'ra ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

4.3.5. G'aznachilik instituti orqali moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish (masalan, g'aznachilik, birja savdolari bilan bog'liq muammolar bo'yicha).

**4.4. Tezkor vazifa:** Mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatdoshligini ta'minlash orqali davlat va korxonalar tomonidan moliyalashtirish samaradorligini oshirish.

*Faoliyat turlari:*

4.4.1. Bitiruvchilarning mobillik darajasini oshirishga yo'naltirilgan kurslarni joriy qilish.

**4.5. Tezkor vazifa:** Ta'lim muassasalari uchun o'z ishlab topgan pul mablag'laridan foydalanishga yetarli darajada erkinlik berish, ularni ta'lim xizmatlari bozorida qo'llab-quvvatlash.

*Faoliyat turlari:*

4.5.1. Ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etiladigan turli ta'lim xizmatlari qiymatini hisoblash uslubini ishlab chiqish.

4.5.2 Ta'lim muassasalari rahbarlarining tijorat savodxonligini oshirish.

4.5.3. Qonunchilik hujjatlarida bu sohada o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.

**4.6. Tezkor vazifa:** Ta'lim muassasasining faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmini ishlab chiqish.

*Faoliyat turlari:*

4.6.1. Ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini baholash usullari va mezonlarini ishlab chiqish.

4.6.2. Baholash natijalarini budjet parametrlarini rejalashtirishda va ta'lim muassasasini moliyalashtirishda qo'llash.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". -T.: "O'zbekiston", 2017.-104 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 fevral 2017 yildagi PF-4947-son Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 yanvar 2018 yildagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-5308 –sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 iyundagi "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblarining yangilangan klassifikatorini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 oktabrdagi "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 795-sonli qarori.
9. "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son Qarori.;

10. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.;
11. Axunova G.N. Ta’lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis.avtoreferati -T.: 2004.;
12. А.Вахабов, Э.Имамов. Высшее образование в центральной Азии. Задачи модернизации. М. 2007.;
13. Калметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике.- Тошкент: Адолат, 2003.
14. А.Мухторов, Sh.I. Mustafaqulov “Talim sohalarini rivojlantirish bo`yicha xorijiy tajribalar” -“Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnal 2012 y №4 may.
15. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimini boshqarish va moliyalashtirish tajribalari. Rustamova D.D. Ta’lim, fan va innovasiya. Ma’anaviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 yil, 2-son.
16. Salmi, J. The Challenge of Establishing World-Class Universities: Directions in Development. Washington, DC: World Bank/J.Salmi.[Elektronnyy resurs].–Rejim  
dostupa:[http://portal.unescorg/education/en/files/55825/12017990845  
Salmi.pdf/Salmi.pdf](http://portal.unescorg/education/en/files/55825/12017990845Salmi.pdf/Salmi.pdf).;
17. Грудзинский, А.О., Бедный А.Б., Трансфер знаний – функция университета / А.О. Грудзинский, А.Б. Бедный // Высшее образование в России. – № 9. – 2009.
18. Ломакина Т.Ю. Развитие системы непрерывного профессионального образования.- М.: ИТИП РАО, 2005.- 64 с.
19. Ломакина Т.Ю. Современный принцип развития непрерывного образования. – М.: Наука, 2006. – 221 с.

20. Олейникова О. Н. Профессиональное образование в XXI веке. Материалы международного конгресса по техническому и профессиональному образованию. М.: СИСН, 2000. - 84 с.
21. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход/ В.Д. Шадриков// Высшее образование сегодня. -2004.-№ 8.- С. 26-31.
22. BUSINESS DICTIONARY <http://www.businessdictionary.com>
23. Robert J. Thierauf, Systems Analysis and Design of Real-Time Management ... Management Systems for Business (Westport, CT: Quorum Books, 1999).
24. Acckof "From Data to Wisdom" <http://fournier.facmed.unam.mx/ib1/2013/students/files/u2/FromDataWisdomAckoff.pdf>
25. Liew, Anthony (June 2007). "Understanding Data, Information, Knowledge And Their Inter-Relationships". Journal of Knowledge Management Practice 8 (2). Retrieved 7 January 2009.
26. Lomas, J. (2007) The in-between world of knowledge brokering. British Medical Journal, 334
27. E. Gwarda-Gruszczyńska, T. Czapla, Kluczowe kompetencje menadżera ds. komercjalizacji, PARP, Łódź 2011
28. Gene Bellinger, Durval Castro, Anthony Mills, Data, Information, Knowledge, and Wisdom <http://www.systems-thinking.org/dikw/dikw.htm>
29. Reginald Brennenraedts, Rudi Bekkers & Bart Verspagen, The different channels of university-industry knowledge transfer: Empirical evidence from Biomedical Engineering, January 2006, [http://home.tm.tue.nl/rbekkers/brennenraedts\\_bekkers\\_verspagen\\_dime\\_lausanne06.pdf](http://home.tm.tue.nl/rbekkers/brennenraedts_bekkers_verspagen_dime_lausanne06.pdf)
30. Knowledge and Innovation Transfer in Latvia, Aalborg University, Sanita Sampane, August 2010
31. Jackson, N. (2003) Introduction to brokering in higher education. In N. Jackson (Ed.), Engaging and changing higher education through brokerage. Aldershot, UK: Ashgate, 3-20



32. N. Link, D. S. Siegel, and B. Bozeman, "An empirical analysis of the propensity of academics to engage in informal university technology transfer," *Industrial and Corporate CHange*, vol. 16, no. 4, pp. 641–655, Jul. 2007.
33. K. Matusiak, *Innovation and technology transfer. Glossary*, Warsaw, 2011
34. Tseng, Miroslav Raudensky, *Performance Evaluations of Technology Transfer Offices of Major US Research Universities*, *Ampere Journal of Technology Management & Innovation* vol.9 no.1 Santiago Apr. 2014
35. University-Industry knowledge transfer mechanisms, adapted from Perkmann and Walsh (2007) and Bekkers and Freitas (2008)
36. Cooke, I. and Mayes, P., 1996. "Introduction to Innovation and Technology Transfer", Artech House Inc, London.
37. Manu SHarma, Uma Kumar, Luc Lalande: Role of university technology transfer offices in university technology commercialization: case study of the carleton university foundry program, *Journal of Services Research*, Volume 6, Special Issue (July, 2006)
38. Knowledge transfer in practice – good practices in Finland and Poland <http://pastw.byd.pl/userfiles/files/pastw2-www.pdf>
39. Improving knowledge transfer between research institutions and industry across Europe, European Commision, 2007, [http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download\\_en/knowledge\\_transfe\\_07.pdf](http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download_en/knowledge_transfe_07.pdf)
40. Ministry of Science, [http://www.nauka.gov.pl/g2/oryginal/2013\\_05/2eeb94bfcd02b3a61d54b4d392b1e4d5.pdf](http://www.nauka.gov.pl/g2/oryginal/2013_05/2eeb94bfcd02b3a61d54b4d392b1e4d5.pdf)
41. Thomas L. Bereuter, CLP val»IP Ltd. & CoKG: *Innovation Infrastructure: How to Establish the Technology Transfer Office - Practical Steps*, Belgrade 2011
42. *The Innovation Competence Broker: Bridging firms and R&D institutions*, McGraw Hill, Milano 2012 [http://www.leonardorebasing.eu/The\\_Innovation-Competence-Broker.pdf](http://www.leonardorebasing.eu/The_Innovation-Competence-Broker.pdf)
43. San Diego Technology Transfer Office <http://invent.ucsd.edu/invent/>
44. The University of Colorado Technology Transfer Office <http://www.cu.edu/technology-transfer-office>

45. Knowledge Transfer Office (City University of Hong Kong) - <http://www6.cityu.edu.hk/kto/>
46. Isis Innovation Ltd. - <http://isis-innovation.com/>  
<http://techtransfercentral.com/reprints/ttt/214-isis-innovation/>
47. Top 500 innovators: <http://top500innovators.org>
48. [http://scouting.uni.lodz.pl/Linki/Efekty/Komponent\\_systemowy\\_-\\_produkt\\_finalny.pdf](http://scouting.uni.lodz.pl/Linki/Efekty/Komponent_systemowy_-_produkt_finalny.pdf), Praca zbiorowa Uniwersytet Łódzki, Produkt komponent systemowy Innowacyjny model scoutingu w ujęciu systemowym, Łódź 2014, s. 6.
49. OSLO MANUAL, Organisation for Economic Co-operation and Development - <http://www.oecd.org/science/inno/2367580.pdf>
50. Research Project Global Innovation - [http://www.global-innovation.net/innovation/Innovation\\_Definitions.pdf](http://www.global-innovation.net/innovation/Innovation_Definitions.pdf)
51. <http://www.rockefeller.edu/techtransfer/about#whYTECHTRANS>
52. <http://www.erisee.org/node/43>
53. Regulation No 772/2004 of European Union

## MUNDARIJA

|  |            |
|--|------------|
| <b>KIRISH.....</b>   | <b>4</b>   |
| <b>I. BOB. BILIMLAR TRANSFERI, INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH–ASOSIY TUSHINCHA VA TAMOYILLAR.....</b>   | <b>8</b>   |
| 1.1. Innovatsiyalarni boshqarishda ma’lumot, axborot, bilim tushunchalari.....   | 8          |
| 1.2. Innovatsiyalar tushunchasi va ularni boshqarish, bilimlar va texnologiyalar transferi mexanizmi.....  | 15         |
| 1.3. Innovatsiyalarni boshqarishda pedagogik innovatikaning maqsadi va vazifalari.....   | 38         |
| <b>II. BOB. OLIY TA’LIM MUASSASALARI INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI....</b>   | <b>46</b>  |
| 2.1. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalari faoliyati xususiyatlari va modellari...  | 46         |
| 2.2. Innovatsion – tadbirkor universitetlar konsepsiyasining nazariy va metodologik ilmiy ta’minoti.....   | 70         |
| 2.3. Tijoratlashtirish, transfer va innovatsion tadbirkor OTM tushunchalarini talqin qilishdagi asosiy yondashuvlar.....   | 77         |
| 2.4. Innovatsion – tadbirkor universitetlar rivojlanishining xorijiy tajribasi....   | <b>104</b> |
| <b>III. BOB. OLIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSIYALAR.....</b>  | <b>128</b> |
| 3.1. Yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish.....   | 128        |
| 3.2. Oliy ta’lim muassasasida innovatsion-tadbirkorlik muhitni shakllantirish tizimi.....  | 140        |
| 3.2.1. Yangiliklarni izlash va joriy etish.....  | 141        |
| 3.2.2. Yangiliklarni joriy etishda loyihaviy yondashish.....   | 146        |
| 3.2.3. Innovatsiyalarni joriy etish maqsadlarini ishlab chiqish.....   | 153        |
| 3.2.4. Innovatsiyani joriy etishni rejalashtirish.....   | 158        |
| 3.2.5. Joriy etiladigan loyiha ishchi guruhi.....  | 164        |
| 3.2.6. Innovatsiyalarni joriy qilishga qarshiliklar.....   | 168        |
| <b>XULOSA.....</b>   | <b>172</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>   | <b>178</b> |
| Yevropa Ittifoqi ta’lim muassasalarida innovatsiyalar va texnologiyalar transferiga tegishli eng yaxshi amaliyotlar namunasi.....                                | 178        |
| Oliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari...<br>Hududiy oliy ta’lim tizimini isloh qilish dasturini ishlab chiqish algoritmi..... | 190        |
| Oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish bo‘yicha hududiy harakatlar dasturining tuzilishi.....  | 191        |
|  | 198        |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>   | <b>206</b> |

## СОДЕРЖАНИЕ

|  |            |
|--|------------|
| <b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>   | <b>4</b>   |
| <b>I. ГЛАВА. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ПРИНЦИПЫ ТРАНСФЕРА ЗНАНИЙ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ.....</b>                                | <b>8</b>   |
| 1.1. Понятия данных, информации и знаний в управлении инновациями.....   | 8          |
| 1.2. Понятие инноваций и управление ими, механизм трансфера знаний и технологий.....                                     | 15         |
| 1.3. Цели и задачи педагогической инноватики в управлении инновациями.....   | 38         |
| <b>II. ГЛАВА. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....</b>           | <b>46</b>  |
| 2.1. Особенности и модели деятельности современных вузов.....  | 46         |
| 2.2. Теоретическое и методологическое научное обеспечение концепции инновационно-предпринимательских вузов.....          | 70         |
| 2.3. Основные подходы в интерпретации понятий коммерциализации, трансфера и инновационно- предпринимательских вузов..... | 77         |
| 2.4. Зарубежный опыт развития инновационно-предпринимательских вузов.....  | 104        |
| <b>III. ГЛАВА. ИННОВАЦИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....</b>  | <b>128</b> |
| 3.1. Инновационное развитие системы высшего образования в обновленном Узбекистане.....                                   | 128        |
| 3.2. Система создания инновационно- предпринимательской среды в высшем образовании.....                                  | 140        |
| 3.2.1. Поиск и внедрение новшеств.....   | 140        |
| 3.2.2. Проектный подход к инновациям.....  | 146        |
| 3.2.3. Разработка целей внедрения инноваций.....   | 153        |
| 3.2.4. Планирование внедрения инноваций.....   | 158        |
| 3.2.5. Рабочая группа, внедряемого проекта.....  | 164        |
| 3.2.6. Барьеры на пути внедрения инноваций.....  | 166        |
| <b>ЗАКЛЮЧЕНИЕ.....</b>   | <b>172</b> |
| <b>ПРИЛОЖЕНИЯ.....</b>   | <b>178</b> |
| Примеры лучших практик, связанных с инновациями и передачей технологий в высших учебных заведениях ЕС.....               | 178        |
| Основные направления инновационного развития системы высшего образования.....  | 190        |
| Алгоритм разработки программы реформирования системы высшего образования региона.....                                    | 191        |
| Структура регионального плана действий по устойчивому развитию системы высшего образования.....                          | 198        |
| <b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>  | <b>206</b> |

## CONTENT

|  |            |
|--|------------|
| <b>INTRODUCTION.....</b>   | <b>4</b>   |
| <b>I. CHAPTER. KNOWLEDGE TRANSFER, INNOVATION MANAGEMENT - BASIC CONCEPTS AND PRINCIPLES.....</b>  | <b>8</b>   |
| 1.1. Concepts of data, information and knowledge in innovation management.....   | 8          |
| 1.2. The concept of innovation and its management, the mechanism of transfer of knowledge and technology.....                                  | 15         |
| 1.3. The goals and objectives of pedagogical innovation science in innovation management.....  | 38         |
| <b>II. CHAPTER. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.....</b>                    | <b>46</b>  |
| 2.1. Features and models of activity modern universities.....  | 46         |
| 2.2. Theoretical and methodological scientific support of the concept of innovative and entrepreneurial universities.....                      | 70         |
| 2.3. The main approaches to the interpretation of the concepts of commercialization, transfer and innovative entrepreneurial universities..... | 77         |
| 2.4. Foreign experience in the development of innovative and entrepreneurial universities.....   | 104        |
| <b>III. CHAPTER. INNOVATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....</b>  | <b>128</b> |
| 3.1. Innovative development of higher education in a renewed Uzbekistan.....   | 128        |
| 3.2. The system of creating an innovative and entrepreneurial environment in Uzbek universities.....   | 140        |
| 3.2.1. Search and implementation of innovations.....   | 140        |
| 3.2.2. Project approach to innovation.....   | 146        |
| 3.2.3. Developing of goals implementation innovation.....  | 153        |
| 3.2.4. Planning of implementation Innovations.....   | 158        |
| 3.2.5. Implementation Working group of the project.....  | 164        |
| 3.2.6. Barriers to innovation.....   | 166        |
| <b>CONCLUSION.....</b>   | <b>172</b> |
| <b>ANNEXES.....</b>  | <b>178</b> |
| Examples of best practices related to innovation and technology transfer in EU universities.....   | 178        |
| The main directions of innovative development of the higher education system.....  | 190        |
| Algorithm for developing a program for reforming the higher education system in the region.....  | 191        |
| The structure of the regional action plan for the sustainable development of the higher education system.....                                  | 198        |
| <b>REFERENCES.....</b>   | <b>206</b> |

**Nizamov Aslitdin Badreddinovich**

**Raxmatov Shuhrat Axatovich**

**OLY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION  
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

*Oliy o'quv yurti talabalari uchun qo'llanma*



NIZAMOV ASLITDIN BADREDDINOVICH-iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Magistratura bo‘limi boshlig‘i. O‘rindosh sifatida “Menejment” kafedrasida professori, 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi, jumladan 2 ta monografiya, 10 ta o‘quv qo‘llanma, 2ta darslik chop etgan. Bugungi kunda ta‘lim menejmenti sohasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda.



RAXMATOV SHUXRAT AXATOVICH-Buxoro muhandislik texnologiya instituti doktoranti. 10 dan ortiq uslubiy qo‘llanma, 1 ta monografiya, 30 ga yaqin maqola va tezislar hamda 3 ta o‘quv-uslubiy majmualar muallifi. “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Ekonometrika”, fanlaridan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni oliy ta‘lim tizimi talablariga mos ravishda olib bormoqda. Hozirda zamonaviy oliy ta‘lim muassasasida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda.